ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

1-son

(Yanvar-Fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Chet tillarini mukammal o‘rgatish va o‘rganish xalqaro maydonga keng yo‘l ochilishining kafolati
		TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
S. Maxmudov	6	Ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy omili – pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish
N. Abdullayeva	11	Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish muammolari
G. Berdaliyeva	15	Pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlarida axborotli yondashishning nazariy-metodologik asoslari
R. Turdiqulova	19	Mehnat bozori talablari asosida xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash
F. Tashpulatova	23	Chet tilini o‘qitishda prinsiplarga tayanish, kompetensiyalarga asoslanishni takomillashtirish (Ta’lim oluvchilarning tinglab tushunish malakalarini shakllantirish asosida)
M. To‘ychiyeva	29	Kommunikativ yondashuv asosida chet tilida muloqot qilish kompetensiyasini shakllantirishni takomillashtirish
Z. Nishanova	34	Talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda xorijiy tillarning o‘rni
I. Yunusxodjaev	38	Talabalarning mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish – chet tillarini o‘zlashtirishning asosiy omili
Sh. Yarmatov	42	Oliy ta’lim muassasalari talabalarini kasbiy tayyorgarligining nazariy asoslari
A. Xurramov	45	Bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish
		TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI
M. Mirzakarimova	50	Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik talablari
O. Nuriddinova	55	Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda matn tarkibidagi leksik va sintaktik birliklarning o‘ziga xosligi
O. Qurbonova	60	Nutqiy kompetensiya elementlarini o‘rgatishda nutqning o‘ziga xosligi
U. Yarlakabov, M. Alimov	65	Talabalarning hisoblash tafakkurini rivojlantirishning mantiqiy-funksional tuzilmasi
		TA’LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT
M. Sadikova	69	Uzluksiz ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘zlashtirish darajalariga qo‘yiladigan talablar
N. A. Sabirova	73	Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining yozma nutq malakalarini shakllantirish va baholash uslublari
		ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
U. Kurbanbaeva	77	Oliy ta’lim muassasalari talabalariga xorijiy tillarni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati
Sh. Xodjaeva	81	Xorijiy tillarni o‘rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediata’lim yutuqlaridan foydalanishning ahamiyati

N. K. Sabirova	86	Oliy ta’lim muassasalari chet tili darslarida audio-video materiallardan foydalanish
G. Joniqulova	90	Ta’lim oluvchilarning xorijiy tilda muloqot malakalarini rivojlantirishda multimedia vositalarining xususiyatlari
I. Hoshimov	94	Zamonaviy ta’lim faoliyatini tizimli ilmiy-uslubiy ta’minlash masalalari
G. Nafasov	97	Raqamli texnologiyalar asosida bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
N. Kurbanova	102	Xorijiy tillarni o‘qitishda milliy qadriyatlarimizga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati
		TA’LIMDA MENEJMENT
A. Saidov	106	Umumiy o‘rta ta’lim muassasasini boshqarishni takomillashtirishga oid nazariyalar
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
M. Saydivaliyeva	110	Sportchilarning ortiqcha mashq qilganligi va ortiqcha zo‘riqishining pedagogik-psixologik aspektlari
		MAKTABGACHA TA’LIM
Z. Jumaniyazova	116	Qoraqalpoq xalq o‘yinlari vositasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash
M. Ismatullayeva	121	Maktabgacha yoshdagi bolalarda tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir ayrim tavsiyalar
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
L. Namazbayeva	126	Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash sohasidagi xorijiy tajribalar tahlili
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK
D. Sharaxbarova	133	Atrof-muhit va inson salomatligi: chiqindilarning salbiy ta’sirlari
		МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Д. Юсупова	136	Методы развития практических навыков студентов медицинских вузов
		КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИЯ
Н. Хайруллаева	139	Анализ ошибок в письменной речи студентов при изучении иностранных языков

CHET TILLARINI MUKAMMAL O‘RGATISH VA O‘RGANISH XALQARO MAYDONGA KENG YO‘L OCHILISHINING KAFOLATI

Bugungi globallashuv sharoitida dunyo yangiliklarini o‘rganish va ularni sintez qilish, oqini qorasidan ajratib borish, albatta, muhim faoliyatdir. Darhaqiqat, til o‘rganish urushda g‘alabaning yarmi deyiladi. Tinchlik davrida ham qo‘shimcha til bilish ustunlik bersa beradiki, aslo ortiqchalik qilmaydi.

Globallashayotgan ta’lim endilikda ilm oluvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham butun dunyoda ta’limni va ilmiy izlanishlarni davom ettirish imkoniyatini yaratib bormoqda. Bu jarayon ta’lim muassasalari bitiruvchilarining turli dunyoviy bilimlarni chet tillarda bilishlaridan tashqari, o‘z kasblari haqidagi bilimlarni ham chet tillarda davom ettirishlariga imkon yaratadi.

Tilni o‘rgatish til o‘rganuvchining ehtiyojidan kelib chiqib, o‘rganayotgan tildan jonli tarzda foydalanish va turli muloqot ko‘nikmalari – eshitish, gapirish, o‘qish va yozishga moslashtirilgan holda amalga oshiriladi. Aynan shu tamoyil bugungi kunda xorijiy tillar, avvalo, eshitish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari ketma-ketligida o‘rgatilib borilishi ta’lim tizimi bitiruvchilarining mutaxassis sifatida ish boshlaganida, erkin muloqotda, bilimlarini yanada boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, bugungi kunga kelib jahonning eng ilg‘or ish uslublarini o‘zlashtirish uchun ham til asosiy vosita hisoblanadi. Zero, tarixdan ma’lumki, qaysi xalq vakillari qancha ko‘p til bilsa, shuncha tez va mukammal taraqqiyot yo‘liga chiqa olgan.

Albatta, Yurtboshimiz ilgari surayotgan tashabbuslar, amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlar provardida ilm-u ma’rifatli barkamol avlod bilan yurtimiz ravnaqi jahonga yuz tutib, o‘zining mustahkam o‘rniga ega bo‘ladi. Ta’lim va tarbiya jarayonini tubdan isloh qilish bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida e’tirof etilar ekan, har birimizning zimmamizga ilm-u ma’rifatli kelajak avlodni tarbiyalashdek ulkan mas’uliyatni yuklaydi.

Ko‘plab xorijiy mamlakatlar tomonidan ma’qullangan va aynan bizning o‘qitish modelimizga mos keladigan o‘quv uslublari va metodikalarni o‘rganish va tatbiq etish, mamlakatimiz yoshlarida nufuzli oliy o‘quv yurtlarida o‘qish imkonini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, o‘zimizning ta’lim tizimimizni tubdan isloh qilish, mentalitetimizga mos va chuqur o‘rganilgan o‘quv modelilimizni yaratish ham albatta muhim. Mamlakatimiz ta’lim tizimi uchun yildan yilga eng ilg‘or texnologiyalar asosida zamonaviy sharoitlar bilan boyitilgan muhitni yaratmoqda. Shu sababli ham o‘zimizning o‘quv modelimiz va metodikamizni yaratish va takomillashtirish, ta’lim dargohlarida joriy etish hamda nazoratini to‘laqonli olib borish umid qilamizki, o‘z samarasini beradi.

XX asr tilshunosligining mashhur namoyandalaridan biri Yevgeniy Dmitrievich Polivanov 46 tilni mukammal egallagan, o‘zbek tili va shevalarini o‘rganib, tahlil qilgan, do‘ppi, chopon kiyib, o‘zbeklar orasida o‘zbekday yurgan olim sanaladi. Yoki Jorj Smit – BMT sobiq bosh tarjimoni o‘ndan ziyod tillarni bilgan. U har yili bir mamlakat tilini o‘rganishga harakat qilgan.

Darhaqiqat, chet ellarda kishilar bilan uning ona tilida gaplashsangiz, bu ularga, vataniga, tarixiga chuqur hurmat ramzini ifodalaydi. Xalqaro munosabatlar rivojlanayot-

gan globallashuv davrida chet tillarni bilish katta siyosiy-madaniy jarayon sanaladi.

Vatandoshlarimiz Abu Nasr Farobiy, Beruniy, ibn Sinolar bir necha tillarni mukammal bilishgan. Qadimgi Movarounnahrda badiiy ijod turkiy, forsiy va arab tillarida bitilgan. Zero, xalqimizda ‘‘Til bilgan – el biladi’’, deb bejizga aytilmagan. Olim va sayyoh Hoji Yusuf Hay’atiy arab, ingliz, fors, fransuz va yunon tillarini mukammal bilgan. Adabiyotshunos olim va pedagog Ashurali Zohiriy esa arab va fors tillaridan tashqari, barcha turkiy tillarni, shuningdek, rus tilini yaxshi bilgan. U 1925-yilda “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”ni nashr etgan.

Darhaqiqat, xorijiy tilni egallash ta’lim, ilm-fan, iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotdagi globallashuvning yangi davri uchun asosiy kalit hisoblanadi.

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1913-yilda yozilib, o‘zi tashkil etgan “Oyna” jurnalining 1-sonida nashr etilgan “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida muallif ko‘p tilni bilish har bir turkistonlik uchun shartligi va shu orqali dunyoga chiqish mumkinligini uqtirishga harakat qilgan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy aytadiki, Turkiston o‘lkasida juda qadimdayoq uch til amal qilgan. Shunday ekan har qanday bilim, xususan, til bilish jihatidan ham ajdodlarimizning ko‘rsatgan yo‘lidan yurib, xalqimizning aslida naqadar ilmga chanqoq ekanligini ko‘rsatib qo‘yishimiz kerak. Birinchi o‘zbek professori Abdurauf Fitrat o‘zbek tilidan tashqari arab, rus, turk, fors tillarini mukammal bilgan. Ayni shu tillarni yaxshi bilgan shoir va yozuvchi Abdulhamid Cho‘lpon rus-tuzem maktabida nemis va fransuz tillaridan ham saboq olgan hamda keyinchalik o‘zining bu tillar borasidagi bilimlarini mustahkamlagan. Yigirma to‘rt yoshida Buxoro respublikasi, yigirma to‘qqiz yoshida esa O‘zbekiston hukumati rahbari bo‘lgan Fayzulla Xo‘jaev o‘zbek tilidan tashqari nemis, ozarbayjon, qozoq, rus, tatar, tojik tillarini mukammal bilgan.

O‘rta asr Sharq allomalarining aksariyati o‘ndan ortiq tilni mukammal bilganlar. Ular orasida ayniqsa, ulug‘ mutafakkir Abu Nasr Farobiy shunchalik ko‘p tilni bilganidan tarixiy manbalarda va xalq orasida, “Forobiy yetmishdan ortiq tilni biladi”, degan haqli e’tirofni olgan. O‘zbek ma’rifatparvari Is’hoqxon Ibrat arab, ingliz, rus, urdu, fors, fransuz, hind kabi o‘ndan ortiq tilni yaxshi bilgan. Bundan tashqari, u qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini chuqur o‘rgangan. Is’hoqxon Ibrat 1901-yilda o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida jamlangan “Lug‘at sitta as-sinna” (“Olti tilli lug‘at”) nomli kitob chop etgan.

Ma’rifatparvar jadidlar kishilarni horijiy tillarni o‘rganishga da’vat etganlar. O‘z ona tili bilan bir qatorda chet tillarini bilish o‘zga xalqlar tarixi, madaniyati, turmush tarzi, taraqqiyoti va tanazzuli sabablarini o‘rganishga imkon yaratgan.

Ma’lumki, boshqa tillarni bilish, o‘rganish hech qachon o‘z ona tilini kamsitish, esdan chiqarish, unutish hisobiga bo‘lmaydi. O‘z tilini mukammal bilgani va hurmat qilgani holda boshqa tillarni bilish va o‘rganish, ko‘p til bilish maqsadga muvofiq ekanligini unutmaslik kerak. Ana shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, boshqa tillarni o‘rganishga da’vat, avvalo, o‘z ona tilini ham bilishga, shu bilan birga, shu asosda, boshqa tillarga ham hurmatni shakllantirish, o‘rganishni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Boshqa tillarni o‘rganish zinhor o‘z ona tilini unutish, unga e’tiborsizlik bilan qarash, kamsitib munosabatda bo‘lish kabi illatlar hisobiga bo‘lmasligi kerak. Jahonga chiqishni ta’minlaydigan beshta, o‘nta tilni, ko‘prog‘ini ham o‘rganaylik.

Hozirgi kunda, ayniqsa, yoshlar boshqa tillarni ham bilishga da’vat etilayotgan ekan, bu ona tiliga e’tiborni pasaytirishni ko‘zda tutmaydi. Zero, kamida 2–3 tilni bilish ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolganligini yodda tutaylik.

Sarvar MAXMUDOV,
pedagogika fanlari doktori

TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHNING ASOSIY OMILI – PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirish bevosita pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalariga bog'liqligi, bugungi kunda o'qituvchi elektron madaniyat muhitida informatsion oqimlarni muvofiqlashtiruvchi, koordinator bo'lishi kerakligi, o'qituvchilarni tayyorlashda, ularda falsafiy va pedagogik dunyoqarashni, metodologik, didaktik, kommunikativ, metodik va boshqa zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish zarurligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif tomonidan o'qituvchining kasbiy kompetentlik modeli, ushbu modelni amalga oshirishda ta'lim muassasalari vazifalari, pedagoglarning o'z ustida ishlashlarining turlari, innovatsiyalarni tatbiq etishga tayyorlik deganda nima nazarda tutilayotganligini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Kompetentlik, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish, bilim, malaka va ko'nikmalar, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalari, yuqori kompyuter texnologiyalari, sun'iy ong, elektron madaniyat, pedagogik dunyoqarash, metodologik, didaktik, kommunikativ kompetensiyalar, kompentlik modeli, innovatsiya.

В статье освещается, что образовательный процесс напрямую связан с профессиональными компетенциями учителя, сегодня учитель должен быть координатором информационных потоков в среде электронной культуры. При подготовке учителей необходимо формировать у них философско-педагогические мировоззрения, методические, дидактические, коммуникативные компетенции. Также в статье описывается модель профессиональной компетентности учителей, задачи образовательных учреждений при реализации данной модели, виды деятельности самостоятельной работы учителя, готовность учителя к внедрению инноваций.

Ключевые слова. Компетентность, удовлетворение потребностей в образовании, знания, умения и навыки, профессиональные компетенции педагогов, высокие компьютерные технологии, искусственный интеллект, электронная культура, педагогическое мировоззрение, методические, дидактические, коммуникативные компетенции, модель компетентности, инновации.

The article highlights that the educational process is directly related to the professional competencies of the teacher, today the teacher should be the coordinator of information flows in the environment of electronic culture, in the preparation of teachers, their philosophical and pedagogical worldview, methodological, didactic, communicative, methodological, etc. the need for the formation of competencies is discussed . The article also describes the model of teachers' professional competence, the tasks of educational institutions in the implementation of this model, the types of activities in which teachers work on themselves, and the readiness to introduce innovations.

Key words. Competence, meeting the needs in education, knowledge, skills, professional competencies of teachers, high computer technology, artificial intelligence, electronic culture, pedagogical worldview, methodological, didactic, communicative competencies, competency model, innovations.

Bugungi kunda oldimizda turgan eng dolzarb vazifa ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirishdir. Ta'lim oluvchilarni samarali o'qishga, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, ta'limdan o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarni olishga qiziqtirish hamda kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblariga ta'luqli savollarga javob olishlarini ta'minlovchi yo'nalishlar, bilim, malaka va ko'nikmalar berishdir. Ushbu vazifalarni bajarish bevosita pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalariga bog'liq.

XXI asr – yuqori kompyuter texnologiyalari, sun'iy ongning rivojlanishi asri. Tan olish kerakki, bugungi kunda farzandlarimiz elektron madaniyat muhitida shakllanib borayapti, ushbu holatdan kelib chiqib, o'qituvchi elektron madaniyat muhitida informatsion oqimlarni muvofiqlashtiruvchi, koordinator bo'lishi kerak degan fikrdamiz. Shunday ekan, o'qituvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalarini mukammal egallagan bo'lishi zarur.

Yana bir haqiqatni aytishimiz kerak, bugungi kunda informatsiya jamiyatning strategik resursiga aylandi, bilim esa juda tez o'zgarib, eskirib qolmoqda. Bu esa bilimlarni doimo, uzluksiz yangilab borish kerakligi taqozo etadi. Ta'lim – bu uzluksiz jarayon ekanligi ayni haqiqatdir. O'qituvchi oldida turgan eng asosiy vazifa, doimo o'z ustida ishlab, dunyoqarashni kengaytirib, yangilab borish, bilimlarni chuqurlashtirish, o'quvchilarning aqliy faoliyatlarini faollashtirish, nutqlarini rivojlantirishlari talab etiladi.

An'anaviy ta'lim sxemasi "ta'lim beruvchi – ta'lim oluvchi – darslik" sxemasiga yana bir bo'g'in – "informatsion texnologiyalar"ni kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lib qoldi.

Shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatda pedagogning eng asosiy kasbiy sifati, ta'lim oluvchilarga doimo namoyish etishi zarur bo'lgan qobiliyat, bu – o'qishga o'rganish, o'qishga o'rgatish. Bundan kelib chiqib, o'qituvchilarni tayyorlashda, ularda falsafiy va pedagogik dunyoqarashni, metodologik, didaktik, kommunikativ, metodik va h.k. kompetensiyalarni shakllantirish zarur. O'qituvchi an'anaviy o'qitish texnologiyalaridan o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarga o'tishi, o'z faoliyatida loyihalashtirish, izlanishlar olib borish, informatsion-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, interfaol metodlar, faol o'qitish shakllaridan foydalana olishi kerak. Oxirgi yillardagi ilmiy izlanishlarni tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, o'qituvchining professionalligining va pedagogik mahoratining ajralmas qismi kasbiy kompetentlik deb belgilanmoqda.

Bizning fikrimizcha, kompetentlik – bu o'qituvchining noaniq pedagogik holatlarda o'zini tutish qobiliyati. Noaniq pedagogik holatlar qanchalik ko'p bo'lsa, o'qituvchining kompetensiyasi shunchalik yuqori bo'ladi. Kasbiy kompetentlik deganda yana, samarali pedagogik faoliyatda zarur bo'lgan kasbiy hamda insonning shaxsiy sifat va fazilatlarining umumlashgan yig'indisini tushunish kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda o'z fanini mukammal egallash pedagogning asosiy ko'rsatkichi emas. Zamonaviy pedagog o'z faoliyati natijalarini oldindan belgilay olishni, ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtirishni, pedagogik jarayonlarda har bir o'quvchining o'rnini belgilay olishni, pedagogik jarayonlardagi har qanday og'ishlarga profilaktik choralar qo'llashni hamda kelgusi faoliyatni korreksiya qilishni mukammal egallagan bo'lishi lozim.

Raqobatbardosh, zamonaviy o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoniga o'zining ilmiy hamda metodologik yutuqlarini olib kirib, bilim va malakalarni sintezlab, o'quvchining yaxlit fikrlash qobiliyatlarini shakllantira oladi.

Bugungi kun pedagogika fani raqobatbardosh, zamonaviy o‘qituvchini tarbiyalashga, shakllantirishga qaratilishi lozim ya’ni, yangi zamon o‘qituvchisi ta’limning yangi shakllari va metodlarini, texnologiyalarini innovatsion yondashuv asosida izlashga qodir bo‘lishi, keng duyoqarashga ega bo‘lishi, o‘z oldiga vazifalar qo‘yib, ularni hal etish yo‘llarini topa bilishi lozim. Shuningdek, u albatta, o‘z kasbiy faoliyatida ilmiy-tadqiqotchilik asosida fikrlashni, ilmiy-tadqiqot faoliyatini yuritishni hamda kasbiy vazifalarni bajarishda ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalaridan foydalanishni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ma’lumotlarni olishni, tahlil qilishni, ulardan kasbiy faoliyatda foydalana olishni bilishi zarur.

Albatta, bunday darajadagi pedagogni tayyorlash, ya’ni, yuqori kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lgan, pedagogik innovatsiyalarga tayyor, ularni amaliyotga joriy etishni biladigan, ta’lim oluvchilarni jamiyatning faol subyekti darajasida tayyorlashga qodir o‘qituvchini faqatgina oliy pedagogik ta’limni modernizatsiya, transformatsiya qilish orqali erishish mumkin.

O‘qituvchining kasbiy kompetentligi strukturasini, tuzilishini uning kasbiy malaka va ko‘nikmalari orqali ochish mumkin. O‘qituvchining kasbiy kompentlik modeli deganda, uning kasbiy faoliyatga nazariy va amaliy tayyorgarligining mutanosibligini tushunish kerak. O‘qituvchining kasbiy kompentlik modelini to‘rtta guruhga birlashtirish mumkin. Bular:

1. O‘quvchi shaxsi va o‘quvchilar jamoasini o‘rganib, ularning yangi bilimlarni faol egallashga tayyorgarlik darajalarni aniqlashni, shular asosida o‘quvchi shaxsi va o‘quvchilar jamoasini rivojlantirish strategiyasini loyihalashni, ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiriruvchi vazifalarni aniq belgilashni bilish.

2. Aniq, mantiqiy yakunlangan pedagogik tizimni ishlab chiqish va amalga oshirishni, ta’lim-tarbiya vazifalar majmuini rejalashtirishni, ta’lim jarayoni mazmunini asosli ravishda belgilashni hamda ta’lim shakli, metodlari va vositalarini optimalini tanlashni bilish.

3. Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun moddiy, ma’naviy-psixologik, tashkiliy, gigienik va h.k. sharoitlarni yaratishni, o‘quvchi shaxsini, o‘quvchi faoliyatini ta’lim-tarbiya jarayoni obyektidan, ta’lim-tarbiya jarayoni subyektiga o‘zgartirish uchun faollashtirishni bilish.

4. Pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish va baholashni, o‘z-o‘zini, o‘qituvchi faoliyati natijalarini baholashni, ta’lim jarayonini tahlil, monitoring qilishni, shulardan kelib chiqib, yangi pedagogik vazifalar majmuini belgilashni bilish.

Kasbiy kompetent o‘qituvchi deb, pedagogik faoliyatni, pedagogik muloqotni yuqori darajada amalga oshiruvchi, ta’lim oluvchilarga ta’lim-tarbiya berishda barqaror yuqori natijalarga erishuvchi o‘qituvchi tushuniladi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish deb, ta’lim beruvchining ijodiy individualligini rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga faollik bilan tatbiq etishni ta’minlashni hamda o‘zgaruvchan pedagogik muhitga moslashuvchanlikni shakllantirish nazarda tutiladi.

Zamonaviy jamiyatning, davlatning asosiy maqsadi o‘z vatanining, davlatining faol fuqarosini, jamiyat hayotiga ijtimoiy moslashuvchan, bo‘lg‘usi mehnat faoliyatiga tayyor, o‘z-o‘zini rivojlantirishga, muntazam o‘z bilim va malakasini rivojlantirishga intiluvchan shaxsni tayyorlash deb o‘ylaymiz.

Shunday ekan, bugun xalq ta’limi tizimiga kompetent, yuqori malakali, ijodiy fikrlovchi, raqobatbardosh, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotga moslashuvchan

shaxsni tarbiyalovchi o‘qituvchi talab etilmoqda.

Ushbu talabni qondirish uchun ta’lim muassasalari quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

· pedagoglarning o‘z ustida ishlashlari uchun sharoit yaratish, o‘z ustilarida ishlashlarini rag‘batlantirish choralarini ko‘rish;

· malaka oshirishga e’tiborni kuchaytirish;

· pedagogik xodimlarning egallab turgan lavozimlari va malaka kategoriyalari bo‘yicha attestatsiyaga e’tiborni kuchaytirish;

· metod birlashmalar, pedagogik kengashlar, seminarlar, konferensiyalar, master-klasslar tashkil etish va ularda faol ishtirok etish. Nazariy, ilmiy-amaliy konferensiyalarni muntazam tashkil etish tavsiya etiladi;

· zamonaviy ta’lim texnologiyalari, yangi metodik usullarni egllash va ularni doimiy takomillashtirib borish;

· informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish;

· muntazam ravishda har xil tanlovlar, ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok etish;

· shaxsiy pedagogik tajribalarni umumlashtirish va o‘rtoqlashish, yo‘nalish bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida maqolalar nashr qilish.

Ta’limdagi islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlarining hozirgi bosqichida, bu jarayonlarning barcha subyektaridan nafaqat global o‘zgarishlarni tezkorlik bilan qabul qilish, mohiyatini tushunib yetish balki, o‘z kasbiy faoliyatlarini qayta ko‘rib chiqib, kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarini tezkorlik bilan rivojlantirishlari zarur bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilarning, rahbarlarning yaqin kelajakdagi faoliyatlarini ijobiy bo‘lishligini, obro‘-e’tiborlarini oshishligini, raqobatbardosh bo‘lishlarini ta’minlaydi. Shuning uchun, pedagoglarning o‘z ustilarida muntazam ishlashlari, kasbiy kompetensiyalarini oshirib borishlari dolzarb pedagogik muammo bo‘lib qolmoqda.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, pedagogning eng asosiy kasbiy sifati o‘qishga o‘rganishni, o‘qishga o‘rgatishni faqatgina hayoti davomida o‘z ustida ishlaydigan, o‘qiydigan o‘qituvchi amalga oshira oladi.

Pedagoglarning o‘z ustida ishlashlari quyidagi faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi:

· uzluksiz malaka oshirish;

· zamonaviy pedagogik, psixologik texnologiyalarni o‘rganish;

· metod birlashmalar, pedagogik kengashlar, seminarlar, konferensiyalar, master-klasslarda qatnashish, hamkasblar darslariga tashrif buyurish;

· kasbiy yo‘nalishga taalluqli ommaviy axborot vositalaridagi materiallardan xabardor bo‘lish;

· pedagogik, metodik adabiyotlarni o‘qish;

· kasbiy yo‘nalishga taalluqli internet resurslaridan foydalanish;

· o‘z tajribalarini doimiy ravishda namoyish qilish;

· sog‘lom turmush tarziga amal qilish.

Pedagoglarning o‘z kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda ularning innovatsion faoliyatlari alohida o‘rin tutadi, innovatsiyalarni tatbiq etishga pedagoglarning tayyorlik darajalari ularning kasbiy rivojlanishlarini ta’minlashning asosiy shartidir.

Bugungi kun pedagogiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallaganligi yetarli emas, endi pedagoglar faoliyatini baholashning asosiy mezoni ularning innovatsiyalarni tatbiq etishga tayyorliklari turadi.

Innovatsiyalarni tatbiq etishga tayyorlik deganda nima nazarda tutilayapti:

· yangi avlod darsliklarini amaliyotga joriy etish;
· zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish;
· individual pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va tajriba-sinovdan o‘tkazish;
· tajriba-sinovdan o‘tgan pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish shuningdek, individual kasbiy sifatlarni rivojlantirishni, kasbiy tajribalarni to‘planishi, muntazam, uzluksiz o‘z ustida ishlashi hamda rivojlanishi nazarda tutadi.

Pedagog – ta’lim tizimini isloh qilishdagi asosiy bo‘g‘in ekanligini ta’kidlagan holda, ta’lim oluvchilarga sifatli ta’lim berishni, ularning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishni, o‘z tanlagan kasblari bo‘yicha savollarga javob olishlarini faqatgina professional pedagoglar amalga oshira oladilar. “Professional pedagog” nafaqat kasbiy, kommunikativ, informatsion, huquqiy kompetensiyalarga balki, yuqori insoniy fazilatlarga, sifatlarga ham ega bo‘lishi lozim.

Pedagoglik kasbini tanlagan har bir inson buyuk ma’rifatparvar, mutafakkir o‘qituvchi Abdulla Avloniyning “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrulmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur” hamda “Eng yomon kishilar ilmga amal qilmaydigan kishilardir. Agar tarbiya qiluvchi muallim olim bo‘lib amalsiz bo‘lsa, bu shogirdlar axloqiga yomon tasir ko‘rsatadi” degan fikrlarini doim yodda saqlashi va amal qilishi lozim. Zero, xalq pedagogikasiga tayangan holda yozilgan ‘‘Turkiy guliston yohud ahloq’’ kitobida, muallif, tarbiya tug‘ilishdan boshlanadi va hayotning oxirigacha davom etadi deydi hamda o‘qituvchining ta’limiga, iste’dodiga, dunyoqarashining kengligiga, shaxsiyatiga katta ahamiyat beradi. O‘quvchining fikrlash kuchi va kengligi o‘qituvchining qarashlari kengligiga bog‘liqligi, agar ustozlarning so‘zlari ularning ishlariga zid bo‘lsa, demak shogirdlar bunday axloqiy ta’limotlarga ishonishmasligini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. /Rasmiy nashr/ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. 112 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. /1-jild/ – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 592 b.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: ‘‘O‘qituvchi’’, 1992.
4. Maxmudov S.Yu. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish jarayonini innovatsion – variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Monografiya // S.Yu.Maxmudov.– T.:“IPAK YO‘LI POLIGRAF” MChJ bosmaxonasi. –2021.– 332 b.
5. Maxmudov S.Yu. “Xalq ta’limi” jurnali: Bir maqsad, bir maslak, bir asr // Monografiya. – T.: Xalq ta’limi tahririyati DUK nashri, 2018. – 196 b.
6. Makhmudov S., Innovative – variant approach to improving the qualification of pedagogical personnel as a main factor in providing the quality of education – European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Vol. 8 No. 12, 2020 Part, III.ISSN2056-5852 – P.199-205.

Nasibaxon ABDULLAYEVA,
Andijon davlat universiteti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi mudiri p.f.d. dotsent

TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TIZIMLI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishiga bevosita fan va texnikaning rivojlanishi bilan bog‘liq omillar ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Tarixdan ma’lumki, O‘zbekiston olimlari uzoq yillar davomida o‘zlarining intellektual salohiyati va bu borada erishayotgan yutuqlari bilan jahon ilm-fan ahlini o‘ziga jalb qilib kelgan. Ushbu maqolada o‘quvchilarning ilm-fan cho‘qqilarini zabt etish afzalliklari va nimalarga e’tibor berish kerakligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim-tarbiya, vatanparvarlik, Davlat, dastur, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, o‘qituvchi, milliylik, ma’naviyat, sinfdan tashqari ishlar, ta’lim muassasalari, pedagogika, qadriyat, tadbir, komil inson.

Факторы, непосредственно связанные с развитием науки и техники, оказывают существенное влияние на социально-экономическое развитие страны. Из истории известно, что ученые Узбекистана на протяжении многих лет привлекают ученых мира своим интеллектуальным потенциалом и достижениями в этой области. В данной статье объясняются преимущества овладения учащимися вершинами знаний и на что следует обратить внимание.

Ключевые слова. Воспитание, патриотизм, государство, программа, духовно-просветительское дело, учитель, национальность, духовность.

Factors directly related to the development of science and technology have a great impact on the socio-economic development of the country. It is known from history that the scientists of Uzbekistan have been attracting the world scientists for many years with their intellectual potential and achievements in this regard. This article describes the advantages of students' acquisition of the peaks of science and what to pay attention to.

Key words. Education, patriotism, state, program, spiritual and educational work, teacher, nationality, spirituality.

Uchinchi renesans davri bo‘sag‘asida turgan mamlakatimizda chuqur keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma’naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutgan.

Jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish-davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbiga butun Insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan birgalikda etilgan.

Bugungi kunda har bir sohada bo‘lgani kabi Xalq ta’limi tizimida ham ko‘plab o‘zgarishlar olib borilmoqda. Hozirgi davrda Ilm-fan rivoji xorijiy konferensiyalar va simpoziumlarda, xalqaro grantlardagi ilmiy loyihalarda, qo‘shma dasturlar tuzishda, shuningdek, mustaqillik yillarida asos solingan va alohida yo‘nalish sifatida rivojlanib borayotgan shaxsiy tashabbuslar, hamkorlik o‘rnatish yo‘llari orqali amalga oshirilmoqda.

Ta’limda yangi yondashuvlarni ilgari suradigan konsepsiyalar, Davlat ta’lim standarti (DTSlari), o‘quv dasturi, darsliklar, o‘quv adabiyotlarining yangi avlodi yaratilib, maktab amaliyotiga joriy etilmoqda. Bunda o‘quv jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va kafolatlangan natijalarga erishish yo‘llarini ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda o‘quvchi va talabaga nisbatan passiv obyekt emas, balki faol ishtirokchi sifatida qarash va har bir mashg‘ulotni ana shunday yondashuv asosida tashkil etish bugungi ta’lim siyosatining muhim talablaridan hisoblanadi. Bunday vaziyatda talabalarning bilimini baholash masalasi ham o‘ziga xos mazmun-mohiyat kasb etishi, shubhasiz. Ta’lim jarayonining ayni jihatiga bo‘lgan e’tibor va izlanishlar natijasi o‘laroq, yangi mexanizmlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi. Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi va milliy ta’lim-tarbiya sohamiz tajribalarini umumlashtirish natijasida yaratilgan bu mexanizmning afzalliklari bugun har bir pedagog xodimning ish jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi.

Joriy etilayotgan yangiliklarning samarasini monitoring qilib borish, uning natijalarini atroflicha tahlil qilish o‘quvchi va talabalarning bilimlarini o‘zlashtirishidagi bo‘shliqlarni har bir fan, har bir mavzu kesimida aniqlash va ularni bartaraf etishning aniq choratadbirlarini belgilash masalalari pedagogik jamoalarning doimiy diqqat markazida turishi kerak. Yuqorida sanab o‘tilgan o‘quv tarbiyaviy ishlardan tashqari maktablarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish ham bugungi kunning muhim vazifasi sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2020-yil 28-dekabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari faoliyatini takomillashtirish hamda ljodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimini joriy etish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarorining 1-bandiga asosan umumta’lim maktablarida ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi 0,5 shtat birligi joriy etilgan. Bugungi kunda Respublika bo‘yicha o‘n ming nafardan ortiq targ‘ibotchilar faoliyat yuritib kelmoqda.

Mazkur qo‘shma qarorda ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchining asosiy vazifalari belgilab berilgan bo‘lsa-da, o‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning faoliyat yo‘nalishlarini aniq belgilab beruvchi qo‘llanmaga ehtiyoj sezilmoqda. Bu borada ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchilarning o‘zlari tomonidan ham takliflar bildirilmoqda.

Mazkur sohani tubdan rivojlantirish, tizimli yondashuv yo‘lga qo‘yish, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim shakllantirish maqsadida tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish, jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni targ‘ibot-tashviqot qilish, oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlashda ilmiy asoslangan yondashuvlar, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy qo‘llanmalar yaratilmoqda.

Yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati O‘zbekistonda Davlat Mustaqilligini mustahkamlash, ona-Vatanni turli tahdidlardan himoya qilish, buyuk kelajakni barpo qilish, el-yurt faravonligini ta’minlashga qodir chinakam vatanparvar fuqarolarni ta’minlashga qaratilganligini ko‘rish mumkin.

Targ‘ibotchilar ishlarini yagona bir tizimga keltirib, soha mutaxassislari uchun us-

lubiy qo‘llanma yaratish bugunning dolzarb masalasi bo‘lib turibdi. Qolaversa, ta’lim jarayonini tashkil etish va sifatini ta’minlash va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish bilan bog‘liq yuzaga keladigan muammolarni o‘z vaqtida hal etishga viloyat ta’lim markazlari, tuman, shahar xalq ta’limi bo‘limlari, metodika kabinetlarida faoliyat yuritayotga metodistlar, shuningdek, ta’lim muassasalari direktorlari va Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘limlaridagi mutaxasislarni keng jalb etish ham yaxshi natija berishi, shubhasiz.

O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish bu doimiy tizimlilik, uzviylikni, davomiylikni talab etadi. Shuning uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yangi shakl va mazmunini boyitib borish talab etiladi. Lekin har qanday vaziyatda u buyuk tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, mustaqilligimiz g`oyalari asosida shakllanishi va rivojlanishi kerak.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar ayrim kishilar o‘ylagani kabi mavhum jarayon emas, balki aniq tizimga ega ijtimoiy hodisadir. Bu ish bilan har kuni, muntazam ravishda shug‘ullangan taqdirdagina u kutilgan natijani berishi mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning qadr-qimmatini, bugungi tinch-osoyishta hayotning asl mohiyatini anglash, yaxshi bilan yomonni ajrata olish, do‘st kim u dushman kimligini bilish – bu oson ish emas.

Barchamizga ma’lum bir haqiqat bor: hamma narsaning mazmun-mohiyati, ahamiyati taqqoslashda bilinadi. Shunday ekan, bizning ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimiz mamlakatimiz va jahonning hali u, hali bu davlatlari yu mintaqalarida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni solishtirish, ulardan muayyan, adolatli xulosalar chiqarishga undashi lozim.

Hammamizga ayonki, bugun dunyo mafkuraviy tahdidlar ostida qoldi. Shunday paytda “Kuchli mafkuraviy raqib”ga biz o‘zimizning milliy qadriyatlarimiz bilan yo‘g‘rilgan yuksak ma’naviyatimiz bilangina javob berishimiz mumkin. Ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy sohadagi vazifalar dunyodagi voqealarga mos ravishda o‘zgarib turadi. Bugungi mafkuraviy usul ertaga eskirmoqda, samarasi yo‘qolmoqda. Mafkuraviy sohadagi ishlarni yanada takomillashtirish esa bu borada tinimsiz izlanishni talab etadi. Bu borada Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, markaz tomonidan targ‘ibot-tashviqot ishlarining yangi, samarali, natijadorlikka asoslangan usul va uslublari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Unga ko‘ra, avvalgi an’anaviy targ‘ibot vositalaridan farqli ravishda, har bir yoshning ongi va qalbiga kirib borish maqsadida, elektron ommmaviy axborot vositalari, xususan, televideniye, radio hamda internet saytlari va messenjerlari, ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanishga yanada ko‘proq e’tibor qaratila boshlandi. Yoshlar o‘rtasida keng ommalashgan “E-yoshlar.uz” internet tanlovi hamda www.fikr.uz, www.mgm.uz, www.ziyonet.uzsaytlariga muntazam ravishda joylashtirib borilayotgan targ‘ibot materiallari shular jumlasidandir.

Ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot-tashviqot ishlari, xususan, yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq bugungi kunning o‘ta dolzarb masalalari nafaqat shu sohaning mutassaddilari, balki barchamizning, shu jumladan, barcha tashkilot, muassasa va idoralar, umuman olganda, butun jamoatchiligimiz oldida turgan muhim vazifadir. Nazarimizda, bu borada barcha tegishli tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, mazkur sohadagi parallelizm-takrorlanishlarning oldini olishni o‘ta muhim, deb hisoblaymiz. Yoshlar muammolarini hal etish, ularni turli ma’naviy va mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturlarining ijrosini so‘zsiz ta’minlashga alohida e’tibor

berishimiz lozim.

Bolalar va o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan, yakka tartibdagi ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish ularning bo‘sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy, estetik, ilmiy, textikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda sinfdan va maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ta’limni rivojlantirish, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

– ta’lim berish va kamol toptirishga yo‘naltirilgan xizmatlar ko‘rsatuvchi muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko‘paytirish;

– milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan va jahondagi ilg‘or tajribalarni inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;

– o‘quvchilarni bo‘sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan, ommaviy sport va jismoniy tarbiya sog‘lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.

Yuqoridagi belgilab berilgan vazifalarni ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sohasiga davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondashish, ishni sifat, mazmun jihatdan to‘g‘ri tashkil etishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida ish olib borayotgan har bir pedagogning faoliyatiga unga soha mutasaddilari tomonidan ko‘rsatilayotgan amaliy va metodik yordamga bog‘liq. Zero, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uning sifatini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli Qarori.

2. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at . Mualliflar: Abdullayev M., G.Abdurazzoqova va M.Abdullayeva umumiy tahriri ostida. – T.: Sharq, 2000.

3. Quronov M. Milliy tarbiya. Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi. Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: Ma’naviyat, 2007.

4. Dilshodbek Abdullayev. O‘quvchi yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning o‘rni. ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnali. 2022-yil 1-son.

5. Fozilov J., Sultonov R., Saidov H. O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish. – T.: Sharq, 2000

6. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiya asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 1996.

Gulasal BERDALIYEVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

PEDAGOG KADRLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONLARIDA AXBOROTLI YONDASHISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada pedagogik jarayonlarga axborotli yondashishning nazariy asoslari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ta’lim tizimi xodimlari uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni va axborotli yondashuvning nazariy asoslarining tuzilmasini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish, axborotli yondashish, rivojlanish jarayonlari, tuzilma, axborot-didaktik shakllar, mexanizmlarini takomillashtirish.

В статье рассматриваются теоретические основы информационного подхода к педагогическим процессам.Также автор упомянул факторы, влияющие на процессы непрерывного профессионального развития сотрудников в системе образования и структуру теоретических основ информационного подхода.

Ключевые слова. Непрерывное профиссиональное развитие, информационный подход, совершенствование процессов разработки, структуры, информационных и дидактических форм, механизмов.

The article discusses the theoretical foundations of an informative approach to pedagogical processes. Also, the author mentioned the factors affecting the processes of continuous professional development of employees in the educational system and the structure of the theoretical foundations of an informative approach.

Key words. Continuous professional development, Information approach, improvement of development processes, structure, information and didactic forms, mechanisms.

Zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanish davrida ta’lim tizimiga va unda faoliyat olib borayotgan zamonaviy o‘qituvchilarga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilmoqda. O‘qituvchi kasbiy mahoratini va faoliyati davomida uning yutuqlari, kamchiliklari va kelajakda o‘z oldiga qo‘ygan ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarini tahlil qilib pedagogik faoliyatni takomillashtirishdan iboratdir.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta’lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri – umumiy o‘rta ta’limning innovatsion axborot-didaktik shakllarini ilmiy tadqiq qilish hisoblanadi.

Ta’lim tizimi xodimlari uzluksizkasbiy rivojlanishjarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni, mavjud muammo va ziddiyatlarni hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash; uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonlarining o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligini ta’minlash asosida pedagogik tizimga xos xususiyatlarni o‘rganish; ta’lim tizimi komponentlarining o‘ziga xos xususiyatlariga mos ravishda ta’lim jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlovchi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish; pedagog kadrlarni uzluksiz

rivojlantirish tizimiga androgogik yondashuvning salohiyatidan foydalanish; pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda axborot-ta’lim muhitini yaratish; masofaviy ta’limni uzluksiz malaka oshirish jarayonlariga tatbiq etish va uni boshqarish; sifat va samaradorlikni ta’minlashda pedagog xodimlarning mustaqil faoliyatini muvofiqlashtirish; axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali elektron didaktik vositalarni ishlab chiqish; baholash mexanizmlarini takomillashtirish; tinglovchilar bilimini baholashning barcha uchun qulay bo‘lgan mexanizmlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Bugungi kunning talablariga javob berish uchun pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi: – ushbu tizimda yuz berayotgan haqiqiy jarayonlar va yechilishi lozim bo‘lgan muammolarni aks ettiradigan, asoslangan va yetarli darajada ishochli bo‘lgan metodologik bazani tanlash; malaka oshirish tizimining asosiy muammolari va ziddiyatlarini muayyan metodologik pozitsiyadan turib, uzluksiz kasbiy rivojlanishining asosiy g‘oyalari va tamoyillariga tayangan holda birgalikda ko‘rib chiqish; malaka oshirish tizimi rivojlanishining asosiy konseptual yo‘nalishlarini va ularni amalga oshirishning aniq takliflarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilishi lozim.

Pedagogik jarayonlarga axborotli yondashishning nazariy asoslari:

Yondashuv pedagogika metodologiyasining kategoriyasi sifatida, pedagogik paradigma va ta’lim nazariyasi o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib tasavvur qilinadi va muayyan belgilarning: – ta’lim jarayonida foydalaniladigan asosiy tushunchalar; ta’lim faoliyatini amalga oshirishning tayanch qoidalari sifatidagi tamoyillar; ta’lim jarayonini qurishning usullari va metodlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Axborotli yondashuv axborotlarni olish, o‘zgartirish, undan foydalanish jarayonlarini ko‘rib chiqish bilan va subyektlarni bir-birlari, shuningdek, axborot-ta’lim tizimida ularning bilish obyektlari bilan o‘zaro axborotli bog‘lanish tizimini ajratib olish harakatlari bilan bog‘liq.

Umumiy ko‘rinishda axborotli yondashuv obyektni muayyan tomondan o‘rganishni, tadqiqot natijalarini u yoki bu nazariy sohaga qo‘llagan holda qilingan xulosalarni maxsus ilmiy atamalar bilan taqdim etishni ko‘zda tutadi. Shundan kelib chiqib, uning asosiy vazifasi A.V.Slavinning ta’kidlashicha, axborot jarayonlarining umumiy tuzilmasini yoritish, axborotni sifatli o‘zgartirish usullari va amallarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Metodologik ko‘rsatma sifatidagi axborotli yondashuv, barcha jarayonlarni axborotlarni qayta ishlashning ham ketma-ket, ham parallel ravishda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Bu jarayonlarning har bir bosqichida axborot muayyan o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechiradi, uni kodlashtirish, filtrlash, anglash, fikrlash, qaror qabul qilish, javob harakatlarini ishlab chiqish amalga oshiriladi. Bu jarayonlarning natijalari, Yu.F.Abramovning fikricha, “axborotli borliqning o‘ta abstraktli modeli, tamoyillar darajasida umumlashtirilgan nazariy-axborotli bilim tizimi”ni qurishdan iboratdir.

Axborot nazariyasi doirasida axborotli yondashuvning metodologiyasi R.F.Abdeev, V.G.Afanasev, V.B.Guxman, I.V.Melik-Gaykazyan, V.I.Shtanko va boshqalar tomonidan faol ishlab chiqilmoqda.

Axborotli yondashuv metodologik ko‘rsatma sifatida hali endigina shakllanmoqda: uning mohiyati ochilmoqda, imkoniyatlari, rivojlanish kelajagi, qo‘llanish doirasiga baho berilmoqda. Shunga qaramay, bugunning o‘zida undan foydalanish tabiatni, jamiyatni, shuningdek, inson va uning ta’limi va tarbiyasini o‘rganish bilan bog‘liq ko‘pgina muammolarni yechishda ancha samarali bo‘lib ko‘rinadi.

Axborot nazariyasi rivojlanishining zamonaviy darajasi axborotli yondashuvning ba-

zaviy tushunchasi bo‘lgan axborot tushunchasi barcha uchun umumiylik xususiyatiga egaligi sababli so‘zsiz ravishda falsafiy kategoriyaga taalluqliligini isbotlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda axborot juda keng ma’noda tushuniladi. Axborot nazariyasi rivojlanishining yarim asrlik tarixga ega ekanligiga qaramay, fanda hozircha ushbu tushunchaga yagona tavsif mavjud emas. Axborotturlilik, noaniqlik, aks etish, energiya, tuzilma, tartiblilik va shu kabilar orqali talqin qilinadi.

Axborotli yondashuvning metodologlari axborot tushunchalari mavjud talqinlarining obyektiv asoslarini tan ola turib, shu vaqtning o‘zida ularning nisbatan haqiqiyligi to‘g‘risida fikr bildiradilar. Yagona talqin qilishning murakkabligi “klassik” fanning atamalari orqali “noklassik” fenomenni uning o‘ziga mos ravishda aks ettirishning mumkin emasligi; axborotli jarayonni tushunishda uning alohida qismlari, murakkablik darajalari va boshqalar nuqtayi nazaridan qamrab olmaydigan o‘ta tor empirik asosdan foydalanish bilan tushuntiriladi.

Bundan tashqari, axborot o‘z mohiyatiga ko‘ra, axborotli mazmunlar va ma’nolarning o‘zaro almashuvi va o‘zaro to‘ldiruvi jarayonini aks ettiruvchi shaxslararo va guruhli kommunikatsiya va kooperatsiya asosida yotishi tan olinadi. Umuman olganda esa, axborot va samarali axborot almashinuvi, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy manbalari va resurslari bo‘lib xizmat qilishi ilmiy va amaliy darajada yagona ma’noda tan olingan.

O‘qitishga bo‘lgan axborotli yondashuv nuqtayi nazardan uning tashqi (o‘qitishning kommunikativ tomonlarini ta’minlovchi axborotli jarayonlar) va ichki ko‘rinishi (atrofning ta’sir ko‘rsatishi ostida ta’lim oluvchilarning mental darajasida yuz beruvchi axborotli jarayonlar) ko‘rib chiqilishi lozim.

Ta’lim jarayoni axborotli tomonining qiymati zaruriy turli-tumanlikning obyektiv qonuniyati bilan aniqlanadi, u esa, har qanday o‘qitish tizimi faqat olingan axborot asosidagina maqsadli faoliyat ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

Ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarishning muammolari orasida quyidagilar ayniqsa qiziqroq: o‘quv axborotlari hajmini aniqlash, o‘quv mehnatining sarfi, o‘quv predmetlarini o‘rganishning ketma-ketligi, o‘qitishga sarflanadigan vaqtni me’yorlashni asoslash.

Bundan tashqari, axborotli yondashuv, axborot jarayonining turli bosqichlarini tanlashda ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatlarini tashkil etish usullari sifatidagi o‘qitish metodlari tushunchasini kengaytirish imkonini beradi.

Ta’kidlash muhimki, pedagogikada axborotlashtirishning umumiy konsepsiyasining qo‘llanilishi, ta’lim jarayonini pedagogik tadqiq qilishning an’anaviy yo‘nalishini uning ishtirokchilarining axborotli-ta’limiy muammolari jarayoni bilan almashtirish imkonini beradi.

Belgilash lozimki, hozircha axborotli-ta’limiy faoliyatning ozgina bo‘lsa ham to‘liq va bir butun konsepsiyasi mavjud emas. U o‘zining rivojlanish bosqichida turibdi.

Pedagogik hodisalardagi axborotli jarayonlarni ta’lim jarayonida axborotni olish, o‘zgartirish, uzatish va o‘zlashtirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz. Axborotli yondashuvni nazariy umumlashtirish sifatida asos (bazis), g‘oya va natijalarni ajratib olamiz.

Axborotli yondashuvning nazariy asoslarining bu tuzilmasini quyidagicha tavsiflaymiz:

– hozirgi zamon jamiyatini axborotlashtirish tendensiyalari;

– empirik negiz (axborotni uzatish, qayta ishlash, saqlash, o‘zgartirish tajribasi, uni umumlashtirish va qonuniyatlari);

– nazariy negiz: konseptual qoidalar, falsafiy, didaktik, psixologik, informatika va h.k. tushunchalar.

Xulosa qilib aytganda, axborotli yondashuv ilmiy tadqiqotning axborot tushunchasiga asoslangan zamonaviy yo‘nalishi hisoblanadi. Axborotli yondashuv o‘z ichiga ta’limni axborotlashtirish, fundamentallashtirish, uzluksizlashtirish tendensiyalarini oladi. Uni ta’lim jarayonida amalga oshirish masofaviy ta’lim elementlarini amaliyotda faol qo‘llash, mazmun va texnologiyalarni qaytadan ko‘rib chiqishga olib keladi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish nazariyasini pedagogik hodisalar va jarayonlarning butun majmuasi uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan umumilmiy metodologiya deb hisoblash mumkin.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish nazariyasi va amaliyotining eng muhim faktorlari ichida: fanlararolik, tadqiqotlarning taqqoslama xarakterdaligi, ilmiy-pedagogik bilimlarning integratsiyasi, ta’limni tadqiqot bilan birlashuvi, ko‘pbosqichli uzluksiz ta’lim tizimi o‘qituvchilarining tadqiqot faoliyatida yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash kabi o‘zaro bog‘langan faktorlar turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-maydagi PQ-1761-son qarori “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid choratadbirlar to‘g‘risida” /O‘zbekiston Respublikasi, 2012-yil №22 (522).

2. Каримов И.А. Гарантия нашей благополучной жизни – построение демократического правового государства, либеральной экономики и основ гражданского общества: Доклад на заседании Кабинета Министров, посвященном итогам сотсиально-экономического развития страны в 2006 году и важнейшим приоритетам углубления экономических реформ в 2007 году, Ташкент, 14 января, 2007.

3. Абдеев Р.Ф. Философия информатсионной сивилизатсии. – М.: ВЛАДОС, 1994. – С. 336.

4. Абдыллаева Г.О. Развитие дистансионного обучения в натсионалном вузе. Автореф. дисс… канд. пед. наук – М. 2009 – С.22.

Rayxon TURDIQULOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german filologiyasi fakulteti,
‘‘Ispan tili amaliy fanlar’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

MEHNAT BOZORI TALABLARI ASOSIDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI QO‘LLASH

Annotatsiya

Maqolada ta’limning nafaqat milliy, balki jahon ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini oshirish, mehnat bozori talablari asosida xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, o‘qituvchi va murabbiylar professional darajasining pastligi masalari yoritilgan. Shuningdek, jamiyatning turli sohalaridagi taraqqiyot natijasida chet tillarga bo‘lgan talab ortib, chet tilining o‘rni mustahkamlanib borayotganligi, mehnat bozorining asosiy talabi – chet tilida bemalol muloqot qila oladigan, kompyuter texnologiyalardan xabardor va innovatsion g‘oyalarga boy hamda o‘z uslubiga ega bo‘lgan kadrlar ekanligi, ta’lim jarayonida rivojlangan, samarali usullar, yangicha dasturlar, innovatsion metodlardan foydalangan holda chet tili o‘qitish zarurati ochib berilgan. Muallif timonidan ta’limning interfaol metodlari, shakllaridan foydalanish misollar asosida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim xizmatlari bozori, raqobatbardoshlik, mehnat bozori talablari, xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar, professional daraja, kompyuter texnologiyalari, innovatsion g‘oyalar, interfaol metodlar, shakllar.

В статье освещаются вопросы повышения конкурентоспособности образования не только на национальном, но и на мировом рынке образовательных услуг, применения инновационных подходов к обучению иностранным языкам на основе требований рынка труда, низкого профессионального уровня учителей и наставников. Также в результате прогресса в различных сферах жизни общества растет спрос на иностранные языки, укрепляется роль иностранного языка, основным спросом на рынке труда являются кадры, которые могут свободно общаться на иностранном языке, владеют компьютерными технологиями и обладают инновационными идеями, а также имеют свой собственный стиль, используют передовые, эффективные методы обучения, новые программы, инновационные методы. выявлена необходимость преподавания иностранного языка. С точки зрения автора использование интерактивных методов и форм обучения приводится на основе примеров.

Ключевые слова. Рынок образовательных услуг, конкурентоспособность, требования рынка труда, инновационные подходы к обучению иностранным языкам, профессиональному уровню, компьютерным технологиям, инновационным идеям, интерактивным методам, формы.

The article highlights the problems of increasing the competitiveness of education not only in the national, but also in the world market of educational services, the application of innovative approaches to teaching foreign languages, taking into account the requirements of the labor market, the low professional level of teachers. Also, the article discusses the development, increase in the demand of the labor market, employers for specialists with a sufficient level of knowledge of foreign languages. The author revealed that in the future the main demand of employers will be for personnel who are fluent in foreign languages, versed in computer technology, and for specialists with creative thinking. Examples are given of the use of interactive methods and forms of training for the formation of trainees' skills required by employers.

Key words. Educational services market, competitiveness, labor market requirements, innovative approaches to teaching foreign languages, professional level, computer technology, innovative ideas, interactive methods, forms of education.

O‘zbekistonda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida islohotlar amalga oshirilayotgan davrda ta’limning nafaqat milliy, balki jahon ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini oshirish talab etilmoqda. Chunki hududlarda yoshlarni ish bilan ta’minlash masalasi hamon eng dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari ochish, ularning halol mehnat qilib, daromad topish maqsadida ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining aksariyatini mehnat bozoridagi raqobatga dosh bera olmayotgani bilan bog‘liq muammolar ham oz emas.

Bu borada hududiy mehnat bozorining shakllanish tizimida bir qator muammolar mavjudligi kuzatilmoqdaki, ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: Mehnat bozoriga ilk bor kirayotgan yoshlarning olgan bilim va kasbiy ko‘nikmalarining mazmuni amaliyotga mos kelmayotgani, ya’ni mamlakatning innovatsion rivojlanish ehtiyojlari va mehnat bozori talablaridan ortda qolayotgani. Bevosita iqtisodiyotning real sektori va ta’lim tizimiga mutaxassis tayyorlaydigan ta’lim muassasalarining laboratoriya va ta’lim berish jihozlarining amaliyotdan orqada qolayotgani. O‘qituvchi va murabbiylar professional darajasining pastligi. Ta’lim muassasalarida o‘zlarining asosiy ta’lim yo‘nalishlaridan boshqa mutaxassislar tayyorlash yo‘nalishlarida byudjet resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi.

Yuzaga kelgan bunday vaziyat malakali mutaxasislarga bo‘lgan talab va taklifga ta’sir etuvchi quyidagi omillar bilan izohlanadi: hududiy mehnat bozori talab etadigan kasblar bo‘yicha mutaxassis tayyorlanmayotgani; yoshlarning egallagan kasbiga mos ish o‘rinlarining yetishmasligi yoki hududiy mehnat bozorida taklifning cheklanganligi; ish beruvchilar tomonidan taklif etilayotgan ish o‘rinlarida ish haqining kamligi; yoshlarni kasbga yo‘naltirish (an’anaviy kasb – turlaridan boshqa kasb turlari ham mavjudligi, ularning istiqboli) bo‘yicha ishlarning talab darajasida emasligi.

Keyingi yillarda jamiyatning turli sohalardagi taraqqiyot natijasida chet tillarga bo‘lgan talab ortib, chet tilining o‘rni mustahkamlanib bormoqda. Jahonga yuz tutgan ilg‘or davlatlar mehnat bozorining asosiy talabi – chet tilida bemalol muloqot qila oladigan, kompyuter texnologiyalardan xabardor va innovatsion g‘oyalarga boy hamda o‘z uslubiga ega bo‘lgan kadrlardir. Bugungi kunda mamlakatimizda chet tillarini o‘rgatish va o‘rganishga bo‘lgan e’tibor har qachongidan ham kuchliroqdir. Respublikamizda xorijiy tillarni o‘rgatishda ularni avval mavjud bo‘lganidek pedagogikaning ancha eskirib qolgan dasturlariga asoslanib o‘qitish emas, balki jahonning yetakchi davlatlari tajribalariga tayangan holda o‘qitish, ta’lim jarayonida rivojlangan, samarali usullar, yangicha dasturlar, innovatsion metodlardan foydalangan holda chet tili o‘qitish sifatini yaxshilash va shuning samarasi o‘laroq mamlakatimizni rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘sha oladigan, malakali kadrlarni, kasbining yetuk mutaxassislarini yetishtirish ta’lim dasturining asosiy mazmuniga aylandi.

Ta’lim muassasalarida chet tilini o‘rganishdan asosiy maqsad ta’lim oluvchilar o‘rtasida tilga bo‘lgan qiziqish faoliyatini orttirish va chet tilida muloqotni maktab davrida shakllantirishdan iborat. Ta’lim muassasalari dars beruvchi chet tili o‘qituvchisi ta’lim oluvchilar uchun imkon qadar darsni qiziqarli tarzda olib borishga harakat qilishi va ta’lim oluvchilarda ijobiylikni shakllantirish kerak bo‘ladi.

O‘qitishning interaktiv uslublari deyilganda birinchi navbatda talabaning o‘quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik uslublar majmui va texnik vositalar tizimi tushuniladi. Interaktiv uslubdagi mashg‘ulotda talaba berilayotgan ma’lumotlarni tinglashi, o‘qishi, ko‘rishi, yozib borishi, mavzu bo‘yicha

savollar berishi, o‘z fikrini erkin bayon etishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va o‘zining hayotiy tajribasi bilan bog‘lab, mavzu bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishi lozim.

Misol tariqasida chet tili, xususan ispan tili darsini o‘rgatishda boshlang‘ich darslarda “Motorischer Alphabet” metodini qo‘llash mumkin. Ispan alfabetini eshitish mashqlari orqali yod olgan o‘quvchi-talabalar tik turgan holda bu vazifani bajarishadi. Vazifada har bir harf tepasiga yozilgan o‘ng, chap, birgalikda ma’nosini anglatuvchi so‘zlarining bosh harflari yozilgan va talabalar o‘qituvchi yordamida harflarni aytish bilan birga harakatlarni ham bajarishi kerak bo‘ladi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bunday usullardan foydalangan holda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi.

Darsda interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qituvchi yordamida va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. Chet tillarini o‘qitishda asosiy e’tibor kommunikatsiyalarni rivojlantirish, muloqot qilish, aloqa jarayonida tilni o‘zlashtirishga qaratilish kerak. Bunda o‘quvchilarda o‘rganilayotgan tilga qiziqish qobiliyatini uyg‘otish, nutqni, fikrlashni rag‘batlantiradigan vaziyatni yaratish va talaba istagan mavzu bo‘yicha gapirishi, munozarada ishtirok etishi, tafsilotlarni aniqlashi mumkin. Nutq va fikrlash faoliyatini kuchaytirishda rolli o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Rolli o‘yinni faollashtirishda jarayonni beradigan tasavvur va xotira, hayotiy tajribada muloqot hissi uyg‘onadi va bu ta’lim samaradorligida talabalarda o‘rganilayotgan tilga nisbatan motivatsiya bo‘lishi, mavzuga qiziqish hissi o‘sishi sabab bo‘ladi.

Rolli o‘yin talabada nutqni rag‘batlantirishda faollik oshadi, chunki talabalar o‘zlarini shu vaziyatda bo‘lganda biron bir narsani aytishi, so‘rashi, mavzu haqida bilib olishi bilan birga suhbatdosh bilan nimanidir baham ko‘rish imkoniyatiga egadir.

Yuqoridagi aytilgan misollarning davomi sifatida chet tili boshlang‘ich darslarida tanishuv mavzusiga oid – salomlashish, ismi va yoshini so‘rash, qayerda yashashi haqidagi dialoglarni tinglash va kichik guruhlarda ishlagan holda o‘rganilgan so‘z birikmalarni gapda qo‘llash mumkin. Bunda talabalar o‘rganilgan so‘z birikmalarni bir-birlariga savol qilib berishlari va o‘z tengdoshining javoblarini eshitib,o‘zlari ham berilgan savollarga javob berishlari kerak bo‘ladi. Bunday vazifada talabalar dialog usulda savol-javob qilishlari yoki sherigi haqida uchinchi shaxsda gapirib berishi mumkin. Topshiriqda nafaqat o‘rganilgan so‘zlar qaytariladi, balki olmoshlar mavzusi ham takrorlanadi.

Chet tili darslarida talabalar bilan guruhlarga bo‘lingan holda ishlaganda beriladigan topshiriqlar alohida bir talabaga emas, balki barchaga talabalarga beriladi. Mikroguruhlarning har bir a’zosi topshiriqni bajarishda imkon qadar o‘z hissasini qo‘shishga harakat qiladi. Bu holat o‘quvchilarda jamoa bilan ishlash hissini uyg‘otadi va talabalarda tashabbuskorlik, ijodkorlikni orttiradi. Talabalarga chet tilini o‘qitishda multimedia, slayd shou, audio-video materiallardan foydalanish va talabalarni mikroguruhlarga bo‘lib ishlash, hamda guruhlarda eshittirilgan audio materialni muhokama qilish ham talabalarda chet tiliga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. Talabalar mikroguruhlarda ishlaganda o‘z kursdoshlarining mavzuga oid fikrlarini eshitishi va ularni fikriga qo‘shilishi yoki aksincha, o‘zlarining boshqa fikrda ekanligini bildirish orqali berilgan mavzuni muhokama qilishlari mumkin. Darslarda o‘qitishning har xil usullarini qo‘llash talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg‘otadi va ularning

faolligi ortadi va natijada o‘zlashtirish darajasi oshadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchi-talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim va ko‘nikmalar amaliyotda ham tadbiq etiladi. Buning uchun o‘qituvchi mahoratli va ijodkor bo‘lishi, mavzuning mazmuniga qarab darsni to‘g‘ri rejalashtirishi, dars davomida barcha talabalarni o‘z darsiga faol ishlashiga erishmog‘i kerak.

Darsda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o‘qituvchining ko‘p qirrali va rang-barang faoliyatini kompyuter zimmasiga yuklash emas, balki o‘quv jarayonini jadallashtirish,bilim olish amaliyotini faollashtirish, o‘quvchilarda chet tiliga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish va xalqaro ta’lim tajribasini o‘rganish va shu yo‘l bilan ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximov O.D., Turg‘unov O.M., Mustafaev Q.O. Ro‘ziyev H.J. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. –T., 2012.20-bet Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | CSPI CONFERENCE 2 | 2021 Innovative Technologies in Teaching Foreign Languages and Learner Assessment in Online Education Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region Google Scholar Scientific Library of Uzbekistan Academic Research, Uzbekistan 274 www.ares.uz.

2. Hasanboev J., To‘raqulov X.A., Alqarov I., Usmonov N.O‘. Is’yanov R.G., Yuzlikaev F. Pedagogika nazariyasi (Didaktika) – T., 2011-yil.

3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 150 b.

4. Ashurova D., Yuldashev Z. Ta’lim tizimida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo‘llash – zamon talabi // Xalq ta’limi. – T., 2006. – № 1. – 16-17-b.

Feruza TASHPULATOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german filologiyasi fakulteti,
‘‘Ispan tili nazariy fanlar’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

CHET TILINI O‘QITISHDA PRINSIPLARGA TAYANISH, KOMPETENSIYALARGA ASOSLANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

(Ta’lim oluvchilarning tinglab tushunish malakalarini shakllantirish asosida)

Annotatsiya

Maqolada chet tillarini o‘qitishda lingvistik hamda sotsiolingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish, o‘quv jarayoniga interfaol relevant o‘qitish metodlarini tadbiq qilish, zamonaviy multimedial o‘quv resurslarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish, o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish, ta’lim mazmunida belgilangan lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyalar orqali chet tilini o‘rgatish masalalari yoritilgan. Shuningdek, lingvistik kompetensiya, til kompetensiyasi, sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya hamda lingvistik prinsiplar, didaktik-pedagogik prinsiplar, psixologik prinsiplar tushunchalari ochib berilgan. Chet tilini o‘rganuvchiga tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini dastur doirasida o‘qib va tinglab-tushunishga yo‘llash, chet tillarini o‘qitishda o‘qituvchi uchun asosiy ko‘rsatmalar lingvodidaktik tamoyillar, tinglab tushunish bo‘yicha darsga oid ko‘rsatmalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyalar, interfaol relevant o‘qitish metodlari, zamonaviy multimedial o‘quv resurslari, o‘quv-metodik ta’minot, lingvistik prinsiplar, didaktik-pedagogik prinsiplar, psixologik prinsiplar, tinglab-tushunish, lingvodidaktik tamoyillar.

В статье расматриваются вопросы развития лингвистических и социолингвистических компетенций при обучении иностранным языкам, применение интерактивных методов обучения, актуальных для образовательного процесса, разработка и внедрение современных мультимедийных образовательных ресурсов, совершенствование учебно-методического обеспечения, вопросы обучения иностранного языка через лингвистические, социолингвистические и прагматические компетенции. Также, в статье раскрываются понятия лингвистической компетенции, языковой компетенции, социолингвистической компетенции, прагматической компетенции, лингвистических принципов, дидактико-педагогических принципов и психологических принципов.

Ключевые слова. Лингвистические, социолингвистические, прагматические компетенции, интерактивные методы обучения, современные мультимедийные образовательные ресурсы, учебно-методическое обеспечение, лингвистические принципы, дидактико-педагогические принципы, психологические принципы, лингводидактические принципы.

The article deals with the development of linguistic and sociolinguistic competencies in teaching foreign languages, the use of interactive teaching methods relevant to the educational process, the development and implementation of modern multimedia educational resources, the improvement of educational and methodological support, the issues of teaching a foreign language through linguistic, sociolinguistic and pragmatic competencies. Also, the article reveals the concepts of linguistic competence, sociolinguistic competence, pragmatic competence, linguistic principles, didactic-pedagogical principles and psychological principles.

Key words. Linguistic, sociolinguistic, pragmatic competencies, interactive teaching methods, modern multimedia educational resources, educational and methodological support, linguistic principles, didactic and pedagogical principles, psychological principles, linguodidactic principles.

Globallashuv nuqtayi nazardan qaralsa, bugun bashariyat, insoniyat hayoti, turmush asoslarining keskin o‘zgarishi bilan bog‘liq davrga guvoh bo‘lmoqda. Mazkur jarayon dunyo miqyosida jamiyatning barcha sohalarini qamrab olayotgan sharoitda, chet til ta’limi zimmasiga bir qancha muhim vazifalarni yukladi. Dunyo hamjamiyatida ta’lim muassasalarida yoshlarga sifatli ta’lim berish va malakali kadrlar tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ayniqsa, chet tillarini o‘qitishda lingvistik hamda sotsiolingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o‘quv jarayoniga interfaol relevant o‘qitish metodlarini tadbiq qilish, mashqlardan muvofiqlarini tanlash, zamonaviy multimedial o‘quv resurslar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilishning o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida chet tillarini o‘qitishda kompetensiyalarni shakllantirish, chet til o‘qitish ta’limini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib tashkil qilish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, CEFR malaka talablari bo‘yicha o‘quvchilarga chet tillarini o‘qitishda lingvistik, sotsiolingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish, zamonaviy o‘qitish usullarini erkin tanlash, lingvometodik mashqlardan va multimedial ta’lim dasturlaridan foydalanishning lingvodidaktik ta’minotini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi davr, xorijiy tillardan amaliy foydalanish samaradorligi chet til o‘quv predmetining ham, ta’limning ham asosiy muammosiga aylangan. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan muqobil o‘qitish texnologiyalarini tanlashga oid tadqiqotlar bilan bir qatorda, ta’lim oluvchilarga chet tillarini o‘qitish orqali intellektual salohiyatlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chet tillarini o‘qitish orqali kelajakda davlat nufuzini rivojlantirishga erisha oladigan yoshlarga ta’lim tarbiya-berish, ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan tarzda ta’lim sifatini oshirish, validitatsiyali mukammal darsliklarni yaratish hamda mavjudlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb qilmoqda. Chet til o‘quv predmetini o‘qitishda kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim, kelajakda bilimli, ma’naviyatli, salohiyatli, egallagan bilim va malakalarni amaliy qo‘llay oladigan kompetentli shaxs, kognezant, kommunikantni voyaga yetishiga asosiy omil bo‘la oladi.

Chet tillarini o‘qitishda kompetensiyalarni rivojlantirishning bir qancha omillari mavjud bo‘lib, ularga tegishli xorij tajribasi xususida nazariy tahlillar amalga oshirildi. Hozirgi paytda turli sohalarda faoliyat yurita oladigan barkamol shaxsning shakllanishi muhimdir. Globallashuv jarayoni shunday shaxsning qator sifatlarga ega bo‘lishini taqozo etmoqda: javobgarlik, ijodiy potensial, hayotiy vaziyatlarda konstruktiv va kompetentli harakatlar qabul qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi va boshqalar.

O‘zbekiston sharoitida DTS ta’lim mazmunida belgilangan lingvistik (nutqiy, til), sotsiolingvistik (ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o‘z ichiga oladi), pragmatik (ushbu kompetensiyaga disskurs singdiriladi) kompetensiyalar orqali chet til o‘rgatiladi. O‘tgan asrning oxirlarida chet tilni muloqot vositasi sifatida o‘rgatish-o‘rganish qonunlashtirilgan. Bunday metodik yondashuvga binoan, o‘rganilayotgan til sohibining madaniyatidan voqif bo‘lish taklifi o‘rtaga qo‘yildi. Tadqiqotda, chet til o‘rganuvchi tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini dastur doirasida o‘qib va tinglab-tushunishga yo‘llandi. Unda lisoniy minimumlar tilning leksikasi, grammatikasi va talaffuzi bo‘yicha maxsus lingvodidaktik prinsiplarga asoslangan holda tanlandi va o‘rganilayotgan tildagi madaniy stereotiplarni sinchiklab tanlash va ular orasidan o‘quvchining milliy qadriyatlariga mos keladiganlarini darslik va qo‘llanmalarga kiritish mumkinligi isbotlandi. Chet til o‘quv predmeti axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan birga hamohang o‘rgatilmoqda.

Shu yerda yangi tarmoq lingvotexnologiya – til o‘qitish texnologiyasi fanini e’tirof etish maqsadga muvofiq. Mazkur fan ham chet tilni belgilangan talablar asosida o‘qitishda beqiyos hissa qo‘sha olyapti deb bemalol aytish mumkin. Lingvodidaktika bu til o‘qitish nazariyasi deb qaralsa, lingvometodika esa, aniq bir til (ingliz, fransuz, nemis, ispan) ni o‘qitish ta’limoti sifatida farqlanadi. Chet tillarini o‘qitishda o‘qituvchi uchun asosiy ko‘rsatmalar lingvodidaktik tamoyillarga binoan aks ettiriladi. Mazkur tamoyillar quyidagilardan iborat. Ta’lim sharoiti, ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari va boshqalar. Chunonchi, ushbu murakkab jarayon o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligida kechadi. Chet tilini o‘qitish jarayoni murakkabligi, ko‘pqirraliligi va ko‘p omilligi bilan boshqa o‘quv fanlaridan farq qiladi.

Chet til bo‘yicha ta’lim mazmunini tashkil qilgan “Mavzular”, chet til o‘qitish mazmunining muhim tarkibiy qismi sanaladi hamda chet til o‘qitish metodikasidagi to‘rtta maqsadlarga asoslanib tanlanadi. Ta’lim mazmunida mavzular bilan bilan bir qatorda kompetensiyaviy yondashuv ham inobatga olinadi. Ular quyidagilar: lingvistik kompetensiya – nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv) va til (grafika va orfografiya, fonetik, leksik, grammatik); sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarni shakllantirish qayd qilingan. Chet tili bo‘yicha ta’lim mazmuni mavzular va quyidagi kompetensiyalar bo‘yicha ko‘nikmalarni egallashni nazarda tutadi:

Mavzular – kundalik hayotga oid mavzular (shaxsiy ma’lumot, oila haqida ma’lumot, bo‘sh vaqtni o‘tkazish va hokazo); Ijtimoiy hayotga oid mavzular (atrof-muhit bilan ijtimoiy aloqalar); Ta’limga oid mavzular (maktab, o‘qish va o‘qitish, maktabdagi fanlar va hokazo); Madaniyatga oid mavzular (O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlar tarixi, madaniyati va geografiyasi).

Lingvistik (nutqiy) kompetensiya to‘rtta nutq faoliyati turlari orqali rivojlantiriladi. Ushbu kompetensiya turida o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘ladilar: Tinglab tushunish bo‘yicha darsga oid ko‘rsatmalar va o‘qituvchi nutqi, hikoyalar, ob-havo ma’lumotlari, e’lonlar, TV va radio dasturlar, o‘rganilayotgan til sohibining tasmaga yozilgan nutqi (qo‘shiqlar, she’rlar, dialoglar va boshqalar)ni tinglash malakasiga ega bo‘ladi. Ushbu nutq faoliyati turida o‘quvchilar asosan, tushunish uchun tinglash, to‘liq batafsil tushunish uchun tinglash, muayyan masalalar yoki ma’lumotlar uchun tinglash kabi malakalarni o‘zlashtiradilar.

Gapirish bo‘yicha o‘quvchilar dialogik nutqda – rasmiy va norasmiy salomlashish, o‘zini tanishtirish, rozi bo‘lish va rad etish, gapni takrorlash va aniqlashtirishni iltimos qilish, ma’lumot olish va berish, tabriklash, taklif etish va taklifni qabul qilish/rad etish malakalariga; monolog nutqda – voqyea yoki tajribani sodda bayon qilish, qisqa hikoyani gapirib berish, yoshiga mos mavzuda sodda va qisqa taqdimot qilish, o‘rganilayotgan chet til materiali asosida qisqa hisobot berish kabi so‘zlashuv malakalariga ega bo‘ladilar. O‘qish bo‘yicha o‘quvchilar o‘rganilgan va o‘rganilayotgan til materialidan tashkil topgan qisqa matnlarni o‘qish, tarkibida ma’nosini taxmin qila olish mumkin bo‘lgan ba’zi yangi so‘zlardan iborat badiiy va media matnlarni o‘qish, qisqa xabarlardan iborat sodda xatlarni o‘qish, darsdan bo‘sh vaqtlarida sodda hikoyalar va she’rlarni o‘qish bilan shug‘ullanadilar.

Shuningdek, nutq faoliyatining mazkur turida chet tilidagi materiallarning umumiy mazmunini tushunish, ayrim ma’lumotlarni olish, tafsilotlarni tushunish va yo‘nalishni aniqlash uchun o‘qish (belgilar, yorliqlar va hokazo) kabi bilim, ko‘nikma va malakalar rivojlantiriladi. Yozuv bo‘yicha shaxsiy xatlar (qisqa xabarlar, tabriklar, eslatmalar, xatlar va hokazolar)ni yozish, sodda anketalarni shaxsiy ma’lumot bilan to‘ldirish kabi

malakalarni o‘zlashtiradilar.

Til kompetensiyasi bo‘yicha o‘quvchilar Grafika va orfografiya Punktuatsiya va orfografiya qoidalarini o‘rganishni takomillashtirish, Fonetik kompetensiyaga oid tovushlarni gapda va yakka holda tinglaganda farqlay olish, kommunikativ vaziyatlarda gapning kommunikativ turlari (darak, so‘roq, buyruq gap)ga mos ravishda ritm va intonatsiyadan to‘g‘ri foydalanish, til tovushlarini, gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish bilan birga nutqda ishlatishni mashq qilish, Leksik kompetensiyaga tegishli mavzuga oid so‘zlarni oddiy matnda to‘g‘ri ishlata olish, so‘z tuzilishi (qo‘shma so‘zlar va affiksatsiya), boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar (baynalminal so‘zlar) haqida ilk tushunchalarni shakllantirish hamda grammatik kompetensiya bo‘yicha so‘z turkumlari, sintaksisning asosiy qoidalari, fe’lning hozirgi, o‘tgan va kelasi zamon shakllari, aniq va majhul nisbat va boshqalarni o‘rganadilar.

Sotsiolingvistik kompetensiya bo‘yicha o‘quvchilar O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlar xalqlari madaniyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi hamda ba’zi masalalarning tilga bog‘liqligini anglaydi. Masalan, salomlashish odati, murojaat shakllari, xushmuomalalikning asosiy me’yorlari va hokazo, ijtimoiy vaziyatlarda imo-ishoraning ahamiyati va boshqalar.

Pragmatik kompetensiya bo‘yicha o‘quvchilar tanish vaziyatlarda kerakli til vositalarini tanlash, oddiy vaziyatlarda og‘zaki va yozma nutqda fikrlarni uzviy ifoda eta olish malakalarini egallaydilar.

Chet til o‘quv predmetiga oid yaratilgan bugungi kundagi darsliklar, dasturlar aynan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilganligi bilan katta e’tiborga loyiq. Ayni damda har bir fuqaro har qanday xorijiy tilni erkin o‘rganish ixtiyoriga ega. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, sog‘lom fikrli o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ikkita, uchta va ko‘plab xorijiy tilni o‘rganish imkoniyatiga ega. Biroq, xorijiy tilni egallash darajasi, o‘quvchining intellektual salohiyati va kundalik hayotda uni qo‘llash sharoitiga qarab turlicha kechadi. Shu nuqtayi nazardan, chet tilda kommunikatsiyani amalga oshirish muhim vazifa hisoblanadi.Har qanday chet tilni o‘rgatishda asosiy e’tiborni xorijiy til vositasida madaniyatga oid ma’lumotlarni inobatga olish lozim. Bularga o‘rganilayotgan mamlakat haqidagi an’analar, turmush tarzi, jamiyatda insonlarning yashash tarzi, o‘zga mamlakatlar tarixi, iqtisodi va yutuqlarini ifodalovchi barcha me’yoriy ma’lumotlarni o‘zlashtirish kiradi. Chet tillarini o‘qitishda prinsiplar o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish qoidalari bo‘lib, uzluksiz ta’lim bosqichlarida chet tillarni muvaffaqiyatli egallash garovidir.

Chet tillarini o‘qitishda lingvistik, didaktik-pedagogik, psixologik-psixolingvistik hamda sof metodik prinsiplar mavjud. Ushbu prinsiplar biri-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, qo‘yilgan o‘quv-metodik maqsadga erishishda dasturul amal vazifasini bajaradi hamda chet til o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan metodlar, usullar prinsiplarning vazifasiga qarab tanlanadi va tatbiq qilinadi.

Lingvistik prinsiplar quyidagicha umumiy tavsif qilinadi:

1. Ona tili tajribasini hisobga olish.

2. Tizimlilik. (Ba’zi olimlar didaktik prinsip deb hisoblashgan) Og‘zaki nutq va til materiallarini o‘qitish kommunikativ maqsadda tashkil qilinadi, grammatik birliklar leksik usullar orqali tanishtiriladi.

3. Konsentrizm. O‘quv materiali osondan qiyinga, mustahkamlashdan yangiga o‘tish orqali takrorlab kengaytirib borilishini nazarda tutadi.

4. Funksionallik. Til materiali ta’lim mazmuniga binoan tadbiq qilinadi. Grammatik material kommunikativ tarzda o‘rgatiladi. Mazkur prinsip chet til o‘qitish maqsadlariga ko‘ra belgilanadi.

5. Minimizatsiyalash yoki chegaralash. Nutq faoliyati turlari chet til egallash darajasiga binoan, chegaralab beriladi.

6. Aktiv (barcha nutq faoliyati turlarida qo‘llashda o‘rgatiladigan til materiali) til materiallari ustida ishlashni nazarda tutadi.

7. Passiv (tinglab tushunish va o‘qish nutq faoliyati turida qo‘llanilishi o‘rgatiladigan til materiallari) til materiallari ustida ishlashdan iborat.

8. Stilistik differensiatsiya. Turli nutq namunalari (ilmiy, badiiy, ommabop, rasmiy) ning o‘ziga xos jihatlarini inosbatga olish orqali chet til o‘rgatiladi.

9. Madaniyatlararo hamkorlikni inbatga olish.

10. Onglilik.

Didaktik-pedagogik prinsiplarning chet til o‘qitish metodikasiga tadbiqi quyidagicha:

1. O‘quv materialni hayot bilan bog‘lash.

2. O‘qituvchi ko‘magida o‘quvchining ongliligi va faolligi.

3. Tushunarlilik va soddalik.

4. Amaliyot va nazariyaning bog‘liqligi yoki ilmiylik.

5. O‘quv materiallarni tushunarli qilib yetkazib berish.

6. Ko‘rgazmalilik.

7. Malakalarni mustahkam egallash.

8. Fanlar bilan aloqadorlik.

9. O‘quv jarayonida o‘quvchining faol harakatlantirish ustunligi.

10. Puxta o‘zlashtirish.

11. Produktivlik.

12. Mobillik (operativlik) yoki faollik.

13. Individual.

14. Oson-qiyinlik yoki o‘quvchilar kuchiga moslik.

15. Madaniyatlarning o‘zaro ta’siri.

16. Qarorlar qabul qilishga o‘rgatish yoki umumiy dunyoqarashni rivojlantirish.

17. Mazmun va topshiriqqa binoan muqobil metod va vositalardan foydalanish va qo‘llash.

18. Ta’lim berish uchun kerakli sharoitni tanlash.

19. Estetik ruhda tarbiyalash.

20. Jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish.

21. Ta’lim berish orqali tarbiyalash.

Psixologik prinsiplar quyidagilar:

1. O‘quvchining ijodkorligi.

2. Verbalizatsiya (og‘zaki nutq ustida ishlash orqali o‘rgatish).

3. Korrelatsiya (nutq malakalarini egallash uchun til birliklari maxsus tanlanadi. Nutq mavzulariga tayanib ingliz tili o‘qitiladi).

4. Chet tilini o‘rganishda motivatsiya (qiziqish, moyillik).

5. Ichki motivatsiya va men prinsipi.

6. Nutq malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish.

7. O‘quvchining individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish (shaxsiy, sub'ektiv, individual).

8. Ataptatsiya jarayonini inobatga olish.

9. Dars jarayonida o‘qituvchi passiv individga aylanishi, o‘quvchilarni esa faol sub'ektga aylantirish.

Yuqoridagi prinsiplarga tayanib, tadqiqot ishi doirasida quyidagi psixologik-psixo-

lingvistik prinsiplar aniqlashtirildi:

1. O‘quvchining ijobiy emotsional xarakter xususiyatlariga tayanib ruhlantirish, rag‘batlantirish.

2. O‘quvchining avtonom (chet tilini nimaga o‘rganayotganligini tushunadi, o‘z zimmasidagi mas’uliyatni tushunadi, o‘rganganlarini takrorlay oladi va qanday darajada o‘rganganligini baholay oladi) xususiyatlarni rivojlantirish.

3. O‘quvchining yosh xususiyatlariga muvofiq o‘qitish usullarini tanlash.

4. O‘quvchilarning tili o‘rganilayotgan mamlakatlardagi tengdoshlari hayotidagi mavjud emotsional muammolarni qanday yengishlarini o‘rgatish.

5. O‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

6. O‘quvchilarning shaxsiy va individual qiziqishlarini inobatga olish.

7. O‘quvchilarning o‘ziga ishonish qobiliyatini rivojlantirish.

8. Diqqatni jalb qilish.

Sotsiolingvistik kompetensiya – kommunikantning shaxsiy xislatlari, autentik nutqning milliy xususiyatlarini, o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o‘rganilayotgan har bir xalq, millat vakillarining o‘ziga xos barqarorlashgan urf-odatlari, rasm-rusumlari bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Shaxsning uning qaysi millat, elat, etnik, diniy yoki madaniy muhitga tegishli ekanligini xis etgan tarzda kommunikatsiyani amalga oshirishga doir bilim, ko‘nikma va malakalari majmui mazkur kompetensiyani tashkil qiladi.

Pragmatik kompetensiya – so‘zlovchi/o‘quvchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish istagidan kelib chiqib, suhbat uchun yoki gapirish uchun kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash qobiliyati. Pragmatik kompetensiya chet til ta’limida ta’lim oluvchilarni kommunikativ vaziyatlarda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda so‘zlovchidan takroran so‘rash, uzr so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olishda namoyon bo‘ladi. Xususan, mazkur kompetensiya kommunikativ faoliyatda nutq maqsadidan (oshkora yoki yashirin) kelib chiqib, aniq nutqiy vaziyatlar – savol so‘rash, buyruq berish, maslahat, va’da berish, xayrlashish, tabrik bildirish, shikoyat qilish va boshqa vaziyatlarda kerakli nutq namunalaridan oqilona foydalanib, kommunikantning fikrini ifodalay olishni nazarda tutadi.

Diskurs kompetensiya – og‘zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta’minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini nazarda tutadi. Demak, o‘quvchi og‘zaki va yozma diskursda fikrlarini bir-biriga bog‘lagan holda kommunikatsiyaga mustaqil erisha olishni ko‘zda tutadi. Shuningdek, kommunikatsiya ishtirokchilari o‘z fikrlarini ifodalashda samimiy bo‘lish, yuz chehrasi harakatlarini ijobiy yoki salbiy ifodalash malakalarini o‘zlashtiradilar.

Chet tilini o‘qitishda prinsiplarga tayanish, kompetensiyalarga asoslanishni sifatni ta’minlashi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5117-son Qarori. – T., 2021-yil 19-may.

2. Jalolov J., “Chet tillar o‘qitish metodikasi”, “O‘qituvchi” – T., 2012, 10-bet.

3. Ахмедова М.Х. Типология упражнений для развития речи на неродном языке. // Молодой ученый. – 2016. – №1 (105). – С. 687–689.

Munira TO‘YCHIEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german filologiyasi fakulteti,
‘‘Ispan tili amaliy fanlar’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA CHET TILIDA MULOQOT QILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada insonning muloqot qobiliyatini, madaniy, ijtimoiy va informatsion qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qitishda lingvomadaniy yondashuv tufayli til o‘rganuvchilarning nafaqat tilni, balki tili o‘rganilayotgan xalqning an’analari va urf-odatlarini o‘rganish, kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lish, muloqotning holatini baholash, tahlil qilish kompetensiyasi, kommunikativ salohiyatni baholash, zarur qarorlarni qabul qilish masalalari bayon etilgan. Shuningdek, muallif tomonidan kommunikativ metod, kommunikativ ta’limda o‘quvchilarni muloqotga o‘rgatishning samarali ekanligi, kommunikativlikka (muloqotga) o‘rgatishning lingvodidaktik, psixologik, metodik asoslari, tamoyillari, vosita va usullari, muloqot etikasi, autentik materiallardan foydalanish atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Muloqot qobiliyati, madaniy, ijtimoiy va informatsion qobiliyatlar, lingvomadaniy yondashuv, xalqning an’analari va urf-odatlari, kommunikativ qobiliyat, tahlil qilish kompetensiyasi, kommunikativ salohiyat, kommunikativ metod, lingvodidaktika, tamoyillar, vosita va usullari, muloqot etikasi, autentik materiallar.

В статье излагаются вопросы развития коммуникативных способностей человека, культурных, социальных и информационно-коммуникативных способностей, приобретения изучающими язык в силу лингвокультурного подхода к обучению не только языка, но и традиций и обычаев народа, для которого изучается язык, приобретения коммуникативных способностей, оценки состояния общения, аналитической компетентности, оценки коммуникативного потенциала, принятия необходимых решений. Также автором подробно рассмотрен коммуникативный метод, эффективность обучения учащихся общению в коммуникативном обучении, лингводидактические, психологические, методические основы, принципы, средства и методы обучения коммуникативности (общению), этика общения, использование аутентичного материала.

Ключевые слова. Коммуникативные способности, культурологические, социальные и информационные способности, лингвокультурологический подход, традиции и обычаи народа, аналитическая компетентность, коммуникативный потенциал, коммуникативный метод, лингводидактика, принципы, средства и методы, этика общения, аутентичные материалы.

The article presents the issues of the development of human communicative abilities, cultural, social and information-communicative abilities, acquisition by language learners due to the linguocultural approach to teaching not only the language, but also the traditions and customs of the people for whom the language is being studied, acquisition of communicative abilities, assessment of the state of communication, analytical competence, assessment of communicative potential, adoption of the necessary solutions. The author also considers in detail the communicative method, the effectiveness of teaching students to communicate in communicative learning, linguodidactic, psychological, methodological foundations, principles, means and methods of teaching communication (communication), the ethics of communication, the use of authentic material.

Key words. Communication skills, culturological, social and informational abilities, linguoculturological approach, traditions and customs of the people, analytical competence, communicative potential, communicative method, linguodidactics, principles, means and methods, ethics of communication, authentic materials.

Til madaniyatning asosiy ifoda birligi bo‘lib, ayni vaqtda madaniyatlararo muloqot jarayonida asosiy vazifani bajaradi. Davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirilishi chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytiradi. Hozirgi vaqtda ta’limni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri – insonning muloqot qobiliyatini, madaniy, ijtimoiy va informatsion qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liqdir. O‘qitishda lingvomadaniy yondashuv tufayli til o‘rganuvchilar nafaqat tilni, balki tili o‘rganilayotgan xalqning an’analari va urf-odatlarini o‘rganadi, boshqa madaniyatga nisbatan hurmatda bo‘lib, o‘z madaniy merosimiz orqali boshqa xalqlarning e’tiqodlarini hurmat qila boshlaydi.

Chet tillarni o‘qitishning pragmatik jihati talabalarning bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, ularning bilimlari o‘rganilayotgan davlatning etnik madaniy qadriyatlari bilan tanishish va madaniyatlararo tushunish va idrok sharoitida chet tilini amaliy qo‘llash imkonini beradi. Bunday bilimlar, ko‘nikmalar va qobiliyatlarning kombinatsiyasi o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasidir.

Muloqot konsepsiyasi odamning ilmiy va shaxslararo muloqot qobiliyatlari o‘rtasida davom etayotgan urinishlar natijasidir. Kommunikativ yondashuv asosida, chet tillarini o‘rganish jarayonida chet tilida muloqot qilish kompetensiyasini shakllantirish yoki boshqa so‘z bilan aytganda kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lish kerak. Kommunikativ yondashuv nutqning barcha turlarini ishlatish kompetensiyasini bildiradi: o‘qish, tinglash, nutq (monolog, dialog), yozish. Chet tilda muloqot jarayoni faqat axborotni uzatish va olish jarayoni sifatida emas, balki kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, muloqotning holatini baholash, tahlil qilish kompetensiyasi, kommunikativ salohiyatini baholab, zarur qarorlarni qabul qilish kabi turli xil o‘zaro ta’sirlarni o‘rnatishdir.

Chet tilda kommunikativ kompetensiya – til, og‘zaki va ijtimoiy-madaniy bilim, ko‘nikma va qobiliyatga ega bo‘lgan ma’lum bir darajadir, bu esa o‘quvchining aloqa sharoitlariga bog‘liq ravishda og‘zaki xatti-harakatlarini o‘zgartirishi uchun kommunikativ ravishda maqbul va maqsadga muvofiq bo‘lishiga imkon beradi. Chet tilida muloqot kompetensiyasi kommunitiv madaniy rivojlanish uchun asos yaratadi. O‘tgan asrning oxirlarida chet tillarni o‘qitish nazariyasi va amaliyotida yangi bir yo‘nalish paydo bo‘ldi.

“Kommunikativ metod” nomini olgan bu yo‘nalish keyinchalik “kommunikativ metod”, “Kommunikativlikka o‘rgatish”, “Kommunikativlikka yo‘naltirilgan ta’lim” atamalari bilan yuritila boshlandi va o‘quvchilar o‘quv faoliyatini interfaol usullarda tashkil qilishning muhim omili sifatida tabora ommalasha boshladi. An’anaviy o‘qitish metodikasida xorijiy tillarni o‘qitishdan asosiy maqsad o‘quvchilarning nutq faoliyatining to‘rt turiga: gapirishga, eshitib tushunishga, o‘qish va yozishga o‘rgatish bosh maqsad qilib belgilangan bo‘lsa, kommunikativ ta’limda o‘quvchilarni muloqotga o‘rgatish asosiy maqsad qilib belgilana boshlandi.

Natijada metodik adabiyotlarda kommunikativlikka (muloqatga) o‘rgatishning lingvodidaktik, psixologik, metodik asoslari, tamoyillari, vosita va usullari keng va atroflicha tadqiq qilina boshlandi. Kommunikativ yondashuvning an’anaviy o‘qitishdan farqi. Kommunikativ topshiriqlar orqali o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarish an’anaviy o‘qitish metodikasidan farqli ularoq o‘quv materialining talaffuzini, yangi leksikasini, grammatik materialini, eshitib va o‘qib tushuniladigan matnlarini, fikrni yozma bayon qilish usullarini muloqot jarayonida kompleks o‘zlashtirishni ko‘zda tutiladi. Ya’ni, o‘quvchi kommunikativ topshiriqni bajarishni mashq qilayotgan

jarayonidayoq undagi leksik birliklarning talaffuzini, anglatgan ma'nosini, grammatik-sintaktik tuzilishini, jumla tuzilishidagi o'ziga xosliklarni egallab oladi. Topshiriq nutq darajasida o'zlashtirilganidan keyingina uning grafik ifodalanishini o'qib tushinishga, o'rganilgan axborot haqida fikrini yozma bayon qilishga va nihoyat undagi fonetik-grammatik qoidalarni o'rganishga kirishadi.

O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani, ya'ni suhbatga kirisha olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish, odatda, ko'pgina pedagogik va psixologik omillardan samarali foydalanishga bog'liq. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish nutq faoliyatiga o'rgatish jarayonida nutqiy faoliyat usullarini o'rgatuvchi kommunikativ topshiriqlar orqali tashkil qilinadi. Bunday topshiriqlar o'qituvchi tomonidan tayyorlanib, ularni bajarishning psixologik va metodik omillari belgilanadi. Ta'lim jarayonini insonparvarlik ruhida tashkil qilish har bir o'quvchining shaxsini va o'quv faoliyatini erkin ravishda shakllanishiga tegishli shart-sharoitlar yaratilishini taqozo qiladi.

Ta'lim oluvchilar guruhi ichida, o'qituvchi-o'quvchilar o'rtasida o'rnatilgan samimiy, erkin munosabatlar, quvnoq va shodon kayfiyat, o'zaro hayrixohlik, beg'araz yordam aynan ana shunday psixologik omillardir. Bunday psixologik omillardan foydalanmaslik o'quvchini xato qilib qo'ysa, qattiq tanqid eshitishidan qo'rqadigan, yomon baho olsa, tengdoshlariga mazah bo'lishdan qo'rqadigan, tortinchoq, o'z fikrini aytishdan uyaladigan o'quvchi qilib qo'yadi. Tabiiyki, bunday o'quvchilarning nutqi ham yaxshi rivojlanmay qoladi. O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllanishiga va rivojlanishiga yo'naltirilgan kommunikativ ta'limda quyidagi psixologik omillarga asosiy e'tibor qaratiladi:

1. Ta'lim oluvchilarga muloqot jarayonida o'z shaxsiy fikrlarini erkin ravishda ifodalash imkoniyati beriladi.

2. Muloqotning har bir ishtirokchisi o'z suhbatdoshining (guruh a'zolarining) diqqat e'tiborida bo'ladi. Bunday muloqotda o'quvchilarning noto'g'ri, qarama-qarshi va mantiqqa zid fikrlari ham qo'llab-quvvatlanadi. Chunki, bularning hammasi o'quvchilarning mustaqil fikrlayotganidan, faol o'quv faoliyatiga kirishganidan dalolat beradi.

3. Muloqot ishtirokchilari o'zlarini tanqid qilishlaridan, xatolarga yo'l qo'yishliklaridan cho'chimaslikka o'rganadilar.

4. Muloqot topshirig'ini juft bo'lib yoki guruh bo'lib bajarishda har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qobiliyati va o'zlashtirish darajalari hisobga olinadi.

5. Juftliklararo, guruhlararo munosabatlar samimiy, do'stona yordam, o'zaro birbirlariga hayrixohlik, bir-birini tushunish ruhida tashkil qilinadi.

6. Muloqot jarayonida yo'l qo'yilgan til normalarining buzilishi, noto'g'ri talaffuzlar o'sha vaqtning o'zidayoq to'g'rilanmaydi va gapirishdan to'xtatib qo'yilmaydi. Bunday xatolar o'qutuvchi tomonidan hisobga olib boriladi va ularni asta-sekinlik bilan bartaraf qilish choralari ko'riladi.

Shunday qilib, o'quv jarayonini insonparvarlik ruhida tashkil qilinishi salbiy ta'sir etuvchi psixologik g'ovlarning bartaraf etilishiga va o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllanishga olib keladi. Muloqot etikasini egallashga o'rgatish. Muloqot jarayonida kommunikativ topshiriqdagi fonetik, grammatik belgilarni idrok qilish taqlidiy o'zlashtirish yoki yod olish orqali amalga oshiriladi.Taqlidiy o'zlashtirish, eshitilgan jumla mazmunini audio-vizual vositalar yordamida idrok qilish orqali tashkil qilinadi. Yod olish esa kommunikativ topshiriqni bajargandan keyin o'zlashtirilgan og'zaki nutq materiali asosida uyushtirilsa, yaxshi natija beradi. An'anaviy o'qitishda so'zlar ifodalagan ma'noni tushunmasdan yodlatish usuli mavjud ediki, bunday yod-

latish xotirada uzoq saqlanmasligi bilan xarakterlanadi. Eshitib tushunilgan nutq materiali ko‘p martalik takror asosida mustahkamlangach, bu o‘quvchiga o‘z fikrini mazmunli ifodalash usullarini, ma’lum bir nutq vaziyatlarida suhbatdoshiga nimani gapirishni, qanday gapirish usullarini egallashga yordam beradi. Suhbatdosh bilan muloqot o‘rnata olish qobiliyatini shakllantirish esa jumlalarni bir-biriga bog‘lash, suhbatdosh fikrini intiutiv anglash, unga tasdiq, inkor, so‘roq formalarda munosabat bildira olish formalarini egallashga o‘rgatish orqali tashkil qilinadi. O‘z suhbatdoshining diqqat e’tiborini o‘ziga qaratish formulalarini o‘rganib olish; O‘z fikrini mimika va jestlar orqali tushuntirish usullarini egallash; “Fikrimni tushuntira oldimmi?”, “Men to‘g‘ri tushundimmi?, “Meni tushundingizmi?” kabi ko‘p ishlatiladigan muloqot formulalaridan foydalanishga o‘rgatish; Zarur so‘z topilmay qolganida, uni turli usullar bilan, perifraza qilish, harakat, imo-ishora, mimika va jest orqali ifodalashga o‘rgatish; Gap strukturasini soddalashtirib gapirishga o‘rgatish; Gapirishda xato qilib qo‘ysa, suhbatdoshidan uni to‘g‘rilab berishni iltimos qilishdan uyalmaslikka o‘rgatish; Kerakli vaziyatda suhbat mavzusini o‘zgartirib, uni davom ettirish usullarini egallashga o‘rgatish. Bu o‘rinda kommunikativ topshiriqni bajarayotgan juftlik yoki guruhning sinfda qanday joylashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir ta’lim ouvchi o‘z suhbatdoshining qiyofasidagi samimiylik, beg‘arazlik, xayrixohlik alomatlarini ko‘rib turishi, bu uni suhbatga, fikr bildirishga rag‘batlantirishini unutmaslik kerak. Shu sababli kommunikativ topshiriqni bajarishda o‘quvchilarni sinfda uch usulda joylashtirish tavsiya qilinadi:

- Yonma-yon o‘tirgan ta’lim ouvchilardan juftliklar tuzish;
- Stollarni doira shaklida joylashtirish;
- Har bir ta’lim ouvchilar guruhini alohida o‘tqazish.

Auditoriyada tashkil qilingan guruhlar doira shaklida joylashtirilsa, guruhlararo muloqot uyushtirish uchun, o‘qituvchi bilan munosabatga kirishish uchun eng qulay shart-sharoit yaratilgan bo‘ladi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish turli o‘yinlar, intermedialar, kulguli yumor va hazillar orqali ham tashkil qilinishi mumkin. O‘yin, kulgili latifalar orqali shakllangan kommunikativ kompetensiya o‘quvchi shaxsida o‘z-o‘zini anglash, o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalanishga urinish, xorijiy tilda tortinmasdan gapirish orqali tengdoshlariga o‘zini ko‘rsatib qo‘yish kabi ijobiy sifatlarni shakllanishiga yordam beradi. Zero, respublikamiznig kadrlar tayyorlash borasidagi kelgusi rejalarida ham o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning bizdanda ko‘ra aqlli, zakovatliroq, kirishimliroq bo‘lib yetishishlari lozimligi ta’kidlanadi.

Xorijiy tilni o‘qitishda lingvomadaniy kompetentlikni shakllantirish, talabalarni kasbiy yunalish doirasida tilning og‘zaki va yozma shakllarini o‘rgatish, ularning ijtimoiy-madaniy muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan o‘rganilayotgan chet tilining funksional shakllari va uslublarini, til to‘g‘risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtiradi. Bundan tashqari talabalarning xorijiy til bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo‘llay olishlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Madaniyatlararo yondashuvning asosiy vazifasi umum e’tirof etilgan xalqaro me’yorlarga ko‘ra talabalarning o‘rganilayotgan chet tilini yetarli darajada egallashlari uchun zaruriy bilimlarni integrallashgan tarzda o‘rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Lingvomadaniy kompetentlik, xalqaro madaniy kompetentlik, madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutning til o‘rganish va o‘qitishdagi ahamiyati, lingvomadaniy kompetentlikning ekstralingvistik jihatlari (dunyoqarash, marosimlar, urf-odatlar, inson a’zolari tili (jestlar), tabular, stereotiplar, ko‘pmillatli madaniyatlarda jamiyatning

o‘rni, imidj, ramzlar), lingvomadaniy kompetentlikni shakllantirishda madaniyatga xos xususiyatlarni (salomlashuv, mulozamatni aks ettirish yo‘llari, murojaat qilish yo‘llari, idiomalar va hokazo) o‘rinli ishlatish, o‘zga til madaniyatiga hos jihatlarni o‘qitish uchun o‘quv materiallari yaratish, mavjudlarini tahlil qilish, moslashtirish malakalarini egallashga yordam beradi.

Aytish mumkinki, xorijiy tilni o‘qitishda lingvomadaniy kompetentlikni shakllantirish orqali talabalarni kasbiy y‘nalish doirasida tilning og‘zaki va yozma shakllarini o‘rgatish, ularning ijtimoiy-madaniy muloqot malakalarini rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Darslarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodi va chet tilini o‘qitishga kommunikativ yondashuvdan maksimal darajada foydalanishni talab etiladi. Mashg‘ulotlarda darslik va o‘quv qo‘llanmalardan tashqari autentik materiallar: audio, video, gazeta va jurnallar, internet manbalaridan, interaktiv usullarni qo‘llagan holda aqliy hujum, keys-stadi, loyihalar tayyorlash, rolli o‘yin, debatlar va prezentatsiyalardan keng foydalaniladi. Tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati va o‘z madaniyatlarini qiyoslash va taqqoslash malakasini rivojlantiradilar. Madaniy muhitning tilni qo‘llashdagi ta’siri haqidagi o‘z tushunchalarini oshiradilar. O‘zga madaniyatni tushunish va unga nisbatan bag‘rikenglik xislatini shakllantiradilar. Lingvomadaniy kompetentlikni rivojlantirish orqali real hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar ham rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N., Usmonboeva M., Mirsoliyeva M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. UMK. – T., 2016.
2. Yusupov O‘.Q. Tilshunoslikda yangi yo‘nalishlar va ularda ishlatiladigan ayrim istilohlar // Filologiya masalalari. – 2011. – № 2.
3. Астапова Н.О. Лингвистические аспекты межкультурной коммуникации. - Барнаул, 2007. – С. 256.
4. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание: Пер. с англ. - М.: Рус. словари, 1996. – С. 411.
5. Гальскова, Н. Д. Современная методика обучения иностранным языкам: пособие для учителя / Н. Д. Гальскова. - М.: АРКТИ, 2003. – С. 192.
6. Елизарова, Г. В. Формирование межкультурной компетенции у студентов в процессе обучения иностранным языкам: автореф. / Г. Р. Елизарова. – С-П, 2001. – С. 16.
7. Казарцева О.М. Культура речевого общения: теория и практика обучения: Учеб. пособие / О.М. Казарцева, – М., 2005. – С. 210.

Zulayxo NISHANOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german filologiyasi fakulteti,
‘‘Ispan tili amaliy fanlar’’ kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TILLARNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada chet tilini o‘qitish jarayonida talabalarning kognitiv mustaqilligini ta’minlash, muloqot malakalarini shakllantirish, nutq faoliyati rivojlantirish, pedagogik faoliyatdagi qiyinchiliklar, lingvodidaktika va chet tillarni o‘qitish metodikasining asosiy yo‘nalishlari, mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, talabalarining bilish faoliyatini faollashtirishda motivatsiyani, chet tilini o‘qitishda ijodkorlik, mustaqillik va samaradorlikni oshirish yo‘llari, xorijiy tillarni o‘qitishning shaxsiy-faoliyatli yondashuvining afzalliklari, informatsion-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ishlashning amaliy shakllari ham talabalarning bilish mustaqilligi va ijodkorligini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Kognitiv mustaqillikni ta’minlash, muloqot malakalari, nutq faoliyati, lingvodidaktika, chet tillarni o‘qitish metodikasi, mustaqil ta’lim, faollashtirish, bilish faoliyati, motivatsiya, samaradorlik, informatsion-kommunikatsion texnologiyalar, ijodkorlik.

В статье рассматриваются вопросы обеспечения познавательной самостоятельности студентов в процессе обучения иностранному языку, формирования коммуникативных навыков, развития речевой деятельности, затруднений в педагогической деятельности, основных направлений лингводидактики и методики обучения иностранному языку, активизации самостоятельной учебной деятельности. Также, в статье рассмотрены пути повышения мотивации, креативности, самостоятельности и эффективности в обучении иностранному языку, преимущества личностно-деятельностного подхода к обучению иностранным языкам, практические формы самостоятельной работы с использованием информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова. Обеспечение познавательной самостоятельности, коммуникативные навыки, речевая деятельность, языковая дидактика, методика обучения иностранному языку, самостоятельное обучение, активизация, познавательная деятельность, мотивация, работоспособность, информационно-коммуникационные технологии, креативность.

The article deals with the issues of ensuring the cognitive independence of students in the process of teaching a foreign language, the formation of communication skills, the development of speech activity, difficulties in pedagogical activity, the main directions of linguodidactics and methods of teaching a foreign language, and the activation of independent learning activities. Also, the article discusses ways to increase motivation, creativity, independence and effectiveness in teaching a foreign language, the advantages of a personal-activity approach to teaching foreign languages, practical forms of independent work using information and communication technologies.

Key words. Ensuring cognitive independence, communication skills, speech activity, language didactics, methods of teaching a foreign language, independent learning, activation, cognitive activity, motivation, performance, information and communication technologies, creativity.

Til murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u nafaqat tilshunoslik uchun, balki boshqa bir qator fanlar: falsafa, psixologiya, pedagogika, mantiq, tarix uchun ham bir necha bor o‘rganish predmeti bo‘lib kelgan. Bu fanlar tilga qiziqishi

shundaki, u inson kognitiv faoliyatining ajralmas shartidir va dunyoni bilish jarayoni tilning shakllari va toifalarida aks etadi. Pedagogika tilni o‘rganish usullariga e’tibor beradi, o‘qitishning mazmuni va usullarini aniqlaydi. Til-fikrlarimiz, his-tuyg‘ularimiz va munosabatlarimizni ifodalashga yordam beradigan ramzlar tizimi. T. Gamble ta’kidlaganidek, biz tilga bog‘liqmiz, chunki u bizga bilish, fikrlash, so‘zlarning ma’nosi yordamida qaror qabul qilishni, o‘zaro bog‘liqlik yordamida o‘rganish, o‘ylashni yordam beradi.

So‘zlarning o‘zaro munosabati va ularning ma’nolari tilning ishini tashkil qiladi. Til yordamida odamlar fikr almashadilar va o‘zaro tushunishga erishadilar. O‘zaro tushunish asosida barcha moddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratiladi, ularsiz zamonaviy odamlarning hayoti tasavvur qilinmaydi. Til ijtimoiy hodisa bo‘lgani uchun tilshunoslikni tabiiy emas, balki ijtimoiy fan deb hisoblash kerak (N.I. Gez, B.Yu. Gorodetskiy, Yu.N. Karaulov, A.Ye. Kibrik, Yu.Ye. Proxorov, E. Sepir, G.N. Filonov, N. Xomskiy). Bilishning o‘ziga xos xususiyatlari butunlay ko‘p tillik hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. L.S. Vigotskiyning yozishicha, til bilishning roli turli belgilar tizimlari orqali ijro etiladi, ular bilan ishlash usullari esa xatti-harakatlar texnologiyasiga bog‘liq. Ushbu harakat jarayoni bog‘langan shaxsiy ma’nolar tizimining rivojlanishini ifodalaydi, ya’ni, poliglot (ko‘p tilli) shaxsning shakllanishiga olib keladi (A. N. Leontev).

Poliglot shaxsning rivojlanishi bir qator ketma-ket aloqalardan iborat uzluksiz jarayon bo‘lib, uning sifat xususiyatlari muayyan sharoit va shartlarga bog‘liq. “Kognitiv mustaqillik” tushunchasining mazmuni ko‘pgina psixologik va pedagogik ilmiy ishlarida ochib berilgan. Aksariyat mualliflar uni yangi bilimlarni egallash va uni turli vaziyatlarda ijodiy qo‘llash qobiliyatini bunday ishga intilish bilan birlashtirgan shaxs sifati deb hisoblaydilar. Bizning nuqtayi nazarimizda, bu hodisa talabaning shaxsiy sifatining uchta tarkibiy qism birligini birlashtirgan: bilim, qiymat va faoliyat. Bu qismlar bir-biriga o‘zaro shartli bog‘langan, chunki bilim topishga intilish mumkin, lekin talabalar tomonidan chet tilini o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan ‘‘to‘siqlar’’ (qiyinchiliklar) tufayli uni chiqarib bo‘lmaydi.

Shuning uchun biz qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini universitetda chet tilini o‘qitish jarayonida talabalarning kognitiv mustaqilligini ta’minlaydigan muhim holat deb hisoblaymiz. Ushbu muammo va ish tajribasining nazariy tahlili qiyinchiliklarning sabablarini ko‘rib chiqish va ularni bartaraf etish yo‘llarini topish imkonini beradi, shu orqali talabalarning bilish mustaqilligini samarali rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi.

Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi, talaba va guruh ichidagi talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonidagi qiyinchiliklar ularga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning sabablarini aniqlash uchun juda intensiv tekshiriladi. Ushbu qiyinchiliklarning o‘quv faoliyati uchun ahamiyati ham o‘rganiladi. Muloqotdagi qiyinchilik (faoliyat) – shaxs tomonidan subyektiv ravishda bashorat qilingan (rejalashtirilgan) muloqotni amalga oshirishda ‘‘muvaffaqiyatsizlik’’ holati, uning harakatlari, matn (xabar) ni tushunmaslik, o‘z psixologik holati va boshqalarni tushunmaslik, kommunikativ vaziyatni o‘zgartirish. Qiyinchiliklar faoliyatning uzilishi, to‘xtatilishi, ularni bartaraf etishning ilojisi yo‘q shakllarida namoyon etiladi.

Faoliyat jarayonida qiyinchiliklar paydo bo‘lishi va uni anglash, pedagogik faoliyatda qiyinchilik inson intellektual faoliyatini faollashtirish omili sifatida qaralishi mumkin, mavjud qiyinchilik holatidan yangi vositalar va yo‘llarni qidirishni rag‘batlantiradi. Shunga ko‘ra, faoliyat jarayonida qiyinchilikning ijobiy va salbiy funksiyalari farqlanadi. Nutq faoliyati rivojlanishining turli jihatlariga bag‘ishlangan ko‘pgina tadqiqotlarda e’tibor xatolarda namoyon bo‘ladigan ‘‘zaif nuqtalarni’’ o‘rganish dolzarbligiga qaratiladi.

Hozirgi kunda lingvodidaktika va chet tillarni o‘qitish metodikasining asosiy yo‘nalishlaridan biri oliy ta’limda talabalarning mustaqil ta’lim-bilish faoliyatini faollashtirish. Ushbu sohadagi tadqiqotlar butun o‘quv jarayonini talabaning shaxsiyati, uning ehtiyojlari, til o‘rganishda ‘‘zaif 286 nuqtalarni’’ o‘rganish, motivlari va qobiliyatlariga muvofiq e’tiborga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Mustaqil kognitiv faoliyati tadqiqotchilar tomonidan ‘‘mustaqil va ongli rejalashtirish, o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek, uni yanada o‘z-o‘zini aks ettirish va o‘z-o‘zini tuzatish’’, deb qabul qilinadi. Universitet talabalarining bilish faoliyatini faollashtirishda motivatsiyani, chet tilini o‘qitishda ijodkorlik, mustaqillik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan jarayoni tashkil etilishi zarur.

Tadqiqotchilar bilish faoliyatni faollashtirishning turli vosita, usullar, texnologiyalar va tashkiliy shakllarini aniqladilar. Vositalarning tanlanishi tilni bilish darajasiga, talabalarning individual psixologik xususiyatlariga, o‘quv maqsadlariga va o‘quv materialining tabiatiga bog‘liq.Talabalarning avvalgi hayotiy tajribasi, jumladan, xorijiy tillarni o‘rganish, shuningdek, kasbiy, ijtimoiy, maishiy omillar va shaxsiy vaqtning yetishmasligi, ta’limni tashkil etishda hisobga olish kerak.

Talabalar chet tilini turli xil o‘rganishadilar, bu o‘z navbatida muvaffaqiyatsizlikka duch kelishidan qo‘rquvga va motivatsiyaning pasayishiga bir omil bo‘lishi mumkin. Shunday vaqtda, o‘qituvchi tomonidan talabani qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro yordam va sheriklik muhitini yaratish, motivatsiya va faollikni oshirishda yordam beradi. Bir akadem guruh ichida chet tilini bilish darajasi turli xil va va turli ta’lim maqsadlarda bo‘ladi. O‘qituvchi o‘qitish uslublarini shu xususiyatlari va motivlarini hisobga olishi zarur. Individual hamda tashqi omillar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, o‘qitishning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlashda, ularni hal qilish talab etilganda, kouching (murabbiylik) texnologiyasidan foydalansa maqsadga muvofiq.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida, o‘qituvchi nafaqat yo‘l yo‘riq, nasihat berish, darslarni tashkil qilish, boshqarish balki talabaga yunaltiruvchi texnologiyalarni qo‘llash, vositachi, maslahatchi sifatida harakat qilish va o‘quv jarayonni osonlashtirish kerak. O‘qituvchi rolidagi bunday o‘zgarishlar metodik rivojlanish natijasi bo‘lib, kommunikativ kompetensiya tushunchasini ishlab chiqish bilan ham bog‘liqdir.

O‘qituvchi ko‘proq maslahatchi bo‘lishi kerak, degan fikr ilmiy munozaralarda muhokama qilinib kelmoqda. Ushbu paradigmada o‘qituvchi tahlil qiladigan, tashxislaydigan, nazorat qiladigan o‘qituvchi bo‘lishi kerak va talabalarga o‘zini-o‘zi tahlil qilish va o‘zini rivojlantirish, o‘z ishlarini nazorat qilish, bilim jarayonlariga va ularning ta’lim mazmuniga ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lib shakllantirishga undash kerak. Tadqiqotimizda ‘‘faollashtirish vositalari’’ning o‘ziga xos xususiyatlarini talabaning kognitiv mustaqilligi – ‘‘Chet tili (ispan tili)’’ o‘quv predmetini o‘zlashtirganda ta’kidlash lozim. Talabalarning kognitiv mustaqilligini faollashtirish uchun pedagogik faoliyat ‘‘kontekstual yondashuv’’ asosida faol o‘rganish doirasida tarqatilishi mumkin, o‘quv va kognitiv faoliyatni muntazam ravishda kasbiy va pedagogikaga aylantirishi mumkin.

Chet tilini o‘qitishda talabalar bilish mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi individual kommunikativ vazifalarni bajaradilar. Bunday topshiriqlardan mustaqil ishning auditoriya shakllarida ham, mustaqil ishning auditoriyadan tashqari shakllarida ham foydalanish mumkin.

Binobarin, mustaqil ish oqilona auditoriya va auditoriyadan tashqari shakllari, yagona o‘zaro bog‘liq tizimiga, ularning integratsiya to‘laqonli bilimi, ijodiy fikrlashi, ta’lim, optimal usullari va intellektual ishi, kognitiv mustaqilligi va faoliyati texnikasi ijobiy

munosabatini shakllantirishga hissa qo‘shgan talabalarning umumlashgan xususiyatlari sifatida tashkil qilinishidadir. Tadqiqotimizda ishlab chiqilgan texnologiyaning didaktik xususiyatlari bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy yo‘naltirilgan xorijiy tilini o‘qitishning nazariy asosi sifatida shaxsiy-faoliyat yondashuvining asosli afzalliklaridan kelib chiqadi.

Talaba pedagogik ta’sir obyektidan bilish faoliyati subyektiga aylanadi. U mustaqil pedagogik ijod sharoitida o‘zini topadi: qo‘yilgan vazifalarni hal etish yo‘llarini izlaydi, bilim va malakaga ega bo‘lishiga intiladi. Kasbiy yo‘naltirilgan chet tili nutqiy muloqotini o‘qitish jarayoni tashqi ta’sirlardan ma’lum bir mustaqillikni ta’minlovchi aqliy faoliyatni aktuallashtirishga asoslanadi.

Talabalar o‘qituvchi bilan birgalikda ijod qilishda shaxsiy vaziyatlar va ularni hal etish uchun sharoit yaratadilar, amalga oshirishning barcha mumkin bo‘lgan aqliy va axloqiy usullaridan foydalanadilar. Bilimlarni mustaqil egallash, o‘z-o‘zini ko‘nikmalarini shakllantirish uchun bir vaqtning o‘zida yaratilgan muhit didaktik komponent – chet tilidagi kasbiy nutq o‘quv materialini konkretlashtirish orqali ta’minlanadi va u orqali mashg‘ulotlar olib boriladi.

O‘quv jarayonida talabalarning faolligi prognozli texnologiyaning zaruriy mezoni sifatida chet tili nutq aloqasining invariant va kasbiy yo‘naltirilgan komponentlarining o‘rni nisbatini belgilaydi. Bu ko‘plab mualliflarning ishlarida qayd etilgan – V.I. Andreev (ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun evristika), J.L.Vitmen (kattalarga chet tilini o‘rgatish), K.B.yesipovich (o‘rta maktabda xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini boshqarish asoslari), R.P.Milrud va I.R.Maksimova (R.I.Milrud), I.P.Tretyakov va I.B.Onovskiy (modulli ta’lim texnologiyalari) M.O.Faenova (muloqot madaniyatini o‘rgatish) va boshqalar. Pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarda chet tilini o‘rganishning pedagogik vazifasi chet tilida shaxslararo muloqot mazmuni va usullarini o‘zlashtirishga qaratilgan, ammo uning mahsulotidagi kognitiv faoliyat salohiyatini ro‘yobga chiqarishning pedagogik (didaktik) vositasi sifatida aniqlanadi - ularning ijtimoiy va kasbiy faoliyatining mas’ul subyekti shaxsining kognitiv mustaqilligidir.

Tajribamiz ko‘rsatadiki, yangi axborot va informatsion-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ishlashning amaliy shakllari ham talabalarning bilish mustaqilligi va ijodkorligini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar ochib bermoqda. O‘quv jarayonida bilish vositasi sifatida yangi axborot texnologiyalari va kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish talabalarning kognitiv mustaqilligini aktivlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mardonov Sh. Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Фан, 2006. – 232 b.

2. Давыдова М.А. Деятельностная методика обучения иностранным языкам /М.А.Давыдов. – М.: Высш. шк., 1990. – С. 176.

3. Есипович К.Б. Управление познавательной деятельностью учащихся при изучении иностранных языков в средней школе / К.Б. Есипович. – М. : Просвещение, 1988. – С. 191.

4. Фаенова М.О. Обучение культуре общения на английском языке. Научно-теоретическое пособие.

Ikrom YUNUSXODJAEV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german filologiyasi fakulteti,
‘‘Ispan tili amaliy fanlar’’ kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH – CHET TILLARINI O‘ZLASHTIRISHNING ASOSIY OMILI

Annotatsiya

Maqolada xalqaro munosabatlar rivojlanayotgan globallashuv davrida chet tillarni bilish katta siyosiy-madaniy jarayon ekanligi, xorijiy tillarini o‘qitishda xalqaro standartlar, chet tillarini o‘rgatishda samaradorlikka erishish yo‘llari, chet tillarini o‘rgatishda o‘qituvchining mohirligi, kuzatuvchanligi, sezgirligi, til o‘rgatishning o‘ziga xos jihatlari, til o‘rganish uchun ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyati, samarali darsning strukturasi batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Xalqaro munosabatlar, globallashuv, chet tillarini bilish, siyosiy-madaniy jarayon, xalqaro standartlar, samaradorlik, mohirlik, kuzatuvchanlik, sezgirlik, mustaqil faoliyat, samarali darsning strukturasi.

В статье подробно рассматривается вопрос о том, что знание иностранных языков является крупным политико-культурным процессом в эпоху глобализации, когда развиваются международные отношения, Международные стандарты в обучении иностранным языкам, пути достижения эффективности в обучении иностранным языкам, мастерство учителя в обучении иностранным языкам, наблюдательность, чуткость, специфика обучения языку, самостоятельная деятельность обучающихся по изучению языка, структура эффективного урока.

Ключевые слова. Международные отношения, глобализация, знание иностранных языков, политико-культурный процесс, международные стандарты, эффективность, умение, наблюдательность, чуткость, самостоятельная деятельность, структура эффективного занятия.

The article deals with the knowledge of foreign languages as a big political and cultural process in the era of globalization, when international relations are developing, international standards in teaching foreign languages, ways to achieve efficiency in teaching foreign languages, skill, observation. The sensitivity of a teacher in teaching foreign languages, features of teaching languages are highlighted in detail, independent activity of students, the structure of an effective lesson.

Key words. International relations, globalization, knowledge of foreign languages, political and cultural process, international standards, efficiency, skill, observation, sensitivity, independent activity, structure of effective occupation.

Globallashayotgan ta’lim endilikda ilm oluvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham butun dunyoda ta’lim va ilmiy izlanishlarni davom ettirish imkoniyatini yaratib bormoqda. Manbalardan bizga ma’lumki, kishilik jamiyatida insonlar bir necha tilni bilishga qiziqqanlar, unga ehtiyoj sezganlar. XX asr tilshunosligining mashhur namoyandalaridan biri Yevgeniy Dmitrievich Polivanov 46 tilni mukammal egallagan, o‘zbek tili va shevalarini o‘rganib, tahlil qilgan, do‘ppi, chopon kiyib, “Men o‘zbekman, familiyam Polvonov” deb o‘zbeklar orasida o‘zbekday yurgan olim sanaladi. Yoki Jorj Smit – BMT sobiq bosh tarjimoni o‘ndan ziyod tillarni

bilgan. U har yili bir mamlakat tilini o‘rganishga harakat qilgan. Sport muxbiri Yuriy Salomaxin 38 tilni bilgan. U Morez Torez nomidagi Moskva chet tillar institutining chet tillar fakulteti nemis tili bo‘limini bitirgan. Keyinchalik ingliz, fransuz, ispan va boshqa tillarni o‘rganishga ishtiyoqmand bo‘lgan. Avval shu tildagi so‘zlarning talaffuziga e’tibor qaratgan, keyinchalik grammatikasini o‘rgangan.

Vatandoshlarimiz Abu Nasr Farobiy, Beruniy, ibn Sinolar bir necha tillarni mukammal bilishgan. Qadimgi Movarounnahrda badiiy ijod turkiy, forsiy va arab tillarida bitilgan. Zero, xalqimizda “Til bilgan – el biladi”, deb bejizga aytilmagan. Darhaqiqat, xorijiy tilni egallash ta’lim, ilm-fan, iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotdagi globallashuvning yangi davri uchun asosiy kalit hisoblanadi.

Globallashayotgan ta’lim endilikda ilm oluvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham butun dunyoda ta’limni va ilmiy izlanishlarni davom ettirish imkoniyatini yaratib bormoqda. Bu jarayon ta’lim muassasalari bitiruvchilarining turli dunyoviy bilimlarni chet tillarda bilishlaridan tashqari, o‘z kasblari haqidagi bilimlarni ham chet tillarda davom ettirishlariga imkon yaratadi.

O‘zbekistonda xorijiy tilni o‘qitish xalqaro standartlarni muvofiqlashtiruvchi CEFRga moslashtirilgan holda amalga oshirilayapti. Bu o‘quv dasturi barcha tillarni o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. CEFR dunyo bo‘ylab keng tarqalgan xorijiy til ta’limining standartlaridan biridir. CEFR turli mamlakatlar yoki bir mamlakatdagi turli universitetlar, kollejlar va maktablardagi o‘quv dasturlari, mutaxassislarning tayyorgarlik darajasi va baholash tizimlarini qiyoslash uchun ishonarli usul hisoblanadi. CEFR barcha tillarni o‘rganish, o‘qitish va baholash tizimini ham qamrab oladi. Tilni o‘rgatish til o‘rganuvchining ehtiyojidan kelib chiqib, o‘rganayotgan tildan jonli tarzda foydalanish va turli muloqot ko‘nikmalari – eshitish, gapirish, o‘qish va yozishga moslashtirilgan holda amalga oshiriladi. Aynan shu tamoyil bugungi kunda xorijiy tillar, avvalo, eshitish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari ketma-ketligida o‘rgatilib borilishi ta’lim tizimi bitiruvchilarining mutaxassis sifatida ish boshlaganida, erkin muloqotda, bilimlarini yanada boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday tilni o‘rganish avvalo, tilni eshitib, unga paydo bo‘lgan qiziqishdan boshlanadi. Tilni o‘rganish bu tilning asosiy strukturasini tashkil qiladigan ana shu 4 ta ko‘nikmaga asoslanadi. O‘zbek yoshlarining hech kimdan kam bo‘lmay ulg‘ayishlari, zamonaviy bilim berishda munosib sharoitlar yaratib berilgan bir davrda chet tillarni o‘rgatishda samaradorlikka erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘sh til o‘rgatishdagi samaradorlik deganda nimani tushunish mumkin? “Samaradorlik’’ so‘zi ma’lumki, “foydali bo‘lish”, “yaxshi natija berish” degan ma’nolarni ifodalaydi.

O‘quvchilar va talabalar til darslarida o‘z tilidan boshqa tillarni o‘rganar ekanlar, o‘rganayotgan til bo‘yicha ma’lum bilimlarga ega bo‘lish bilan birga, o‘zlarida o‘sha tilda erkin gaplashish va yozish ko‘nikmasini ham shakllantirib boradilar. Ya’ni, masalan, xorijiy tillar egalari o‘zbek tilini o‘rganar ekanlar, ularning dars jarayonlarida o‘zbek tili bo‘yicha belgilangan bilimlarga ega bo‘lib borishlari hamda bu tilda erkin so‘zlashish va yozish ko‘nikmalarini o‘zlarida shakllantirib borishga erishmoqlari talab etiladi. Bu jihatdan, biz bilamizki, o‘qituvchi o‘z oldiga har bir darsning samarador bo‘lishini ta’minlashni maqsad qilib qo‘yadi, ya’ni biror natijani ko‘zda tutadi va shu natijaga erishish yo‘lida harakat qiladi, faoliyat olib boradi.

Bizga ma’lumki, mamlakatimizda umumiy o‘rta maktablarning, yuqorida qayd etganimizdek, chet tillarni o‘rgatishning uzluksiz tizimi tashkil etildi. Ta’limning keyingi bosqichida esa umumta’lim o‘rta maktab dasturida chuqur o‘zlashtirilmagan bilimlarni

singdirishga e’tibor qaratiladi. Dastur asosida uzluksiz ravishda bu tillarni dars jarayonlarida o‘qituvchilar o‘rgatishga harakat qilganlar. Reja asosida darslar to‘liq o‘tilgan, turli xil mashg‘ulotlar olib borilgan. Biroq guruhdagi o‘quvchilar yoki talabalarning aksariyati oxir-oqibat bu tilda erkin gaplashish yoki yozish-yoza olish ko‘nikmalarisiz o‘qishni tugallatganlar. Ammo vaziyat taqozosi bilan qilingan jonli muloqot jarayonida bir yildayoq bu tilni o‘zlashtirib oladilar – bu tilda erkin gaplashadigan bo‘ladilar.

O‘qituvchida dars o‘tishning turli xil metodlaridan foydalanishga intilishlar mavjud, u turli xil zamonaviy o‘qitish metodlaridan foydalanadi. Bularning hammasi yaxshi. Biroq samara bir xil emas, bir xil bo‘lishi ham mumkin emas. Chunki o‘qituvchilar har xil, sharoitlar har xil, imkoniyatlar, turli-tuman qiziqishlar, tilni o‘rgatishga va o‘rganishga bo‘lgan mas’uliyat, yondashish turlicha.

Ta’lim tizimida samaradorlikni oshirish esa o‘qituvchidan juda katta mahorat, ko‘p bilim, tajriba kabi yana boshqa narsalarni talab qiladi. Hatto, o‘qituvchining bugungi bilim, ko‘nikma, tajriba, vositalar, imkoniyatlar, o‘qitish metodlari, usullari ertaga yoki bu guruhdagi o‘quvchilarga samara bermay qolishi mumkinligini ham to‘la his qilib turish ham foydalidir.

Demak, o‘qitish samaradorligini oshirishning birinchi bosh omili – bu o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, mas’uliyatni his etish imkoniyatlarini oshirib borishi, maqsadni, natija nima bo‘lishini to‘g‘ri belgilab olishi bilan bog‘liqdir. Buni hamma biladi, biroq ta’kidlab turilsa, zarar qilmaydi. Chunki hamma ham birdek o‘qitish tizimining samarali bo‘lishida o‘qituvchining kasbiy faoliyati bilan ko‘p narsa bog‘liq ekanligini to‘la va to‘g‘ri his qilavermaydi. Bunda o‘qituvchi bilimdonligining o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Ehtimol, ko‘p yillik tajriba ham ish bermay qolar.

Til o‘rgatishda o‘qituvchining mohirligi, kuzatuvchanligi, sezgirligi, til o‘rgatishning o‘ziga xos jihatlari borligi, til o‘rganish uchun o‘quvchining mustaqil faoliyati bo‘lishi, bu faoliyatning o‘qituvchi faoliyati bilan uyg‘unlashib ketishi kabi holatlar ham hisobga olinishi ehtimol juda ahamiyatli bo‘lar. Ana shuni tushungan o‘qituvchi faoliyati, haqiqatan ham, til o‘qitishda birinchi omillikka da’vogarlik qila oladi. Ikkinchi omil, albatta, birinchisi bilan uzviy bog‘langan holda, nazarimizda, o‘quvchida, talabalarda o‘qitilayotgan fan yoki sohaga hurmat, mehr, havas, qiziqishni shakllantirishdir. Umuman boshqa bir tilni o‘rgatishda yana nimalarga e’tibor qaratilishi lozim? O‘quvchi va talaba o‘zga bir tilni o‘rganar ekan, unda ana shu tilga mehr uyg‘onmog‘i, uni hurmat qilish tuyg‘ulari shakllangan bo‘lishi kerak. O‘z-o‘zidan ko‘rinadiki, havas uyg‘otish keyingi omilni talab qiladi.

Ya’ni, til birliklarining nutqda qo‘llanish imkoniyatlarini dars jarayonida ko‘proq yoritib borish, o‘quvchi va talabalarni bu imkoniyatlar bilan erinmay tanishtirish lozim. Buning uchun esa dars jarayonini mumkin qadar jonli muloqot tarzida tashkil etish zarurati tug‘iladi. Bunday dars jarayoni rasmiyatchilikdan xoli bo‘lgan holda ikki ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin: 1) o‘quvchi-talabalarning o‘zaro muloqotlari (jonli suhbatlashuv); 2) o‘quvchi-talabalar-o‘qituvchining jonli muloqoti (jonli suhbatlashishi) ko‘rinishlarida. Keyingi dars shakli o‘qituvchi bilan o‘quvchi-talabalarning yakka-yakka holdagi suhbati yoki umumiy tarzdagi suhbati tarzida o‘tkazilishi mumkin. Suhbat jarayonida o‘quvchi-talaba jonli so‘zlashishga – muloqotga o‘rgatib boriladi. Bir tushunchani yoki fikrni turli so‘zlar yoki gaplar, birikmalar orqali ham ifodalash mumkinligiga, til birliklarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatiladi.

Ammo, bu holat uchun o‘quvchi-talabalar, albatta, muhim o‘quv lug‘atlaridan xabardor bo‘lishlari ham talab etiladi. Dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtda ulardan unumli foydalanish til o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etishi uqtirilib boriladi. Qoidalarni

yodlatish, darsni xorijiy tilning barcha sathlari (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabi bo‘limlari) qonuniyatlari bilan tanishtirishga ko‘p yo‘naltirilmasdan, til birliklarining nutqda qo‘llanish imkoniyatlaridan to‘g‘ri, maqsadga muvofiq foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish tomon yo‘naltirish til o‘rganishda yaxshi samara beradi. Keyingi bosqichda, ya’ni dars jarayonidan boshqa vaqtda o‘quvchi va talabalarning ish faoliyatlarini to‘la mustaqil tashkil etishga yo‘naltirish zarur bo‘ladi. O‘quvchi va talabalarga: a) keyingi dars jarayoniga qadar tegishli vazifalarni bajarish topshiriladi (o‘quvchitalaba o‘z faoliyatida o‘rganayotgan tilida muloqot qiluvchi shaxslar bilan turli shakllarda zaruriy suhbat-muloqotlar o‘tkazadi). Bu muloqotlar kimlar bilan, qachon, qaerda, qancha vaqt, nima haqda bo‘lganligi borasida keyingi dars jarayonida, uyga berilgan vazifaning bajarilishi tarzida hisobot bilan baholanishi mumkin.

Ya’ni, uy vazifasi sifatida tekshiriladi va baholanadi; b) chorak va o‘quv yili davomida o‘quvchi talabaning boshqalar bilan shunday muloqoti – til o‘rganishni ko‘zda tutgan holdagi harakatlarni bajarishi vazifa qilib topshiriladi va bu chorak oxirida yoki yil oxirida tekshirilishi mumkin. O‘quvchi-talaba ko‘cha-ko‘yda, bozorlarda, oilalarda, safarsayohatlarda, boshqa juda ko‘p tadbirlarda, uchrashuvlarda, tanish-bilishlar, katta yoshdagilar, bolalar, mezbonlar kabilar bilan turli xil mavzularda suhbat-muloqotlar o‘tkazadi, ularni qayd etib borishi mumkin bo‘ladi va hokazo. .

Ma’lumki, boshqa tillarni bilish, o‘rganish hech qachon o‘z ona tilini kamsitish, esdan chiqarish, unutish hisobiga bo‘lmaydi. O‘z tilini mukammal bilgani va hurmat qilgani holda boshqa tillarni bilish va o‘rganish, ko‘p til bilish maqsadga muvofiq ekanligini unutmaslik kerak. Ana shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, boshqa tillarni o‘rganishga da’vat, avvalo, o‘z ona tilini ham bilishga, shu bilan birga, shu asosda, boshqa tillarga ham hurmatni shakllantirish, o‘rganishni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi.

Demak, ko‘rinadiki, boshqa tillarni o‘rganish hyech qachon o‘z ona tiliga e'tiborsizlik bilan qarash hisobiga bo‘lmasligi kerak. Hozirgi kunda, ayniqsa, yoshlar boshqa tillarni ham bilishga da’vat etilayotgan ekan, bu ona tiliga e'tiborni pasaytirishni ko‘zda tutmaydi. Zero, kamida 2–3 tilni bilish otabobolarimizdan meros bo‘lib qolganligini yodda tutaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining davlat ta’lim standarti: “Ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining chet tillari bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar” (124-son 08.05.2013).
2. Ахмедова Л.Т. Личностно-ориентированный подход к современному обучению и воспитанию студентов высших учебных заведений республики Узбекистан// Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2016. – № 4 (12). – Б. 255–259. – URL: https://journal.fledu.uz/uz/uzbekiston-respublikasi-olij-talim-muassasalaritalabalarini-zamonavij-u-itish-va-tarbiyalashda-shahsga-aratilganyondashuv/
3. Mamatqulova N.F. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning oliy ta’limda xorijiy tillarni o‘rganishdagi ahamiyati// Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnali – 2018. № 2. – 64-68-b.
4. Pedagogikadan atamalar lug‘ati. – T.: Fan, 2008. – 196 b.
5. O‘zbekistonda xorijiy tillar. 2021, № 6 (41), 115-129.

Shermo‘min YARMATOV,
Oriental Universiteti, ‘‘Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va menejmenti’’ kafedrasi magistratura yo‘nalishi talabasi

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINI KASBIY TAYYORGARLIGINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kasbiy tayyorgarlik, uning ilmiy nazariy asoslanishi va kasbiy faoliyatni amalga oshirish, dars jarayonida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish jihatlariga izoh berilgan va mashg‘ulot davomida kasbiy tayyorgarlikni pedagogik jihatdan o‘stirish hamda bu jarayonda ilmiy adabiyotlar, ta’limiy vositalar bilan ishlash bo‘yicha soha olimlari va pedagoglarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, subyektiv munosabat bildirilgan

Kalit so‘zlar. Uzluksiz, takomillashtirish, bilish, reja, predmet, tamoyil, rag‘bat, metod, qonuniyatlar, funsiyalar, rejalashtirish, boshqarish, loyihalashtirish.

В данной статье даны разъяснения по вопросам профессиональной подготовки, ее научно-теоретического обоснования и осуществления профессиональной деятельности, развития практических навыков в процессе занятий , а также проанализированы и субъективно отнесены научные взгляды отраслевых ученых и педагогов на педагогическое развитие профессиональной подготовки в ходе занятий и работу с научной литературой и образовательными инструментами в этом процессе. Проанализированы научные мнения полевых ученых и педагогов и выражены субъективные установки.

Ключевые слова. Непрерывность, совершенствование, знание, план, предмет, принцип, стимул, метод, законы, функции, планирование, управление, проектирование.

This article explains the aspects of professional training, its scientific theoretical foundation and the implementation of professional activities, the development of practical skills in the course of the lesson, and the pedagogical development of professional training during the training, as well as working with scientific literature and educational tools in this process. The scientific opinions of field scientists and pedagogues were analyzed and subjective attitudes were expressed

Key words. Continuous, improvement, knowledge, plan, subject, principle, incentive, method, laws, functions, planning, management, design.

Jahon ta’limida va ularda olib borilayotgan tadqiqot ishlarida kasbiy kompetentlik va uni baholash mexanizmini yaratish ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan tadqiqotlar ko‘payib bormoqda shu munosabat bilan kasbiy kompetentlikni baholashning mexanizmini yaratish uning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish mazkur kompetentlikning pedagogik psixologik aspektlariga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarini kasbiy tayyorgarligini baholashning pedogogik psixologik asoslari kasbiy kompetentlik va kompetentsiyalarini rivojlantirishga oid zamonaviy yondashuv kasbiy tayyorgarlikni baholashning tizimli strukturasi, mazkur jarayon o‘qitishning zaruriy elementi doirasida qaralishi maqsadga muvofiq. Keyingi yillarda oliy ta’lim muassasasi talabalarini kasbiy tayyorgarligini baholash pedagogik ta’lim tizimi oldida yangicha metodik ta’minotni yaratishni asosiy vazifa qilib qo‘yilgan. Oliy

ta’lim muassasalari talabalarini kasbiy tayyorgarligini baholashda psixologik fiziologik ilmiy nazariy o‘ziga xosliklarni inobatga olish. Bu jarayon takomilini rivojlantirish chet el tajribasini o‘rganish asosiy o‘rin egallaydi. Ta’lim jarayonida bu jihat ko‘plab omillar bilan o‘zaro bog‘liq

1. Kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga oid informatsiyaga, o‘quv axborotlari va materialiga ega bo‘lish, uni tahlil va sintez qilish.

2. Oliy talim muassasi talabalarini kasbiy tayyorgarligi – bu yetuk shaxs sifatida kasbiy funksiyalarini bajara olish qobiliyatini ifodalab beruvchi, o‘quv fanlarini puxta o‘zlashtirishi va insonparvarlik, vatanparvarlik fazilatlari mujassam bo‘lgan malakalar jamlanmasi hisoblanadi. Talabalarning kasbiy tayyorgarligi 4 ta komponentni o‘z ichiga oladi. Bular quyidagilar: ilmiy nazariy komponent, pedogogik psixologik komponent, kognitiv-kommunikativ komponent, amaliy ko‘nikmalarni tatbiq qilish komponenti.

Ta’lim jarayoni subyektlariga o‘quv predmetlarini o‘qitish davomida ilmiy adabiyotlar va metodik ta’minotga mazmunini boyitish jihatidan uslubiy yo‘nalish berish ustuvor didaktik prinsip va tamoyillarga amal qilash kasbiy tayyorgarlikni baholashning asosiy elementlaridan biridir. Bu esa belgilangan o‘quv fanini o‘rganish ta’lim mazmunini muntazam idrok qilib borishga tayyorgarlik ko‘rish talabalar bilan individual va intraktiv tarzda ishlash mustaqil ta’lim jarayonini o‘qituvchi tomonidan nazoratga olinishi, o‘qitish vositalaridan foydalanish muayyan natijani beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PA-5847 son farmoniga muvofiq oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, raqobatdosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Mazkur Konsepsiyada zamonaviy axborot-komunnikatsiya texnologiyalari va pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, shuningdek, mazkur sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda muhim vazifalarni bajarish belgilangan.

Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy komponentligini baholash quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Information maqsadli yondoshuvlar pedagogik jarayonni yuqori saviyada rivojlantirish, integrativ yondashuv asosida o‘stirish hamda ilmiy metodik adabiyotlar bilan tanishish.

G‘.R. Otamurodov o‘zining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlari boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrallashgan axborot-metodik tizimini takomillashtirish” nomli dissertatsiya ishida to‘g‘risida qo‘yidagi fikrlarni bildiradi. “Variativ ya’ni individual rivojlantirish dasturlari rahbar kadrlarining tahliliy fikrlash muammolarini yechish, ijtimoiy moslashish ijodiy fikrlash kommunikatsiya va guruhda ishlash mustaqil o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish loyihalarini boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishini ta’kidlaydi”[1].

Pedagogik olim N. Muslimov kasbiy kompitentlik darajasini baholashda quyidagi bosqichlarda alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi:

1) tegishli ta’limi yo‘nalishida umumkasbiy va ixtisoslik bilimlari asoslarini o‘zlashtirish;

2) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarning amaliy-labaratoriya mashg‘ulotlari, shuningdek, pedagogik amaliyot jarayonida amaliy ko‘nikma va mala-

[1]Otamurodov G‘.R. Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrallashgan axborot metodik tizimini takomillashtirish. 71-bet

kalarni shakllanishiga erishish;

3) mehnat faoliyatini olib borish davrida o‘z ustida mustaqil ishlash, ijodiy izlanish asosida umumkasbiy va ixtisoslik bilimlarini takomillashtirish;

4) qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari yoki fakultetlarida ta’lim olish yordamida faoliyatini samarali tashkil etishning zamonaviy metodik va texnologik yondashuvlari mohiyatidan xabardor bo‘lish[2].

Ta’lim jarayoni subyektlariga o‘quv predmetlarini o‘qitish davomida ilmiy adabiyotlar va metodik ta’minotga mazmunini boyitish jihatidan uslubiy yo‘nalish berish ustuvor didaktik prinsip va tamoyillarga amal qilash kasbiy tayyorgarlikni baholashning asosiy elementlaridan biridir. Bu esa belgilangan o‘quv fanini o‘rganish ta’lim mazmunini muntazam idrok qilib borishga tayyorgarlik ko‘rish talabalar bilan individual va intraktiv tarzda ishlash mustaqil ta’lim jarayonini o‘qituvchi tomonidan nazoratga olinishi, o‘qitish vositalaridan foydalanish muayyan natijani beradi.

S.H. Yaminovaning “O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ssenariyli o‘qitish usulidan foydalanish”nomli tadqiqot ishida har qanday darsga quyidagicha 10 talab berilgan: tarbiyaviy maqsadning ta’lim bilan mushtarakligi; mavzu mazmunining ilmiyligi; darsda manbani hayot bilan bog‘lsh; kasbiy yo‘nalishga e’tibor berish; o‘quvchilarni mustaqillikni mustahkamlashga jalb etish; mavzu mazmuniga mos metod va usullardan foydalanish; fanlarbibg bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash; mavzuning tug‘ilib o‘sgan joy bilan bog‘liqligi; ekologik tarbiya; estetik tarbiya;[3] shuningdek, oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda ushbu talablar o‘z o‘rniga ega. Bu talablar vositasida dars jarayonida ularning shaxsiy hayotidagi yuksalishlar va o‘ziga yoqqan kasbni to‘g‘ri tanlash ishlari mustahkamlanadi. Shu tomoni harakterliki talabalarda kasbga tayyorgarlik yuqori saviyada bo‘lishi uchun ulardagi qiziqishni intilishni va kasb egallsh hayotiy egallash ekanligini uqtirish tavsiya qilinishi joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otamurodov G‘.R. Oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlari boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrallashgan axborot metodik tizimini takomillashtirish. 71-bet

2. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnalogiyasi. Monografiyasi. –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013-y.

3. Yaminova S. H. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ssenariyli o‘qitish usulidan foydalanish. Ped. fan. nomz. diss. – T., 1997. 4-5-b.

[2] Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o‘qituvchilarining kasbiy kompitentligini shakllantirish texnalogiyasi Monografiyasi-T. “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013

[3] Yaminova S. H. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ssenariyli o‘qitish usulidan foydalanish. Ped. fan. nomz. diss. Toshkent 1997. 4-5-b

Anvar XURRAMOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Informatika va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsent v.v.b.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish muammosining muhimligi asoslanadi. Shuningdek, raqamli jamiyatning texnologik rivojlanishini jadallashtirish va keng joriy etish davrida raqamli texnologiyalar, raqamli ta’lim muhitini yaratish, raqamli kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga bo‘lgan talab va ularning professional pedagogik faoliyatda raqamli texnologiyalardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun raqamli komponent nuqtayi nazaridan yetarli tayyorgarligi o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish zarurligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya, raqamli texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti.

В статье обосновывается значимость проблемы формирования цифровой компетентности будущих педагогов. В период ускоряющегося технологического развития цифрового общества и повсеместного внедрения цифровых технологий, создания цифровой образовательной среды необходимо разрешить противоречие между востребованностью педагогов с развитой цифровой компетентностью и их недостаточной подготовкой в аспекте цифровой составляющей для успешного применения цифровых технологий в профессиональной педагогической деятельности.

Ключевые слова. Цифровая грамотность, цифровая компетентность, цифровые технологии, цифровая образовательная среда.

The article substantiates the importance of the problem of the formation of digital competence of future teachers. In the period of accelerating technological development of the digital society and the widespread introduction of digital technologies, the creation of a digital educational environment, it is necessary to resolve the contradiction between the demand for teachers with developed digital competence and their insufficient training in the aspect of the digital component for the successful application of digital technologies in professional teaching activities.

Key words. Digital literacy, digital competence, digital technologies, digital educational environment.

Ta’lim muhitini raqamlashtirish ta’lim tashkilotining barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi va o‘qituvchilarning tegishli kasbiy tayyorgarligini, ularning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashni talab qiladi, o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Raqamli texnologiyalarning ta’limga integratsiyalashuvi pedagogik uslub va yondashuvlarni takomillashtirish, maktab o‘quvchilari uchun o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish nuqtayi nazaridan yangi imkoniyatlar ochishga qaratilgan. O‘qituvchilarning raqamli kompetentsiyasi zamonaviy ilmiy merosda ularning AKT kompetensiyasining evolyutsion rivojlanishi natijasida ko‘rib chiqiladi, bu professional o‘qituvchilar standartida zamonaviy sharoitda o‘qituvchining ajralmas xususiyati

sifatida e’lon qilingan.

Hozircha raqamli kompetensiya faqat o‘qituvchining malaka portretining yangi muhim tarkibiy qismi sifatida aytilmoqda, ammo uni baholash metodologiyasi hali amaliy jihatdan ishlab chiqilmagan.

O‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalar asosiy o‘rin tutadi. Ular jamoaviy ish, faol kognitiv faoliyatni tashkil qilish uchun vosita sifatida ishlatilishi mumkin. O‘qituvchining raqamli kompetensiyalari bugungi kunda universal xususiyatga ega va ta’lim jarayoni ishtirokchilariga jamiyatni raqamlashtirishga moslashish mexanizmlarini taqdim etadi va o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi o‘qituvchilar va talabalarning bilimlar jamiyatida to‘liq ishtirok etishi uchun asos bo‘ladi. Talabalarning iste’dodlarini ochib berish. Umumiy ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining fundamental ilmiy bazasini yaratish va ularning raqamli ta’lim muhitida ishlash malakasini oshirish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarni rivojlantirishning dolzarb yo‘nalishi hisoblanadi. O‘qituvchining raqamli kompetensiyasini shakllantirish zarurati va uni baholash usullarini ishlab chiqishning dolzarbligi qayd etilgan.

O‘qituvchi raqamli ta’limning markaziy obyekti sifatida qaraladi, u nafaqat fan bilimlarini uzatish, ta’lim, tarbiya va rivojlanish muammolarini hal qilish, balki yangi funksiyalarni bajarish, ularning raqamli bilimlarini shakllantirish uchun mas’ul bo‘lgan talabalarning murabbiyi bo‘lish uchun mo‘ljallangan. Shu bilan birga, aynan shunday o‘qituvchi uning sifatini oshirish uchun chuqur mazmunli o‘zgarishlarni amalga oshirishi kerak bo‘ladi. Bizning zamonamizning maqsadli pedagogik ko‘rsatmalariga o‘quv jarayonining interaktivligi, talabalarni birgalikdagi faoliyatga maksimal darajada jalb qilish, platformalararo kommunikativ o‘zaro ta’sir, ta’lim traektoriyalarini individuallashtirish va boshqalar kiradi. Biroq, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning ta’limdagi rolining ortishi raqamli kompetensiya bo‘yicha allaqachon olingan natijalar aniqlashtirishni talab qiladi, degan xulosaga kelishga imkon beradi, ularni o‘rganish uchun asos, boshlang‘ich nuqta sifatida ko‘rish mumkin. Konsepsiya mazmuni hajmi raqamli texnologiyalarning rivojlanish dinamikasi bilan mutanosib ravishda belgilanadi. Yana shuni ta’kidlaymizki, olimning ta’lim sohasi birinchi navbatda o‘qituvchilar emas, balki talabalar, o‘smirlar zimmasiga tushadi. Shu bilan birga, olimlar to‘rtta yo‘nalishda (kontent, aloqa, iste’mol va texnosfera) amalga oshiriladigan bilim, ko‘nikma, motivatsiya va mas’uliyatni raqamli kompetentsiyaga kiritadilar. Shu munosabat bilan bizning tadqiqotimizda o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi o‘qituvchi shaxsining raqamli texnologiyalarni uzluksiz egallash asosida AKT va raqamli texnologiyalarni hayotning turli sohalarida ishonchli, samarali, tanqidiy va xavfsiz tanlash va qo‘llash qobiliyati sifatida qaraladi:

1) kontent bilan ishlash (yaratish, izlash, tanlash, kontentni tanqidiy baholash);


2) muloqot (aloqalarni yaratish, rivojlantirish, saqlash, o‘ziga xoslik, obro‘-e’tibor, o‘zini namoyon qilish);

3) iste’mol qilish (internetdan iste’mol maqsadlarida foydalanish – buyurtmalar, xizmatlar, xaridlar va boshqalar);

4) texnosfera (kompyuter va dasturiy ta’minotni bilish), shuningdek, o‘qituvchining bunday faoliyatga tayyorligi.

Shu bilan birga, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasining hozirgi manzarasini aniqlash, ularning raqamli ta’lim muhitida ishlashga tayyorligini baholash va o‘qituvchilar tomonidan raqamli vositalar va xizmatlarni majburiy jadal rivojlantirishdan so‘ng ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishga intilish, shuningdek, raqamli pan-

demiya davridagi innovatsiyalar pedagogika fani va amaliyoti uchun qiziqish uyg‘otadi. O‘qituvchi tomonidan o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash va pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun shaxsiy qurilmadan muntazam foydalaniladigan xizmatlarga quyidagilar kiradi: raqamli ta’lim mazmuni bilan ishlash xizmatlari, elektron jurnal, elektron jadval, qo‘shimcha ta’lim dasturlarini ishlab chiqishni hisobga olish, axborot va kommunikatsion ta’lim platformasi, elektron hisobotlarni yuritish xizmatlari va boshqalar. Raqamli xizmatlar, vositalar va muhitlar juda dinamik bo‘lganligi sababli ular doimo rivojlanib, takomillashib boradi. Shu munosabat bilan raqamli kompetensiyalarni doimiy ravishda yangilab turish va rivojlantirish, o‘qituvchining raqamli kompetensiyasini shakllantirish professional pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalardan qulay, samarali va xavfsiz foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning tadqiqotimizdagi o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi umumiy foydalanuvchi, umumiy pedagogik va fan-pedagogik raqamli kompetensiyalar to‘plami va uning progressiv rivojlanishining uchta darajasi (asosiy daraja, raqamli foydalanish, raqamli transformatsiya) bilan belgilanadi, uning kognitiv, funksional va ijodiy jihatlar (1-rasm).



1-rasm. o‘qituvchining raqamli kompetentsiya darajalarining xususiyatlari

O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini o‘rganishning birinchi bosqichida o‘qituvchilar o‘zlarining raqamli kompetentsiyalarini qanday baholashlarini aniqlash muhim edi. Anketaga berilgan javoblar orasida o‘qituvchilarga quyidagilar taklif qilindi: “Men ta’lim uchun raqamli texnologiyalarni yaxshi tushunmayman va u haqida ko‘proq bilishni xohlayman”, “Men raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini tushunaman, ulardan foydalanish misollarini bilaman, lekin hozircha men ularni o‘quv jarayonida keng qo‘llamayapman”, “O‘quv jarayonida eng keng tarqalgan raqamli texnologiyalardan muntazam va muvaffaqiyatli foydalanaman”, “Men raqamli texnologiyalarning keng spektridan ishonchli foydalanaman, doimiy ravishda yangi vositalarni o‘rganaman va amalga oshiraman. “Men maktabimda o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha yetakchiman”, “Men umume’tirof etilgan

mutaxassisman va ta’lim uchun raqamli texnologiyalar va vositalarni ishlab chiqish bilan faol shug‘ullanaman. Javob variantlari ko‘rsatganidek, ta’lim uchun raqamli texnologiyalarni yaxshi bilmaydi deb hisoblaydigan respondentlar juda kam (1,8 foiz), lekin shu bilan birga, hech kim o‘zini raqamli texnologiyalar sohasida yetakchi va ekspert deb hisoblamaydi. 30 foiz raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini tushunadi, ulardan foydalanish misollarini biladi, lekin ularni o‘quv jarayonida hali keng qo‘llamaydi, so‘rovda qatnashganlar soni shunchalik (30 foiz), ulardan o‘quv jarayonida muntazam va muvaffaqiyatli foydalanadi, 40foiz o‘qituvchilar ko‘plab raqamli texnologiyalardan ishonchli foydalanayotganliklarini va yangilarini doimiy ravishda o‘zlashtirib olishlarini ta’kidladilar. Bu o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarga qiziqishini, ularning zamonaviy raqamli ta’lim muhitidagi muhim rolini tan olishini tavsiflaydi. Ikkinchidan, o‘qituvchilar qancha vaqtdan beri ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalana boshlaganini aniqlash kerak. Javob variantlari orasida “Men foydalanmayman”, “Bir yildan kam”, “1-3 yil”, “4-5 yil”, “6-9yil”, “10 yildan ortiq” taklif qilingan. Pedagoglar o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishga intilyaptimi yoki yo‘qligini aniqlash muhim. Siz bir nechta javoblarni tanlashingiz mumkin, masalan: “Men raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirmayman”, “Men o‘z mahoratimni oshiraman, turli onlayn xizmatlar va vositalar bilan tajriba o‘tkazaman”, “Men hamkasblarim bilan o‘quv jarayonini yaxshilash uchun raqamli texnologiyalardan qanday foydalanish mumkinligini muhokama qilaman” , “Men o‘z mahoratimni rivojlantirish uchun bir qator elektron resurslardan (veb-saytlar, maqolalar, kurslar) foydalanaman. Javob variantlari ko‘rsatganidek, so‘rovda qatnashgan o‘qituvchilarning mutlaq ko‘pchiligi (40 foiz) so‘nggi 1-3 yil ichida raqamli texnologiyalardan foydalana boshlagan, o‘qituvchilarning 20 foizi bir yildan kamroq vaqt davomida, 17,1 foizi o‘zini raqamli texnologiyalardan foydalanayotganini ko‘rsatmoqda. oxirgi 4-5 yil davomida. Shu bilan birga, respondentlarning 5,7 foizi o‘z kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalardan deyarli foydalanmayotganini ta’kidladi.

O‘qituvchilar raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishga intiladilar (100 foiz) va buning uchun elektron ta’lim resurslaridan (37,1 foiz) foydalanadilar yoki o‘zlarining tajribali hamkasblari bilan ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini muhokama qiladilar (14,3 foiz), uning sifatini oshirishga harakat qiladilar. turli onlayn xizmatlar bilan tajriba (37,1 foiz). Mualliflik huquqi bilan bog‘liq xavf-xatarlarga kelsak, o‘qituvchilarning asosiy qismi talabalar o‘rtasida plagiat holatlarini ko‘paytirish uchun yagona raqamli ta’lim muhitini joriy etishda eng dolzarb deb hisoblaydi (65,7 foiz). O‘qituvchilar uslubiy yoki didaktik materiallarga mualliflik huquqlarining buzilishidan qo‘rqishadi (20 foiz). Imtihon hujjatlari, talabalar baholari, ularning shaxsiy ma’lumotlari kabi shaxsiy va mulkiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun o‘qituvchilar ko‘pincha bunday fayllar uchun paroldan foydalanadilar (40 foiz), to‘liq miqyosli himoya, murakkab parollar va shifrlashni birlashtirib, antivirus dasturlarini tez-tez yangilab turish (25,7 foiz).

Shu munosabat bilan raqamli kompetentsiyani shakllantirishning pedagogik vositalari uchta tematik blok bilan ifodalanishi mumkin:

1) Oliy pedagogik ta’lim dasturlari bo‘yicha universitetda o‘qish, pedagogik amaliyotni o‘tash, malaka oshirish kurslarini o‘tash davrida talabalarning shaxsiy raqamli ta’lim muhitini ta’lim modellashtirish: o‘quv jarayonida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish, shuningdek, materiallar ta’lim uchun raqamli platformalar (tarkibida tayyor yuqori si-

fatli raqamli ta’lim mazmuni), onlayn muhitda qo‘shma loyihalarni tashkil etish, bulutli xizmatlarda o‘zaro ta’sir va pedagogik muloqot; ijtimoiy tarmoqlarda tarmoq faolligi va muloqotni rivojlantirish; darsning turli o‘quv vaziyatlarini loyihalash, raqamli ta’lim mazmunini yaratish jarayonida raqamli vositalar va xizmatlar vositalaridan foydalanish. Bu propedevtik ishlarni bajarishga imkon beradi.

O‘qituvchining raqamli ta’lim muhitida ishlashga tayyorligini shakllantirish, yangi sharoitlarda ishlashning mumkin bo‘lgan variantlarini ko‘rsatish, o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantirish, dastlabki shaxsiy tajribani shakllantirish;

2) Raqamli ta’lim muhitida ta’lim jarayonini amalga oshirish bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish, zamonaviy onlayn ta’lim platformalaridan foydalangan holda ta’limni raqamli transformatsiyalash yo‘nalishi bo‘yicha uslubiy tayyorgarlikni takomillashtirish, veb-seminarlar, veb-seminarlar va boshqalarda ishtirok etish o‘qituvchining raqamli kompetentsiyalarini shakllantirish uchun tabiiy amaliyotga yo‘naltirilgan muhit;

3) Tarmoq pedagogik hamjamiyatlari tarkibida raqamli ta’lim muhitida ijobiy va salbiy pedagogik tajriba almashish; ta’limni raqamlashtirish, raqamli ta’lim muhitida mahalliy va xorijiy pedagogik tajribani o‘rganish bo‘yicha ustuvor milliy loyihalar doirasida ijodiy tanlovlarda ishtirok etish.

Shunday qilib, raqamli kompetensiya raqamli ta’lim o‘qituvchisining muhim kasbiy xususiyati ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ularning inson hayoti va faoliyatidagi rolining ortishi munosabati bilan uning mohiyatini aniqlash, darajani shakllantirish va baholash usullari yangilanmoqda. Tadqiqotda taqdim etilgan o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini baholash natijalari o‘qitishda AKTdan foydalanish bilan bog‘liq o‘quv fanlari mazmunini modernizatsiya qilishni rejalashtirish, malaka oshirish kurslari uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega. va kasbiy qayta tayyorlash. Ular muammoli sohalarni aniqlaydi va raqamli ta’lim muhitining turli pedagogik vaziyatlarida o‘qituvchilarning harakatlarini tanqidiy ko‘rib chiqish, pedagogik muammolarni hal qilish uchun raqamli vositalar va xizmatlarni tanlash va ulardan foydalanishning oqilonaligini baholash imkonini beradi. O‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar sohasida o‘z dunyoqarashini kengaytirishga qiziqishi va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish istagini qayd etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xurramov, A. J., Rajabov, O.T., (2021) Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika fanini o‘qitishda ta’lim texnologiyasi innovatsion modelining o‘rni // Academic research in educational sciences, Volume 1, Issue 2, – pp: 59-67.

2. Xurramov, A. J., Maxkamova, M.U., Yusupov, A.I., (2021) Forsayt – innovasion faoliyatni kengaytirish omili sifatida // Academic research in educational sciences, Volume 2, Issue 4, – pp: 694-701.

3. Xurramov, A.J., Boymurodov, A.X. (2022) O‘quv jarayonini tashkil etishda inter-aktiv yondoshuvlar. Innovative Developments in Sciences, Education and Humanities Hosted New York, USA.

4. Xurramov, A.J., Boymurodov, A.X., Use of active and interactive methods in computer graphic classes. // Eurasian Scientific Herald, ISSN: 2795-7365, Volume 5, 02 2022, – pp: 4-7.

Maxliyoxon MIRZAKARIMOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TALABLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili darslarida o'quvchilar tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik talablarida pedagogning mahorati, madaniyati va o'quvchilarning dars mashg'ulotlariga jalb qila olish uslublari, pedagoglarning o'ziga xos tadbirkorlik sifatlari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Pedagogik talab, pedagogning mahorati va madaniyati, pedagoglarning tadbirkorlik sifatlari, iqtisodiyot, donishmand, qadriyatlar, talabchanlik, adolatparvarlik.

В этой статье описываются педагогические требования к развитию предпринимательских способностей учащихся на занятиях по английскому языку, педагогические навыки, культура и методы вовлечения учащихся в занятия, а также уникальные предпринимательские качества педагогов.

Ключевые слова. Педагогическая востребованность, педагогическое мастерство и культура, предпринимательские качества педагогов, бережливость, мудрость, ценности, требовательность, справедливость.

This article describes the pedagogical requirements for the development of students' entrepreneurial skills in English language classes, the pedagogue's skills, culture and methods of engaging students in lessons, and the unique entrepreneurial qualities of pedagogues.

Key words. Pedagogical demand, pedagogue's skills and culture, entrepreneurial qualities of pedagogues, economy, wisdom, values, demandingness, fairness.

Ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi har bir jamiyatning kelajagi, uning ajralmas qismi va hayotiy zaruratini belgilaydi. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ingliz tili darslarida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda ilg'or pedagogik mahorat va madaniyatni hamda ta'lim samaradorligini oshirishda bitiruvchilarni bandligini ta'minlash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Maktab – hamisha, har qanday jamiyatda ham xalq va davlat tomonidan e'zozlangan muqaddas maskan. U har doim jamiyatning mas'uliyatli, og'ir ayni paytda sharafli yukini yelkasida tutib kelgan. Maktab o'ta murakkab, zargar mehnatining mahsuli kabi nozik va noyob tizimdir. Bozor iqtisodiyoti jarayonidan pedagog xodimdan albatta tadbirkorlikni talab qiladi. Hattoki sohibqiron Amir Temur "Temur tuzuklari" kitobida "Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir" degan fikrni keltirib o'tgan.

Tadbirkorlik – bu odamlarning shaxsiy tashabbuslariga asoslangan faoliyatlari bo'lib, ular foyda olish va mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida o'z nomlaridan, tavakkalchilik bilan mablag'larini sarf qilib ish yuritadilar. Demak, tadbirkorlik faoliyatini

boshlash uchun avvalo, tadbirkorda muayyan mablag‘ yoki tovar boyliklar bo‘lishi va ularni ishning manfaati hamda shaxsiy manfaat yo‘lida sarf qilishga tayyor bo‘lishi kerak. To‘g‘ri, bizning sharoitimizda tadbirkorlik yangi, o‘ziga xos jarayon bo‘lib, unga mos psixologiya, sharoitlar yaratilib qo‘llab-quvvatlanmoqda.

(1-rasm). Tadbirkorlik sifatlari

Intellektual sifatlari	Kommunikativ sifatlar	Irodaviy sifatlar
● bilimdonlik, muammo va to‘siq, qiyinchiliklarni oldindan ko‘ra olish layoqati, rivojlangan xayol jarayonlari, oldindan ko‘p sabab va oqibatlarni tasavvur qila olish, real fantaziya, tafakkurdagi kreativlilik, ya’ni har narsaga ijodiy yondasha olish qobiliyati, tafakkurning istiqbolga yo‘nalganligi	● ko‘pchilik faoliyatini muvofiqlashtira olish, begonalarga nisbatan ijtimoiy nuqtai nazardan sabr-toqatli bo‘lish, ba’zan oqimga qarshi bora olish, ya’ni agar manfaat talab qilsa, oxirigacha o‘z nuqtayi nazarini va qiziqishlarini himoya qila olish, turli toifa, jins va yosh xususiyatli insonlar bilan gaplasha olish va o‘z fikrini tushuntira olish madaniyati	● tavakkal qila olish qobiliyati, o‘z harakatlari, istaklari va ehtiyojlarini nazorat qila olish, kurashish va g‘alaba qilish ishtiyoqi, o‘zining butun iqtidori va “men”i fazilatlarini o‘zgalarga ko‘rsatish orqali, ko‘pchilikning e’tiboriga sazovor bo‘lish, yutuqlarga erishish motivining muvaffaqiyatsizliklardan saqlanish motividan ustunligi, qat’iyat, talabchanlik, ya’ni nafaqat o‘zgalarga, avvalo, o‘ziga nisbatan talabchanlik, intiluvchanlik, qo‘rqmaslik, dadillik

Tadbirkor ko‘pincha tavakkal qilishga majbur bo‘lgani uchun tadbirkor faoliyatida unga o‘ziga xos irodaviy sifatlar kerak. Pedagog ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda tadbirkorlikka oid irodaviy sifatlarni rivojlantirishi lozim. Ularga birinchi navbatda tavakkal qila olish qobiliyati, o‘z harakatlari, istaklari va ehtiyojlarini nazorat qila olish, kurashish va g‘alaba qilish ishtiyoqi, o‘zining butun iqtidori va “Men”i fazilatlarini o‘zgalarga ko‘rsatish orqali, ko‘pchilikning e’tiboriga sazovor bo‘lish, yutuqlarga erishishmotivining muvaffaqiyatsizliklardan saqlanish motividan ustunligi, qat’iyat, talabchanlik, ya’ni, nafaqat o‘zgalarga, avvalo o‘ziga nisbatan talabchanlik, intiluvchanlik, qo‘rqmaslik, dadillik kabi qator fazilatlar kiradi. Ba’zan tadbirkor bu yo‘lda boshqalarga ziyon yetkazganligini bilsa ham bu yo‘ldan qaytmaydi. Masalan, tadbirkorlikka mukkasidan ketgan ayrim kimsalar, o‘z oilasi manfaatini ham esdan chiqarib qo‘yadi. Topilgan sarmoyalar ko‘payib, ular keyingi yangi loyihalarda ishlagan sari, yana yangi “kayfiyat” bilan butun vujudi bilan ishga mashg‘ul bo‘lib ketadi.

Tadbirkor – o‘z-o‘zini haddan ziyod “o‘zagidan”, tadbirkorlik faoliyatiga o‘ta “berilgan” bo‘lgani uchun ham unga yaxshigina sog‘liq, salomatlik, kuch-quvvat va kelajakka ishonch zarur. Demak, ingliz tili darslarida pedagog o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ularning shaxsiy gigiyena madaniyatidan tortib, ovqatlanish, dam olish va bo‘sh vaqtini manfaatli rejalashtirish qobiliyatiga ham e’tiborli bo‘lishi shart.

Pedagogik mahorat va madaniyatda tadbirkorlik yoki ba’zan bu sifatni uddaburonlik ham deb atash mumkin, shunday xususiyatki, odam bir vaqtning o‘zida ma’lum muammo yuzasidan bir qancha yechimlarni topa oladi, muhimi – u har qanday murakkab holatdan ham chiqishning eng samarali, omilkor yo‘lini topishga tayyor bo‘ladi va buni amalda isbot qiladi ham. Ya’ni, bunday kishilar har qanday vaziyatdan ham chiqish yo‘lini biladi.

Ingliz tili fani o‘qituvchilarining faoliyati o‘quvchilarga ingliz tilini o‘rgatish bilan birga shaxsni tarbiyalash jarayonida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini ochish hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. O‘qituvchi hamisha “Nima uchun o‘qitish kerak?”, “Qanday o‘qitish kerak?” degan savollarga javob topishi zarur.

Tadbirkor pedagogga kommunikativ sifatlar zarur. Ingliz tili darslarida pedagog o‘zi o‘qitayotgan o‘quvchilarning ruhiyatlariga mos ravishda muloqotda bo‘la olishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish usullarni qo‘llay olishi lozim.


Tadbirkorlik ko‘pincha amalda ko‘pchilikning birgalikdagi harakatlari bo‘lgani uchun ham o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogga odamlar bilan to‘g‘ri va o‘rinli muomala qilish mahorati juda zarur. Bu blokdagi xususiyatlarga avvalo, ko‘pchilik faoliyatini muvofiqlashtira olish, begonalarga nisbatan ijtimoiy nuqtayi nazardan sabr-toqatli bo‘lish, ba’zan oqimga qarshi bora olish, ya’ni, agar manfaat talab qilsa, oxirigacha o‘z nuqtai nazarini va qiziqishlarini himoya qila olish, turli toifa, jins va yosh xususiyatli insonlar bilan gaplasha olish va o‘z fikrini tushuntira olish madaniyati kabi qator saviyalar kiradi.

Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik mahorat va madaniyatning asosiy maqsadi – o‘quv-tarbiyaviy jarayonining turli xil bo‘g‘inlarining mazmuni, vositalari, shakllari va uslublarining ma’lum darajada kelishini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonining barcha bo‘g‘inlarining zarur darajada o‘zaro ta’sirlashuvi, mustaqil integrativ jarayonlarning faoliyat yuritishini ta’minlash mumkin. Har qanday integrativ jarayon ma’lum bir pedagogik ustuvorlikka mos keladi, u o‘zining mazmuni, vositalari, amalga oshirish usullariga ega bo‘ladi.

Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogning aqliy salohiyat, pedagogik mahorat xususiyatlar quyidagi bir qator sifatlar bilan bog‘liq: bilimdonlik, muammo va to‘siq, qiyinchiliklarni oldindan ko‘ra olish layoqati, rivojlangan xayol jarayonlari, oldindan ko‘p sabab va oqibatlarni tasavvur qila olish, real fantaziya, tafakkurdagi kreativlilik, ya’ni, har narsaga ijodiy yondasha olish qobiliyati, tafakkurning istiqbolga yo‘nalganligi va boshqalar. Bu sifatlarning barchasi, eng avvalo pedagogning o‘z oldiga real maqsadlar qo‘yishi va o‘z faoliyatini chinakam rejalashtira olishiga imkon beradi.

Donishmandlar rivoyatiga ko‘ra, ko‘l bo‘yida qorni och qolgan bir kishi baliq tutib turgan donishmanddan yordam so‘ragan. Donishmand esa unga baliq yoki qarmoq berish o‘rniga qarmoq yasashni o‘rgatgan va bu bilan kelajakda yordamga muhtoj bo‘lmasdan o‘z yo‘lini o‘zi topishiga yo‘l ko‘rsatgan. Yordamga muhtoj inson donishmandning harakatlari bilan qorni ochganda baliq tutishni, qarmog‘i singanda yana qarmoq yasashni hamda bu bilan o‘zini va yaqinlarini boqa olish mumkinligini tushunib yetgan.

(2-rasm). Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogga qo‘yiladigan talablar




O‘quvchilar “qarmoq yasashni” qanchalik tez va mustahkam o‘rganib olsalar, ular shunchalik birovlarga muhtoj bo‘lmasdan o‘z “ovlariga” ega bo‘ladilar.

Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik mahorat va madaniyatga ega bo‘lgan tajribali o‘qituvchi har qanday sharoitda o‘quvchilar qalbidan joy topa oladi. Zero, Konfutsiyning “O‘zini kamol toptira olmagan inson, o‘zgalar kamolotini ta’minlay olmaydi” yoki Nizomiy Ganjaviyning: “Hamisha yaragil xalq xizmatiga, Bezak bo‘l olamu, odam zotiga”, - degan purma’no so‘zlari bejiz aytilmagan.

Pedagogik madaniyat o‘qituvchining yuksak fazilatlaridan darak bersa, pedagogik mahorat esa, uni kasb egasi darajasiga ko‘taradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda donishmand mutafakkirlar o‘z davridayoq oltinga teng fikrlarini bildirib o‘tganlar (3-rasmga qarang).

(3-rasm). O‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda donishmand mutafakkirlar fikrlari



“Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin”. A.S.Makarenkoning ushbu hikmatli so‘zlari har bir pedagog uchun muhimdir. Nutq madaniyati, so‘z boyligi ham pedagogning asosiy qurolidir. Bu to‘g‘risida Abdulqodir Nuriy al-Barzanjiy shunday deydi: “Tilning shirinligi va xulqning pokligi sen uchun har qanday og‘ir ishni yengillashtiradi, tor rizqingni kengaytiradi, yetolmagan maqsadlaringga yetkazadi, odamlar seni sevadi va sening foydang uchun mehnatini ayamaydi”.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ta’lim-tarbiya beruvchi ustoz adashishga haqqi yo‘q, chunki noto‘g‘ri qo‘yilgan bir qadam insonni halokatga olib boradi. Zero, Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”, deb bejiz aytmagan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda maktab pedagog xodimining pedagogik mahorat va madaniyatiga quyidagi tadbirkorlik talablari qo‘yiladi: mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olish va his etish; bozor qonun-qoidalarini, talablaridan kelib chiqqan holda dars mashg‘ulotlarini tashkil etish; taraqqiyot bilan barobar qadam tashlash; ko‘pchilik dardi bilan yashash; hamkorlik, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritish; mustaqil fikr yurita olish; maqsadni aniq qo‘ya olish; ishbilarmonlik; samimiy, vazmin, bag‘rikeng; ijodkor, bunyodkor, yaratuvchi; talabchan va mehribon; vaqtning qadriga yetadigan; xushmuomala inson bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iste’dod” jamg‘armasi. – 2008, 180-b.
2. To‘ychiboyeva O.S., Sattarova H.X. “Ta’lim texnologiyalari”. – T., 2016-y. 6-son. 44-46-b.
3. Sh.M. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. 2016-yil, dekabr.
4. Husayn Voiz Koshifiy. “Futuvvatnomai sultoniy”. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – 2011. – 376 b.
5. Полонский В.М. Методы исследования проблем образования. – М: Педагогика, 1994.
6. Robson, Colin. 2002. Real World Research: A Resource for Social Scientists and Practitioner-Researchers, Malden: Blackwell.
7. Malikov T. Moliyaviy menejment. – T.: “Akademiya”, – 1999.
8. Sharipova M.H. Maktab boshqaruvida rahbarning o‘ziga xos – tadbirkorlik faoliyati. “Ta’lim texnologiyalari”, – T., 2016, 6-son – 62-64-b.

O‘lmasoy NURIDDINOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Umumiy tilshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi

NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MATN TARKIBIDAGI LEKSIK VA SINTAKTIK BIRLIKLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili ta’limining asosiy vazifalari, nutqiy birliklar, nutqiy ko‘nikma, nutqiy kompetensiya elementlari, og‘zaki va yozma nutq o‘stirish, ijodiy va kreativ fikrlash hamda o‘quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatini takomillashtirish bo‘yicha tilshunos, metodist olimlar hamda psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Ona tili ta’limi, nutqiy birliklar, og‘zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko‘nikma, nutqiy kompetensiya, ta’limiy o‘quv topshiriqlari, ilg‘or texnologiyalar, kreativ yondashuv, ijodiy tafakkur, tasviriy ko‘rgazmalar, matn turlari ustida ishlash.

В данной статье рассмотрены основные задачи родного языка образования, речевых единиц, речевых навыков, элементов речевой компетенции, развития устной и письменной речи, образно-творческого мышления, совершенствования мыслительных способностей учащихся, лингвиста, методиста научного проанализированы взгляды ученых и психологов.

Ключевые слова. Обучение родному языку, речевые единицы, устная и письменная грамотность, навыки говорения, речевая компетенция, учебные задачи, передовые технологии, творческий подход, творческое мышление, визуальные проявления, типы текстов над которыми работают.

In this article, the main tasks of mother tongue education, speech units, speech skills, elements of speech competence, the development of oral and written speech, creative and creative thinking, and the improvement of students' ability to think, linguist, methodist scientific views of scientists and psychologists were analyzed.

Key words. Mother tongue education, speech units, oral and written literacy, speaking skills, speaking competence, educational tasks, advanced technologies, creative approach, creative thinking, visual displays, types of texts work on.

Ona tili o‘qitishda o‘qituvchiga qo‘yiladigan vazifalardan biri o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish hisoblanadi. Nutqiy kompetensiyani lingvodidaktik asoslanishi tilshunoslar, pedagoglar, psixologlarva metodist olimlar tomonidan tadqiq qilinib, turlicha ilmiy qarashlar, ayricha fikr-mulohazalar bildirilgan. Nutqiy kompetensiyaning birinchi elementi bu tinglab tushunishdir. Bu jarayon bolaning go‘daklik davridan shakllana boshlaydi. Dastavval ularda nutqiy kompetensiyalardan biri tinglab tushunishning ilk elementlari shakllanadi.Ular chaqaloqlik paytida ona allasini tinglaydi vashu alla ta’sirida tinchlanishi, uyquga ketishi kuzatiladi. Shundan aniq bo‘ladiki, bola yosh bo‘lsa ham, uning aqli, dunyoqarashi rivojlanmagan paytdan boshlab bu nutqiy ko’nikmalar ularga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligining guvohi bo‘lamiz. Keyinchalik ular o‘smirlik davrida ertak eshitish, hikoya, dostonlarni tinglash va o‘zi ularni mustaqil mutolaa qilishi natijasida tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish kabi nutqiy kompetensiya debochasi rivoj topa boshlaydi, o‘spirinlik davrida esa psixologik omillar takomili bilan birga kitobxonlik madaniyati yuzaga keladi. Kitob mutolaasi o‘quvchilarning sevimli mashg‘ulotiga aylanishi, kichik, katta hajmdagi va har turdagi badiiy, ilmiy adabiyotlarni

o‘qishga qiziqish uyg‘onishi hamda ularni o’rganishga ehtiyoj sezishi, muayyan maqsadlarni o‘z oldiga qo‘yishi nutqiy kompetensiya elementlari rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi jarayonlar o‘quvchilarda asta-sekin o‘sib boradi. Shu bois, badiiy va ilmiy adabiyotlarni o‘qish va bilimlar yig‘indisini egallash uning ma’naviy mulkiga aylanadi. Bu o‘quvchini barkamol shaxs sifatida tarbiyalanishida asosiy rol bajaradi, ularda tarbiyaviy tomonlama yetuklik, komillik o‘z aksini topadi. Shu o‘rinda olima Sh.Yuldasheva fikri ahamiyatli. “Ma’lumki, tinglab tushunish murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Boisi, so‘zlovchining radio, magnitofon, televideniye orqali yoki muloqot paytida ifodalagan nutqini tinglovchi tezda qabul qilib, mazmunini tushunib, xotirada saqlab qolishi lozim. Bunday nutqni qaytadan o‘qib olish uchun imkon bo‘lmaydi. Tinglab tushunish gapirish bilan uzviy bog‘liq. Tinglab tushunish ko‘nikmasi egallangan bo‘lsa, o‘quvchida gapirish ko‘nikmasi ham yaxshi rivojlanadi”[1]. Haqiqatdan ham, nutqiy kompetensiyaning elementlaridan biri tinglab tushunish murakkab faoliyatdir. So‘zlovchining hamma informatsiyasini, poetik matnni o‘quvchi to‘liqligicha batafsil anglamasligi mumkin. Olimaning bildirgan mulohazasiga qo‘shimcha ravishda diqqat qilishni, fikrni jamlagan holda tinglashni ham kiritish mumkin deb munosabat bildiramiz. Ayniqsa, o‘quvchilar omma oldida, tadbirlarda biror ma’lumotni tinglab tushunishida ularga erkin tinglashni va ongli tahlil qilishni, xulosa chiqarishni, aniq gapirishni o‘rgatish pedagogik zaruratdir. “O‘quvchilar oldiga gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv malakalarini hosil qilishdan iborat zamonaviy vazifalar qo‘yish, o‘quv dasturlari va darsliklar tuzilib ta’lim jarayoniga tatbiq etish nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirishdagi muhim omildir. Bu davrda tinglab tushunishni o'rgatish masalalari ilk bor tadqiq qilindi. Nutq namunalari asosida gapirishni o'rgatish maqsadga muvofiq deb topildi”[2]. So‘nggi yillarda tuzib chiqilgan amaldagi o‘quv dasturi va 2019-2022-o‘quv yillari mazmun, ko‘rinish, shakl jihatdan yangi tuzilgan “Ona tili” darsliklari o‘quvchilarning nutqiy kompetensiya elementlarini matn turlari orqali yuqori darajada takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, 8-sinf “Ona tili”[3] darsligida ma’lumotnoma, ijodiy-tavsifiy matn, inshoning mavzuva mazmuniga ko‘ra turlari, matn, mumtoz matn va lug‘at bilan ishlash, tilshunoslikning sintaksis bo‘limi haqida umumiy tushuncha, sodda gap, qo‘shma gap, gap bo‘laklari yuzasidan tahlil, gapda tinish belgilarning ishlatilishi, uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘z va unda ohang hamda tinish belgilarning qo‘llanilishi, og‘zaki nutq mahorati bo‘yicha nazorat ishlarini olish bo‘yicha mavzular, mashq, topshiriqlar, savollar, ilmiy, badiiy, rasmiy matnlar ustida ishlash berilgan. Bu darslikdagi 115-mashqda keltirilgan fikrlar mazmun-ma’noga ega nutq namunasi ayni haqiqatdir. 1.Gapirishni bilish talantdir. (Stendal) 2. Bahslashish ko‘plarning qo‘lidan keladi, oddiygina suhbatlashishni kamdan-kam kishi eplaydi.(A.Olkott) 3. Odamlar bilan ularning aqliga monand gaplash.(Sa’diy) 4.So‘z xulq- atvor demakdir.(L.Tolstoy) 5. So‘z gavhari garchi bordir aziz, fahmi yo‘q oldidadur bir qadrsiz.(Nishotiy) 6.Amalsiz ilm -mevasiz yog‘och.(“Otalar so‘zi”). Mazkur darslikdagi bu kabi hikmatli so‘zlarni dars jarayonida ifodali o‘qish va tahlil qilish, o‘quvchilarning bildirgan munosabatlarini taqqoslash ularning insoniy fazilatlar mujassamlashuvi, nutq madaniyati rivojiga ta’sir qiluvchi nutq namunalarini sharhlatgan bo‘lamiz.

D.Nunan eshitib tushunish, ishtirok etish, tushunish, eslash, baholash va javob berishdan iborat olti bosqichli jarayonni ketma-ketlik va tezlikda amalga oshirilishini

[1] Yuldasheva Sh.Sh. Davlat tili ta'limida o‘quvchilar nutqiy malakalarini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. nom. diss. –T., 2008. –23–24 b.

2 Ляховицкий М.В. Методика преподавания иностранных языков. – М., 1981. – С.98.

[3] Qodirov M.,Ne’matov H.,Abduraimova M.,Sayfullayeva R.,Mengliyev B.Ona tili.Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik.To ‘rtinchi nashr. –T., 2019.–142-b.

quyidagicha izohlaydi:

Birinchisi– eshitish. Bu quloqning sezgir retseptorlarini rag'batlantiradigan tovush to‘lqinlari tufayli yuzaga keladigan javob bilan bog‘liqdir.

Ikkinchisi – diqqat. Bu bizning miyamizga qaratilgan tanlovni anglatadi. Miya ogohlantiruvchi signallarni qo‘zg‘atadi va kishining diqqat markaziga tushishiga imkon beradi.

Uchinchi bosqich – tushunish. Bu biz eshitgan narsalar ma’nosini tahlil qilish, eshitgan va ko‘rgan ramzlarni tushunishdan iborat. Ramziy stimullar nafaqat so‘zlar, balki ular qarsaklar, tovushlar bo‘lishi mumkin. Buning uchun biz kontekstdan mo‘ljallangan ma’noni tushunishimiz kerak.

To‘rtinchi bosqich – yodda saqlash. Bu jarayon ham eshitib tushunishning muhim qismi hisoblanadi, chunki bunda shaxs ma’lumotni qabul qilish va uni talqin qilishdan tashqari ma’lumotlarni esda saqlab qoladi. Lekin bizning xotiramiz eslab qolingan narsalar avval eshitilgan yoki ko‘rgan narsalardan mutlaqo farq qilishi ham mumkin.

Beshinchi bosqich – baholash, ya’ni tinglovchi qabul qilingan xabarni baholaydi. Aynan shu vaqtda faol tinglovchilar dalillarni aniqlaydilar, dalillarni fikrga qarab tartiblaydilar va xabarda noxolislik bor yoki yo‘q ekanligini aniqlaydilar. Berilgan ma'lumot xotirada yaxshi saqlansa, bu hayotiy jarayonda amaliy ko'nikmalar hosil bo'ladi. Bunday jarayonlar olingan bilimlar natijasini belgilab beradi.

Oltinchi bosqich – javob berish. Bu bosqichda tinglovchining javobi orqali u xabarni to'g'ri yoki noto'g'ri qabul qilganini bilish mumkin[4].

Psixologlar gapirish va so ‘zlash jarayonini 3 bosqichda ifodalaydi:

1) muayyan maqsadga yo‘naltirishga chaqirish – o‘y-fikr, mulohaza yuritish jarayoni;

2) analitik-sintetik jarayon – fikrni shakllantirish jarayoni;

3) amalga oshirish jarayoni – nutqni yuzaga chiqarish, ifodalash[5]. So‘zlash va gapirish nuqtayi nazardan yondashganda maqsad, o‘y, fikr-mulohaza hamda nutqni ifodalash asl maqsad tariqasida amalga oshadi.

Professor R.Yo‘ldashevning fikricha,”... gapirish birinchi navbatda so‘zlarni va ularning talaffuzini bilish, fikr bayon qilish chog‘ida kerakli so'zni xotiraga keltirib, grammatik jihatdan shakllantirish, hosil bo‘lgan so‘z shakli taqozo etgan navbatdagi so‘zni xotiraga keltirish, uni ham grammatik jihatdan shakllantirish, shu tariqa ongda yuzaga keladigan sintagmani aytishning cheksiz zanjiri sodir bo‘ladi”[6]. Gapirish paytida so‘zlar zanjiri ketma-ketlikda tizilib kelsa, fikr ma’noli ifodalansagina u tinglovchiga yetarlicha mazmun beradi.

O.B. Sirotnina “Nutq madaniyati-har qanday kommunikativ vaziyatda, eng avvalo, xatosiz gapirishni anglatadi, to‘g‘ri fikrlash, to‘g‘ri so‘zlash madaniyat belgisi sifatida tan olinmoqda”[7] - deb ta’kidlaydi. D.Toshxo‘jayeva “Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga o‘rgatishning metodik asoslari” mavzusidagi tadqiqot ishida talabalarni matn mazmunini qayta hikoya qilishga tayyorlashda o‘zbek tili o‘qituvchilari diqqat e’tiborida nimalar bo‘lishligi haqida to‘xtalib o‘tgan. Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan bayon etishda lug‘at ustida ishlash samara berishini tadqiq qilgan”. Shunga ko‘ra, har qanday matn lug‘at turlari ishlashga oid ishlar ehtiyoj sezilishi bu oddiy haqiqatdir.

Yuqorida bildirilgan ilmiy qarash va mushohadalardan shunday xulosa qilish joizki, matn turlari tarkibidagi so‘zlar, yetakchi morfemalarni tobelantiradigan gram-

[4] Nunan D. “Listening in language Learning”. In “Methodology in Language Teaching” Eds. Jack C.Richards,Willy A.Renandya, Cambridge university press 2002. – P. 432.

[5] Леонтьев А.А. Лекция по общей психологии. – М.: Изд-во Смысл.2000. – С. 506.

[6] Yo‘ldoshev R.Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili ta’limi mazmuni va metodlarini tanlashda uzviylik//Uzluksiz ta’lim.Ilmiy-metodik jurnal. – T., 2002. 6-son. 79-85 b.

[7] Сиротнина О.Б.Устная речь и типы речевых культур.//Русистика сегодня, – М., 1995. – Вып 4,С.3-21.

matik vositalar o‘zaro mosligi, nutq va tafakkur uyg‘unligiga doir amaliy ko‘nikmalar hosil qilish kerak. Binobarin, 8-sinf o‘quvchilari ona tili darslarida so‘zlarning teng va tobe bog‘lanishi, sintaktik birliklarning matnda qo‘llanilish imkoniyatini anglashi, ijtimoiy hayotda nutqiy vaziyatlarga duch kelganda muammoning yechimini topishda sintaktik va leksik birliklarni ishlatish, fikrini ilmiy dallillash hamda ibratomuz, tarbiyalanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan buyuk siymolarning hikmatli so‘zlaridan namuna keltirish ularda subyektiv munosabat bildirishga yo‘naltiruvchi vositadir. Shuning uchun ularda quyidagi nutqiy ko‘nikmalar hosil qilinishi lozim:

– o‘quv darsligi va ilmiy adabiyotlarni mustaqil o‘qish:

– o‘zbek adabiyoti lirik merosini o‘qish va uni sharhlash;

– nutq uslublariga oid belgilangan talablar asosida matn yaratish;

– matn turlarini yaratishda bog‘lanishli nutqqa e’tibor qaratish;

– informatsiya, nazariy ma’lumotlarni chuqur o‘rganib, ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish:

Nutqiy kompetensiyani ona tili mashg‘ulotlarida rivojlantirish matnlar mazmunini peysaj, tabiat manzaralari tasviri, rasm, ko‘rgazmalar, diagrammalar, dialogli matnlar bilan ishlash, matn turlari bo‘yicha topshiriqlar tuzish va fikrini yozma bayon qilishga asoslangan mashqlar yaratish, matnni tahrir qilishga o‘rgatish bo‘yicha savollar jamlanmasini ishlab chiqish foydali deb hisoblaymiz, buning uchun o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishimiz va yozma savodxonligiga, matn yozish, uni tuzish, xatolar ustida ishlarni tashkil qilishga e’tibor qaratish zarur. Shuni ham ta’kidlash kerakki, o‘quvchilar xatosi bilan ishlanganda uni o‘z tengqurlari orasida kamsitish, dakki berish salbiy holatdir. O‘quvchilardagi psixologik vaziyatlarni inobatga olib shunday holatda o‘qituvchidan ehtiyotkorona yondashish talab qilinadi. O‘spirin yoshda ularga tanqidiy fikr bildirish, sinf jamoasi oldida uning xatosini muomala madaniyatiga amal qilgan holda turli ta’limiy o‘yinlar vositasida tushuntirimiz samara beradi.

“Nutqda fikrni rivojlantirib borib, dastlab uning sxemasini tinglovchining aqliga yetkazish, keyin uning tasavvuriga yaqqol taqqoslarni taqdim etish kerak, nihoyatda chiroyli lirik tasvirlar bilan ehtiyotkorona uni tinglovchining yuragiga jo qiling, o‘shanda tinglovchi – asiringiz qochib ketmaydi, hatto siz uni erkin qo‘yib yuborsangiz ham sizning abadiy itoatgo‘y mijozingiz bo‘lib qoladi”[8]. Shuningdek, tinglovchiga lirik tasvirlar vositasida o‘z fikrini etkazish so‘zlovchining so‘zni qanday tanlash imkoniyatiga bog‘liq. Agar o‘quvchiga vatanning muqaddasligini ushbu poetik satrlar orqali ifodalash so‘zlovchi nutqining ta’sirchanligidan dalolat beradi.

O, ota makonim,
Onajon o‘lkam,
O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.
Senday mehribon yo‘q,
Seningdek ko‘rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga. (Muhammad Yusuf)

O‘zbek xalqining zabardast ijodkorlaridan biri Muhammad Yusufning “O‘zbekiston” she’ridan olingan lirik shoirona satrlarini ifodali tarzda o‘qib eshittirish o ‘quvchida ona vatanga muhabbat, sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otish bilan birga emotsional-ekspressiv so‘zlardan foydalanishga o‘rgatadi, og‘zaki va yozma nutq boyligi mustahkamlanadi. Metodist olima K.Mavlonovaning” Og‘zaki va yozma nutq boyligiga qanday erishiladi?” maqolasida, ‘‘O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishning asosiy omillaridan biri ularni

8 Разумова Л., Шаров В. Лектор нутқининг таъсирчанлиги. – Т., 1973. – 21-б.

o‘ylashga, fikr bildirishga, mantiqiy xulosa chiqarishga intiltiruvchi zarur bilimlar berishdir. Buning uchun har bir darsni o’quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga moslab yo‘naltirishga harakat qilish zarur. Shunday bilim va ko‘nikma berish kerakki , natijada o’quvchi mustaqil ijodiy ravishda gap, matn tuzib, insho, bayon yoza olsin suratlar va tasviriy filimlarni erkin sharhlay bilsin”[9]. S.Salimovaning ta’kidlashicha, fikrni va ma’lumotni xatosiz yozish, ya’ni “imlo, bu-savodxonlik,savodxonlik esa madaniylik belgisidir”[10]. Insondagi madaniylik sifatida o‘zini tutishi,aql bilan ish olib borishi, kamtar bo‘lishi bilan bir qatorda o‘z fikrini orfografik qoidalarga amal qilgan holda to‘g‘ri yozishi, tipik, imloviy, stilistik xatolarga yo‘l qo‘ymasligi nazarda tutiladi.

O‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani matn turlari orqali rivojlantirishda so‘zlash, o‘qish, yozishda uchraydigan ba’zi nuqsonlarni aniqlash va uni bartaraf qilishga oid ishlar tashkillashtirish metodik ahamiyatga ega.Ular:

а) muayyan hududga oid mahalliy shevaning ta’siri;

б) og‘zaki nutqida “ko‘cha tili”ni, chet so‘zlarni qo‘llash;

в) o‘z nutqida ma’lum leksik birliklarni ortiqcha ko‘p ishlatish;

г) nutq organlarida g ‘ayritabiiy kamchiliklarning kuzatilishi: “z” tovushini “s” tarzida talaffuz qilish, tili chuchuklik, duduqlanib gapirish kabi.

Ona tili fani o‘qituvchisining oldida turgan asosiy vazifalaridan biri mana nuqson va kamchiliklasrni o‘z vaqtida aniqlab, bartaraf qilishi muhim sanaladi.,

Xullas,ona tili ta’limida o‘quvchilarda tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish kabi nutqiy kompetensiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq faoliyatni samara va natija berishini asosiy maqsadga aylantirish lozim. Shunda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan olib borgan bosqichma-bosqich ishlar asosida til sathlaridan, lisoniy imkoniyatlardan, o‘rinli foydalanish, sermahsul fikr mahsuli egasi bo‘lishiga, raqobatbardosh, intellektual salohiyatli shaxs bo‘lib voyaga yetishida qiziqish, tirishqoqlik yanada uyg‘onadi, fikrlash doirasi kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Salimova S.Matbuot tili va imlo// O‘zbek matbuoti. – T., 2005.

2. Сиротнина О.Б.Устная речь и типы речевых культур.//Русистика сегодня, – М.,1995.

3.Yo‘ldoshev R.Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili ta‘limi mazmuni va metodlarini tanlashda uzviylik//Uzluksiz ta’lim.Ilmiy-metodik jurnal. –T., 2002. 6-son.

4. Ляховицкий М.В. Методика преподавания иностранных языков. – М., 1981.

5. Леонтьев А.А. Лекция по общей психологии. – М.: Изд-во Смысл.2000.

6. Mavlonova K. Og‘zaki va yozma nutq boyligiga qanday erishiladi? Til va adabiyot ta’limi. – T., 2016-yil. № 9.

7. Nunan D. “Listening in language Learning”. In “Methodology in Language Teaching” Eds. Jack C.Richards,Willy A.Renandya, Cambridge university press 2002.

8.Yuldasheva Sh.Sh. Davlat tili ta'limida o‘quvchilar nutqiy malakalarini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. nom. diss. – T., 2008.

[9] Mavlonova K. Og ‘zaki va yozma nutq boyligiga qanday erishiladi? Til va adabiyot ta’limi. –T., 2016-yil.№9. -24-25b.

[10]Salimova S.Matbuot tili va imlo// O‘zbek matbuoti. – T., 2005.

Oysha QURBONOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Umumiy tilshunoslik”
kafedrasi v.b. dotsenti

NUTQIY KOMPETENSIYA ELEMENTLARINI O‘RGATISHDA NUTQNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili o‘qitishning maqsad va vazifalari, nutqiy kompetentlik, nutqiy ko‘nikma, nutqiy kompetensiya komponentlarining lingvodidaktik asoslanishi, og‘zaki va yozma savodxonlikni o‘stirish, ijodiy va kreativ fikrlash hamda o‘quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatini takomillashtirish bo‘yicha tilshunos, metodist olimlar hamda psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Og‘zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko‘nikma, nutqiy kompetensiya, ta’limiy o‘quv topshiriqlari, ilg‘or texnologiyalar, kreativ yondashuv, ijodiy tafakkur, tasviriy ko‘rgazmalar, matn turlari ustida ishlash.

В данной статье проанализированы научные взгляды ученых-лингвистов, методистов и психологов на цели и задачи обучения родному языку, лингводидактическое обоснование речевой компетенции, речевых навыков, компонентов речевой компетенции, развитие устной и письменной грамотности, творческого и креативного мышления и совершенствование мышления учащихся.

Ключевые слова. Работа над устной и письменной грамотностью, речевыми навыками, речевой компетенцией,учебно-воспитательными заданиями, передовыми технологиями,творческим подходом, творческим мышлением, иллюстративными выставками, типами текста.

In this article analyzes the scientific views of linguists, methodologists and psychologists on the goals and objectives of teaching the native language, the linguodidactic justification of speech competence, speech skills, components of speech competence, the development of oral and written literacy, creative and creative thinking and improving the thinking of students.

Key words. Work on oral and written literacy, speech skills, speech competence, educational tasks, advanced technologies, creative approach, creative thinking, illustrative exhibitions, text types.

Bugungi kunda respublikamizda yangi O‘zbekistonni barpo etish va uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yosh avlodga chuqur bilim berish, ularni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash kabi mas’uliyatli vazifalar belgilangan. Bu jarayon ona tili o‘qituvchilarning har bir darsni ilg‘or zamonaviy metodlar, nutq shakllarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etishning samarali yechimlarini topish bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

Ona tilini o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda mustaqil tafakkur qilish, kreativ va ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish hamda o‘zining fikrini og‘zaki, yozma shaklda aniq, sermazmun, tushunarli, savodli tarzda ifodalashni o‘rgatishdan iborat. Shu bois, ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetentsiyalarning o‘ziga xos o‘rni muhim hisoblanadi.

O‘quvchilar mavzuga doir mashqlar topshirig'ini mustaqil bajarish, mashq tarkibidagi gaplardan va matnlar mazmunidan to‘g‘ri xulosa chiqarish, tinglab tushunish

orqali matndan anglashiladigan asl g‘oya mazmunini qayta hikoya qilishi hamda fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq ifodalay olishi loizim. Jumladan, A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova N.Alavutdinova, V.Karimjonovalarning “Ona tili o‘qitish metodikasi” deb nomlangan darsligidagi’’ O‘quvchining bog‘lanishli nutqi ustida ishlash” bo‘limida nutq, og‘zaki va yozma nutq, nutqiy talablar, nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri qurilgan bo‘lishi, matn ustida ishlash yuzasidan metodik tavsiyalar bayon qilingan. Bu darslikda ona tilining o‘qitilishi o‘quvchilarning fikrlashida nutqiy me’yorlarga amal qilish tartibi og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish yo‘llari hamda ‘‘til”,“me’yor” ,“nutq” tushunchalari mazmuni va vazifalari yoritilgan. “Nutq me’yor g‘alviridan o‘tkazilgan holda yuzaga chiqishi, voqe bo‘lishidir. Nutq- tafakkur mahsuli. Shuning uchun ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan yana bir muhim talab o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishdir[1]”, - deb ta’kidlangan. O. Roziqov va bir qator olimlar tomonidan tuzilgan “Ona tili didaktikasi”[2] nomli darslikda nutq, uning shakllarini rivojlantirish, o‘stirishga oid mashq va topshiriqlarni tashkil etish bo‘yicha ilmiy qarashlar o‘z ifodasini topgan.M.R. Lvov tomonidan esa nutqni fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiruvchi vosita ekanligi e’tirof etilgan[3]. N.F.Titova nutq o‘stirish uchun o‘quvchilarning tafakkuri va fikrlash qobiliyatini tarbiyalash muhim ekanligi yuzasidan fikr bildirgan[4]. Yuqorida metodist olimlarning fikr-mulohazalariga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, o‘quvchilarda nutq, avvalo, adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda bog‘lanishli matn yaratish ko‘nikmasi mustahkamlansa, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish bo‘yicha qiziqarli va innovatsiyot metod va o‘yinlar yaratilib amaliyotga tatbiq qilinsa,kognitivlik asosida ularning mantiqiy, ijodiy, kreativ fikrlashi bilan bir qatorda ilmiy fikrlashi, tafakkur qilish qobiliyati muayyan darajada o‘sib borishiga zamin yaratiladi. Shuning uchun ona tili o‘qituvchisi DTSda umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarda nutqni o‘stirishga oid belgilangan talablarni mukammal bilib mazkur talablarni bajarish ustida ishlash bo‘yicha samara va natija beruvchi ishlarni amalga oshirishni maqsad qilishi ayni muddaodir. Shuni ham unutmaslik lozimki, nutqni o‘stirishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, jumladan, kitobxonlik madaniyati va kitob mutolaasi bilan shug‘ullanishga qiziqish uyg‘otish hamda xotirani mustahkamlovchi mashqlar, topishmoq va maqollar, tez aytishlar orqali kommunikativ yondashuvni rivojlantirish haqli ravishda asoslidir. Shu nuqtai nazardan quyidagi jihatlar asosiy mavqega ega:

– ona tili darslarida nutq ko‘rinishlarining grammatik qurilishini lingvistik kompetensiyalar asosida yaratish ustida ishlash;

– o‘quvchilarning o‘quv fanlariga oid bo‘lgan turli matnlar va ulardagi termin, ilmiy tushunchalar, lug‘atlar bilan ishlashga yo‘naltirish;

– fikrlash jarayonida ilmiy dallillash va mantiqqa tayanishni o‘rgatish;

– lisoniy qoida, ta’riflarni soddalashtirib tushuntirish va o‘z nutqidan foydalanishning amaliy malakalarini hosil qilish;

– matn mazmuniga mos leksik birliklar, gaplar jamlanmasi, morfologik ko‘rsatkichlar va kiritmalardan o‘rinli foydalanish hamda yozma savodxonligi rivojiga e’tibor qaratish;

– o‘z fikrini bayon qilishida nutq texnikasiga odatlanishnini nazoratga olish;

– orfoepik me’yorga amal qilgan holda ravon gapirishni tekshirish va xatolar bilan ishni yo‘lga qo‘yish;

---

[1] G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o‘qitish metodikasi: –T.: Fan va texnologiya, 2012, – 317 b.

[2] Roziqov O.R. va b. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 62 b.

[3] Львов М.Р., Рамзаева Т.Г., Светловская Н.Н. Методика обучения русскому языку в начальных классах. – Москва.Просвещение, 1987. – С.322.

[4] Титова Н.Ф. Культура речи в начальном обучения. – Москва: АПН РСФСР, 1960. – С.232.

– o‘tkaziladigan bahs-munozarada, o‘zaro fikr-munosabat bildirishda bir-birini hurmat bilan tinglash madaniyatni va milliy ruhdagi aksiologik yondashuv bilan uyg‘unlashtirish;

– darsda o‘zlashtirishi yuqori va tafakkuri rivojlangan o‘quvchilarni rag‘batlantirish.

Shuningdek, Sh.Yuldashevaning “Davlat tili ta’limida o‘quvchilar nutqiy malakalarini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari’’ mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini topshiriqlar orqali rivojlantirish o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitish mazmunida quyidagilar yoritilgan:

1. Nutqiy-kommunikativ malaka, turli nutqiy vaziyatlarda fikr bayon eta olish, fikr almashish, eshitilgan materialni idrok etish, o‘qish orqali axborot olish, fikrlarni yozma bayon qila olish malakalari.

2. Til vositalarini nutqda qo‘llash uchun o‘zbek tili tizimidagi zarur bilimlarni (nutq tovushlaridan to muomalaning eng kichik birligi – gapgacha) o‘zlashtirish, ya’ni grammatik malaka.

3. O‘zbek xalqining milliy xususiyatlari, madaniyati hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali hosil qilinadigan malaka”. O‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda grammatik, kommunikativ malakalar ularning nutqiy kompetensiyalar takomillashib borishida xizmat qiladi, binobarin, har bir ta’lim jarayoni subyektlarida o‘zbek xalqining milliy urf-odatlari va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish ulardagi vatanparvarlik, insonparvarlik fazilatlari, o‘zlikni anglashning o‘sishiga, nutqiy vaziyatlarda gapirish, o‘zaro muomala qilish madaniyatiga rioya qilishi, savodli tarzda og‘zaki va yozma ifoda qilishi mustahkamlanadi. Shu jihatlar vositasida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi takomillashib boradi.

Ma’lumki, ona tili darslarida o‘quvchilardan og‘zaki va yozma nutq me’yorlari bo‘yicha grammatik qoidalar, nutqiy mavzularda keltirilgan ta’riflar, ma'lumotlar bilan tanishish va puxta o‘rganish talab qilinadi. “O‘quvchilarning ona tilidan olgan bilimlari tilning grammatik qurilishini nechog‘lik o‘zlashtirganliklari bilangina emas, balki ularning o‘z fikrlarini adabiy tilning boy ifoda vositalaridan o‘rinli, to‘g‘ri foydalangan holda og‘zaki va yozma shakllarda ifodalashlari, shaxsiy mulohazalarini erkin bayon qila olishlari bilan belgilanmog'i lozim”[5]. Olimaning ushbu e’tirofi ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan mutanosib yondashuvdir.

Professorlar A.G‘ulomov va M.Asqarovalarning “Ona tili o‘qitishning sifatini ko‘tarish choralari haqidagi”[6]gi maqolasida o‘quvchilarni sinfdan tashqari jarayonlarda to‘garaklarda, ijtimoiy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan yig‘inlarda adabiy tilda gapirish ta'kidlanadi. O‘quvchilar oila davrasida milliy tilda gapirishi, shevaga xos so‘zlarni erkin ishlatishi tabiiy hol. Ular darsdan keyin tashkil qilinadigan to‘garaklarda adabiy tilda gapiradilar, fikrini adabiy tilda tushuntirib, ba’zi o‘rinlarda izohlab yetkazadi. Biroq bayramlarda, tadbirlarda ham turli hududdan kelgan va boshqa millat vakillari ishtirokchilari qatnashayotganligini inobatga olib adabiy tilda gapirishlari to‘g‘ri deb o‘ylaymiz. Shuning uchun ona tili darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga, shular negizida kompetentsiyalarni rivojlantirishga e’tiborni kuchaytirish kerak.


Darhaqiqat, o‘quvchilarda nutqiy kompetensiya muayyan tizim asosida izchil rivojlantirilishi zarur. R.A.Yo‘ldoshev, L.R.Mirjalolovalarning ta’kidlashicha, “Nutqiy kompetensiya deganda bilim → nutqiy birlik → ko‘nikma → malaka chizig‘idagi ishlar mahsuli tushuniladi. Bu yerdagi bilim nutqda bexato yoki xato qo‘llanadigan, shuning-

[5] Yusupova T.A.Gapning bosh bo‘laklarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning lingvometodik asoslari: ped. fan.nomz...dis.avtoref. – T., 2005. –3 b

[6] G‘ulomov A., Asqarova M. “Ona tili o‘qitishning sifatini ko‘tarish choralari haqida”. Maktab jurnali,1957, 1-son.

dek, o‘quvchilar uchun yangi til hodisasi bilan bog‘lanadi, asosiy e’tibor ayni shu til hodisasini amalda to‘g‘ri qo‘llash ustidagi ishlarga qaratilib, uni anglash, o‘zlashtirish, nutqda qo‘llash jarayonini ifoda etadi; dastlabki ko‘nikma asta-sekin malakaga aylana boradi”[7]. Xullas, nutqiy kompetensiyaning elementlari: tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish yil davomida olingan bilimlar amaliy faoliyatda sinovdan o‘tadi. Bunda fikr uchun bir-biriga aloqador, semantik jihatdan bog‘lanadigan leksik birliklarni o‘z nutqiga anglagan holda olib kirishi belgilanadi. Shunga ko‘ra, o‘quvchilarda termin bilan ishlashni o‘rgatish, lug‘atlar ustida ishlashga yo‘naltirish ularning bilimini kengaytirib, nutqini o‘stiradi. Xususan, olima M.Mirmaxsudovaning fikri tahsinga sazovor. “Bilim unsurlaridan terminlarning nutqiy kompetensiya uchun xizmati bavositadir. Termin tegishli qoidani eslash, darslikdan topish uchun ko‘prik bo ‘lib xizmat qiladi”[8]. Bizning fikrimizcha, nutqiy kompetensiya uchun termin uning rivojida asosiy funksiya hisoblanadi.Chunki, o‘quvchilar terminning ma’nosi bilan qiziqadi va ularda qiziqish tufayli izlanish boshlanadi.Qiziqish va izlanishlar natijasida ko‘proq bilim olish va nutq takomoli yuzaga keladi. Nutqiy kompetensiya elementlarini o‘quvchilarda quyidagi tuzilma asosida rivojlantirish ularning tafakkur qilishida muhim o‘rin egallaydi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish tuzilmasi



[7] Yo‘ldoshev R.A., Mirjalolova L.R. Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv: Методик қўлланма. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019. – 9-b.

[8] Mirmaxsudova M.B. O‘quvchilar nutqini takomillashtirishda grammatik terminlardan foydalanishning lingvometodik asoslari (5–7-sinf ona tili darslari misolida). Ped.fan.nomz. ... diss. – T., 2004. – 89-b.

O‘quvchilarda rivojlangan nutqiy kompetensiyalar kasbiy faoliyat olib borishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Olima M.Karaxodjayeva kasbiy faoliyatni amalga oshirishda “Ma’lumot olish, tinglab tushunish, o‘qish orqali amalga oshsa, ma’lumot berish gapirish va yozma nutq orqali amalga oshadi[9]”. Fikrimizni jamlagan holda aytish zarurki, nutqiy kompetensiyalar kasbiy faoliyatda ham o‘z o‘rni bor. Nutqiy kompetensiya elementlari vositasida kasbiy faoliyatga doir informatsiyalarga ega bo‘lish, ma’lumotlarni o‘qish, bilimlar yig‘indisi zaxirasi paydo bo‘ladi. Bular natijasida o‘z fikrini og‘zaki gapirib, uni yozma ifodalay oladi.

Demak, ona tili darslarida o‘quvchilarga nutqiy kompetensiya elementlarini rivojlantirish ularning kommunikativ va lisoniy kompetensiyalarini mustahkamlashi bilan birga ijodiy va tahliliy yondashish, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik oshadi hamda kreativ, ilmiy fikrlash o‘sadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev R.A., Mirjalolova L.R. Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv: Metodik qo ‘llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019.

2. Karaxodjaeva M.Nofilologik guruh talabalari kasbiy nutqini fe’l asosida shakllantirish metodikasi. Ped. fan. nom. ... diss. –T., 2002.

3. Львов М.Р., Рамзаева Т.Г., Светловская Н.Н. Методика обучения русскому языку в начальных классах. – Москва.Просвещение, 1987.

4. Mirmaxsudova M.B. O‘quvchilar nutqini takomillashtirishda grammatik terminlardan foydalanishning lingvometodik asoslari (5–7-sinf ona tili darslari misolida). Ped.fan.nomz. ... diss. – T., 2004.

5. Roziqov O.R. va boshq. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 62-b.

6. Титова Н.Ф. Культура речи в начальном обучения. – Москва: АПН РСФСР, 1960.

7. Yusupova T.A.Gapning bosh bo‘laklarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning lingvometodik asoslari: ped. fan.nomz...dis.avtoref. –T., 2005.

8. G‘ulomov A.,Asqarova M. “Ona tili o‘qitishning sifatini ko‘tarish choralari haqida”. Maktab jurnali,1957, 1-son.

9. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V.Ona tili o‘qitish metodikasi: –T.: Fan va texnologiya,2012.

[9] Karaxodjaeva M.Nofilologik guruh talabalari kasbiy nutqini fe'l asosida shakllantirish metodikasi.Ped. fan. nom. ... diss. –Toshkent, 2002. –156 b.

Umirzoq YARLAKABOV,
Jizzax pedagogika instituti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Mirzoxid ALIMOV,
Jizzax pedagogika instituti, “Professional ta’lim” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

TALABALARNING HISOBLASH TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING MANTIQIY-FUNKSIONAL TUZILMASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada hisoblash tafakkurini rivojlantirishning mantiqiy-funksional tuzilmasi, pedagogik shart-sharoitlari va hisoblash tafakkurini rivojlantirishning tuzilmasi tarkibi va ularning tahlili haqida tushuntirishlar keltirilgan. Bundan tashqari, hisoblash tafakkurini rivojlantirishning kognitiv asoslari, hisoblash tafakkurini rivojlantirishda mobil texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Kognitiv, mantiqiy-funksional tuzilma, ta’lim, hisoblash, fikrlash, hisoblash tafakkuri, mobil texnologiya, o‘qitish metodikasi, tadqiqot usullari, metod, modellashtirish, interaktiv.

В данной статье даны разъяснения по логико-функциональной структуре развития вычислительного мышления, педагогическим условиям и структуре развития вычислительного мышления и их анализу. Кроме того, представлены познавательные основы развития вычислительного мышления, анализ с учетом дидактических возможностей мобильных технологий в развитии вычислительного мышления.

Ключевые слова. Познавательная, логико-функциональная структура, обучение, вычисление, мышление, вычислительное мышление, мобильные технологии, методика обучения, методы исследования, метод, моделирование, интерактивность.

This article provides explanations on the logical and functional structure of the development of computational thinking, pedagogical conditions and the structure of the development of computational thinking and their analysis. In addition, the cognitive foundations of the development of computational thinking are presented, an analysis taking into account the didactic capabilities of mobile technologies in the development of computational thinking.

Key words. Cognitive, logical-functional structure, learning, computing, thinking, computational thinking, mobile technologies, teaching methods, research methods, method, modeling, interactivity.

Pedagogika fani va amaliyotida “modellashtirish”ning metodologik ahamiyati ta’limiy faoliyatning mazmunli tomonini tavsiflaydi va faoliyatning maqsad, vosita, metodlari va shakllarida paydo bo‘ladigan yangiliklarni aks ettiradi. Bu holatda modellashtirish pedagogik faoliyatning muhim va o‘ziga xos turi sifatida ishtirok etadi: tadqiqot, loyihalash, bashorat qilish va rejalashtirish bilan chambarchas bog‘liq.

Didaktik tizimlarni modellashtirish avvalida ilgarilab boruvchi taxminlar (model ko‘rinishida), so‘ngra uni amalga oshirish yo‘li bilan yangi pedagogik, didaktik, metodologik va texnologik ta’lim tizimlarini maqsadga muvofiq yaratishni nazarda tutadi. Pedagogik faoliyatning yangi modellarini qurish uchun L.G.Shedrovskiy fikriga ko‘ra, bilish kerak: kerakli mahsulotning turi va xarakteri, dastlabki materialning turi va xarakteri, o‘zgartirish uchun kerakli qurollar va vositalar, alohida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan harakatlar xarakteri, ularning tartibini takomillashtirish zarurligi ta’kidlangan.

Biz o‘z tadqiqotimizda tuzilma tushunchasiga bir qator pedagog olimlar tomonidan berilgan ma’lumotdan foydalanamiz. Mantiqiy-funksional tuzilmasi deganda tadqiqot obyektini aks ettirib yoki qayta ishlab uni o‘rganishni bizga obyekt haqida yangi ma’lumot beradigan fikriy tasavvur yoki ma’lumotni amalga oshiradigan tizim tushuniladi.

Bir qator tadqiqotlarda ta’kidlanishicha barcha modellar quyidagi aniq umumiy chizgilarga ega: modellashtiriladigan predmetga tizimli va tuzilmali nuqtayi nazardan qarash, o‘rganilayotgan obyektga mos shajarani tasvirlash, tadqiqot olib borish uchun qulay bo‘lgan darajalar majmuasining mavjudligi.

Hamma vaqt aniq modellashtirish obyekti tahlil qilingani uchun, unga uni boshqa obyektlardan farqlanuvchi va model aks etgan individual xarakteristikalar xos bo‘ladi. Har qanday modelda ijod, evristika va hatto fantaziya elementlari mavjud.

Tuzilma quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak: qo‘llashning soddaligi, oddiylik, bayoning aniqliligi, ifodaliligi bilan eng muhim xarakteristikalarni qamrab olish. Pedagogik modellar maksimal darajada didaktik obyektlarni qamrab olishi va o‘qitishning sharoitlari, mazmuni, metodlari, shakllarini tasvirlash imkonini beradi.

Mantiqiy-funksional tuzilmani yaratish yaxlit, ochiq dinamik tuzilma bo‘lib, bo‘lajak muhandislarning hisoblash tafakkurini rivojlantirish jarayonini maqsadga yo‘naltirishga imkon beradi.

Hisoblash tafakkurini rivojlantirishning mantiqiy-funksional tuzilmasi quyidagi talablarga javob beradi:

– hisoblash tafakkurini rivojlantirish tuzulmasi qarab chiqilayotgan majmuaviy jarayonning o‘zaro aloqa va o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan barcha elementlarining birligi va talabalarning hisoblash tafakkurini rivojlantirish jarayonini ta’minlash;

– talabalarning hisoblash tafakkurini rivojlantirish mantiqiy-funksional tuzilmasi ochiq va rivojlanayotgan tizim hisoblanadi;

– talabalarning hisoblash tafakkurini rivojlantirish mantiqiy-funksional tuzilmasining mosligi deganda, o‘rganilayotgan obyektning uning aks ettirishiga, ya’ni mantiqiy-funksional tuzilmasiga mosligi darajasi tushuniladi;

– mantiqiy-funksional tuzilmasining egiluvchanligi va dinamikligi u yoki bu ilmiy yo‘nalishda istiqbolda yuz berish mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni hisobga olish imkonini beradi. Bu tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayonining hisoblash tafakkurini rivojlantirish faoliyati sohasidagi o‘zgarishlarga o‘z vaqtida reaksiya berishida aks etishi kerak;


– mantiqiy-funksional tuzilmasining kengayuvchanligi, ya’ni uning obyekt va o‘quv jarayoni haqidagi yangi axborot bilan to‘ldirish, mavjud elementlarni modelni o‘zgarish qismi faoliyatini buzmagan holda moslash yoki o‘zgartirish. Buning uchun ishlab chiqilgan mantiqiy-funksional tuzilmasining “blokli” tuzilishga ega bo‘lganligi zarur bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash mumkinki, biz o‘qitayotgan talabalarning hisoblash tafakkurini rivojlantirish mantiqiy-funksional tuzilmasi yaxlit ochiq, dinamik tashkil etilgan bo‘lib, talabalarning hisoblash tafakkurini rivojlantirish jarayonini maqsadga yo‘naltirish, qo‘yilgan maqsadning oxirgi natijaga mos bo‘lishini aniqlash imkonini beradi.

Mantiqiy-funksional tuzilmani yaratishdagi navbatdagi masala – bu uning metodologik tashkil etuvchilarini aniqlaydi. Metodologik tashkil etuvchilarini nazariy ishlab chiqarishning birinchi bosqichida uning tuzilmasi elementlarini va uni tanlash mezonlarini aniqlash zarur. Buning uchun esa A.M. Novikov tomonidan taklif etilgan metodologiya tuzilmasidan foydalanamiz. Ushbu tuzilma bizga mantiqiy-funksional tuzilmani qurish uchun zarur bo‘lgan elementlarni aniq tanlash imkonini beradi. Uni

tanlash yana shu bilan shartlanilganki, hozirgi vaqtda OTMlarda o‘qituvchilarni, shu jumladan, talabalarning hisoblash tafakkurini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri – bu ularni loyihalovchilik faoliyatiga o‘rgatish hisoblanadi.

Hisoblash tafakkurini rivojlantirishning mantiqiy-funksional tuzilmasi asosida ularda quyidagi tadqiqotchilik ko‘nikmalar shakllantirildi: muammoni topish va shakllantirish, tadqiqotchilik faoliyatini bosqichlar va fazalar bo‘yicha rejalashtirish, jamoa bilan ishlash va jamoada ishlash, hisoblash tafakkurini rivojlantirish natijalarini tanqidiy baholash. Bo‘lajak muhandislarning hisoblash tafakkurini rivojlantirishning mantiqiy-funksional tuzilmasining tuzilishi 1-rasmda tasvirlangan.



1-rasm. Talabalarning hisoblash tafakkurini rivojlantirishning mantiqiy-funksional tuzilmasi

Ushbu mantiqiy-funksional tuzilmasi o‘z ichiga quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq komponentlarni oladi.

1. Hisoblash tafakkurini rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy, nazariy va metodalogik asoslari.

2. Hisoblash tafakkurini amalga oshirishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, mazmuni va shart-sharoitlari.

3. Quyidagilarni o‘z ichiga olgan hisoblash tafakkurini rivojlantirish faoliyatiga tayyorligi texnologiyasi:

– talabalar faoliyatini tashkil etish ko‘rinishlari (laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar, nazorat va kurs ishlari);

– masalani qidirish va yechish metodikasi; hisoblash tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari (motivlarni aniqlash, tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqishni rivojlantirish, bo‘lajak muhandislarning hisoblash tafakkurini rivojlantirish motivatsiyasi o‘zgarishini boshqarish va o‘qituvchilarni bu ishga tayyorligi, ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish metodlari (turli ko‘rinishdagi o‘quvchilarni bajarish natijalarini qo‘llashga baholash tizimi orqali);

– talabalarda faoliyati shakllanganlik darajasini nazorat qilish (turli darajali murakkablikdagi tadqiqotchilik masala va topshiriqlarini yechish asosida nazoratning majmuaviy tizimi, tadqiqotchilik faoliyat metodologiyasi asoslari egallanganligini aniqlash).

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, oldindan ma’lum kasbiy faoliyat tuzilmasi komponentlari bugungi kunning zamonaviy ta’lim hamda bo‘lajak muhandislarning malaka talablarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni qisman o‘z ichiga oladi. Bu esa shaxsga yo‘naltirilgan hisoblash tafakkurini rivojlantirish tuzilmasi komponentlariga yangi komponentlarni kiritish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bunda, talabalar o‘z faoliyatiga tanqidiy tahlil qilish, ijodiy yondashish, maqbul qaror qabul qilish va doimiy ravishda yangi g‘oya, texnologiyalarni izlash, ularni kursdoshlar bilan muhokama qilish va tajriba-sinovlar o‘tkazish, hisoblash tafakkurini rivojlantirish metodikalarni ishlab chiqish va amalda joriy qilish, pedagogik faoliyatda yangiliklarni qabul qilish va amalda qo‘llash, talabalarning mustaqil ta’limini tashkil qilishga yangicha yondashish, tashkil qilish va baholash, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish malakalarini egallashlari nazarda tutiladi. Tadqiqotchilik talabaning ichki dunyosini boyitadi, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantiradi va o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va kompetentsiyalarini teranligi va ilmiyligini oshiradi.

Ushbu mantiqiy-funksional tuzilma bo‘lajak muhandislarning texnik bilimlar sohasida hisoblash tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mantiqiy masalalar va topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan hisoblash tafakkurini rivojlantirish metodikasining nazariy asosi bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov M.A. Ta’lim jarayonida hisoblash tafakkuri tushunchasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, O‘zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishi. 2022-yil 1/3/1-son, – T., 2022.

2. Alimov M.A. “Talabalarda hisoblash tafakkurni diagnostika qilish orqali umumiy kasbiy kompetensiyararini shakllantirish”, Ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagogika va psixologiyaning muammolari va istiqbollari. Resbublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Guliston – 2022-yil.

3. Беликова, В. В. Педагогическая диагностика межличностных отношений в учебной группе курсантов: автореф. дис. … канд. пед. наук: 13.00.01 / В. В. Беликова. – СПб., 2009..

Maxbuba SADIKOVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
Til ta’limi markazi, ‘‘Roman-german tillari’’ kafedrasi o‘qituvchisi

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA XORIJIY TILLARNI O‘ZLASHTIRISH DARAJALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya

Maqolada xorijiy tillarni o‘rganish, o‘zlashtirish va o‘qitishda kompetensiyalarning o‘rni, umumyevropa kompetensiyalari, xorijiy tillarni o‘qitish/o‘rganish jarayonining nazariya va amaliy metodlari, Yevropa Kengashining “Chet tillarni egallashning umum yevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘rgatish va baholash” xalqaro me’yorlari, chet tilini o‘rganishning darajalari, til o‘rganuvchilarning leksik, grammatik minimumlari, deskriptorlar integrallashgan til ko‘nikmalari hamda “yevropa til portfeli” haqida batafsil ma’umotlar, ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Xorijiy tillarni o‘rganish, o‘zlashtirish, o‘qitish, kompetensiyalar, umum yevropa kompetensiyalari, nazariya va amaliy metodlari, chet tillarni egallashning umum yevropa kompetensiyalari, xalqaro me’yorlar, darajalar, leksik, grammatik minimumlar, deskriptorlar integrallashgan til ko‘nikmalari, “yevropa til portfeli”.

В статье рассматривается роль компетенций в изучении, овладении и преподавании иностранных языков, общеевропейских компетенций, теории и практические методы процесса преподавания/изучения иностранных языков. Описываются международные стандарты Европейского союза «Общеевропейские компетенции иностранных овладение языком: обучение, преподавание и оценка», уровни изучения иностранного языка, лексические, грамматические минимум изучения языков, дескрипторы интегрированные языковые навыки. Приводятся данные о «Европейском языковом портфолио», даны рекомендации для их реализации.

Ключевые слова. Изучение иностранного языка, овладение, обучение, компетенции, общеевропейские компетенции, теоретические и практические методы, общеевропейские компетенции овладения иностранными языком, международные стандарты, уровни, лексический, грамматический минимум, дескрипторы интегрированных языковых навыков, «Европейский языковой портфолио".

The article discusses the role of competencies in the study, mastery and teaching of foreign languages, common European competencies, theory and practical methods of the process of teaching/learning foreign languages. The international standards of the European Union "Common European competences of foreign language acquisition: learning, teaching and assessment", levels of learning a foreign language, lexical, grammatical minimum of learning languages, descriptors of integrated language skills are described. Data on the "European Language Portfolio" are given, recommendations for their implementation are given.

Key words. Learning a foreign language, mastering, teaching, competencies, pan-European competencies, theoretical and practical methods, pan-European competencies for mastering a foreign language, international standards, levels, lexical, grammatical minimum, descriptors of integrated language skills, "European Language Portfolio".

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar natijasida fan va ta’lim sohasiga shunday atamalar kirib kelmoqdaki, ular beixtiyor ilmda ham qo‘llanila boshlandi. Xorijiy tillarni o‘rganish, o‘zlashtirish va o‘qitishda “Kompetensiyalar”ning o‘rnini yana bir karra tushuntirib o‘tish zarur. Plyuralizm demokratik prinsipiga asosan, “Kompetensiyalar” nafaqat keng qamrovli, ommabop va izchil, balki ochiq, dinamik ham bo‘lishi, dogmatik bo‘lmasligi kerak. Shu sababdan ham “Umumyevropa kompetensiyalari” xorijiy tilni o‘zlashtirishning tabiati borasidagi munozaralarda hamda shu bilan bog‘liq holda, xorijiy tilni o‘qitish va o‘rganish nazariyasi yuzasidan aniq bir taraf bo‘la olmaydi. Shu bilan birga, “Umum yevropa kompetensiyalari” o‘qitishning bir yondashuvi tomonida turib, boshqalarini chetga surib qo‘yishi mumkin emas. “Umumyevropa kompetensiyalari” xorijiy tillarni o‘qitish/o‘rganish jarayonining barcha ishtirokchilariga o‘qitishning o‘z nazariy va amaliy metodlarini aniqroq va to‘laroq bayon etishlariga ko‘maklashishi kerak. Mazkur vazifani bajarish uchun “Umumyevropa kompetensiyalari” umumiy foydalanish uchun ommabop bo‘lgan va foydalanuvchilarni o‘quv uslublari va materiallarning xilma-xil olami bilan tanishtiruvchi yoki o‘zlari uchun tanish bo‘lgan o‘qitish an’analariga asoslangan, ilgari o‘rganilmagan asoslarni qayta ko‘rib chiqishga unlovchi parametrlar, toifalar, mezonlar va shkalalarni belgilab beradi. Bu ana shu asoslar noto‘g‘ri ekanini bildirmaydi; buning ma’nosi shuki, til o‘rganishni tashkil etish uchun mas’ul bo‘lgan tomonlarning barchasi o‘zlari yashaydigan mamlakatdagi, eng asosiysi, boshqa yevropa davlatlaridagi hamkasblari tomonidan o‘zgartirishlarni e’tiborga olgan holda nazariya va amaliyotni qayta ko‘rib chiqishdan foyda olishlari zarur.

Bunday hodisalar tahlil etilib, tajribalar o‘rganilib, sinovdan o‘tkazilgach, ular mahalliy sharoitimizga moslashtirilib, ta’lim tizimida ham qo‘llanila boshlandi. Shunday hujjatlardan biri yevropa Kengashining “Chet tillarni egallashning umum yevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘rgatish va baholash” – (CEFR – Common European Framework of Reference) to‘g‘risidagi umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlar bo‘lib, bugungi kunda mazkur hujjat asosida respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimida chet tillarni o‘rganishga qo‘yilgan talablardan kelib chiqqan holda til o‘rganuvchilarning til bilish darajalarini aniqlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu hujjatda “...umumiy o‘rta ta’lim tizimi o‘quvchilari (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari chet tilini o‘rganishning boshlang‘ich darajasi (A1); 9 sinf o‘quvchilari chet tilini o‘rganishning tayanch darajasi (A2); chet tillar chuqurlashtirilib o‘qitiladigan ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari (A2+) darajadagi bilimlarga ega bo‘lish”lari kerakligi belgilangan. Shuningdek, “...oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘lmagan fakultetlari bakalavriat bosqichi bitiruvchilari, oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘lmagan fakultetlari magistratura bosqichi bitiruvchilari hamda oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘lgan fakultetlari bakalavriat bosqichi bitiruvchilari (ikkinchi chet tili) chet tilini o‘rganishning mustaqil muloqot darajasi (B2)ga ega bo‘lish”lari ko‘rsatilgan. “Chet tilini o‘rganishning erkin muloqot darajasi (S1)ni oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘lgan fakultetlari bakalavriat bosqichi bitiruvchilari, xuddi shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘lgan fakultetlari magistratura bosqichi bitiruvchilari egallashlari lozim”ligi uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartida tasniflangan. Bu darajalarni til o‘rganuvchi qanday egallaganligini aniqlash maqsadida har bir daraja uchun leksik, grammatik minimumlarni o‘z ichiga olgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilib, lug‘at-minimumlar tayyorlangan.

Deskriptorlar integrallashgan til ko‘nikmalari: so‘zlashish, tinglab tushunish, o‘qish

va yozish ko‘nikmalarini barobar rivojlantirish dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi. Aynan shu hujjat til o‘rganuvchilarning yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan “Chet tilni egallashning umum yevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘rgatish va baholash” bo‘yicha umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlari (SEFR) bo‘yicha o‘rgangan chet tillarni belgilangan darajada amalda qo‘llay olishlarini aniqlashga xizmat qiladi. Quyida “CAN DO” deskriptorlari yordamida aniqlangan til malakalari integratsiyasi darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi shkalalar keltirilgan. Namuna tariqasida A1 darajasi “... bitiruvchilari tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar”ni keltirib o‘tishni lozim topdik. Chet til bo‘yicha A1 darajasi bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar “Chet tilni egallashning umum yevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘rgatish va baholash” qo‘llanmasida o‘z aksini topib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: “...tinglab tushunish, so‘zlashish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini axborot tariqasida tushunish va suhbatdoshiga yetkazish; belgilangan mavzular bo‘yicha suhbat olib borish, kichik rollarni o‘ynash, muhokamalar uyushtirish, sheriklikda yoki kichik guruhlarga bo‘lingan holda ishlash; tilning murakkablik darajasiga ko‘ra tanlangan matnlar, shuningdek, autentik materiallarni o‘qish, tinglab tushunish, ulardan amalda foydalanish; taqdimotlar orqali o‘z fikrlarini aniq bayon qilish; tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati va O‘zbekiston madaniyatini o‘zaro qiyoslash va taqqoslash malakasini oshirish, o‘zga madaniyatga nisbatan bag‘rikenglik xislatlarini namoyon qilish; tinglab tushunish, so‘zlashish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini uyg‘unlashtirgan holda turli mavzularga doir loyiha ishlarini bajarish orqali nutq malakalarini rivojlantirish” maqsad qilib qo‘yilgan. Masalan, “...tinglab tushunishda til o‘rganuvchi sodda yo‘riqnomalarni tushungan holda ularga amal qila olishi, oddiy savol va uning javobini tushunishi bilan bir qatorda, sodda she’rlar, hikoyalar, qo‘shiqlarni tushuna olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish”i ham ushbu deskriptor yordamida ta’riflangan.

Xuddi shuningdek, “...tanish kontekst va matnlarda sodda autentik nutqni tushuna oladi. Til o‘rganuvchi navbatdagi gapirish faoliyati turida dialogik nutq paytida muloqotga kirisha olish ko‘nikmalariga ega bo‘lib, oddiy tilda ma’lumot so‘rash va ma’lumot berish, yordam so‘rab murojaat qilish hamda oddiy savol-javob jarayoniga kirishish malakalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Monologik nutqda esa til o‘rganuvchi yashash joyi, oilasi, do‘stlari va tanishlari haqida gapira olish bilan birga o‘zini tanishtirish, yoqtirgan va yoqtirmagan narsalari, o‘ziga tanish mavzularda qisqa taqdimotlar qila olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish” deskriptorning navbatdagi ta’riflarida o‘z aksini topgan. Navbatdagi o‘qish faoliyati turida “...til o‘rganuvchining tanish mavzulardagi matnlarning asosiy mazmunini tushunishi, joy va insonlar tasvirlangan qisqa matnlar (zarur hollarda ko‘rgazmalardan foydalangan holda)ni tushunishi, shuningdek, sodda yozma yo‘riqnoma yoki ko‘rsatmalarni tushuna olishi hamda ularga amal qilishi (oddiy xatlar, elektron xatlarni tushuna olish malakalariga ega bo‘lishi)...” deskriptor talablaridan biridir. So‘ngi “...yozish nutq faoliyati turida til o‘rganuvchi shaxsiy sodda xabarlar (tabriklar, qaydlar, elektron xatlar) yoza olish, shaxsiy ma’lumotlar (ismi-sharifi, yashash manzili va hokazo) bilan sodda anketani to‘ldira olish, she’riy qofiyadosh so‘zlar, hikoyalar yoza olish malakalariga ega bo‘lish”i deskriptorning yana bir muhim talablaridan ekanligi ahamiyatga egadir. Nutq faoliyati turlariga qo‘yiladigan talablardek boshqa til kompetensiyalariga ham mos talablar qo‘yiladi.

“Til kompetensiyalari grammatik, fonetik, leksik kompetensiyalarni o‘z ichiga olib, ularni egallashda til o‘rganuvchiga grammatik kompetensiyani egallashda kommunikativ vaziyatlarda sodda grammatik va sintaktik tuzilmalarni qo‘llay olish, so‘z va so‘z

birikmalarini “va” teng bog‘lovchisi yordamida bog‘lay olish hamda fe’l shakllari va sodda payt ravishlaridan foydalangan holda gaplarni to‘g‘ri bayon eta olish, hikoyalar, voqealarni to‘g‘ri ketma-ketlikda ta’riflay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish” kabi talablar qo‘yiladi. “...fonetik kompetensiyaga chet tildagi barcha tovushlarni aniq talaffuz qila olish, so‘z va gap urg‘usini to‘g‘ri qo‘yish bilan bir qatorda kommunikativ vaziyatlarda intonatsiya modullarini farqlay olish hamda ulardan o‘rinli foydalanishni bilish, kompetensiya talablari esa o‘zlashtirgan leksik vositalarni kontekst (matn)da qo‘llay olish, mavzuga doir sodda so‘zlar, ba’zi baynalminal so‘zlar va turdosh so‘zlarni farqlash hamda ularni kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish” kabi talablar qo‘yiladi). Yuqorida tahlil qilingan A1 darajadagi til o‘rganuvchilarga (A2, B1, B2, C1darajalardan tashqari) sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar bo‘yicha talablar qo‘yilmaydi. So‘nggi ikkita kompetensiyaga “...ijtimoiy vaziyatlarda imo-ishoraning ahamiyati, O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlar xalqlari madaniyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish hamda til bilan bog‘liq muammolarni anglab yetish” (salomlashish odati, murojaat shakllari, xushmuomalalikning asosiy me’yorlarini bilish) kabi talablar qo‘yiladi. “…pragmatik kompetensiya esa tanish vaziyatlarda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan til vositalarini tanlash, oddiy vaziyatlarda og‘zaki va yozma nutqda fiklarni uzviy ifoda etish malakalarini egallashlari” bilan bog‘liq talablarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda turli mamlakatlarda “yevropa til portfeli”ni keng joriy etish masalasi ko‘tarilmoqda. Til portfeli o‘quvchilarga ko‘p tillilik tomon siljishlarini o‘zlarining turli tillardagi, jumladan, boshqa holatda e’tiborsiz va attestatsiyadan o‘tkazilmay qolishi mumkin bo‘lgan tillardagi o‘quv tajribasini hujjatli taqdimot qilish yo‘li bilan hujjatda qayd etib qo‘yishlariga imkon yaratadi. Til portfeli o‘quvchilar o‘zlari o‘rganayotgan xorijiy tilni bilish darajalarini doimiy ravishda mustaqil baholab borishlariga ko‘maklashishga yo‘naltirilgan. Til portfelidagi ma’lumotlar ishonchli deb tan olinishi uchun uni o‘ylab va aniq to‘ldirish kerak. Bu o‘rinda “Umum yevropa kompetensiyalari”ni qo‘llash, ayniqsa, qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standarti// Xalq ta’limi jurnali. – 2013, № 4.
2. CEFR Guidebook at Common European Framework of Reference for languages: Learning, teaching, assessment. – Cambridge University Press, 2013.
3. Fry Kress And Fountoukidis. The reading teachers’ book of lists. Fourth edition, 2000.
4. To‘xtaeva Q.D., Bo‘taev Sh.T. Chet tillar bo‘yicha malakalar sifatini (CEFR) umumevropa standartlari talablari: o‘rganish, o‘qitish va baholash bo‘yicha normativ mezonlar (barcha darajalar uchun). Uslubiy qo‘llanma. – T., 2017.

Nilufar Abdullaevna SABIROVA ,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german filologiyasi fakulteti,
‘‘Ispan tili amaliy fanlari’’ kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING YOZMA NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH VA BAHOLASH USLUBLARI

Annotatsiya

Maqolada rivojlangan mamlakatlar ta’limi amaliyotida xorijiy tillarni o‘rganishda yozish qobiliyatining muhim ahamiyat kasb etishi, chet tilida yozilgan ishlarning o‘qituvchilar tomonidan to‘g‘ri baholashning eng optimal usullari, talabalarni akademik yozuvga sifatli tayyorlash ta’lim dasturlari, innovatsion pedagogik texnologiyalari, metodikalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada talabalarning yozish jarayonlari va yozma ishlarini baholashning mezonlari, baholashning diagnostik usullari, chet tilini egallashning umumyevropa kompetensiyalari, yozma nutqning ta’sir doirasi, yozma belgilar batafsil ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Yozish qobiliyati, baholash, optimal usullar, akademik yozuv, ta’lim dasturlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, metodika, yozish jarayonlari, yozma ishlar, baholashning mezonlari, baholashning diagnostik usullari, umum yevropa kompetensiyalari, yozma nutq, yozma belgilar.

В статье освещается значение умения писать при изучении иностранных языков в образовательной практике развитых стран, оптимальные методы правильной оценки педагогами написанных работ студентов на иностранном языке, образовательные программы, инновационные педагогические технологии, методики для качественной подготовки обучаемых к академическому письму. Также, в статье подробно раскрыты критерии оценивания письма и письменных работ студентов, диагностические методы оценивания, общеевропейские компетенции овладения иностранным языком, сфера влияния письменной речи и письменных знаков.

Ключевые слова. Умение писать, оценивание, оптимальные методы, академическое письмо, образовательные программы, инновационные педагогические технологии, методика, письменная работа, критерии оценивания, диагностические методы оценивания, общеевропейские компетенции, письменная речь, письменные знаки.

The article highlights the importance of the ability to write in the study of foreign languages in the educational practice of developed countries, the best methods for the correct assessment by teachers of students' written works in a foreign language, educational programs, innovative pedagogical technologies, methods for the qualitative preparation of students for academic writing. Also, the article details the criteria for assessing writing and written work of students, diagnostic assessment methods, pan-European competencies in mastering a foreign language, the sphere of influence of written speech and written signs.

Key words. Writing skills, assessment, best practices, academic writing, educational programs, innovative pedagogical technologies, methodology, written work, assessment criteria, diagnostic assessment methods, pan-European competencies, written speech, written signs.

Jahonda jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan integratsiyalashuv jarayoni va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamkorligi chet tillarni o‘rganishga qiziqish, ehtiyoj va intilishni kuchaytirib yubordi. Rivojlangan mamlakatlar ta’limi amaliyotida xorijiy tillarni o‘rganishda yozish qobiliyatining nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishi, chet tilida yozilgan ishlarning o‘qituvchilar tomonidan to‘g‘ri

baholashning eng optimal usullari yo‘lga qo‘yilgan. Dunyoda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda talabalarni akademik yozuvga sifatli tayyorlash uchun ta’lim dasturlari, baholash mezonlari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish, xorijiy tilda ilmiy uslubda yozish ko‘nikmasini modernizatsiyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozma nutq ma’lumotlarning uzatilishi bilan cheklanmaydi. U nafaqat tafakkurni tushuntirish va rivojlantirishda kognitiv xususiyatlarni bajaradi, balki axborotni va adabiyotlarni, shuningdek, madaniyatni uzatuvchi yozuvlarni saqlash xususiyatlariga xizmat qiladigan shaxsiy vosita ham bo‘lishi mumkin. Ushbu fikrlar pedagogika va baholash uchun e’tiborga olinishi kerakligi sababli, ularning maqsadlaridan qat’iy nazar talabalarning kompozitsiyalari va yozma ijrosi (lar) ni baholash mumkin emas.

Ayniqsa, tili o‘rganilayotgan mamlakat yozuvini o‘rgatishda qaysi usullardan foydalanish samarali natija berishini hisobga olish bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinishi kerak. Talabalarning yozishlarini odatiy besh omil bo‘yicha baholash mumkin: ravonlik, mazmun, moslik, sintaksis va so‘z boyligi. Talabaning turli matn tuzilmalari va janrlari bo‘yicha yozish faoliyati to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun, yozish namunalarini turli maqsadlar bo‘yicha baholash kerak. Shakllantiruvchi va tabiiy ravishda olib boriladigan pedagogik ish sifatida talabalarning yozish jarayonlari va yozma ishlarini baholash o‘quv rejasi, o‘quv dasturi ishlab chiqilganligi va talabalar yozuvlari uchun taqdim etilgan mulohazalarni hisobga olgan holda o‘qituvchilar tomonidan olib boriladigan asosiy mas’uliyatdir.

Binobarin, o‘qituvchilar mas’uliyat bilan test topshiriqlarining o‘ziga xos talablariga binoan baholashni amalga oshirganda, ular o‘zlarining o‘qitish samaradorligi to‘g‘risida xabardor bo‘lishlari mumkin, chunki bu ularning talabalar malakasini oshirish va to‘g‘ri yozish maqsadlariga erishishida aks etadi. Yozish kursi qanday bo‘lishidan qat’y nazar, umumiy maqsadlarni belgilash uchun bitiruvchi kurs talabalarining yozuvini umumiy baholashga tabiiy moyillik mavjud. Ushbu baho samaradorligi va soddaligi tufayli fakultetni umumiy ritorik yo‘nalishlar va yozish maqsadlari atrofida birlashtirganligi sababli ko‘plab o‘qituvchilarni jalb qiladi degan fikrdamiz. Qo‘llashning qulayligi nuqtayi nazaridan umumiy baholash amaliyotlar, maqsadlar, yo‘nalishlar va kurslarning o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq mahalliylashtirilgan yoki kontekstli kollegial baholash tizimidan ustun turishi ehtimoli yuqori.

Shu bilan birga, umumiy rubrikalar yozma janrlarning diskurs o‘ziga xosligini e’tiborsiz qoldirib, kontekstual kutishlarni xiralashtiradi degan fikrga kelishdi. Buning natijasida bitta umumiy asosga yoki yozuvni baholashga mos keladigan stereotipik sinf amaliyotlari yaratilishi kerak. Fikrlar, xulosalar va natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, turli yozuv vazifalari uchun berilgan bir xil baholash sistemasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda chet tilini o‘rganayotgan talabalarning akademik yozuv ishlariga o‘qituvchilar turli yozma vazifalarga bitta mezonni qo‘llaydilar. Shunga o‘xshash o‘quv dasturlarini o‘qitish yoki o‘quv talablarini bajarish bo‘yicha umumiy tajribalardan kelib chiqadigan umumiy baholash tizimi mavjud.

Umumiy baholash mezonlarini qo‘llashga urinish konstruktiv muvofiqlashtirish prinsipini buzishi mumkin, bu aniq o‘quv maqsadlari, ushbu maqsadlarga erishish usullari va baholash uchun ishlatiladigan baho mezonlari o‘rtasidagi izchil bog‘liqlikni anglatadigan muvaffaqiyat darajasidir. O‘qituvchining birinchi mas’uliyatli vazifalaridan biri – yozish uchun barcha sharoitlarni yaratish va ilmiy yozishga qiziqqan va yozmoqchi bo‘lgan talabalarni rag‘batlantirishdir. O‘qituvchining ikkinchi mas’uliyatli vazifasidan biri esa talabalarning ilmiy yozishdagi muvaffaqiyatlarini targ‘ib qilishdir. O‘qituvchi

buni o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini baholash uchun, yozma ishlarini diqqat bilan kuzatib borish, talabalar ehtiyojlariga qarab aniq mahorat va strategiyalarni o‘rgatish hamda yangi o‘rganilgan ko‘nikmalarni mustahkamlash va takrorlanadigan muammolarni to‘g‘rilashga qaratilgan mulohazalarni bildirish orqali amalga oshiradi. Ushbu majburiyatlar, tekshiruvdan so‘ng, baholash yaxshi ko‘rsatmalarning ajralmas qismi ekanligini aniqlaydi.

Shu tariqa boshqa omillarga qo‘shimcha ravishda, quyidagi shartlar va talabalarning yutuqlari bilan ijobiy bog‘liqligini aniqlandi: talabalarning fikrlash xususiyatlari va topshiriqlarning xususiyatlari o‘rtasida tegishli ko‘rsatma mosligi darajasi (boshqacha aytganda, o‘qituvchilar talabalarning oldingi bilimlari va hozirgi mahorat darajasini ularning qobiliyatlariga mos keladigan vazifaga yo‘naltirish uchun baholashlari kerak); o‘qituvchi talabalarning tushunish qobiliyatini va rivojlanish bosqichlarini faol ravishda nazorat qilish darajasi; talabalar faoliyati tez-tez va mos ravishda baholanishi darajasi (o‘rgatilgan bilimga mos keladi). Shuning uchun ham baholash samarali yozuvni o‘rgatishning muhim tarkibiy qismidir.

Baholashning diagnostik usullaridan foydalanish (yozish muammolari sabablarini va talabaning o‘quv ehtiyojlarini aniqlash) natijasida yozish jarayoni, ya’ni talabalar yozish paytida ishlatadigan strategiyalari aniqlanadi. Yozish jarayonini baholash va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish talabalarning yozish bosqichlarini tadrijiy amalga oshirishini kuzatish orqali amalga oshirilishi mumkin. Yozuv kerakli o‘lchamda, mantiqiy va izchil bo‘lsa va o‘qiladigan formatga ega bo‘lsa, kommunikativ maqsadni amalga oshiradi. Agar u yaxshi tuzilgan jumlalar va muallifning maqsadini aniq yetkazadigan turli so‘zlardan iborat bo‘lsa, o‘qish yoqimli va sermahsul bo‘ladi. Yozuvning turli konseptual modellari yonma-yon taqqoslanganda, beshta o‘zgaruvchan xususiyat paydo bo‘ladi: ravonlik, mazmun, kelishuvlar, sintaksis va so‘z boyligi. Ko‘pincha o‘qituvchilar e’tiborlarini asosan yozishning mexanik jihatlari yoki konvensiyalar bilan bog‘liq talabalar kompozitsiyasining sirtqi xususiyatlariga qaratadilar.

Har tomonlama muvozanatni saqlovchi baholash uchun talaba yozishining besh jihatlarini ko‘rib chiqishi kerak. Quyida har bir mahsulot o‘zgaruvchisini baholashning oddiy usullari keltirilgan. Ba’zi hollarda miqdoriy o‘lchovlar qo‘llaniladi; boshqalarda sifatli baholash ko‘proq o‘rinli ko‘rinadi. Ravonlik o‘qituvchi ilmiy uslubda yozishni endi boshlagan talabani baholash uchun birinchi yozish mahorati ravonlikdir, ya’ni o‘z fikrlarini yozma so‘zlarga aylantira olish.

Ilmiy uslubda yozish qonun-qoidalarini endi o‘rganayotgan talabaning rivojlanish yo‘nalishi uchun, avvalambor, ma’lum mavzu doirasidagi ilmiy ishlarni o‘rganish, turli nashrlardan xabardor bo‘lish va qalamni qog‘ozga qo‘yish paytida yozma nutq nima ekanligini tushunishga harakat qilishni o‘z ichiga oladi. Oddiy o‘quv dasturiga asoslangan ravonlik o‘lchovi qisqa yozma topshiriq davomida yozilgan so‘zlarning umumiy sonidir. Agar ravonlik diqqat markazida bo‘lsa, imlo xatolari, so‘zlarni noto‘g‘ri tanlash va noto‘g‘ri tinish belgilari hisobga olinmaydi. Fikrlarni so‘zlarga tarjima qilishda e’tibor faqat o‘quvchining imkoniyatiga qaratilgan. Kamida uchta yozuv namunalarining boshlang‘ich chizig‘ini to‘plash va har biriga so‘zlarning umumiy sonini hisoblash kerak. Baholash uchun ushbu hisobni o‘sha yoshdagi yoki barcha bitiruvchi kurs talabalari bilan taqqoslash mumkin.

Shu bilan birga, talabaning ilmiy yozish mahoratining rivojlanishini nazorat qilishda uning ishlashini avvalgi ravonligi bilan taqqoslashda umumiy so‘zlardan samarali foydalanish mumkin. Tarkib – yozma matnda e’tiborga olinadigan ikkinchi omil. Tarkibiy xususiyatlar kompozitsiyaning uyushqoqligi, uyg‘unligi, aniqligi (izohli yozishda) va

o‘ziga xosligi (ijodiy yozishda)ni o‘zida qamraydi. Ilmiy ish kirish va xulosaga ega bo‘lishi kerak. Kirish qismi, albatta, o‘quvchida ilmiy ishni o‘qishga qiziqish uyg‘otishini namoyon qila olishi kerak; xulosada esa barcha savollarga javob topa olishi kerak.

Shunday qilib, mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishi yosh avlodning ko‘p madaniyatli dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi bir necha chet tillarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa O‘zbekiston Respublikasi talim tizimiga chet tillarni o‘rgatish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta’minlandi. yevropa Kengashining “Chet tilini egallashning umum yevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish, baholash” to‘g‘risidagi hujjati umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlardan biridir. Chet tiliga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasasi talabalarining yozuv kometentligini oshirish esa chet tilini mukammal o‘rganishning eng katta bosqichidir. Bunda esa, eng avvalo, o‘qituvchilarning talabalar ishini to‘g‘ri baholashi yotadi.

Bizga ma’lumki, talabalarning yozishlarini besh omil bo‘yicha baholash mumkin: ravonlik, mazmun, kelishuvlar, sintaksis va so‘z boyligi. Talabaning turli matn tuzilmalari va janrlari bo‘yicha yozma ijrosi to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun yozuv namunalarini yozish uchun turli maqsadlar bo‘yicha baholash kerak. Biror-bir chet tilini o‘rganar ekanmiz, ham og‘zaki, ham yozma nutqni mukammal o‘rganishimiz maqsadga muvofiq. Chunki shunday vaziyatlar bo‘ladiki, og‘zaki shaklda fikringizni to‘lig‘icha bayon eta olmaysiz. Shunda sizga yozma nutq yordam beradi. Yozma nutqning ta’sir doirasi og‘zaki nutqqa nisbatan kuchli. Bundan tashqari chet tilini o‘rganishda ham o‘qib, ham yozib o‘rganish tez va mukammal o‘rganishga asos bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlaganidek, yozma nutq – tilning matn orqali ifodalanishi, muayyan tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi, kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma’nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Yozma nutq tariximizni mukammal bilish, uni to‘laligicha chet elliklar uchun, kelajak avlod uchun yetkazib bera olish imkoniyatini beradi. Yozma nutq orqali munosabatlarimizni kengaytirishimiz, mustahkamlashimiz mumkin. Yozuv bilan til uzviy, chambarchas bog‘liq. Biror tilni shu tilning yozuvini o‘rganmasdan yoki aksincha, biror yozuvni shu yozuv tegishli bo‘lgan tilni bilmasdan o‘rganish mumkin emas. Demak, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarini yetuk kadr qilib tarbiyalamoqchi bo‘lsak, albatta, yozuvni mukammal o‘rgatish kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Deborah J. Crusan, Assess thyself lest others assess thee// T. Silva, & P. K. Matsuda (Eds.), Practicing Theory in Second Language Writing. – West Lafayette, Parlor Press, 2010. – pp. 245–262.

2. Ferris Dana R., Hedgcock John S. Teaching ESL Composition: Purpose, Process, and Practice. – London: Routledge, 2005. – 446 p.

3. Hedgcock, J., Taking Stock of Research and Pedagogy in L2 Writing // E. Hinkel (Ed.), Handbook of Researching Second Language Teaching and Learning. — Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2005. – pp.597– 613

4. Cumming A. ESL/EFL instructors’ practices for writing assessment: Specific or general purposes? // Language Testing, 2001, vol. 18(2), pp. 207– 224.

Umida KURBANBAEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german filologiyasi fakulteti,
‘‘Ispan tili amaliy fanlar’’ kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIGA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning mohiyati, strategiya va motivatsiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning prinsiplari, o‘qitish usullari, jahon tajribasida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdan va zamonaviy o‘qitish metodikalaridan foydalanish amaliyoti yoritilgan. Shuningdek, ta’limda yondashuv mohiyati, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning umumiy xususiyatlari, tamoyillari, faoliyatga yo‘naltirilganligi hamda, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi va lingvodidaktikasining yo‘nalishlari batafsil ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, strategiya, motivatsiya, prinsiplar, o‘qitish usullari, jahon tajribasi, zamonaviy o‘qitish metodikalari, amaliyot, xususiyatlar, tamoyillari, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi, linvgodidaktika.

В статье описаны сущность, стратегии и мотивы личностно-ориентированного подхода, принципы личностно-ориентированного подхода, методы обучения, практика использования личностно-ориентированного подхода и современные методы обучения в мировом опыте. Также, в статье подробно раскрываются сущность подхода в обучении, общие черты личностно-ориентированного подхода, принципы, деятельностная направленность, методики обучения иностранному языку и лингводидактики.

Ключевые слова. Личностно-ориентированный подход, стратегия, мотивация, принципы, методы обучения, мировой опыт, современные методы обучения, практика, особенности, принципы, методика обучения иностранному языку, лингводидактика.

The article describes the essence, strategies and motives of the student-centered approach, the principles of the student-centered approach, teaching methods, the practice of using the student-centered approach and modern teaching methods in the world experience. Also, the article reveals in detail the essence of the approach to teaching, the general features of a student-centered approach, principles, activity orientation, methods of teaching a foreign language and linvodidactics.

Key words. Student-centered approach, strategy, motivation, principles, teaching methods, world experience, modern teaching methods, practice, features, principles, methods of teaching a foreign language, linguodidactics.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning mohiyati aslida, talabalarning shaxsiy xususiyatlarini e’tiborga olib, ularning maqsad va ehtiyojlarini, kognitiv uslublarini, ularning til o‘rganish jarayonidagi strategiya va motivatsiyalarini hisobga olishga asoslanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosida talabani o‘rganish jarayonining obyekti emas balki subyekti sifatida qabul qilinishi fikri yotadi. Bu tushuncha talabaning xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayonidagi muommoni hal

qilishdagi avtonomiyasi ya’ni mustaqilligini oshirish ustunligi, individuallik prinsipining ustuvorligi asosidadir. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv yoki shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quv jarayonida ma’suliyat o‘qituvchidan talabaga ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish usullarini keng qamrab oladi.

Dastlabki maqsadda, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talabalar uchun mustaqil ravishda o‘rganish va mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib talabalar uchun o‘zlariga muayyan bir mavzu va ma’lumotni qanday o‘rganish kerakligi haqida bilim va ko‘nikmalar berish orqali talabaga o‘zlashtirish ma’suliyati yuklatiladi. Bu yondashuv shaxs o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini hayoti mobaynida muammolarini mustaqil hal qilishga imkon beradigan qobiliyat va amaliyotga qaratilgan. Bundan tashqari ustoz va talabaning tutgan o‘rnidagi o‘zgarishlar ham an’anaviy darsdan qochishga imkon yaratadi. Bu yangi nuqtayi nazar yo‘nalishi bo‘lib “shaxs individual ishlash qobiliyati, tanqidiy mulohaza qila olish, qaror chiqara bilish va mustaqil harakat qila olish mahorati borligini ko‘rsatadi, ya’ni talabalar o‘zlarining o‘rganish jarayonida ko‘proq ma’suliyatni o‘z zimmalariga olishi kutiladi”.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim har bir talabani bilim olish jarayoniga faol jalb qilish imkoniyatini yaratadi, olgan bilimlarini nafaqat amaliyotda qo‘llay olish, balki aniq tushunchaga ega bo‘lgan holda qayerda, qanday holatda va qanday maqsadlarda tadbiq etilishini ham yaxshi anglab yetadi; har xil muommolarni hal qilishda birga hamkorlikda o‘z muloqot qobilyatlarini ko‘rsata oladi. Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiya jarayoni yosh avlodning ma’naviy yetukligini rivojlantiradi, o‘z o‘zini anglashga yordam beradi va o‘z o‘zini tarbiyalashni rag‘batlantiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya markazida talabalarning mahsuldor faoliyatining tayanchi bo‘lgan pedagogik texnologiyalar: ularning hamkorlikda ishlash pedagogikasi, mustaqil individual yoki guruhlarda ishlay olishi; o‘quv fanlarining integratsiyasi va global dunyoqarashi yotadi.

Jahon tajribasida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va zamonaviy o‘qitish metodikasi bir biri bilan uzviy bog‘liq. Ta’lim jarayonida talabalarning shaxs sifatida rivojlanganligi ahamiyatga molikdir. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, ta’limning tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirishdir. Har bir ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalambor shaxsni ko‘rishi zarur.

Ta’limda yondashuv bu — “metodologiyaning asosiy toifasi bo‘lib, til o‘qitish strategiyasini aniqlash va uni amalga oshiradigan o‘qitish usulini tanlash o‘qitilishi kerak bo‘lgan subyekt mohiyati nuqtai nazarni o‘z ichiga qamrab oladi”. Ushbu tushunchadan kelib chiqib ta’kidlash joizki, o‘rganish jarayoning markazida talaba (o‘quvchi), uning shaxsiyatining o‘ziga xosligi, qiziqish va maqsadlari turadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning umumiy xususiyatlari quyidagicha shakllantiriladi:

– o‘quv jarayoning bir qancha elementlarini ixtiyoriy tanlash erkinligini taqdim etish;
– talabalarning o‘z-o‘zini munosib baholashini shakllantirish;
– individuallashtirishning turlicha vositalaridan foydalanish.

Shaxsga yo‘naltirilgan tamoyillar:

– moslashish tamoyili;
– rivojlanish tamoyili;
– psixologik –qulaylik tamoyili.

Faoliyatga yo‘naltirilgan tamoyillar:

– o‘quv faoliyati tamoyili;
– o‘quv jarayonida ta’lim sohasidagi faoliyatdan hayotiy vaziyatlar faoliyatiga

o‘tish tamoyili;

– hamkorlikda o‘qish va kognitiv faoliyatdan mustaqil faoliyatga o‘tish tamoyili;

– oldingi rivojlanishga tayanish tamoyili;

– kreativ (ijodiylik) tamoyili yoki kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish tamoyili;

– baholash tamoyili.

Shunday qilib, shaxsiy-faoliyat yondashuvi asosiy tamoyillaridan bo‘lgan kommunikativlik tamoyili va amaliy o‘rganish tamoyillari shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillari sifatida deb hisoblanadi. Xorijiy tilni o‘qitishdagi asosiy muommolardan biri shaxsiyat va faoliyatdagi nisbatdir. Shaxsga yo‘naltirilganlik bir vaqtning o‘zida faoliyatga yo‘naltirilganlik hisoblanadi sababi til o‘rganuvchilar va tilning mahalliy gapiruvchilari ijtimoiy faoliyat subyekti sifatida qaraladi. Shaxsning ijtimoiy faoliyat subyekti, uning kognitiv, hissiy va ixtiyoriy manbalari sifatida, faoliyat yondashuvi insonning barcha shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv tizimini shakllantirishda yangicha yondashuv mavjud, subyektiv tajribaning faol tashuvchisi sifatida talabaning shaxsiyati ustuvorligi hisobga olinadi. Individuallashtirish tamoyili, talaba avtonomiyasi oshirish tamoyili singari talabaning rivojlanishi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Yuqorida muhokama qilingan fikrlardan kelib chiqib ayta olamizki, OTMlarda talabalarni o‘qitish va o‘qish jarayonidagi talabalar avtonomiyasini rivojlantirish uchun shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar yuksaltirilishi talab etiladi. Talabalarda mustaqil o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish uchun o‘quv jarayonini muommoli vaziyatlar tizimiga va ta’limning tarkibini ushbu muommolarni hal qilishga qaratilgan vositalar tizimiga o‘zgartirish zarur.

Har bir fanni o‘qitishda sinfdan tashqari ta’lim-tarbiya ishlari maqsadi ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirishga qaratiladi. Ta’lim-tarbiya mazmuni, metodlari va vositalari ham shaxs imkoniyatlariga asosan belgilanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvli o‘qitishning xususiyatlarini quyidagicha: Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvli o‘qitish talabalarni mashaqqatli ta’lim ishlariga jalb qiladi. O‘qituvchilar talabalar uchun juda ko‘p o‘quv vazifalarini bajaradilar: savollar beradi, talabalarni chaqirib ularning javoblariga batafsil ma’lumot beradi va hakozolar.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvli o‘qitish aniq ko‘nikma yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi; talabalarda tanqidiy fikrlay olish qobiliyati, muommoga yechim topish, ma’lumotlarga baho berish va tahlil qila olish kabi o‘rganish jarayonidagi muhim ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvli o‘qitish talabalarda nimani o‘rganayotganini va qanday o‘rganayotganini qayta o‘ylab ko‘rib tahlil qilishga ruhlantiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvli o‘qitish talabalarda o‘rganish jarayoni ustidan bir oz nazorat qila olish imkonini berish orqali talabalar motivatsiyasini oshiradi; misol uchun topshiriqlar orasidan tanlash imkoni yoki bo‘lmasa vazifani toshirish muddatini belgilash kabi imkoniyatlar berilishi nazarda tutiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvli o‘qitish hamkorlikda o‘rganish imkonini beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv aynan talabaning mustaqil bo‘lishiga xizmat qiladi. Lisoniy shaxsiyatni rivojlantirish tamoyili shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda muhim hisoblanadi va ba’zida o‘rganishning asosiy maqsadi sifatida qaraladi. Soha mutaxassislaridan ko‘pi mustaqil ta’lim jarayonida qulay va oson muhitni yaratish muommosiga e’tibor qaratadilar. O‘quv jarayonida o‘zlashtirishdan ortda qolayotgan talabalarda o‘quv materiallarini umumlashtirish, muhim ma’lumotlarni ajrata bilish, ortiqcha ma’lumotni olib tashlash kabi asosiy o‘rganish va kognitiv strategiyalar umuman yo‘q

yoki yaxshi rivojlanmaganligini ta’kidlaganlar. Shu maqsadda, o‘quv jarayonida talabani qo‘llab – quvvatlash usullari, o‘qituvchi va talabalar kognitiv uslublarining hamjihatligi o‘rganilmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvli darsda har bir talabaning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib taqdimot uslubini tanlashda ularga yordam beradi. Talabalar uchun tilni o‘zlashtirishga belgilangan vaqt ham talaba tomonidan tanlaniladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga keltirib o‘tilgan ta’rif va tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvli ta’limni talabaning xohish va imkoniyatlariga moslashtirib, til o‘rganishda samarali hisoblanadigan ta’lim turi va o‘qitish shakli bilan integrallashgan holda interfaol til o‘rganish muhitini yaratish maqsadga muvofiqdir. Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi va lingvodidaktikasini ishlab chiqish xususan, bir nechta asosiy yo‘nalishlar bilan bog‘liq:

– talabalarning individual-psixologik xususiyatlariga ko‘ra kognitiv uslublarni o‘rganish va kichik guruhlarda darslar o‘tish;

– shaxsga yo‘naltirilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratish;

– zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo‘llash;

– ta’lim strategiyalarini o‘rganish va strategik treninglar tashkil qilish.

Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish yo‘lidagi muhim vazifa bu uning amaliy tatbiq etish usullarini ishlab chiqish va texnologik yechimlarini izlashdir. Bundan kelib chiqib shunday fikr olg‘a suriladiki, bir kursda o‘qitishning maqsadi, vositalari, o‘rganish sur’ati shunday shakllantirilishi kerakki natijada o‘sha kursda talabalar o‘z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘z usullaridan foydalanib har xil tezlikda til o‘rganishlari va o‘zlashtirishlari kerak bo‘ladi. Xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ahamiyatlidir. Chunki talabalar doimiy o‘z bilimlari haqidagi ma’lumotdan xabardor bo‘lishadi va o‘rganish jarayonida ma’suliyatni o‘z zimmalariga olish imkoni mavjud. Shu bilan bir qatorda talabalarda birgalikda ishlash sharoiti yaratiladi, bir-birlariga o‘rgatishadi va bilganlarini bir-birlari bilan bo‘lishish imkoniyati mavjuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедова Л.Т. Личностно-ориентированный подход к современному обучению и воспитанию студентов высших учебных заведений республики Узбекистан// O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2016. – № 4 (12). — B. 255–259. — URL: https://journal.fledu.uz/uz/uzbekiston-respublikasi-olij-talim-muassasalaritalabalarini-zamonavij-u-itish-va-tarbiyalashda-shahsga-aratilganyondashuv/

2. Harmer J, How to teach English: Pearson Education Limited, 2007. – 212 p.

3. Mamatqulova N.F. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning oliy ta’limda xorijiy tillarni o‘rganishdagi ahamiyati// Pedagogika ilmiynazariy va metodik jurnali – 2018. – № 2. — B. 64–68.

4. Pedagogikadan atamalar lug‘ati. – T.: Fan, 2008. – 196 b.

5. Shodmonova Sh., Mirsagatova N.S., Ibragimova G.N., Mirsoliyeva M.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2011 — 245 б.

Shaxnoza XODJAEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german filologiyasi fakulteti,
‘‘Ispan tili amaliy fanlar’’ kafedrasi o‘qituvchisi

XORIJIY TILLARNI O‘RGATISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA MEDIATA’LIM YUTUQLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ta’limni axborotlashtirish jarayoni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali didaktik, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar, slayd va dars ishlanmalarini tayyorlash, internet yordamida qo‘shimcha ma’lumotlar ishlab chiqish, o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali talabalar dunyoqarashi, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, mashg‘ulotlarning yangicha shakllarda tashkil etilish, darsdan tashqari ta’lim olishda ta’lim oluvchilarga materiallar sifatini yaxshilash masalalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo‘llash omillari, OAV materiallaridan foydalanish, salbiy axborot xurujlarini oldini olish yo‘llari, elektron axborot-resurs maydonchalarini yaratish va ularni tarmoqqa joylashtirish bo‘yicha taklif va mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Axborotlashtirish jarayoni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, didaktika, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar, slayd va dars ishlanmalari, internet, dunyoqarash, bilim va ko‘nikmalar, salbiy axborot xurujlari, elektron axborot-resurs maydonchalari, tarmoq.

В статье рассматриваются вопросы информатизации образования, подготовка дидактических, раздаточных материалов, наглядных пособий, слайдов и планов уроков с помощью информационно-коммуникационных технологий, освоение дополнительной информации с использованием сети Интернет, развитие у обучаемых мировоззрения, знаний и умений посредством информационно-коммуникационных технологий. Также в статье приведены факторы эффективного использования информационно-коммуникационных технологий, использование материалов СМИ, способы предотвращения негативных информационных атак, создание электронных информационно-ресурсных площадок и их размещение в сети.

Ключевые слова. Процесс информатизации, информационно-коммуникационные технологии, дидактика, раздаточные материалы, наглядные пособия, слайды и планы уроков, Интернет, мировоззрение, знания и умения, негативные информационные атаки, электронные информационно-ресурсные сайты, сеть.

The article discusses the issues of informatization of education, the preparation of didactic, handouts, visual aids, slides and lesson plans with the help of information and communication technologies, the development of additional information using the Internet, the development of students' worldview, knowledge and skills through information and communication technologies. The article also presents the factors for the effective use of information and communication technologies, the use of media materials, ways to prevent negative information attacks, the creation of electronic information and resource platforms and their placement on the network.

Key words. Informatization process, information and communication technologies, didactics, handouts, visual aids, slides and lesson plans, Internet, worldview, knowledge and skills, negative information attacks, electronic information resource sites, network.

Jamiyat insonlarning jamoa bo‘lib yashashga tabiiy ehiyojlari asosida paydo bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy jamiyat rivojlanishining o‘ziga xosligi uning global xarakterga ega bo‘lgan axborotlashtirish, jumladan, ta’limni axborotlashtirish jarayoni bilan bog‘liqligida ko‘rinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quv jarayoning har bir bosqichida pedagogning eng yaqin ko‘makchisi, malakali pedagogning darsga tayyorgarlik ko‘rishidan boshlab uni sifatli, qiziqarli va natijali o‘tkazishgacha bo‘lgan barcha jarayonlardagi eng qulay vositadir. O‘qituvchi pedagoglar darsga tayyorgarlik ko‘rishda AKT orqali didaktik, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar, slayd va dars ishlanmalarini tayyorlashi, internet yordamida esa ularni turli qo‘shimcha ma’lumotlar, qiziqarli surat, audio, video lavhalar bilan boyitishi mumkin. O‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari talabalar dunyoqarashi, bilim va ko‘nikmalarini ko‘rish, eshitish va mustaqil bajarish orqali rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Axborot texnologiyalari taraqqiyoti ta’lim sohasiga ham jiddiy o‘zgarishlar kiritdi. Kommunikatsiya vositalari sohasidagi globallashuv axborot almashinuv jarayonlarini tezlashtirib yubordi. Axborot texnologiyalari bugun nafaqat o‘qitishdagi ilg‘or zamonaviy innovatsion usullarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga, balki mashg‘ulotlarning turli texnologiyalar orqali yangicha shakllarda tashkil etilishidan tortib, darslar davomida hamda darsdan tashqari ta’lim olishda bilim oluvchilarga taqdim etiladigan materiallar sifatining o‘zgarishi, turlarining ko‘payishi, ularni uzatish va qabul qilishning yangicha ko‘rinishlarini ham yuzaga keltirdi. Shuning barobarida axborot texnologiyalari sohasidagi yangilanishlar chet tillarni o‘rganish bo‘yicha ham turli dasturiy imkoniyatlarni yaratmoqda.

O‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish texnologik, pedagogik-metodik, tashkiliy ishlar bilan bog‘liq murakkab va ko‘p qirrali masalalarni hal etishni talab etadi. AKT vositasida mashg‘ulot olib borishni o‘zlashtirgan pedagog, avvalo, dasturiy ta’minot va elektron o‘quv-metodik vositalar ya’ni ta’limiy elektron resurslarni yaratishi yoki ulardan o‘rinli foydalanish malakasiga ega bo‘lishi zarur.

Dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar va Prezidentning 2017-yildagi oliy ta’limni isloh etish to‘g‘risidagi qarori ta’limda ‘‘so‘nggi innovasion texnologiyalardan keng foydalanish’’ va AKTni samarali qo‘llashni taqozo etadi. Xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida AKTdan foydalanish bugungi kunda TELL (Technology Enhanced Language Learning) deb keng tarqalgan soha sifatida ma’lumdir. Ushbu integrasiya axborot va kommunikatsiya inqilobining bir qismidir va bu o‘z navbatida mamlakatlarga globallashgan dunyoda faol ishtirokchi bo‘lishlariga yordam beradi. AKT esa, bir vaqtning o‘zida o‘qitish metodiga, qo‘llaniladigan resurslarga va baholashga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Oliy ta’lim muassasalari fanga AKTni keng qo‘llashda vaqt va resurslarning yetarli ekanligini inobatga olish kerak bo‘ladi. Bunda AKTni samarali qo‘llashda quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

1. O‘qitish metodi va o‘qituvchining roli:

– o‘qituvchilar ko‘proq fasilitator rolini bajaradilar;

– talabalarni mustaqil ta’lim orqali avtonomligini oshirishni rag‘batlantirish Flipped yondashuvga asoslangan ta’limni qo‘llash, masalan talabalar darsga kelishdan oldin yangi mavzu bilan onlayn tanishib, auditoriyada bilimlarini yanada mustahkamlashlari kerak bo‘ladi;

– talabalar mustaqil tarzda onlayn izlanish va tadqiqot olib boradilar;

– talabalar tomonidan o‘z elektron-texnik qurilmalarini darsda qo‘llay olish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

2. O‘quv materiallarining ta’siri:

– internetda turli sohalarda ingliz tilini o‘qitish uchun mo‘ljallangan a’lo darajadagi manba va materiallar tavsiya qilinganligini inobatga olib, ushbu manbalardan foydalanish uchun o‘qituvchilarning internetdan foydalana olish imkoniyatlari keng bo‘ladi;

– manbalar, o‘quv materiallari va dars ishlanmalarining samarali saqlanish tizimi yaratiladi;

– o‘qituvchi va talabalarning autentik materiallardan foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha qo‘shimcha treninglar tashkil qilinadi.

3. Baholashning ta’siri:

– o‘qituvchilar onlayn testlarni qo‘llashlari mumkin bo‘ladi;

– talabalarning til ko‘nikmalarini onlayn baholashda o‘qituvchilar yetarli malakaga ega bo‘ladilar.

4. Ko‘nikmalar auditi:

– o‘qituvchi va talabalar AKTdan foydalanishda yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar;

– OTM tomonidan ilg‘or axborot texnologiyalarini qo‘llashda talabalar va o‘qituvchilarda qaysi ko‘nikmalar yetarli emasligi aniqlab boriladi va ularni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar tashkil etiladi.

5. Internetdan foydalanish:

– ta’lim muassasasi kerakli texnologiyalar va soha mutaxassislari bilan ta’minlangan bo‘ladi.

6. Resurslarni, shu jumladan materiallar, dasturlar, boshqaruv tizimlarini rivojlantirish:

– ta’lim muassasasi ta’lim berish va ta’lim olish uchun yangi materiallar, dasturlar, metodik ishlanmalar bilan ta’minlanadi.

Hozirgi kunda uyali telefon dasturlari, kompyuter texnologiyalari yordamida ham muayyan darajada chet tilini bilish ko‘nikmalarini o‘zida shakllantirish imkoniyati mavjud. Jumladan, uyali telefonlarda turli mobil ilovalar orqali xorijiy tillarni turli darajada biluvchilar uchun test topshiriqlaridan tortib, lug‘at boyligini oshirish, matnlar ustida ishlash, chet tilidagi dialog va matnlarni tinglash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Hatto so‘zlashish ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha ko‘plab dasturlarni yuklab olish, kundalik hayotda ulardan istalgan vaqtda foydalanish mumkin. Shuningdek, chet tili darslarida xorijiy tilni o‘rganishdagi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha Internet bazasidagi turli materiallarni ishlatsa bo‘ladi. Bu borada tilshunoslikka oid kitoblardan tashqari, internet OAV materiallaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Faqat bunda aynan xalqaro maydonda tan olingan, ro‘yxatdan o‘tgan OAV materiallaridan foydalanish tavsiya etilishi zarur. Chunki ayni vaqtda global tarmoq “ommaviy madaniyat” va axborot xurujlarining eng qulay vositasiga ham aylanib borayotganini e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Internet saytlaridagi materiallar til o‘rganishda aynan hozirgi davrda qo‘llanilayotgan lisoniy vositalarning amalda qo‘llanilishiga yaxshi misol bo‘la oladi. Jumladan: Internet nashrlar so‘z boyligi va yozma til ko‘nikmalarni rivojlantirish borasida yaxshi manba bo‘la oladi. Internet saytlaridagi audiomateriallardan o‘quvchilarning tinglash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida foydalanish mumkin. Internetdagi video mahsulotlar eng zamonaviy va yangi ma’lumotlar, til boyliklari bilan boyitilgan hayotiy axborot materiali bo‘la oladi.

Chet tilini o‘qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan, ayniqsa, Internetdan foydalanib, til o‘rgatishda juda keng imkoniyatlar mavjud. Chunki Internet eng so‘nggi

axborotni o‘zida jamlash barobarida, unda amaliyotda foydalanilayotgan eng so‘nggi til qatlamlari ham mavjud bo‘ladi. Bu esa darslarning yanada jonli va samarali o‘tilishiga ta’sir etmay qolmaydi. Shuni hisobga olgan holda, so‘nggi vaqtlarda media ta’lim sohasi tobora rivojlanib bormoqda.

Mazkur soha bir tomondan dars jarayonlarida texnologiyalarni faol qo‘llashni nazarda tutsa, boshqa bir nuqtai nazardan media vositalarining kishilar bilim olishidagi kuchli ta’sirini tadqiq etadi. Sohaning har ikki jihati ham yoshlarga xorijiy tillarni o‘rgatishda yaxshi samara beradi. Media ta’lim hozirgi axborot asrida shaxsning bevosita turli media texnologiyalar, xususan, ommaviy axborot vositalari, kino san’ati, internet va mobil texnologiyalar orqali bilim va axborot olish, ular orqali ma’naviy rivojlanib borishini anglatadi.

Bugungi minglab axborot uzatuvchi vositalar va kanallar qurshovida yashayotgan inson uchun axborot xuddi non va suvdek kundalik ehtiyojga aylanib ulgurgan. Bunday vaziyatda esa barcha yoshdagi kishilar uchun media ta’limning ahamiyati nechog‘lik yuqori ekanini sezish qiyin emas. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, media ta’lim tushunchasi turli ilmiy manbalarda va sohalarda turlicha talqin etib kelinadi. Jumladan, pedagogika sohasida u orqali ko‘proq ta’lim jarayonida media texnologiyalari, media mahsulotlarini qo‘llash va o‘quvchilarni shu yo‘l bilan bilimini oshirish, ayni vaqtda ta’lim samaradorligiga erishish bilan birga ularda media texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini ham shakllantirib borishni ko‘zda tutiladi.

Bevosita media ta’lim masalalariga daxldor ma’lumotlarni berib boradigan Kanadalik mutaxassislarning “medialiteracyweek” saytida media ta’limga quyidagicha ta’rif berilgan: “Media ta’lim OAV xabarlari va mahsulotlarining tabiati, texnikasi va ta’sirini tanqidiy anglash imkonini beradigan shaxslarning media savodxonligini oshirish jarayonidir”. Albatta, ta’limdagi bunday yangilanishlar yosh avlod internet tarmog‘ining asosiy va eng faol foydalanuvchisi hisoblangan bugungi kun uchun nihoyatda muhimdir. “Internet shunisi bilan o‘ziga jalb qiladiki, foydalanuvchi uning yordamida o‘z ma’lumoti darajasini oshirish maqsadida istalgan axborotni olishi mumkin”. Media ta’limni taraqqiy ettirishning zarurligi mazkur sohaning yoshlarning chet tillarini o‘rganishida ijobiy samaralar bera olishida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bugungi avlod bilim va dunyoqarashni o‘stirishda kitoblar mutolaasi bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlarning “botlari”, mobil ilovalar orqali uzatiladigan ma’lumotlar, yangiliklar, elektron shakldagi kitoblar, suratlar, video va animatsiyali axborot materiallaridan ko‘proq foydalanmoqda. Chet tilidan dars mashg‘ulotlariga mazkur manbalardan olingan materiallarini joriy qilish yoshlarda internet ma’lumotlaridan to‘g‘ri va oqilona maqsadlarda foydalanishni shakllantiradi. Chunki o‘qituvchi dars mashg‘uloti chog‘ida muayyan xorjiy tildagi internet materialini til o‘rganuvchilarga taqdim qilar ekan, uning qaysi saytdan olganini eslatadi.

Til o‘rganishda qaysi manbalar foydali ekanligi bo‘yicha muayyan ko‘rsatmalar berib boradi. Internet saytlarida bir mavzu yoki ro‘y bergan voqea yuzasidan matnli, audio yoki video mahsulotni topish mumkinligi esa til o‘rgatish jarayonlarini yanada qiziqarli qiladi. Mavzu bo‘yicha so‘z boyliklarini turli shakldagi axborot materiallari orqali shakllantirishlariga turtki bo‘ladi. Matnli mahsulotlar va video mahsulotlarida qo‘llangan leksik boylik va sinonim so‘zlarni qiyosiy o‘rganish imkoniyati ham tug‘iladi.

Oliy ta’limda AKTlardan optimal foydalanish uchun o‘qituvchi pedagoglar o‘z ustida doimiy ishlashi, o‘qitiladigan barcha fanlar bo‘yicha elektron axborot-resurs maydonchalarini yaratishlari va ularni tarmoqqa joylashtirish ishlarini boshlashi kerak.

Bu vazifalar yuqorida keltirganimizdek tashkiliy, texnologik va metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Biroq, o‘qituvchi universitet qachon texnologik yoki tashkiliy masalada yordam berar ekan, deb kutib turmasligi lozim, balki har bir o‘qitiladigan fan bo‘yicha elektron axborot maydonchasiga talab etiladigan ma’lumotlarni yig‘ishi, ya’ni metodik ta’minotni yaratishi lozim. Bu uchun fanning o‘quv-uslubiy majmuasi tarkibiga kiradigan barcha elementlar, jumladan: fan dasturi; ma’ruza matni; mavzular kesimida slaydlar; mavzular kesimida testlar; mavzular kesimida tavsiya etilagan manbalarning elektron versiyalari; mavzular kesimida audio-vizual manbalar (videoleksiyalar) hamda yo‘nalish yoki mutaxassislik profilidan kelib chiqqan holda qo‘shimcha tushuntiruvchi materiallar taqdim etishi lozim.

Elektron manbalarni dasturiy ta’minot vositasida tarmoqqa joylashtirish texnologik va tashkiliy vazifalar sirasiga kiradi. Bizning fikrimizcha, agar har bir o‘qituvchi-pedagog muayyan fan bo‘yicha elektron manbalarni sifatli tayyorlasa, uni tashkiliy va texnik talablarini bajarish muammo bo‘lmaydi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, professor-o‘qituvchilar har bir fanning fundamental asosi (elektron manbasi)ni yaratish bilan AKT vositasida oliy ta’lim sifatini oshirishdagi eng muhim vazifani bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o‘rganish hozirgi axborot asrining dolzarb vazifalaridan ekan, o‘sib kelaytgan yosh avlodga til o‘rganishning samarali usullarini ko‘rsatish va jadal o‘rgatish usullarini ishlab chiqish nihoyatda muhimdir. Bu borada rasmiy internet manbalari materiallaridan foydalanish, jahon mamlakatlari tajribasida media ta’limning ilg‘or usullarini o‘rganish va ta’lim jarayonlariga ularni tatbiq etish ta’lim jarayonlarining qiziqarli bo‘lishi va yaxshi natijalarga erishishda muhim omil bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karshiyev B.E. Jamiyat xavfsizligi va barkarorligini ta’limlashta media ta’limning urni: PhD avtoref. diss. – T., 2020.
2. Taylakova Sh.N. O‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirish: PhD diss avtoreferati. – T., 2018.
3. Kulmamatov S.I. Mustaqil ta’limni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: P.f.n. … diss. avtoref. – Guliston: GulDU, 2008.
4. Babadjanov S.S. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarning media-kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi: Diss avtoreferati. – T., 2019;
5. Чичерина Н.В. Концепция формирования медиаграмотности у студентов языковых факультетов на основе иноязычных медиатекстов: Дисс. …. д.п.н. – СбП, 2008.

Nilufar Komiljonovna SABIROVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german filologiyasi fakulteti,
‘‘Ispan tili amaliy fanlar’’ kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARI CHET TILI DARSLARIDA AUDIO-VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada chet tili kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismlari sifatida lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyalar, chet tilini o‘qitishda radioeshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarning roli, autentik video materiallar asosida o‘qitishning afzalliklari, videomateriallarni qo‘llash prinsiplari, bosqichlari, metodlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, audio-video materiallarni darsda qo‘llashning texnologiyalari, ushbu vazifalarni amalga oshirishda pedagogning kompetensiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kommunikativ kompetensiya, lingvistika, sotsiolingvistika, pragmatik kompetensiyalar, radioeshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlar, autentik video materiallar, afzalliklar, videomateriallar, bosqichlar, metodlar, audio-video materiallar, texnologiya, pedagogning kompetensiyalari.

В статье описываются лингвистические, социолингвистические, прагматические компетенции, роль радиопередачи и социальных сетей в обучении иностранному языку, преимущества обучения на основе аутентичных видеоматериалов, принципы, этапы и методы использования видеоматериалов. Также, в статье подробно изложены компоненты языковой коммуникативной компетенции, технологии использования аудио-видео материалов на уроке, компетенции педагога в реализации данных задач.

Ключевые слова. Коммуникативная компетентность, лингвистика, социолингвистика, прагматические компетенции, радиопередачи, социальные сети, аутентичные видеоматериалы, преимущества, видеоматериалы, этапы, приемы, аудио-видеоматериалы, технологии, педагогические компетенции.

The article describes linguistic, sociolinguistic, pragmatic competencies, the role of radio transmission and social networks in teaching a foreign language, the benefits of learning based on authentic video materials, the principles, stages and methods of using video materials. Also, the article details the components of language communicative competence, the technology of using audio-video materials in the classroom, the competence of the teacher in the implementation of these tasks.

Key words. Communicative competence, linguistics, sociolinguistics, pragmatic competences, radio broadcasts, social networks, authentic video materials, advantages, video materials, stages, techniques, audio-video materials, technologies, pedagogical competencies.

Keyingi yillari jamiyatning turli sohalaridagi taraqqiyot natijasida chet tillarning o‘rni mustahkamlanib, unga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Hech kimga sir emas, jahonga yuz tutgan ilg‘or davlatlar mehnat bozorining asosiy talabi - chet tilida bemalol muloqot qila oladigan, kompyuter texnologiyalaridan xabardor va innovatsion g‘oyalarga boy hamda o‘z uslubiga ega kadrlardir. Bundan kelib chiqadiki, chet tili kommunikativ kompetensiyasi chet tilidagi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyatidir. O‘zbekiston Respublikasi davlat

ta’lim standartida chet tili kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismlari sifatida lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyalar kiritilgan bo‘lib, bu kompetensiyalar kommunikativ kompetensiyani takomilashtirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Chet tilida kommunikativ kompetensiyaga ega shaxs, nafaqat grammatik tuzilmalarni bilishi, balki tildan foydalanish normalari va muayyan ijtimoiy sharoitga mos ravishda tilni qo‘llay olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Bizningcha, o‘quvchida bunday bilimga ega bo‘lish, malaka va ko‘nikmani shakllantirish uchun kommunikativlikka asoslangan til ta’limi chet tilini o‘qitish metodikasining ustuvor yo‘nalish bo‘lmog‘i lozim.

Kommunikativlikka asoslangan til ta’limi o‘z o‘rnida chet tilini o‘qitish jarayonida faqat o‘quvchiga nimani o‘rgatishni emas, balki qanday qilib o‘rgatish kabi masalasini ham tahlil etadi. Kommunikativ til ta’limi yoki tilga kommunikativ yondashuvda, tilda egallangan muayyan grammatik normalar va so‘z boyligi ko‘lamigagina emas balki, tilning qo‘llanishdagi vazifasiga katta urg‘u berilishi lozim. Shuningdek, CLTda til o‘rganuvchilar real hayotiy vaziyatlardagi muloqotga tayyorlanadi, uladan muloqot jarayonidagi kommunikativ vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish talab etiladi. Kommunikativlikka asoslangan chet tilini o‘qitish metodikasi zamonaviy til o‘rgatish talablariga ko‘ra til o‘rganuvchini faqat muloqotga o‘rgatishning o‘zini qoniqarli natija deb bilmaydi, balki qo‘shimcha tarzda til o‘qitishning turli vositalari asosida o‘quvchini o‘rganilayotgan til madaniyatidan ham xabardor qilish, uning kommunikativlikning barcha mezonlariga amal qilgan holda muloqotga kirisha olishini ta’minlashini talab etadi. Bugungi kun talabi nafaqat tarjima qilish, yozish, o‘qish, yoki chet tilida muloqot qila olish, balki muayyan vaziyatlarda o‘rganilayotgan tilni ijtimoiy-madaniy birliklardan kelib chiqqan holda to‘g‘ri qo‘llay olishni talab etadi. O‘quvchida chet til kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va uning rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi ta’lim metodlari o‘rganilganda, tahlil etilgan adabiyotlarning asosiy qismida hayotiylikka asoslangan til ta’limining yoqlanganligiga guvoh bo‘lamiz. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, chet tilini o‘rganishga bo‘lgan yondashuv va qarashlar oqimi hayotiy misollarga boy, real voqelikka asoslangan ta’lim metodini qo‘llab-quvvatlamoqda.

Ko‘pgina olimlar bu borada chet tilini o‘qitishning ko‘plab vositalaridan - radioeshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlar asosida chet tilini takomillashtirishga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlashmoqda. Ammo radio, ijtimoiy tarmoqlar, autentik matnlar yoxud turli ICT dasturlar o‘quvchida lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan bir yoqlama vosita sifatida xizmat qiladi.

Shu o‘rinda chet tilini autentik video materiallar asosida o‘qitishni yuqoridagi talablarning bajarilishi va kommunikativlikka asoslangan til ta’limining asosiy vositasi sifatida o‘rganuvchini real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash vazifalarining yengil yechimi deb qarashimiz lozim. Bundan tashqari autentik videomateriallar til o‘rgatishda real hayotiy vaziyatning alternativ ko‘rinishi sifatida yordam beradi. Ovoz orqali taqdim etilgan ma’lumotlardan ko‘ra, ovozli videotasvirlar yordamida taqdim etilgan ma’lumotlar til o‘rganuvchilarning voqelikni yaxlit anglashlariga yordam beradi. Tadqiqot natijasida til o‘rganuvchilar orasida yaxshiroq anglangan ma’lumotlarning asosiy qismini videomateriallardagi harakatli nutqlar tashkil etishi ham aniqlangan. Bu metodni darsga tatbiq etish borasida olib borilgan o‘rganish va izlanishlar quyidagi xulosalarga olib keldi:

– autentik videomateriallardan foydalanish, avvalo, til o‘rganuvchiga u yoki bu chet tilda muayyan ijtimoiy guruhlarning aniq bir vaziyatdagi, so‘zlashuv tilining barcha xususiyatlari (emotsional buyoqdorligi, nutq tezligi, mimika kabi) bilan yo‘g‘irilgan real muloqotni taqdim etadi. Bunday hayotiy til muhiti orqali til o‘rganuvchilar til uzusi

(me’yor va talablari), konnotativ leksika, mimika, verbal va noverbal muloqot turlari bilan yaqindan tanishadilar;

– autentik videomateriallar til o‘rganuvchilarda kommunikativ kompetentlikni asosiy ko‘rsatkichi bo‘lgan gapirish (speaking) va tinglab tushunish (listening) ko‘nikmalarini tezlik bilan real voqelikka asoslangan holda nutqda qo‘llanilgan qochirimlar, kinoyalar, mahalliy tilda so‘zlashuvchi kishilar “native speaker”largagina ma’lum leksik birliklarning qo‘llanish o‘rinlari;

– diskursni o‘rgangan holda rivojlanishiga olib keladi. Oddiy hayotiy misollar asosida tilni o‘rganish esa aksariyat til o‘rganuvchilarning provard maqsadi bo‘lgan chet tilida uning nozik tomonlarini ham anglagan holda muloqotga kirishishiga imkon yaratadi;

– autentik videomateriallar nutq egasining fikrini psixoemotsional holati, yuz ifodalari, imo-ishoralari orqali o‘rganishga imkoniyat beradi. Shu bilan birga, insonning ruhiy holati bilan bog‘liq jarayon (xursandchilik, hayratlanish, qayg‘u, yig‘i kabilar) barcha madaniyatlarga xos va bu kabi tushunchalar tarjima talab etmaydi. Shunday ekan, bu metod o‘rganuvchilarga nutq yo‘nalishini kontekstni to‘liq tarjima qilmasdan tushunish imkonini beradi;

– autentik videomateriallarni darsda qo‘llash o‘rganuvchilarga tayyor nutq namunasini taqdim etadi va bu til o‘rganuvchilarga nutqning talaffuz, intonatsiya, grammatik va leksik jihatlarini bevosita o‘rganish imkonini beradi. Autentik videomateriallardan dars jarayonida foydalanilganda, ularning maqsadli va sistemali namoyish etilishi hamda metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilishi muhim ahamiyatga ega.

Darsning qaysi qismida videomateriallarni qo‘llash darsning aniq maqsadi videomateriallarning vazifasiga qarab belgilanadi. Shunday ekan, autentik videomaterial dars boshida mavzuga kirish, mavzu ustida ishlash yoki dars oxirida mavzuni mustahkamlash maqsadida qo‘llash mumkin. Ayni paytda, muayyan afzallik va imkoniyatlariga qaramay, autentik videomateriallarni darsda qo‘llashda o‘ziga xos muammolar mavjud bo‘lib, u birinchi navbatda autentik videomateriallarni o‘quv rejasiga moslashtirish bilan bog‘lik. Bunda materiallarni saralash va mavzuga moslashtirish, uni til o‘rganuvchilarning yoshi, bilim darajasi va auditoriyasiga (qaysi sohaga yo‘naltirilganligiga) qarab amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Mavzuga oid o‘rganilgan manbalar shuni ko‘rsatdiki, autentik videomateriallarni saralash tashkil etiladigan dars maqsadi va vazifasidan kelib chiqib muayyan prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Autentik videomateriallarni saralashning quyidagi mezonlarini taklif etamiz:

– autentik videomaterialning ta’lim maqsadlariga muvofiqligi;

– autentik videomaterialdagi axborotning yangiligi va ixchamligi;

– autentik videomaterialni o‘quvchining chet tili bilim darajasiga mosligi;

– tanlangan autentik videomaterial mazmunining hayotiyligi. Autentik videomateriallarni darsda qo‘llashning ikkinchi o‘ziga xos jihati – o‘rganilayotgan tilning qiyinligi, so‘zlar xilma-xilligi, nutqning tezligi, turli leksik birliklarga boyligidadir.

Bunday vaziyatda pedogog materiallarni qo‘llashda o‘quvchilar imkoniyatlarini hisobga olgan holda, muayyan sistemaga solingan mashqlar ketma-ketligini ishlab chiqishi; autentik videomateriallar namoyishi bilan bog‘liq mashqlar ustida ish olib borar ekan, videonamoyishning uch asosiy bosqichini hisobga olmog‘i lozim.

Audio-video materiallarni darsda qo‘llashning an’anaviy uch bosqichi (Pre-Watching, While-Watching, Post-Watching stages) mavjud:

· namoyishdan oldingi bosqich (autentik videomaterialni qo‘llashdan oldingi bosqich);

· namoyish bosqichi (autentik videomaterialni qo‘llash bosqichi);

· namoyishdan keyingi bosqich (autentik videomaterialni qo‘llashdan keyingi bosqich).

Yuqorida ta’kidlangan metod asosida samarali mashg‘ulot olib borish, ko‘zlangan natijaga erishish uchun pedagog har bir bosqichning vazifasiga muvofiq mashqlar tipologiyasidan kelib chiqib darsni tashkil etishi talab etilidi. Bunda birinchi bosqich til o‘rganuvchilarni videonamoyishga tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘rganuvchilarga motivatsiya berish, qiziqtirish, mavzu bilan tanishtirish, mavjud bilimlarni faollashtirish kabi muhim vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Pedagog videonamoyishdan avval:

· videomaterial mavzusini yoritishda yordam beradigan kalit so‘zlar yordamida mavzuni muhokama qilish;

· taqdim etiladigan videomaterialni dastlab, ovozsiz namoyish etish (bunda til o‘rganuvchilarga nima haqida so‘z borayotganini taxmin qilish yoki erkin ovozlashtirish imkonini berish);

· namoyish etiladigan videomaterialning dastlab faqat audioformatini taqdim etish (videomaterialning ovozli formati orqali, video syujetini aniqlash) usulini o‘rinli qo‘llash yuqorida aytilgan vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Ikkinchi bosqichda videomaterial muayyan qismigacha namoyish etilib, keyingi voqealar rivoji haqida o‘rganuvchilarning fikrini aniqlash uchun videomaterial namoyishidan oldin berilgan leksik birliklarni qo‘llash o‘rniga e’tibor qaratishga asoslangan mashqlar berish mumkin. So‘nggi bosqichda esa namoyish etilgan videomaterialni tushunish hamda material asosida yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratiladigan mashqlardan foydalanish yoki videomaterialda aytilgan fikrni davom ettirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar beriladi.

Xulosa qilib aytganda, mavzu bo‘yicha til o‘rganuvchilar auditoriyasiga moslangan autentik videomateriallar o‘quvchilarga kerakli ma’lumotni ko‘rish-tinglash va imo-ishoralar orqali tushunish, namoyish etilgan lavhaning madaniy xususiyatlarini to‘laligicha anglash bilan birga, ular asosida maqsadga yo‘naltirilgan mashqlar to‘plami (nutqni rivojlantirish uchun dialoglar, bahs-munozaralar, monologlar) til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.

2. Верисокин Ю. И. Видеофильм как средство мотивации школьников при обучении иностранному языку // Иностранные языки в школе. – Москва, – № 5. 2003. – С. 31–35.

3. Воробьев Г. А. Развитие социокультурной компетенции будущих учителей иностранного языка (поиск эффективных путей) //Иностранные языки в школе [Текст]. – Пятигорск, 2003. – № 3. – С. 30-36 б.

4. Гуняшова Г.А., Использование видеоматериалов в обучении аудированию на уроке иностранного языка // Вестник Кемеровского государственного университета 2015 № 2(62) Т.3. – URL:https://doi.org/10.21603/2078-8975-2015-2-34-37

5. Колчина А. И. Принципы обучения аудированию через систему Интернет// Лингвистика и методика обучения иностранным языкам: Сборник научных трудов. – СПб: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2005. – С. 71–79.

Guljaxon JONIQULOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german filologiyasi fakulteti,
‘‘Ispan tili amaliy fanlar’’ kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIM OLUVCHILARNING XORIJIY TILDA MULOQOT MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIA VOSITALARINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada multimedia vositalari evolutsiyasining tahlili, raqamlashtirilgan, dasturlashtirilgan multimedia materiallari, chet tillarni o‘qitish jarayonida, til o‘rganuvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda zamonaviy multimedia vositalarining o‘rni, fonetik, leksik, grammatik bilimlarni multimedia vositalari yordamida egallash masalalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, audio-vizual materiallarni, dasturlashtirilgan resurslarning sifatli ishlab chiqish, multimediali o‘yin va dasturlar orqali ta’lim oluvchini til muhitiga, jonli muloqotga olib kirish yo‘llari, zamonaviy texnik vositalar yordamida o‘qituvchiga autentik materiallar, resurslardan to‘laqonli foydalanish bo‘yicha taklif va mulohazalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Multimedia vositalari, raqamlashtirilgan, dasturlashtirilgan multimedia materiallari, chet tillarni o‘qitish jarayoni, til o‘rganuvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish, zamonaviy multimedia vositalari, fonetika, leksika, grammatika, audio-vizual materiallar, multimediali o‘yin, jonli muloqot, zamonaviy texnik vositalar, autentik materiallar, resurslar.

В статье подробно описывается анализ эволюции мультимедийных средств, оцифрованных, запрограммированных мультимедийных материалов, роль современных мультимедийных средств в процессе обучения иностранным языкам, развитие навыков аудирования обучаемых, приобретение фонетических, лексических, грамматических знания с помощью мультимедийных средств. Также, в статье приводятся предложения по качественной разработке аудиовизуальных материалов, программных ресурсов, способов введения учащегося в языковую среду, живого общения посредством мультимедийных игр и программ.

Ключевые слова. Мультимедийные средства, оцифрованные, программированные мультимедийные материалы, процесс обучения иностранному языку, развитие навыков аудирования, современные мультимедийные средства, фонетика, лексика, грамматика, аудиовизуальные материалы, мультимедийная игра, живое общение, современные технические средства, аутентичные материалы, ресурсы.

The article describes in detail the analysis of the evolution of multimedia tools, digitized, programmed multimedia materials, the role of modern multimedia tools in the process of teaching foreign languages, the development of students' listening skills, the acquisition of phonetic, lexical, grammatical knowledge using multimedia tools. Also, the article provides suggestions for the high-quality development of audiovisual materials, software resources, ways to introduce the student to the language environment, live communication through multimedia games and programs.

Key words. Multimedia tools, digitized, programmed multimedia materials, the process of teaching a foreign language, development of listening skills, modern multimedia tools, phonetics, vocabulary, grammar, audiovisual materials, multimedia game, live communication, modern technical means, authentic materials, resources.

Tillarni o‘qitishda multimedia vositalaridan uzoq vaqt mobaynida foydalanilib kelingan. Misol uchun, magnetofon, lingofon vositalari, radio, televizor va h.k. Keyinchalik komp'yuterning rivojlanishi natijasida raqamlashtirilgan,

dasturlashtirilgan multimedia materiallar paydo bo‘la boshlandi va o‘z navbatida ta’lim jarayonida ham keng miqyosda tatbiq etila boshlandi. Bu jarayon zamonaviy texnik vositalar (kampyuterning oxirgi avlodlari, noutbuk, netbuk, planshetlar, interaktiv smart doskalar, omart televizorlar va albatta, senserli, smart mobil telefonlar) yordamida ta’limda yanada o‘z samarasini bera boshladi.

Multimedia vositalari evolyusiyasini tahliliy o‘rganib, faqatgina chet tillarni o‘qitish jarayonida foydalanilgan multimedia vositalarini aniqlab olib va qo‘shimcha qilgan holda quyidagicha izohlashimiz mumkin: 1990-yillargacha aksariyat hollarda chet til o‘rganuvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish (ta’kidlab o‘tish joizki, ushbu jarayon XXI asrga nisbatan soddaroq shaklda olib borilgan) va to‘g‘ri talaffuz qila olish ko‘nikmalarini o‘stirishda foydalanilgan. Zamonaviy multimedia vositalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi bilan ulardan turli xil maqsadlarda foydalanishga e’tibor qaratila boshlangan. Nafaqat fonetik bilimlarni, balki leksik, grammatik bilimlarni ham multimedia vositalari yordamida egallash imkoniyatlari paydo bo‘la boshlandi.

Multimedia vositalaridan o‘quv jarayonida samarali foydalanish xorijiy tillardagi audio-vizual materiallarning, dasturlashtirilgan resurslarning sifatli ishlab chiqilishiga bog‘liq bo‘lmoqda. Multimedia tushunchasi xususida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bugungi kungacha tillar o‘qitish metodikasi bo‘yicha ko‘plab olimlar, mutaxassislar ta’limdagi multimedia tushunchasini o‘z nuqtai nazari bilan ta’riflab berishgan. Multimediali o‘yin va dasturlar (Windows, android Internet DVD USB-fleshka Til Teleko‘rsatuvlar Videoapparat Magnitofon Videotasmalar Audiotasmalar Mikro Videokassetalar Audiokassetalar W Audiopleerlar indows CD-ROM Giper interaktiv Interaktiv, smart Multimediali lug‘atlar Til o‘rgatuvchi va informatsion saytlar Multimedia resurslari, ilovalari 2018 lug‘atida multimedia tushunchasi axborotni turli xil ko‘rinishda (matn, audio, video va animatsion ko‘rinishda) ifodalovchi ta’lim vositasi sifatida berilgan.

Shuningdek, multimedianing uchta turi ko‘rsatib o‘tilgan, ya’ni maxsus kompyuterlashtirilgan o‘quv kurslari, madaniyat, tarix, san’at bo‘yicha dasturlashtirilgan ma’lumotlarni aks ettiruvchi kompakt-disk, multimediali taqdimotlar ko‘rinishdagi materiallar sifatida berilgan. Bizningcha, multimedia tushunchasi ikki ma’noda qo‘llaniladi, ya’ni texnik vositalarga (disk, apparat va h.k.) va ta’lim vositalariga (audio-video materiallar, dasturlashtirilgan resurs, lug‘atlar va h.k.) nisbatan ishlatiladi. Xorijiy tillarni o‘qitishda til o‘rganuvchida nutqiy muloqotni shakllantirish eng asosiy maqsad qilib belgilangan. Nutqiy muloqotni shakllantirishda multimedia ta’lim vositalaridan innovatsion tarzda foydalanish zamonaviy metodikaning asosiy talablaridan biridir. Chet til o‘rganuvchida nutqiy muloqotni o‘stirish uchun esa didaktik muloqotni amalga oshirish talab etiladi.

Demak, dars jarayonida autentik va didaktik muloqotni amalga oshirishda alohida e’tibor qaratish zarur. Chet tilini o‘rgatuvchi o‘qituvchi faoliyati davomida nutqiy muloqot jarayoni sifatida kasbiy muloqotni yoki didaktik muloqotni amalga oshiradi. Dars davomida kasbiy, autentik va didaktik muloqot jarayonlari amalga oshiriladi. Kasbiy muloqot o‘qituvchining didaktik-pedagogik faoliyati bilan bog‘liqdir. Autentik muloqot til ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida foydalaniladigan xorijiy tildagi manbalar, ya’ni gazeta jurnallardagi materiallar, e’lon va afishalar, qo‘shiqlar, teleradio kanallari ko‘rsatuvlari, Internetdagi materiallar va h.k. kabilarda aks etadi. Didaktik muloqot esa o‘rganuvchilarning autentik materiallarni o‘rganish jarayonida shakllangan va til ko‘nikmasini mustahkamlashga qaratilgan muloqotida aks etadi.

Shuningdek, didaktik muloqotni autentik muloqotdan farqlanishini ta’kidlagan, ya’ni autentik muloqotda ma’lumot olish va qaror qabul qilish uchun gapiriladi hamda

didaktik muloqotda esa baholash va baholanish uchun gapiriladi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, ona tili egallangan til, ya’ni bolalikdan tabiiy ravishda egallangan nutq (birlamchi nutq ona tilida shakllanadi) sifatida qaralsa, o‘rganilayotgan xorijiy til, ya’ni ma’lum maqsadda, ma’lum sharoitda undan foydalaniladigan nutq (birlamchi sifatida ona tilida shakllangan nutq chet tilida muloqot ko‘rinishda aks etadi) hisoblanadi.

Shunday ekan, autentik muloqot ona tilida aks etgan og‘zaki va yozma nutq ko‘rinishida bo‘lsa, didaktik muloqot faqatgina chet tilini o‘rganish jarayonida amalga oshiriladi. Ammo o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot ta’limdan tashqari mavzuda, o‘quvchini maqtash yoki unga e’tiroz bildirish kabilarni anglatsa, autentik muloqot hisoblanadi. Autentik muloqotni aks ettiruvchi materiallar sifatida multimedia ta’lim vositalari til o‘rganuvchilarga autentik muloqotni tatbiq etish orqali didaktik muloqot maydonini yaratadi. O‘quvchilar o‘zida didaktik muloqot natijasida muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi va kundalik hayotda xorijiy tildagi og‘zaki va yozma muloqot jarayonlariga tezda moslashib ketadi.

Demak, o‘qituvchi o‘quvchilarga didaktik muloqotni tashkillashtirishi kerak bo‘ladi. Buning uchun autentik muloqotni aks ettiruvchi multimedia ta’lim vositalaridan biri bo‘lgan audiovizual materiallarni o‘quvchilarga ko‘rsatib, o‘qituvchi oldindan tayyorlagan topshiriq va mashqlarni berish orqali o‘quvchilarda didaktik muloqotni shakllantiradi. Audiovizual material, xususan, video material o‘quvchini til muhitiga, jonli muloqotga olib kiradi. Bu jarayon o‘quvchida muloqot ko‘nikmalarini, lingvistik va madaniyatlararo bilim va ko‘nikmalarni shakllantiribgina qolmasdan, tilni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini rivojlantiradi.

Videomaterial o‘quvchilarga verbal va noverbal jarayonni kuzatish, muloqot orqali o‘rganishga imkon yaratadi. Video materialdan foydalanishda o‘qituvchi didaktik maqsadni inobatga olgan holda turli xil uslublarni qo‘llashi mumkin. Bunda video material orqali qaysi ko‘nikmani rivojlantirishga e’tibor qaratgan holda autentik video materialni didaktik va texnik jihatdan montaj qiladi. Montaj jarayonida video materialdagi shovqinlarni saqlab qolishi yoki yo‘q, subtitrlarni kiritishi, vaqtini o‘zgartirishi va albatta, video materialga bitta yoki bir nechta topshiriqlarni berishi mumkin.

Shuningdek, o‘quvchilarning sinfda ishlashga yoki mustaqil ishlashga yo‘naltirilganini ham inobatga olish kerak. Bu jarayonni esa autentik video materialni didaktiklashtirish jarayoni deyish mumkin. Albatta, autentik video materialni tanlash va uni didaktiklashtirishda o‘quvchining yoshi (kursiga), til bilish darajasiga hamda mavzuga e’tibor qaratiladi. Demak, video materialni hech qanday didaktiklashtirishsiz berish mumkin, qisman didaktiklashtirib va to‘liq didaktiklashtirib berish mumkin. OAVdan olingan video yangilikni Umum yevropa standartlari (CEFR) darajalari (A2, V1 va V2)ga moslab didaktiklashtirish, video materialni ko‘rsatishingizdan oldin mavzuga doir savollar bilan o‘quvchilarning fikrini jalb qilish mumkin. Topshiriqlar (A2 uchun):

1. Video materialni tinglang va to‘g‘ri javoblarni belgilang.
2. Tinglang va quyidagi savollarga javob bering.
3. Tinglang va berilgan gaplarni video materialga mos yoki mos emasligini belgilang, bunda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri so‘zlari bilan belgilaysiz.
4. Reportajni tinglang va tushirib qoldirilgan so‘z va iboralar bilan gap yoki matnni to‘ldiring.
5. Kichik guruhlarda ishlang.

Videomaterialning mavzusidan kelib chiqib, o‘zingizning fikrlaringizni bildiring. Nutqingizda oldingi mashqlarda ishlatgan grammatik birliklardan foydalaning. V1 daraja uchun:

1. Reportajni tinglang. Kim? Nimani? Qachon? Qayerda? So‘roqlariga javob qidiring va ularni mantiqiy bog‘lashga harakat qiling.

2. Tinglang va savollarga javob bering.

3. Tinglang va berilgan gaplar video materialdagi kimlar tomonidan bildirilgan fikrlar ekanligini ko‘rsating.

4. Tinglang va matnni to‘ldiring.

5. O‘yin.

Siz misol uchun stependiya yutib oldingiz. Endi o‘zingiz qiziqqan universitetga xujjat topshirmoqchisiz. O‘zingiz haqingizda, qobilyatlaringiz, qiziqishlaringiz, xarakteringiz va motivatsiyangiz haqida yozing. V2 daraja uchun: 1. Reportajni tinglang va nima haqida gap ketayotganini yozing. Fikringizni aniq va qisqa bering. 2. Tinglang va jadvalni to‘ldiring. 3. Tinglang va savollarga javob bering, fikringizni asoslang. 4. Tinglang va berilgan iboralarga izohlaringizni yozing. 5. Kichik guruhda ishlang. Agar siz stependiyaga ega bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lardingiz? Agar aksincha ega bo‘lmaganingizdachi, nima qilgan bo‘lardingiz? Fikringzni o‘rtoqlaringiz bilan bo‘lishing. Xulosa Demak, autentik muloqotni aks ettiruvchi materillar sifatida multimedia ta’lim vositalaridan didaktik muloqotni shakllantirishda unumli foydalanish mumkin.

Til o‘rganuvchi o‘zida didaktik muloqotni rivojlantirishi natijasida autentik materiallardan mustaqil foydalana oladi va nutqiy muloqot, dialog jarayonlarida erkin moslasha oladi. Zamonaviy texnik vositalarning rivojlanishi dars jarayonida o‘qituvchiga autentik materiallar, resurslardan to‘laqonli foydalanish imkonini beryapti. O‘quvchilar audio-vizual resurslar orqali autentik muhitga moslasha oladi. Natijada har bir o‘quvchi mustaqil ravishda zamonaviy texnik vositalardan foydalanib, nutqiy muloqotlarini o‘stirishi, Internet manbalari orqali xorijiy tillardagi ma’lumot va yangiliklarni bilib olishi mumkin. Bu esa chet tili o‘qitishning asosiy maqsadidir.

Har qanday autentik audio-vizual materialni dars jarayoniga tatbiq etish uchun maqsad va vazifalarni belgilab olish, mashq va topshiriqlarni tayyorlash kerak. Bu jarayon didaktik muloqotni yaratish orqali nutqiy muloqotni o‘stirishga xizmat qiladi. Natijada autentik materialdan samarali foydalanib, didaktik maqsadga erishgan bo‘lamiz. Ushbu jarayonlarni samarali amalga oshirishda barcha o‘qituvchilarning yuqorida qayd etib o‘tilgan fikrlarga kasbiy yondoshishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Штыкова Т. Дидактическая коммуникация в структуре профессиональной деятельности учителя иностранного языка // URL: General and Professional Education. 1/2010. – С. 94–99.

2. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР, 2009. – С. 448

3. Kartal Erdogan. La place et les fonctions des produits multimédias dans la didactique du Français Langue étrangère. Université de Hacettepe Institut des Sciences Sociales, 2004. – 300 p. 182 “O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal www.journal.fledu.uz №2(21)2018.

4. Weiss F. (1984) Types de communication et activités communicatives en classe, Le Français dans le monde, n° 183, pp. 47-51. // URL: http://www.fle-philippemijon.com/pratique-declasse/communications-authentique-et-didactique-en-classe-de-fle.

Ilhom HOSHIMOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

ZAMONAVIY TA’LIM FAOLIYATINI TIZIMLI ILMIY-USLUBIY TA’MINLASH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy ta’lim faoliyatini tizimli ilmiy-uslubiy ta’minlash masalalari markaziy o‘rinni egallaydi. “Maktab-oliygoh” tizimida talabalarning kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash muammosini o‘rganishga tizimli yondashish zarurati bir qator sabablarga bog‘liq. Shuningdek, tadqiqotning turli xil diagnostik usullarini tanlash bir qator holatlarga bog‘liq bo‘lib, ushbu yondashuv maktab va oliygoh o‘quv jarayonini tashkil etishning mazmunli tarkibiy qismini belgilaydi: fanlarni (dissiplinani) tanlash, ularning uslubiy mazmuni va zarur mavzulararo aloqalarni tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, tizimli ilmiy-uslubiy ta’minlash, o‘quvchilar, aloqa, muammo, diagnostik.

В статье центральное место занимают вопросы системного научно-методического обеспечения современной образовательной деятельности. Необходимость системного подхода к изучению проблемы профессионального самоопределения обучающихся в системе «школа-вуз» зависит от ряда причин. Выбор тех или иных диагностических методов исследования зависит от ряда обстоятельств, и этот подход определяет содержательную составляющую организации школьного и вузовского образовательного процесса: выбор предметов (дисциплин), их методическое содержание и организацию необходимых мероприятий, межтематические связи, инновационные педагогические технологии. Они в исторической и культурологической ретроспективе способствуют формированию единой картины мира у учащихся.

Ключевые слова. Образование, систематическое научно-методическое обеспечение, учащиеся.

The article focuses on the issues of systematic scientific and methodological support of modern educational activities. The need for a systematic approach to studying the problem of professional self-determination of students in the "school-university" system depends on a number of reasons. The choice of certain diagnostic methods of research depends on a number of circumstances, and this approach determines the content component of the organization of the school and university educational process: the choice of subjects (disciplines), their methodological content and the organization of necessary activities, inter-thematic connections, innovative pedagogical technologies. They contribute to the formation of a unified picture of the world among students in a historical and cultural retrospective.

Key words. Education, systematic scientific and methodological support, students.

Zamonaviy ta’lim faoliyatini tizimli ilmiy-uslubiy ta’minlash masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qarori, “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son qarori va boshqa ta’lim sohasidagi davlat dasturlari, sohadagi milliy loyihalar va Davlat ta’lim standartlarida markaziy o‘rinni egallaydi.

“Maktab-oliygoh” tizimida talabalarning kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash muammosini o‘rganishga tizimli yondashish zarurati ham bir qator sabablarga bog‘liq: shaxsning o‘zini o‘zi belgilash qonunlari; ta’limning turli xil vositalari, usullari va shakllari; qiymat yo‘nalishlari dinamikasi, umumiy madaniy va kasbiy vakolatlar; “professional o‘zini o‘zi belgilash” tushunchasi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv zarurati maktab va oliygoh bitiruvchilarining uzluksizligi va ko‘p darajali tayyorgarligi zarurligidan kelib chiqadi.

Ushbu tadqiqotda qadriyatlar ongning mazmunini shakllantiradi, talaba shaxsini o‘zi tuzadi, hayotiy ma’nolar va kasbiy qadriyatlar shaxsiy qadriyat yo‘nalishlari tizimiga qo‘shilganda aksiologik funksiyalarga aylanadi. Qiymat yo‘nalishlari shaxsning yo‘nalishini, uning ijtimoiy, hayotiy va kasbiy faoliyatda rivojlanishini belgilaydi.

Zamonaviy jamiyatda kasbiy o‘z taqdirini belgilash hayot va kasbiy qadriyatlarni o‘z ichiga olgan bilimlarning yangi sifatini, bo‘lg‘usi mutaxassislarni ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlashning aksiologik asoslariga murojaat qilishni talab qiladi, bu asosan, o‘quvchilarning o‘qitilishi va shaxsiyat rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik muammosi bilan bog‘liq.

Kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonini ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlashning aksiologik asoslarini amalga oshirish, kasbiy tayyorgarlik o‘quvchilarning qadriyat yo‘nalishlari, ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish natijalarini baholash uchun diagnostika usullarini tanlashni talab qildi; o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllari va usullari (loyihaviy – tadqiqot, hisob-kitob va grafik ish; aks ettiruvchi – ishbilarmonlik o‘yinlari, ishbilarmonlik aloqalari uchun treninglar, motivatsion vaziyatlar; kommunikativ va biznes – ishlab chiqarishdagi ma’ruzalar, ilmiy-texnik konferensiyalar, davra suhbatlari, munozaralar, ma’ruzalar – vizualizatsiya, ma’ruzalar-press-konferensiyalar, ma’ruzalar-maslahatlar; muammoli izlash – muammoli o‘quv videosini muhokama qilish, ish uslubi); talabalarning qadriyat yo‘nalishlari darajalarini shakllantirish natijalari; talabalarning ustuvor kasb-hunar qadriyat yo‘nalishlarini, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan vakolatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari, o‘quv rejalari, fanlarning ish dasturlarini tuzatish; longityud tadqiqotlar; mumkin bo‘lgan pedagogik xatarlarni diagnostikasi; ta’lim jarayonini yo‘naltirish (marshrutizatsiya).

Ta’lim sohasida kechayotgan jarayonlar zamonaviy ta’lim tizimida qadriyatlar asoslarining ustuvor yo‘nalishi sifatida tushuniladigan jahon ta’lim makonini aksiologizatsiya deb ataladi. Bu jarayon tez o‘zgarib borayotgan jamiyatimizning moslashishga va yangi sivilizatsiyaga (barqaror rivojlanish jamiyati) yo‘l topishga urinishlaridan biri bo‘lib tuyuladi. Nafaqat ta’limning taqdiri ushbu tanlovga, balki jamiyatning barqaror rivojlanish yo‘liga ham bog‘liq: “Ijtimoiy rivojlanishning har bir yangi bosqichida ta’lim ustuvorliklarini shakllantirish yanada murakkablashadi va ularni amalga oshirish vaqti qisqaradi, shuning uchun dunyo ta’limining inqirozi uning rivojlanish tendensiyasida ekanligi” "insoniyat omon qolish imperativi vazifalari bilan” hamqadam emas. “Zamonaviy talablarga javob berish – bu insoniyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash va tinchlik madaniyatini shakllantirishni anglatadi ... tadqiqotlar sohasida maxsus yoki qisqa muddatli manfaatlar ustunlik qila boshlagan sharoitda bunday madaniyatni amalga oshirish mumkin emas”.

Ta’limning asosiy maqsadi – bozor talablari va yangi texnik buyurtmaga javob beradigan muayyan faoliyat yo‘nalishlarida ishlashga qodir mutaxassislarni tayyorlash sifati.

Ta’lim va kasb-hunar maydonida universitet yoki maktabning o‘rnini baholash kadrlar tayyorlash sifati bilan belgilanadi. Sifat – bu texnologik, tashkiliy, psixologik

va axloqiy kategoriya.

Shunday qilib, tadqiqotning turli xil diagnostik usullarini tanlash bir qator holatlarga bog‘liq: ko‘plab kerakli bilimlar to‘plami; bo‘lajak mutaxassislarning qadriyat yo‘nalishlari va malakalarini shakllantirishni nazorat qilish; ta’lim jarayonida amalga oshirilgan turli mavzulararo aloqalar. Ushbu yondashuv maktab va oliygoh o‘quv jarayonini tashkil etishning mazmunli tarkibiy qismini belgilaydi: fanlarni (dissiplinani) tanlash, ularning uslubiy mazmuni va zarur mavzulararo aloqalarni tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalar, bu tarixiy va madaniy retrospektivda talabalar va talabalarda dunyoning yagona suratini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog-kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm, madaniy meros va muzeys-hunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomil-lashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-oktabrdagi PQ-5270-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarni qurish, restavratsiya, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 10-sentabrdagi F-5361-son Farmoyishi.

4. Алексеева Т.Б. Культурологический подход как методологическое обоснование гуманизации образования [Электронный ресурс]. Кафедра педагогики РГПУ им. Герцена. – Режим доступа: http://www.kpinfo.org/activities/research/conferences/96-conferenceinternet-2014-april/part3/682-3-2. – Дата доступа: 09.01.2017.

5. Ануфриева Ю.В. Модель ядра педагогики. // Образовательная среда как фактор качественной профессиональной подготовки: материалы всерос. науч.-метод. конф. – Новосибирск, 2011. – С. 186–189.

6. Ануфриева Ю.В. Изучение ценностных ориентаций в системе непрерывного образования // Мир науки, культуры, образования. – 2016. – № 6 (61). – С. 232–237.

7. Бордовский Г.А. Педагогический университет XXI века: монография. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2011.

8. Майер Б.О., Власюк Н.Н. Аксиологические аспекты образования как фактора обеспечения устойчивого развития общества // Вестник Новосибирского государственного педагогического университета. – 2012. – № 4 (8). – С. 26–33.

9. Писарева С.А. Аксиологические основания диссертационных исследований в сфере образования // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. – 2010. – № 128. – С. 125–136.

10. Сердюк И.И. Проблемы повышения качества профессионального образования // Научно-методический электронный журнал ‘‘Концепт’’. – 2014. – Т. 20. – С. 441–445.

G‘anisher NAFASOV,
Guliston davlat universitet, “Matematika” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO‘LAJAK MATEMATIKA O‘QITUVCHILARNING KOGNITIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda kredit-modul tizimi asosida taxsil olayotgan barcha oliy talimdagi bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalardan faydalanish mazmuni bayon etlgan hamda tajriba-sinov asosida olingan natijalarning samaradorlik darajasi anqlangan.

Kalit so‘zlar. Pedagogik kognitiv kompetensiya, madaniy kompetensiya, iste’dod, motivatsiya, innovatsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish.

В данной статье описано содержание пользы от цифровых технологий в процессе развития когнитивной компетентности будущих учителей математики высшей школы, которая сегодня изучается на основе кредитно-модульной системы, и подчеркнута степень эффективности результатов, полученных на основе опыта.

Ключевые слова. Педагогическая когнитивная компетентность, культурная компетентность, талант, мотивация, инновации, креативность, критическое мышление, решение проблем.

This article describes the content of the benefits of digital technologies in the process of developing the cognitive competence of future teachers of higher school mathematics, which is currently being studied on the basis of a credit-modular system, and emphasizes the degree of effectiveness of the results obtained on the basis of experience.

Key words. Pedagogical cognitive competence, cultural competence, talent, motivation, innovation, creativity, critical thinking, problem solving.

Jahon ta’lim muassasalarida tizimli yondashuv asosida ta’limni tashkil etish, bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning kreativ moduli ta’lim texnologiyalari amaliyotga joriy etilmoqda. Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yuqori sifatli bilimlar resurslaridan foydalanish, bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini taminlashning maqsadli modellari, multimediali elektron resurslarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, kasbiy faoliyatni loyihalashtira oladigan bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimini takomillashtirish, bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish masalalariga alohida etibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda ta’lim tizimidagi tub o‘zgarishlar, ya’ni o‘quv jarayoni ishtirokchilari qadriyatlari, motivi, me’yorlari, maqsadlari, egallagan o‘rni, shakl va metodlar, vositalar, nazorat qilish va baholash o‘quv jarayonini tahsil oluvchi shaxsi, qiziqishlari va hayotiy qadriyatlariga urg‘u berishga imkon berdi. Shuning uchun talabalarda kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi o‘z dolzarbligicha qolmoqda. Chunki, talabalarni o‘qitishning o‘ziga xosligi mazmuni, metod, vosita, shakllarini tanlash, talabalarda kognitiv kompe-

tensiyani rivojlantirish zaruriyati asoslanishiga bo‘lgan ta’sirini yoritib olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham o‘z aksini topmoqda.

Jumladan, respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar doirasida talabalarda kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish muammolariga doir talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari R.X.Jo‘raev N.A.Muslimov, G.A.Asilova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Akademik R.X.Djuraev oliy ta’lim muassasalari talabalarida kognitiv qobilyatini rivojlantirishda ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning individual xususiyatlarini rivojlantirish masalalari to‘xtalar ekan, “ta’lim jarayonini tashkil etishda, talabalarni majburlash tarzida emas, balki har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy yondashish, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, talaba har bir ishda namuna bo‘lish, fikrlash, anglash hamda talab va ehtiyojlarni tushunish, qat’iy intizomga rioya etish, ilmiy-nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash” kabi eng muhim jihatlarga to‘xtalib o‘tgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi:

– kommunikativ kompetensiya;
– axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;
– o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;
– ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
–milliy va umummadaniy kompetensiya;

matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi egalalanganlik jihatlari umumiy o‘rta ta’lim tizimida shakllantirib olib borilsa, oliy ta’lim tizimida ushbu kompetensiyalar rivojlantirish orqali bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlari bilan ifodalanib alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta’limda “kompetensiya” tushunchasi ilk bor XX asrning 50-60-yillarida ilmiy adabiyotlarda tilga olingan. Amerikalik olim Chomsky “Sintaktik strukturalar”, “Sintaksis nazariyasining aspektlari” nomli asarlarida kompetensiyani insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqati sifatlari sifatida talqin etgan.

Mamlakatimizda ta’lim-tizmini tubdan takomillashtirish hamda isloh qilinayotgan bugungi kunda ta’lim mazmunining asosini ta’lim oluvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi o‘z dolzarbligicha qolmoqda. Tayanch kompetensiyalar deganda ta’lim oluvchi uchun hisoblangan muammolarni yechishdagi noaniq vaziyatlarda mustaqil harakat qilaolish qobiliyati tushuniladi. Demak, kompetentli yondashuv masalalarining tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy asarlarida ham yosh-avlodning tafakkuri va bilimi, ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish masalasi ham aks etgan. Tarixiy meroslarimizda kompetensiyaviy bilim olishga yo‘naltirilganlik g‘oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligi masalalari haqida ko‘plab fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Xususan, ta’limda kompetensiyaviy yondashuv kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o‘rgatishni ko‘zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko‘nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e’tibor qaratish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois har bir fanni o‘qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar

shakllantirib boriladi va talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliy faoliyatda qo‘llash kabi sifatlar muhim o‘rin tutadi.

Xususan, ta’limda bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanishi, balki, natijalarni ham ko‘rib, ularni yanada shakllantirish uchun yetarli muhit yaratish masalalasini yuqori o‘ringa qo‘yadi. Masalan, bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning har bir fan doirasida egallagan bilimlari pedagogik ta’limda kadrlar tayyorlashda o‘quv rejalarida “Mutaxassislikka kirish” tanlov fanini o‘rgatish masalasi ham muhim o‘rin tutadi.

Bizning nazarimizda, bo‘lajak matematika o‘qituvchilarda kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish deb, – uning ta’lim jarayoniga moslashishi va mustaqil fikr yurita olishi, amaliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kompetensiyaviy bo‘lajak matematika o‘qituvchilarda shaxsining madaniyatlararo va tarmoqlararo bilim, qobiliyat, ko‘nikma va bilish jarayoni xususiyatlarini qamrab olgan jihatlarga aytiladi.

– Tahlil va natijalar (Analysis and results). Raqamli texnologiyalar asosida bo‘lajak matematika o‘qituvchilarga ta’lim-tarbiya berishda raqamli texnologiyalar asosida interfaol metodlar “KBI”, “Loyiha” va “AJIL” ta’lim texnologiyasi va metodlari orqali bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyani rivojlantirish dolzarb muammo sifatida ilgari surilsa, bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning shaxsiy-fikr va mulohazalarni bildirishda aniq dalillar bilan isbotlashi ko‘nikmasi, o‘z fikrlarini himoya qila olishi, mantiqiy tahlil asosida xulosalarni ilgari surish qobilyati, ijodiy faolligi, kreati qarashlari shakllanishiga xizmat qiladi.


O‘quv-tarbiya jarayoni sifatli tashkil etish masalasi ta’lim texnologiyasining konseptual asosi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, statik va darajali modellar ierarxiyasi orqali ifodalangan, talabalarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga ta’sir etuvchi bosqichlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar asosida bo‘lajak matematika o‘qituvchilarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirish bosqichlarini biz tadqiqot doirasida o‘quv tarbiya jarayonida “KBI” (kuzatish, baxslashish, ishontirish) ta’lim texnologiyasidan foydalangan holda rivojlantirib olib bordik (1-rasmga qarang).

Ushbu raqamli texnologiyasi bo‘lajak matematika o‘qituvchilarni hayotda o‘z o‘rinini topish yo‘lida faollik ko‘rsatishga rag‘batlantirib, ularda yetakchilik, sardorlik sifatlari, jamoada ishlash ko‘nikmalarini, o‘zgalar fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyalarini himoyalash, fikrini isbotlay bilish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish, murosaga kelish, ijodiy izlanish kabi qobilyatlarini shallantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, biz tomonimizdan taklif etilayotgan pedagogik texnologiyada ifodalangan pedagogik shart-sharoitlarni takomlillashtirish orqali, texnologiyaning asosiy komponentlarni ta’kidlab o‘tmoqchiman: maqsadli komponent ortidan o‘quv fani mazmunining imkoniyatlaridan foydalanish bilan birgalikda bo‘lajak matematika o‘qituvchilarida kognitiv kompetensiyani rivojlantirish darajasini tashxisini o‘tkazish, ijodiy faoliyat malakalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy loyixa (ish)larning shakllari to‘g‘risidagi tushunchani hosil qilishga ko‘maklashishga xizmat qiluvchi “Ajil” (amaliy jamoaviy ijodiy loyihalar) texnologiyasi orqali tashkil qilish ham maqsadga muvofiqdir. Ushbu tepedagogik texnologiya o‘quv jarayonida “Jamoaviy ijodiy ishni tashkil etish” mavzusidagi suhbat yoki “Men – jamoaviy ish tashkilotchisiman” nomli blits-o‘yin o‘tkazilgandan so‘ng qo‘llash maksadga muvofiqdir. Shuningdek, ushbu texnologiya muammo yechimini topish uchun maqsad qilingan muammoni hal qilishda mustaqil fikr-mulohazalarini ochiq, erkin ifodalash ko‘nikma va malakasining

rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.



1-rasm. “KBI” (kuzatish, baxslashish, ishontirish) ta’lim texnologiyasi mashg‘ulot jarayonida qo‘llash bosqichlari

Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarda kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘quv-jarayonida “AJIL” (amaliy jamoaviy ijodiy loyihalar) ta’lim texnologiyasini qo‘llash muhim samaradorlik kasb etadi. Xususan, ushbu texnologiyani o‘quv jarayonida qo‘llash bosqichlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Xususan, pedagogik texnologiyani o‘quv jarayonida qo‘llash bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning ichki-ijodiy imkoniyatlari rivojlantirish, kreativlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, mantiqiy tahlil qila olish, fikr-mulohazalarni bildirishda o‘z qarashlarini aniq bayon etish kabi sifatlarni rivojlantiradi.

Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirishning tarkibiy qismi va rivojlantiruvchi xususiyatini tahlil qilish asosida, yangi bilimlar vositasi, yaxlit butunlikning tarkibiy qismi sifatida ifodalaydi. Chunki, kognitiv kompetensiyani rivojlantirish komponentlarning mazmunini tahlil qilish va ularni takomillashtirish shuni ko‘rsatadiki, ular bilimlarga umumiy va maxsus ko‘nikmalar, o‘quv-bilish faoliyati turlari va o‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirishda individual xususiyatlarga asoslanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv kompetensiyani rivojlantirishning tarkibiy elementlarini

rivojlantirishga ilmiy yondashuvlarni asoslash va uni shakllantirish bosqichlarini o‘quv jarayonida pedagogik texnologiyalar va innovatsion interfaol metodlar orqali asoslashni tadqiqotimizda yoritib o‘tdik. Yuqorida ta’riflangan bosqichlarga ko‘ra, o‘quv jarayonini tashkil qilish talabada mustaqil bilimlarni egallash bo‘yicha o‘z o‘quv-bilish faoliyati maqsadini qo‘yish, uni rejalashtirish va amalga oshirish, o‘z harakatlari natijalarini ko‘ra olish, masalani yechishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash va tuzatish bo‘yicha malakalarni shakllantirishga yordam beradi, bu natijada kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Biz bo‘lajak matematika o‘qituvchilarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirishni o‘quv-tarbiya jarayoni amaliyotida nafaqat fan bo‘yicha balki, bilim, ko‘nikma, malakalar rivojlanishi, shiningdek kognitiv bilimini rivojlantiruvchi, topshiriqlarni o‘zi mustaqil bajara olishi, hamda o‘zlashtirish jarayoniga ta’sir ta’lim metodlari va texnologiyalari o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llash bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish imkoniyatini mavjudligi. Shuning uchun bo‘lajak matematika o‘qituvchilari o‘quv jarayonida o‘quv mashq va topshiriqlar majmuini ishlab chiqishi zarur bo‘lib, ularni bajarishda o‘zining kognitiv bilimi, ijodiy salohiyatini faollashtirish va kognitiv kompetensiyalarining har bir komponenti bo‘yicha ishlarni bajarishning muvaffaqiyatli jihatlarini inobatga olishni yo‘lga qo‘ya oladi.

Shu sababali, bo‘lajak matematika o‘qituvchilarida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlarini o‘z ichiga kognitiv kompetensiya komponentining barcha sohalarini rivojlantirish maqsadlari ko‘rinishidagi maqsadli komponent o‘quv fanlari mazmunining imkoniyatlari, o‘quv jarayonini rivojlantirish muvaffaqiyatlarini baholash “KBI” texnologiyasi asosida kognitiv kompetensiyasning rivojlangan darajasini tashhis qilish, o‘quv darsini loyihalash hamda loyihalarni yaratish va amalga oshirish, ta’lim muassasasining o‘quv-tarbiyaviy jarayondagi o‘quv topshiriqlar, bo‘lajak matematika o‘qituvchilarga kognitiv ta’lim faoliyatida o‘z qiziqishlari va qobiliyatlarini amalga oshirish imkoniyatini taqdim etishning imkoniyatlarini rivojlantirishni kiritadi.

Biz ushbu tadqiqotimiz davomida aniqlik va bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo‘llash mantig‘iga ega bo‘lgan bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining kognitiv kompetensiyasining barcha tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘liqligini aniqlashtirdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva B.C. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped. fan. dok. dicc... . –T.: TDPU, 2006. – 263 bet.
2. Ayupov Sh.A., Rixsiyev B.B., Qo‘chqorov O.Sh. Matematika olimpiadalari masalalari. I qism. – T.: Fan, 2004.
3. Asilova G.A. Bojxona va soliq yo‘nalishi talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish.: Avtoref. dis. ... Ilmiy ish. – T., 2017. – 66 b.
4. Джураев Р. Организационно-педагогические основы интенсиф-икации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования.: Автореф. дис. док. пед. наук. – СПб.: 1995
5. Muslimov N.A muallifligi asosida yozilgan. “Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi” nomli Monografiyasi. Fan va texnologiya.: 2013 y. 6-10 b.
6. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. Pedagogik atamalar lug‘ati. – T., 2008 y. – 28-29-b

Nafosat KURBANOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german filologiyasi fakulteti,
''Ispan tili amaliy fanlar'' kafedrasi stajyor o'qituvchisi

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA MILLIY QADRIYATLARIMIZGA ASOSLANGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada xorijiy tillarni o'qitishda milliy qadriyatlarimizga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish tizimini zamonaviy metodlar bilan takomillashtirish hamda chet tillarini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirish, xorijiy tillarni o'qitishda ajdodlarimizdan o'tib kelayotgan bebaho boyliklar, qadriyatlarimizdan foydalanish, chet tilini o'rganish, targ'ib va tadqiq qilishda, tariximiz va milliy qadriyatlarimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish masalalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, ta'lim oluvchilarga yangi mavzuni o'tishda, mavzuga tegishli nazariy va amaliy mustahkamlovchi vositalar, ta'lim oluvchilarga tarixchilarimiz, qomusiy allomalarimiz, milliy qadriyatlarimiz va an'analarimiz, betakror ma'naviyatimiz, tilimiz, millatimiz, dinimiz, e'tiqodimiz haqidagi ma'lumotlar bilan ishlash, uning bosqichlari, ta'lim oluvchilarda shakllanadigan ko'nikmalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Milliy qadriyatlarimiz, tn'lim texnologiyalari, xorijiy tillarni o'rganish, zamonaviy metodlar, motivatsiyani oshirish, bebaho boyliklar, qomusiy allomalarimiz, an'analarimiz.

В статье описываються использование образовательных технологий, основанных на национальных ценностях, совершенствование системы изучения и преподавания иностранных языков современными методами. Повышение мотивации к изучению иностранных языков с использованием бесценного богатства предков, использования национальных ценностей в изучении и популяризации иностранного языка. Подробно освещаются вопросы использования в преподавании иностранных языков на основе национальных ценностей. В статье также, приводяться теоретический и практический инструментарий закрепления тем основанных на национальных ценностях, работа студентов с информацией основанных на исторических, энциклопедических материалов связанных с национальными ценностями и традициями.

Ключевые слова. Национальные ценности, образовательные технологии, изучение иностранных языков, современные методики, повышение мотивации, достояние, энциклопедии, традиции.

The article describes the use of educational technologies based on national values, the improvement of the system of studying and teaching foreign languages using modern methods. Increasing motivation to learn foreign languages using the invaluable wealth of ancestors, the use of national values in the study and popularization of a foreign language. The issues of using foreign languages in teaching on the basis of national values are covered in detail. The article also provides theoretical and practical tools for consolidating topics based on national values, the work of students with information based on historical, encyclopedic materials related to national values and traditions.

Key words. National values, educational technologies, learning foreign languages, modern methods, increasing motivation, heritage, encyclopedias, traditions.

Bugungi kun insoniyatning zamon bilan hamnafas odimlashini talab etadi. Shu boisdan, turli soha mutaxassislari o‘z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarni bilishi va muloqot qila olishi maqsadga muvofiq. Buning uchun xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish tizimini yanada zamonaviy metodlar bilan takomillashtirish hamda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan bugungi kunda ta’lim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini – ingliz, rus, nemis, ispan, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab, fors tillarini o‘rgatishni tashkillashtirishdek dolzarb masala kun tartibiga qo‘yilgan. Til o‘rganish va o‘qitish borasida dunyoning yetuk olimlari tajribasida samarali natija berib kelayotgan o‘qitish metodikalari, shuningdek, xorijiy tillarni o‘qitish sohasida bog‘cha-maktab oliy ta’lim tashkiloti-korxona tamoyilidagi uzluksiz ta’lim zanjirini joriy etish, aholining barcha qatlamlariga mos bo‘lgan tilni o‘rganish bo‘yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish singari ko‘plab salmoqli ishlar bajarilib kelinmoqda.

Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni, ona tilimiz qatorida chet tilini o‘rganish, targ‘ib va tadqiq qilish, tariximiz va milliy qadriyatlarimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish, o‘tmish tariximizni o‘rganish doirasini kengaytirish, ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish – milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi biz o‘qituvchilar uchun zarur va shartdir. O‘quvchilar nutqini, dunyoqarashini zamon talablari darajasiga ko‘tarish ta’lim muassasalarida olib boriladigan mashg‘ulotlarning asosiy vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston davlat standarti (Chet tillari bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar) va Umum yevropa til kompetensiyalari tasnifi (CEFR 2001/2018)ga asoslangan bo‘lib, mamlakatimizda tadbiq etilgan qator innovatsion islohotlarga tayanadi. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi № 5847-sonli Farmonida keltirilgan quyidagi muhim talablarni keltirib o‘tish lozim:

– oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish.

– xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tn’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish.

– talabalarda mustaqil tn’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida malakaviy tajribalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish;

– barcha oliy ta’lim muassasalarida dars mashg‘ulotlari bo‘yicha talabalar fikrini o‘rganish (feedback) hamda o‘zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilab borish.

Sinflarda darslarni mavzu xarakteriga qarab xilma-xil, qiziqarli va fikrlashga da’vat etuvchi o‘yin topshiriqlar, zamonaviy pedagogik (interfaol) texnologiyalar asosida tashkil

etish o‘quvchilarda mustaqil ijodiy mushohada yuritish, o‘z fikrini aniq, ravon, ixcham holda o‘zgalarga yetkaza bilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga yordam beradi. Boy merosimiz, ajdodlarimizning aql zakovati bilan yo‘g‘rilgan “Donishmandlar bisoti”dan olingan chuqur mazmunli qisqa hikoyalar, madaniy tarixiy yodgorliklarimizga oid ma’lumotlar, uzoq tariximiz, tilimiz, adabiyotimizning buyuk allomalariga oid ma’lumotlar to‘plashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu kabi texnologiyalar orqali talaba animatsion ko‘rinishlar orqali madaniy yodgorliklarning, obidalarning arxitekturasi, milliy ma’naviyatimiz, madaniyatimiz, tilimiz va millatimiz to‘g‘risida tasavvur hosil qilishlari mumkin. Mavzuni o‘rgatishda o‘qituvchi-pedagog o‘quvchilar nutqi va erkin ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish, ravon gapirishga o‘rgatish, nazariy ma’lumotlarni puxta o‘zlashtirish, so‘z boyligini oshirish, xotirada saqlash, ular xarakterida ijobiy sifatlarni shakllantirish, ajdodlarimizga bo‘lgan milliy ehtirom tuyg‘ularini uyg‘otishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Dars jarayonida ta’lim oluvchilarning kompyuterda ishlash yo kuzatish malakalari emas, eng asosiysi, ularning ijodkorlik va tashabbuskorlik muhiti rivojlanadi, eslab qolish qobiliyati kuchayib, yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirish masalalariga katta e’tibor qaratiladi.

Multimedia vositalari nutqli axborotni kiritish-chiqarish qurilmalari, animatsion va video ma’lumotlarni kiritish va chiqarish qurilmalari, tovushli va video ma’lumotlarni saqlovchi optik disklar, multimediya vositalaridan foydalanishda ularning bir necha turlari va usullari mavjud. Ta’lim oluvchilarga yangi mavzuni o‘tishda, ushbu mavzudagi tegishli nazariy va amaliy mustahkamlovchi vositalarni keltirish o‘rinlidir:

- mavzu bo‘yicha mavjud ma’lumotlarning to‘liq bayoni;
- mavzu yuzasidan nazorat savollari va topshiriqlar;
- nazariy ma’lumotlar aks etgan slaydlar;
- animatsion rolik va jadvallar;
- tayanch so‘z va iboralar;
- internet ma’lumotlari.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda metodlarning va shakllarning o‘zaro o‘rin almashinib turishi darsning jozibadorligini, uning tovlanib turishini ta’minlaydigan muhim omillardan biridir. O‘qitishning zamonaviy interfaol usullaridan samarali foydalana bilmaslik, dars o‘tishning an’anaviy usullari orqali o‘qitish darsning zerikarli va samarasiz o‘tishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga gumanitar va ijtimoiy iqtisodiy fanlar yo‘nalishida bo‘lmagan mutaxassislar tayyorlaydigan yo‘nalishlar o‘quvchilarining ushbu fanlarga qiziqishining susayishiga, shuning natijasida talaba dunyoqarashining tor doirada shakllanib qolishiga olib keladi.

Ta’lim tizimida fanlarni interfaol usullardan foydalanib o‘rgatishning asosiy maqsadlari ularni keyingi mehnat faoliyatida to‘g‘ri yozish, xususan, ingliz yoki ispan tilida o‘z fikrini erkin bayon etish, tariximizga milliy ehtirom tuyg‘ularini ta’lim ouvchilar ongiga singdirishga erishish, munshaot qoidalarini bilish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir. Ushbu ko‘nikmalar ichida eng muhimi fikrni matn tarzida izchil bayon etishdir. Oddiy bir misol. Mashg‘ulotning avvalida o‘quvchilarga buyuk tarixchilarimiz, qomusiy allomalarimiz, milliy qadriyatlarimiz va an’analarimiz, betakror ma’naviyatimiz, tilimiz, millatimiz, dinimiz, e’tiqodimiz haqidagi ma’lumotlar bilan ishlash, oson ingliz yoki nemis tilida gapirish yo‘llari tushuntiriladi. Keyin talabalarning e’tibori monitor (ekran) dagi axborotlarni /matnli, tasvirli/ tovushli va animatsion ko‘rinishda namoyish qilinayotgan matnga qaratiladi. Ta’lim oluvchilar uning mazmunini, talab darajasi bilan tanishganlaridan so‘ng (tovushli) matn ustida ishlashning quyidagi bosqichlariga

o‘tishi mumkin: – matndagi asosiy fikrni aniqlash; – matnni qismlarga ajratish; – matn yuzasidan savollar tuzish; – matnga reja tuzish; – reja asosida matn mazmunini qayta hikoya qilish; – syujet (tarixiy voqealar, milliy madaniy qadriyatlar, muhim sanalar, faktlar, raqamlar va har xil qarashlar) mazmunini qayta hikoya qilish; – tushunish asosida o‘z fikrini mustaqil bayon qilish va h.k. Mashg‘ulot davomida ta’lim oluvchilarda mustaqil fikr bildirish, xotirani charxlash, esda tutish va nutq malakalarini rivojlantirish uchun yana quyidagi vazifalar taklif etilishi mumkin.

Kompyuterga ma’lum davrdagi tarixiy voqealar (diniy e’tiqodlar, g‘oyalar, tilimizning tadrijiy rivojlanish bosqichlari) yozilgan bo‘ladi. Har bir talaba tasviriy voqea (tovushli matn)ni o‘zicha tahlil qilishi, davom ettirishi va yakun yasashi mumkin. (Olingan javoblar kompyuterga yozib boriladi). Tahlil qilganimizdek, ta’lim-tarbiya jarayonlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llashda o‘tmish allomalarimizning g‘oya va qarashlaridan foydalanish o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashda yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Zamonaviy o‘quv mashg‘ulotlarida ana shunday natijaga erishish o‘quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo‘llashni taqozo etadi. Shunday ekan, o‘qituvchi yangi pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishi va uni darsda tatbiq etishi, takomillashtirib borishi, o‘z ustida ishlashi, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog‘lashi orqali – kelgusida o‘quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga erishadi. Bu mas’uliyatli vazifa natijasida o‘quvchida quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi:

– o‘quvchi o‘zida ortiqcha hayajonni yo‘q qila olishga o‘rganib boradi;

– so‘zga chiqishdan oldin jur’atsizlikni yenga olish qobiliyati o‘sadi;

– qattiq hayajon, ruhiy zarba (stress) vaqtida o‘zini boshqara olishni o‘rganadi.

Ko‘rinib turibdiki, ta’lim muassasalarida interfaol usullarni qo‘llash samarali foydalanish jarayonida o‘quvchi faol ishtirokchiga aylanadi, ularda fan bo‘yicha hosil bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikma mustahkamlanadi, bu esa, o‘z navbatida mashg‘ulotning samaradorligi oshganligi va o‘qituvchi ijobiy natijaga erishganini ko‘rsatadi. Ta’lim tizimida interfaol usullardan foydalanishning shunga o‘xshash usullari ko‘p, asosiysi, bunda o‘quvchilarni kompyuter va multimedia vositalari bilan ishlashga nafaqat qiziqtirish, balki odatlantirish kerak. Bir so‘z bilan aytganda, axborot texnologiyalari nafaqat kelajak texnologiyasi, shuningdek, o‘tmish tariximizni, milliy an’analarimizni, merosimiz, dinimiz, millatimiz, o‘zligimiz, xorijiy tillarni o‘rganishda ham asosiy vositalardan biri sifatida o‘z mavqeiga egaligi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni – Raqamli O‘zbekiston-2030ll strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidall 5-oktabr 2020-yil, PQ-6079.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020-yildagi PQ-4699-sonli.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.07.2019-yildagi 589- sonli

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020-yil 17-martdagi PQ–4642-sonli Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 5 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-1284-1290 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 1290 May, 2022 Multidisciplinary Scientific Journal.

Asliddin SAIDOV,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tadqiqotchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHGA OID NAZARIYALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida kadrlar va ularning bazasida mahoratli rahbar xodimlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga oid fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, mahoratli kadrlarni tayyorlash hamda ularni qo'llab-quvvatlashning uslubiy, moddiy, ilmiy, tashkiliy, kabi jihatlari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar. Rahbar, xodim, milliy kadrlar, rahbar-xodim munosabati, maktab, takomillashtirish, nazariya.

В данной статье представлены идеи по дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров в образовательных учреждениях и квалифицированных менеджеров на их основе. Также были изучены методические, материальные, научные и организационные аспекты подготовки квалифицированных кадров и их обеспечения.

Ключевые слова. Руководитель, служащий, национальный персонал, отношения руководитель-служащий, школа.

This article presents ideas on further improvement of the system of personnel training in educational institutions and qualified managers based on them. The methodical, material, scientific and organizational aspects of training qualified personnel and their support were also studied.

Key words. Leader, employee, national personnel, leader-employee relations, school.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun mohiyati inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan. Barcha sohadagi islohotlarning zamirida inson manfaatlari, qadr-qimmati, uning oliy qadriyat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "xalq ta'limi boshqaruvi sohasiga ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatning zamonaviy yutuqlarini joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish; zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda virtual ta'lim metodlarini joriy etish; ma'muriy va ta'lim jarayonlarini optimallashtirish uchun zamonaviy blokcheyn texnologiyalarini joriy etish" kabi ustivor vazifalar belgilangan.

Bu, o'z navbatida, umumta'lim maktablari rahbarlarining pedagogik jamoadagi ziddiyatlarni bartaraf etish mahoratini rivojlantirishning tarixiy taraqqiyot yo'li hamda zamonaviy tendensiyalarini aniqlash, pedagogik ziddiyatlarni kelib chiqishi, sabablari, omillari, oldini olish imkoniyatlari, bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish, bu jarayonda umumta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv mahorati, boshqaruv metodlarini to'g'ri tanlash ko'nikmalarini tarkib toptirish maqsadga muvofiq.

Pedagogika ensiklopediyasida "Pedagogik jamoa – (arabcha - birlashma; uyushma; guruh) 1) mutaxassislik va maqsadlar birligi asosida mujassamlashgan pedagoglar guruhi;

2) ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, pedagogik faoliyati jarayonida yuksak darajaga erishgan, umumiy maqsad va vazifalariga ko‘ra birlashgan pedagoglar guruhi” sifatida tavsiflangan.

Umumta’lim maktablarining pedagogik jamoasi – erishilishi har biri uchun shaxsiy ahamiyatga molik umumiy ta’lim maqsadlariga ega bo‘lgan shaxslararo munosabatlarni ifodalaydi. Shaxslararo munosabatlarga asoslangan pedagoglar jamoasi hamkorlikda ish olib boradi.

Umumta’lim maktablaridagi pedagogik jamoa o‘rtasidagi ziddiyatlar ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan hisoblanadi. Umumta’lim maktablari rahbarlarining mazkur nizoli holatlarni bartaraf etishga tayyorgarligi, nizolarni amalda boshqarishi, ularni taxmin qilishi va yengib o‘tishi, eng yaxshi usullarini topa olishi muhim.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasini boshqarishni takomillashtirish nazariyasiga oid tadqiqotlar respublikamiz va xorijlik bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan (R.X.Djuraev, S.T.Turg‘unov, R.Sh.Axliddinov, M.Yuldashev, Sh.Qurbonov, N.Q.Axmedova, M.M.Vaxobov, I.Ansoff, U.Breddik, O.X.Vixanskiy, R.Daft, A.A.Orlov, L.P.Pogrebnyak, E.A.Smirnov, R.M.Sherayzina va b.).

S.T.Turg‘unovning ta’kidlashicha, boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, mazkur jarayon ijodiy jarayon hisoblanadi va o‘z navbatida ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari yo‘nalishida ko‘zlangan natijalarga erishish uchun eng qulay bo‘lgan boshqaruv metodlari va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish asosida boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish, xodimlar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarda hamda muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda oqilona qarorlar qabul qilish, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qilishda boshqaruv faoliyatini ma’lum bir izchillikda loyihalashtirishni nazarda tutadi.

N.Q.Axmedovaning fikricha, maktab rahbarlari boshqaruv faoliyatining samaradorligi oldindan belgilangan maqsadga erishish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui, ya’ni boshqaruv jarayoni bosqichlari sifatida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbarlari faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi, aloqadorligi va uzviyligini ta’minlash orqali belgilanishi zarur. Ya’ni, kadrlar tanlash, joy-joyiga qo‘yish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish amaliyotda, ko‘p holatlarda faqat maktab direktori vazifasi deb qaraladi. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish ishlari faqatgina direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosariga tegishli deb hisoblanishi, mazkur yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlarga boshqa rahbarlar tomonidan e’tiborsizlik bilan qaralishiga zamin yaratadi. Jamoa a’zolarining yashash va mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash faqatgina direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari hamda kasaba uyushmasining vazifasi deb hisoblanishi ham maktab faoliyati samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

T. I. Shamovaning fikricha, “maktab, boshqa har qanday ta’lim muassasasi kabi tashqi muhit bilan aloqadorlikda faoliyat ko‘rsatuvchi, ochiq va yaxlit tizim. Mamlakat miqyosidagi milliy ta’lim majmuasining tarkibiy bo‘linmasi sifatida ta’lim muassasasi kengroq ta’limiy tizimga kiradi. Ayni paytda u yagona ijtimoiy tizimning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta’lim muassasasi nisbatan avtonom tizim tariqasida u yoki bu o‘zgarishlarga moslashishi yoki, aksincha, atrof-muhitga faol ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu bilan ta’lim muassasasi o‘zining ichki muhitiga ega bo‘lgan adaptiv (moslashuvchi) yoki moslashtiruvchi tizim bo‘ladi”.

A.B.Radjiyevning “Xalq ta’limi tizimida rahbar xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni boshqarish samaradorligini oshirish (umumta’lim maktab direktorlari misolida)” nomli tadqiqotida rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida rahbar va pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ta’lim muassasasi faoliyatini takomillashtirishning asosiy sharti

sifatida qaralishi, ammo rahbar va o‘qituvchilarning kasbiy mahorati nimani anglatishi haqidagi tushunchalar turli mamlakatlarda turlicha bo‘lgani kabi mazkur mahoratni rivojlantirish mexanizmlari ham turlicha ekanligini ta’kidlagan.

D.Sh.Temirov esa umumta’lim maktablari rahbarlarining boshqaruv faoliyatida “Tashkiliy-pedagogik munosabat” tushunchasini ilmiy pedagogik atama sifatida izohlar ekan, “Bu munosabatlar ta’lim muassasasi faoliyatining barcha turlarida obyektiv ravishda mavjud bo‘lib, mehnatning taqsimlanishi va birgalikda ishni tashkil etishning obyektiv jarayonlarini ifodalaydi. Ta’lim muassasasi har bir xodimining mehnati hamkorlikdagi mehnatning muayyan qismini tashkil etib, shunga ko‘ra, u obyektiv aloqalarsiz mavjud bo‘lishi mumkin emas”ligini ta’kidlaydi.

Pedagogik nizolar bo‘yicha mutaxassis I.A.Kurochkinaning fikricha, pedagogik ziddiyat – paydo bo‘ladigan va boshqariladigan hodisa hisoblanadi. Psixologik nuqtayi nazardan qarama-qarshilikning rivojlanishi va hal etilishi shaxsiyatni rivojlantirishning o‘ziga xos shakli, chunki unda eskilari o‘zgarib, yangi shaxsiy munosabatlar shakllanadi.

A.A. Bizyaevaning fikricha, esa rahbar jamoadagi ziddiyatli vaziyatda holatni o‘rganadi, tahlil qiladi, tajriba va mahoratiga tayangan holda ish ko‘radi. U ziddiyatni hal qilish usulini tanlashi, vaziyatni xolisona baholashi eng muhimi nizolarni avj oldirishga emas, balki uni mos strategiyalar yordamida hal qilishi zarur.

Har qanday pedagogik jamoadagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun rahbar oldida “raqobat”, “imtiyoz”, “chekinish”, “murosaga kelish”, “hamkorlik” kabi strategiyalar mavjud. Mazkur strategiyalarni pedagogik amaliyotda qo‘llanilishi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz.

1. Raqobat – pedagogik nuqtayi nazardan nizoli vaziyatdan chiqishning eng kam tanlangan shakli. Qoida tariqasida, bu raqiblarni shaxsiy manfaatlarga yo‘naltirishni o‘z ichiga oladi. Bunday vaziyatda ziddiyatli tomonlar muhim manbalarga ega bo‘ladi. Kuch, qonun kuchi, aloqalar, jamoadagi vakolat va boshqalar shular sirasiga kiradi. Tashqi salbiylik bilan ushbu strategiyani, masalan, umumiy sababni qarama-qarshi shaxsning tajovuzlaridan himoya qilish zarur bo‘lganda, masalan, maktab jamoasining ko‘plab a’zolari aziyat chekadigan bo‘lsa, pedagogik jihatdan oqlanishi mumkin. Ko‘rib chiqilayotgan strategiya, agar o‘quvchilardan biri o‘zini boshqalarga qarshi qo‘yishi va qiyin topshiriqlarni bajarishdan bosh tortishi, o‘z ishini boshqalarga yuklashga intilishi kabi holatlarda ham samarali bo‘lishi mumkin. Ziddiyatdagi raqobat strategiyasi savol berishni o‘z ichiga oladi “Kim g‘alaba qozonadi?”, uning ortida kuch, avtoritarizm va raqiblardan birining muqarrar psixologik jarohati, ehtimol mag‘lubiyat turibdi.

2. Pedagogik ziddiyatni hal qilishning navbatdagi strategik yondashuvi – chekinish (qochish) – biz allaqachon ko‘rib chiqqan raqobat strategiyasining o‘ziga xos “alter-ego”si sifatida taqdim etilishi mumkin. Bu mojarolarning o‘zaro ta’siridan qochish istagi bilan ajralib turadi. Chekinish strategiyasida na o‘zining va na raqibning manfaatlariga e’tibor berilmaydi. Bu psixologik vaqt bombasining bir turi, chunki bunday strategiya bilan qoida tariqasida, mojaroning ahamiyatini subyektiv baholash haqiqiy ziddiyatga mos kelmaydi. Bu esa mojaroning takrorlanishiga olib kelishi mumkin. Agar muammo haqiqatan ham ahamiyatsiz bo‘lsa yoki nizo mavzusi uning noto‘g‘ri ekanligini tushunsa (masalan, intizomli va mas’uliyatli talaba darsga kechiksa va o‘qituvchi bu alohida holat ekanligiga amin bo‘lsa) ushbu strategiyadan foydalanishi mantiqan to‘g‘ri keladi).

3. Imtiyoz – uning ostida, raqiblardan biri boshqasining shaxsiy manfaatlariga kam e’tibor berish bilan ajralib turadigan shaxsiy xususiyatlaridan foydalanib, o‘z maqsadiga erishadi. Boshqacha qilib aytganda, kishi raqibning manfaati uchun shaxsiy manfaatlarini qurbon qiladi. Ushbu strategiyadan foydalanish mojaroni hal qilish uchun shart-sharoitlar

yetilmagan hollarda oqlanadi. Bunday holda, bu vaqtinchalik “sulh”ga olib keladi va ziddiyatli vaziyatni konstruktiv hal etish yo‘lidagi muhim bosqich hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tilgan “raqobat”, “qochish” va “imtiyozlar” juda mashhur ijtimoiy-psixologik strategiyalar bo‘lib, ko‘pincha o‘qitish amaliyotida uchraydi. Biroq, o‘rnatilgan gumanistik paradigma sharoitida mojarolarni hal qilishda eng samarali va resursli strategik yondashuvlar rahbar uchun “murosa” va “hamkorlik” bo‘lishi zarur.

4. Albatta, murosaga kelish – bu mojarolarni hal qilishning ijobiy pedagogik qo‘llab-quvvatlanadigan strategiyasidir. Biroq, bu kelishmovchilik bilan ziddiyatli tomonlarning manfaatlari muvozanati bilan tavsiflanganiga qaramay, har ikkala tomonning ehtiyojlari to‘liq qondirilmaydi, bu esa yangi keskinlikni rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

5. Shu nuqtayi nazardan, ziddiyatli vaziyatda sheriklikka asoslangan hamkorlik strategiyasi hozirgi kunda eng madaniy, shu jumladan ta’lim muhitida izchil hisoblanadi. Uning samaradorligi kafolati ham o‘z manfaatlariga, ham raqib manfaatlariga yuqori darajada e’tibor qaratilishida. Ushbu strategiya nafaqat manfaatlar muvozanatiga, balki shaxslararo munosabatlarning qiymatini tan olishga ham asoslangan. V.I.Juravlevning fikricha, hamkorlik strategiyasi ziddiyatning prinsipial yangi yechimini birgalikda qidirishni nazarda tutadi, bunda nizo sabablari va mavzusi yo‘q qilinadi. Hamkorlik orqali pedagogik mojaroni yengib chiqish strategiyasi har doim qarama-qarshi raqiblar o‘rtasidagi aloqa sheriklik formatini birlashtirgan kelishuvga asoslangan bo‘ladi.

Ta’kidlash kerakki, hamkorlik strategiyasining tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, ziddiyatli vaziyatning yosh ishtirokchisi, birinchi navbatda o‘quvchi, bola mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdir. Shuningdek, ushbu vaziyatda o‘quvchi uchun katta yoshdagi o‘qituvchi bilan bo‘lgan tajriba qiyin hayotiy vaziyatni yengishda muhim ahamiyatga ega, bu o‘z-o‘zidan rivojlanish, ijtimoiylashuv va shaxsni shakllantirishga yerdam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova N. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishning nazariyasi va amaliyoti. – T.: FAN, – 2013. – 109 b.
2. Бизяева А.А. Рефлексивные протсессы в сознании и деятелности учителя: автореф. дис.... канд. психол. н. СПб: Питер, 1993. С24.
3. Журавлев В.И. Основы педагогической конфликтологии: учебник. М.: Рос. пед. агентство, 1995. – 58.
4. Курочкина И.А. Педагогическая конфликтология: учеб. пособие / И. А. Курочкина, О.Н. Шахматова. екатеринбург : Изд-во Рос. гос. проф.- пед. ун-та, 2013. – 37.
5. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. Jamoa // –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 424-b.
6. Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d.diss. – T., 2007. – 363-b.

Moxira SAYDIVALIYEVA,
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, ‘‘Sport boshqaruvi’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

SPORTCHILARNING ORTIQCHA MASHQ QILGANLIGI VA ORTIQCHA ZO‘RIQISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Maqolada sportchilarning muntazam mashg‘ulotlar jarayonida pishib ketganlikning (chidamlilik) biologik, pedagogik va psixologik omillari, sportchilarning jismoniy va ruhiy yuklama ta’siriga moslashish jarayoni, sportchilarning ahvoli, ish qobiliyati, yuklamaga reaksiyasi, psixoemotsional holati, tanlangan sport turida yuqori natijalarga erishishga tayyorlash jarayoni, funksional tayyorgarlikning eng yuqori darajasi, ‘‘sport formasi’’ning maksimal ko‘rsatkichlari, sportchi organizmining charchashi, tiklanishi, tibbiy tavsiyalar, davolash masalalari batafsil ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, muallif tomonidan sportchining ortiqcha mashq qilganligi guruhlarga birlashtirib tahlil qiligan.

Kalit so‘zlar. Muntazam mashg‘ulot, pishib ketganlik, chidamlilik, biologik, pedagogik va psixologik omillar, jismoniy va ruhiy yuklama, moslashish, ahvol, ish qobiliyat, yuklamaga reaksiya, psixoemotsional holat, natijalarga erishish, daraja, ko‘rsatkich, charchash, tiklanish, tibbiy tavsiya, davolash.

В статье рассматриваются вопросы биологического, педагогического и психологического факторов созревания (выносливости) спортсменов при регулярных тренировках, процесс адаптации спортсменов к воздействию физической и умственной нагрузки, состояние спортсменов, работоспособность, реакция на нагрузку, психоэмоциональное состояние. Подробно рассмотрены эмоциональное состояние, процесс подготовки к достижению высоких результатов в избранном виде спорта, высокий уровень функциональной подготовки, максимальные показатели «спортивной формы», утомляемость организма спортсмена, восстановление, врачебные рекомендации и лечения. Также, автором разделен на группы и анализирован перетренированность спортсменов.

Ключевые слова. Биологический, педагогическй и психологический фактор, созревания, выносливость, регулярные тренировки, адаптация спортсменов, воздействие, умственная нагрузка, состояние, работоспособность, реакция на нагрузку, психоэмоциональное состояние, высокий уровень, функциональная подготовка, максимальные показатели, спортивна форма, утомляемость, врачебные рекомендации, лечения.

The article discusses the issues of biological, pedagogical and psychological factors of maturation (endurance) of athletes during regular training, the process of adaptation of athletes to the effects of physical and mental stress, the condition of athletes, performance, response to stress, psycho-emotional state. The emotional state, the process of preparing to achieve high results in the chosen sport, the high level of functional training, the maximum indicators of the "sports form", the fatigue of the athlete's body, recovery, medical recommendations and treatment are considered in detail. Also, the author divided into groups and analyzed the overtraining of athletes.

Key words. Biological, pedagogical and psychological factors, maturation, endurance, regular training, adaptation of athletes, impact, mental load, condition, performance, reaction to load, psycho-emotional state, high level, functional training, maximum performance, sports form, fatigue, medical advice, treatment.

Muntazam mashg‘ulotlar jarayonida sportchi tanasining funksional imkoniyatlari kengayadi, mashq qilaverib pishib ketishning bosqichma-bosqich shakllanishi va rivojlanishi kuzatiladi. Mashq qilaverib pishib ketganlik (chidamlilik) – biologik, pedagogik va psixologik omillarga asoslanadigan holatning rivojlanishi negizida tanani qayta-qayta takrorlanadigan kuchaytirish vositalari – jismoniy va ruhiy yuklama ta’siriga moslashish jarayoni yotadi. Mashq qilaverib pishib ketganlik darajasi sportchining ahvolini, uning ish qobiliyatini, yuklamaga reaksiyasini, tanlangan sport turida yuqori natijalarga erishishga tayyorligini belgilab beradi. Mashq qilaverib pishib ketganlikning o‘sish sur’ati va uning namoyon bo‘lishi mashg‘ulot jarayonining yo‘nalishi, sport turining xususiyatlari, sportchining yoshi va boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Funksional tayyorgarlikning eng yuqori darajasi (‘‘sport formasi’’) ushbu sportchi uchun sport faoliyatining maksimal ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

Agar mashg‘ulot noto‘g‘ri tashkil qilingan bo‘lsa va yuklama sportchining imkoniyatlariga mos kelmasa (ayniqsa, o‘tmishdagi kasalliklar, irratsional rejim va tanani zaiflashtiradigan boshqa omillar fonida), mashq qilib pishishning normal rivojlanishi buziladi, sportchining ahvoli va ish qobiliyati yomonlashadi, turli xil oldindan va patologik holatlar rivojlanadi, ular orasida murabbiy birinchi navbatda haddan tashqari qattiq charchash, ortiqcha mashq qilganlik va ortiqcha zo‘riqishni aniqlay olishi kerak.

Haddan tashqari qattiq charchash sportchining organizmi ma’lum bir vaqt davomida bir mashg‘ulot yoki musobaqadan ikkinchisiga tiklanishga ulgurmaydigan holdan toyish holatlari ustma-ust kelganda yuzaga keladi. Haddan tashqari qattiq charchash zo‘riqishdan keyin charchoqning odatdagidan ko‘ra ko‘proq davom etishi, ahvolining yomonlashishi, uyqu buzilishi, charchoq va holdan toyishning kuchayishi, beqaror kayfiyat bilan namoyon bo‘ladi. Sportchi ish qobiliyati odatda sezilarli o‘zgarishsiz qolishi yoki biroz pasayishi mumkin. Ammo bu yangi harakat ko‘nikmalarni shakllantirishda, murakkab taktik vazifalarni hal qilishda sezilarli qiyinchiliklarga aylanadi, texnik nuqsonlar paydo bo‘ladi. Obyektiv ravishda kuch ko‘rsatkichlarining pasayishi, o‘zaro moslikning yomonlashishi, yuklamaga reaksiya yomonlashish (tiklanish davrining uzayishi) qayd etilishi mumkin. Organlar va tizimlar funksiyalarining buzilishi, qoidaga ko‘ra, hali mavjud emas; ba’zi hollarda yurak ritmining buzilishi va qon bosimining o‘zgarib turishi, jismoniy mashqlar paytida o‘ng qovurg‘aosti qismida og‘riq, mushaklar tonusining kuchayishi kuzatiladi. Haddan tashqari qattiq charchash holatini bartaraf etish uchun odatda mashg‘ulotga qisqa muddatli tuzatishlar kiritish (bir necha kun davomida): qo‘shimcha dam olish kunlarini kiritish, yuklamani pasaytirish, tashqi sharoitlarni o‘zgartirish, musobaqalarni istisno qilish, dam olishni xilma-xillashtirish, tiklanish tadbirlarni kuchaytirish (vitaminlar bilan ta’minlash, sifatli ovqatlanish, massaj, suv protseduralari va boshqalar), uyqu va rejimni normallashtirish kifoya.

Keragidan ortiqcha mashq qilganlik – patologik holat, dizadaptatsiya namoyon bo‘lishi, mashg‘ulotlar davomida erishilgan funksional tayyorgarlik darajasining buzilishi, organizm tizimlarining faoliyatini tartibga solish, bosh miya yarim qobig‘i va asab tizimining quyi bo‘limlari, harakatlantiruvchi apparat va ichki organlar o‘rtasidagi optimal nisbat. Ortiqcha mashq qilganlikning asosida miya qobig‘i jarayonlarning haddan tashqari zo‘riqishi yotadi va shuning uchun bu holatning asosiy belgilari nevrozlar turiga qarab ro‘y beradigan markaziy asab tizimidagi o‘zgarishlar hisoblanadi. Bunda endokrin sohadagi o‘zgarishlar, asosan buyrak usti bezlari va gipofiz bezidagi o‘zgarishlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ikkinchidan, tartibga solishning buzilishi tufayli turli organlar va

tizimlarning funksiyalarida o‘zgarishlar yuz berishi mumkin.

Ortiqcha mashq qilganlikning asosiy belgilari: ahvolning yomonlashishi, yuqori darajada toliqish, beqaror kayfiyat (apatiya yoki, aksincha, jizzakilik, tajovuzkorlik), uyqu va ishtahaning buzilishi, yurak sohasidagi yoqimsiz hislar, bosh og‘rig‘i, yurak o‘ynog‘i, oyoqlarda, jigar va boshqalarda og‘irlik, sport natijalari va ish qobiliyatining pasayishi, mashg‘ulotlar va musobaqalarda qiziqishni yo‘qotish (ba’zan hatto nafratlanish), o‘z kuchlariga ishonchsizlik, shubhalanish, miyaga o‘rnashib qolgan holat. Ortiqcha mashq qilganlik holatida harakatlanish ko‘nikmalari va odatiy harakatlar texnikasi, hamkorlar o‘rtasida bir-birini tushunish izdan chiqadi, tana vazni va mushaklarning kuchi pasayadi; jinsiy funksiya, ayollarda hayz sikli buzilishi mumkin; immunitet, kasalliklarga, jarohatlarga, turli xil stress omillarining ta’siriga chidamlilik pasayadi; muvofiqlashtirish va vestibulyar namuna ko‘rsatkichlarining yomonlashishi, harakatlantirish reaksiyalarining sekinlashishi va beqarorligi, terlashning ko‘payishi kuzatiladi.

Yaxshi mashq qilgan sportchiga xos bo‘lgan mushaklarning dam olish holatida qon aylanishi va nafas olishning tejamkorligi yomonlashadi. Yurak ritmining tez-tez buzilishi – taxikardiya yoki aksincha, qattiq bradikardiya, og‘ir sinus aritmiyasi, ekstratsistologiya uchrab turadi. Qon bosimi barqaror emas: uning ortishi (asosan sistolik) yoki og‘ir gipotoniyaga moyillik mavjud. Jigar kattalashishi mumkin, ba’zida mashq payti o‘ng qovurg‘a ostida og‘riq paydo bo‘ladi. Energiya va modda almashinuvida o‘zgarishlar: asosiy almashinuvning ko‘payishi, vitamin yetishmasligi, qondagi qand miqdorining pasayishi, termoregulyasiya buzilishi, buyrak usti bezlari va qalqonsimon bez funksiyalari buzilishi, oksidlanish jarayonlari kuzatiladi.

Tananing jismoniy faoliyatga reaksiyasi sezilarli darajada o‘zgaradi: turli ko‘rsatkichlarning nomuvofiq siljishi bilan u yanada zo‘riqadi, atipik reaksiyalar paydo bo‘ladi. Jismoniy ish layoqati pasayadi, mashg‘ulotlarda kislorodning bahosi oshadi, kislorod qarzini qoplash qiyinlashadi, qonda sut kislotasining to‘planishi ortadi, tiklanish sekinlashadi.

Sportchining umumiy holatidagi o‘zgarishlar darajasi va tabiati, turli xil tana funksiyalari uning individual xususiyatlariga va ortiqcha mashq qilish bosqichiga bog‘liq. S.P. Letunov ortiqcha mashq qilishning 3 bosqichini ajratib ko‘rsatgan. Birinchi bosqich – boshlang‘ich hodisalar, mohiyatan, holdan toyishdan jiddiy farq qilmaydi. Aksariyat hollarda sportchida shikoyat bo‘lmaydi.

Shikoyatlarning noaniqligi va klinik ko‘rinish tufayli (ayniqsa, ish layoqatining sezilarli darajada pasayishi kuzatilmagan hollarda) ortiqcha mashq qilishning ushbu bosqichi ko‘pincha tashxis qo‘yilmaydi, bu esa jiddiyroq bo‘lgan ikkinchi bosqichga o‘tishga olib keladi. Ikkinchi bosqich buzilishlarning asta-sekin o‘sishi bilan tavsiflanadi.

Tibbiy-pedagogik nazoratning yaxshilanishi tufayli hozirda juda kam uchraydigan ortiqcha mashq qilganlikning uchinchi bosqichida tananing turli fiziologik tizimlarida ikkilamchi o‘zgarishlar, sportcha ish layoqatining uzoq va keskin pasayish bilan kuchli nevroz (nevrasteniya va psixosteniya kabi) kuzatiladi.

Ortiqcha mashq qilganlikning birinchi bosqichi uni o‘z vaqtida aniqlash va davolashda to‘liq qaytarilishi mumkin; yaqqol ifodalangan ikkinchi va ayniqsa, uchinchi bosqichda uzoq muddatli asoratlar saqlanib qoladi, ba’zida esa sportchi ish layoqati ko‘rsatkichlari va natijalarini tiklash sodir bo‘lmaydi.

Davolash birinchi navbatda, sportchining umumiy rejimi va uyqusini normallashtirish, to‘la qimmatli muvozanatli ovqatlanish va vitaminlar (ayniqsa, V, S, Ye guruh vitaminlari) bilan ta’minlash, har qanday stressli omillarni yo‘q qilish, turli jismoniy omillar (ultrabinafsha nurlanish, aeroionizatsiya, ignabargli, marvarid, natriy xlorid

vannalar, turli dushlar, galvanizatsiya, elektroforez, massaj va b.) va dori-darmonlar (tinchlantiruvchi, yurak uchun yengil dorilar, temir, kalsiy preparatlari), og‘ir bosqichlarda esa – ayrim gormonlarni qo‘llash orqali tananing umumiy barqarorligini oshirish va markaziy asab tizimining funksional holatini tiklashga qaratilgan. Biron-bir tizim yoki organning funksiyasi buzilgan taqdirda tegishli tuzatuvchi davolash amalga oshiriladi. Psixoemotsional holatni normallashtirish uchun psixoterapiya, autogen mashg‘ulotlar va boshqalar qo‘llanadi. Murabbiy va jamoaning kasal sportchining ruhiyatini ayaydigan to‘g‘ri yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Qiziqarli dam olish va chalg‘itadigan narsalar muhimdir.

Ortiqcha mashq qilganlikni davolash va sportcha ish layoqatini tiklashda to‘g‘ri harakatlanish rejimi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Dastlabki bosqichda 2-4 hafta davomida mashg‘ulotlar sonini qisqartirib, katta asabiy zo‘riqish talab qiladigan texnik mashqlar, kuch va tezlik xarakteridagi yuklamalarni cheklash, mashq va mashg‘ulotlar o‘rtasidagi oraliqlarni oshirish, boshqa mashqqa o‘tish va maxsus bo‘lmagan yuklamadan kenroq foydalanish, shart-sharoitlarni o‘zgartirish (mashg‘ulotlarni o‘rmon, parkda, daryo bo‘yida, issiq bo‘lmagan vaqtda o‘tkazish) kifoya qiladi. Suzish, sayr qilish va sog‘lomlashtiruvchi yugurish, chang‘i va konki uchish va h.k. foydali. Bu davrda musobaqalarda qatnashish istisno qilinadi.

Sportchining holati va kayfiyati, shuningdek, dinamik kuzatuvlar ko‘rsatkichlari va jismoniy faoliyatga bo‘lgan reaksiyalar yaxshilanishi bilan mashg‘ulot rejimi asta-sekin odatiy rejimga yaqinlashadi. Musobaqalarda faqat funksional holat tiklangandagina qatnashishga ruxsat etiladi.

Ortiqcha mashq qilganlikning ikkinchi bosqichida sportchi 1-2 hafta davomida mashg‘ulotlardan to‘liq dam olishi zarur; shundan keyin 1-2 hafta davomida faqat kuchli toliqishga olib kelmaydigan, maxsus bo‘lmagan yuklamalardan foydalanish: sayr, tonggi gimnastika, o‘zgaruvchan yugurish, suzish, chang‘ida sayr qilish, harakatli va sport o‘yinlariga ruxsat etiladi. So‘ngra harakat rejimi asta-sekinlik bilan kengaytirib boriladi, tanlangan sport turidagi mashqlar ulushi, ularning hajmi va qizg‘inligi oshiriladi. Musobaqalarda ishtirok etish ehtimoli bilan odatiy mashg‘ulotlar rejimiga (sportchining umumiy holatini normallashtirish va uning jismoniy zo‘riqishga moslashishi sharti bilan) kamida 1,5-2 oydan keyin ruxsat etiladi.

Ortiqcha mashq qilganlikning ikkinchi bosqichida 3-4 hafta davomida to‘liq dam olish kerak (nevrozda faqat jismoniy tarbiyaning davolash turiga ko‘ra umumiy rivojlanish xarakteridagi kichik yuklamalar bo‘lishi mumkin). Mashg‘ulotlarni tiklashga kamida 1,5-2 oydan, musobaqalarda ishtirok etishga esa 2-3 oydan keyin ruxsat etiladi.

Ortiqcha mashq qilganlikning yaqqol ifodalangan bosqichlarida davolash va reabilitatsiya qilish sport statsionarlari va reabilitatsiya markazlari sharoitida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

To‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayoni ortiqcha mashq qilganlikning rivojlanishini butunlay bartaraf etish imkonini beradi. Biroq, buning uchun ortiqcha mashq qilganlikning sabablarini aniq tushunish kerak. Ular quyidagi guruhlarga birlashtirilishi mumkin:

a) sportchining sog‘lig‘i holatidagi salbiy o‘zgarishlar;
b) umumiy rejimning buzilishi;
v) noto‘g‘ri rejim va mashg‘ulotlar uslubiyati;
g) noqulay mashg‘ulot sharoitlari;
d) sportchining ayrim individual xususiyatlari.

Kasalliklar va jarohatlar fonida mashg‘ulotlar sog‘lom holatga qaraganda barcha tana funksiyalariga ko‘proq zo‘riqish bilan birga keladi.

Organizmga jismoniy mashqlar bilan bog‘liq talablar ortib borganida, normal sharoitda uning hayotiy faoliyati uchun yetarli bo‘lgan kompensatsiya buziladi, organizmning immuniteti va barqarorligi pasayadi, tartibga solish yomonlashadi, asabiy taranglik kuchayadi, moslashish buziladi va bu ortiqcha mashq qilganlikning asosi hisoblanadi. Bu borada surunkali infeksiya o‘choqlari (asosan og‘iz bo‘shlig‘i, bodomsimon bezlar, o‘t chiqarish yo‘llarida), turli organ va tizimlarning yashirin kasalliklari ayniqsa xavflidir. Shu sababli muntazam sport mashg‘ulotlarini boshlashdan oldin va kelajakda yiliga kamida 1-2 marta sportchi keng qamrovli tibbiy ko‘rikdan o‘tishi, murabbiy esa o‘quv-mashg‘ulotlar jarayonini rejalashtirishda va musobaqalarda qatnashishga ruxsat berish to‘g‘risida qaror qabul qilishda ushbu tekshiruv natijalarini hisobga olishi kerak. Kasallik belgilari paydo bo‘lgan hollarda mashg‘ulotni darhol to‘xtatish va sportchini shifokorga yuborish kerak. Sportchining mashg‘ulotlar va umumiy rejimi, davolanish xarakteri, mashg‘ulotlarni qayta boshlash va musobaqalarga ruxsat berish vaqti kasallikning tabiati va kechishi va bemorning ahvolini hisobga olgan holda shifokor tomonidan belgilanadi.

Sog‘lig‘i buzilgan taqdirda yuqori natijalarga erishishga intilish, shifokorning taqiqlashiga qaramay, mashg‘ulotlar va musobaqalarda qatnashish, tibbiy tavsiyalarga e’tibor bermaslikka yo‘l qo‘yishi mumkin emas. Bunga murabbiy javobgar. U shifokor bilan birgalikda tibbiy yordam va davolash-profilaktika ishlarini kasallik va jarohatlarning barcha (hatto kichik) ko‘rinishlarini o‘z vaqtida aniqlash va yo‘q qilish va ularning samarali oldini olishni ta’minlaydigan tarzda tashkil qilishi kerak.

Asab jarayonlarining haddan tashqari zo‘riqishi va moslashishning buzilishiga, shuningdek, sportchining umumiy rejimi buzilishi ham sababchi bo‘ladi: asosiy ish va o‘qish bo‘yicha yuklamalarning mashg‘ulot yuklamalari bilan noratsional birlashuvi, ortiqcha asabiy yuk va kelishmovchiliklar (ishda, oilada, maishiy hayotda), psixoemotsional stresslar, sport jamoasida noqulay psixologik muhit va yomon munosabatlar, muvaffaqiyatsizliklar va ko‘ngilsizliklarga noto‘g‘ri reaksiya, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish va chekish, uyqu buzilishi, yomon ovqatlanish, tez-tez va ortiqcha vazn yo‘qotish, asosiy gigiena qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar. Shuning uchun murabbiy har kuni nafaqat mashg‘ulot jarayonini, balki sportchi hayotining butun rejimini kuzatishi va agar kerak bo‘lsa, unga nozik, xushmuomalalik bilan aralasha olishi kerak.

Haddan tashqari ortiqcha mashq qilganlikning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan mashg‘ulotlar rejimi va uslubiyatining buzilishlari orasida quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi: aritmik va kuchaytirilgan mashg‘ulotlar, yuklama va talablar sportchining jismoniy tayyorgarligi darajasiga mos kelmasligi, mashg‘ulotlar o‘rtasidagi oraliqlar yetarli emasligi, musobaqalar haddan tashqari tez-tez o‘tkazilishi, tor ixtisosli monoton mashg‘ulotlar, to‘laqonli dam olish va tiklanish yo‘qligi, yoshi va tayyorgarlik darajasidagi farq katta bo‘lgan shaxslarning birgalikdagi mashg‘ulotlari va musobaqalari.

Yetarli dastlabki tayyorgarliksiz murakkab muhit sharoitlarida (yuqori harorat va namlik, kislorod yetishmasligi, atmosferaning gaz bilan ifloslanishi va boshqalar) mashg‘ulotlar va ayniqsa, musobaqalar organizmga talablarning kuchayishi, tiklanishning sekinlashuvi bilan bog‘liq. Ortiqcha mashq qilganlik ko‘pincha shunday sharoitlarda rivojlanadi.

Sportchining shaxsiyati va asab tizimi individual xususiyatlari ham katta ahamiyatga ega. Xususan, muvaffaqiyatsizliklar va ortiqcha mashq qilganlik ko‘pincha asab tizimi zaiflashgan va beqaror bo‘lgan, tez ta’sirlanadigan shaxslarda, jinsiy balog‘atga yetish

davrida va funksiyalarning yoshga bog‘liq ravishda pasayishi boshlanishida, tiklanish jarayonlari genetik jihatdan sekin kechadigan shaxslarda va boshqalarda ko‘proq yuzaga keladi. Shuning uchun bir xil yuklama, bir xil mashg‘ulot rejimi turli sportchilarning organizmida turli xil o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Yuklama rejimini belgilashda bir xil yondashuv ba’zi sportchilarda mashq qilaverib pishib ketganlikning, boshqalarda esa ortiqcha mashq qilganlik va layoqatning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ortiqcha zo‘riqish o‘tkir va surunkali bo‘lishi mumkin, bu tayyorgarlikning ba’zi bosqichlarida sportchining funksional imkoniyatlariga mos kelmaydigan yuklamadan foydalanish, mashg‘ulotlar rejimi va uslubiyatining turli xil buzilishlari natijasida yuzaga keladi.

Ortiqcha mashq qilganlikdan farqli o‘laroq, surunkali ortiqcha zo‘riqish alohida organlar va tizimlarning o‘zgarishi bilan namoyon bo‘ladi, sportchining umumiy holati va ish layoqati esa uzoq vaqt davomida o‘zgarishsiz qolishi mumkin. Yurakning surunkali jismoniy zo‘riqishi eng ko‘p uchraydi. A.G.Dembo uni surunkali zo‘riqish oqibatida miokard distrofiyasi deb ta’riflaydi. Ushbu distrofiya turi ta’rfilangan turdan farq qiladi. Uning asosida metabolizmning buzilishi, hujayra membranalarining o‘tkazuvchanligi ortishi, katexolaminlar tarkibining ko‘payishi, miotsitlarda ionli muvozanat o‘zgarishi yotadi. Faqat rivojlangan bosqichlarda, ehtimol, degenerativ o‘zgarishlar paydo bo‘lishi mumkin.

EKG o‘zgarishlari paydo bo‘lganda, shikoyatlar yo‘qligi va ish layoqatining saqlanishiga qaramay, mashg‘ulotlar rejimiga o‘zgarishlar kiritish zarur. Agar bunday qilinmasa, agar bu bajarilmasa, hodisalarning ko‘payishi, qaytarilmas o‘zgarishlar (nekroz o‘choqlari, kardioskleroz va chandiqli o‘zgarishlar), sportcha ish layoqatining uzoq muddatli pasayishi o‘ringa ega bo‘lishi mumkin. bunda shifokor tavsiyalari murabbiy uchun majburiydir. Davolash (kaliyli preparatlar, beta-blokator, inozin, panangin, riboksin va b.) organizmning umumiy barqarorligini oshirish va distrofik o‘zgarishlarni bartaraf etishga qaratilgan. Mashg‘ulotni to‘xtatish muddati, uning rejimi va uslubiyatidagi o‘zgarishlar shifokor tomonidan ortiqcha zo‘riqsh bosqichiga, sportchining holati va malakasiga, sport turiga va boshqalarga qarab belgilanadi. EKGda qaytarilmas o‘zgarishlar bilan yuqori natijaga erishishga qaratilgan mashg‘ulotlar to‘g‘ri kelmaydi. EKG normallashgandan so‘ng, mashg‘ulotlar cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

Surunkali miyokard zo‘riqishida shuni yodda tutish kerakki, bunday EKG o‘zgarishlari boshqa sabablarga ko‘ra – kuchli vagotoniya va miokard gipertrofiyasi, koronar qon aylanishining buzilishi, kardioskleroz, bolalar va o‘smirlar yuragining fiziologik xususiyatlari tufayli ham sodir bo‘lishi mumkin. Bularning barchasi shifokor tomonidan ehtiyotkorlik bilan differensial tashxis qo‘yishni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, sportchi organizmining funksional holati buzilishining eng yaxshi oldini olish – to‘g‘ri tanlov, oqilona mashg‘ulotlar rejimi va uslubiyati, to‘liq tiklanish, individual yondashuv, muntazam tibbiy va pedagogik nazoratdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Летунов С.П. Определение тренированности и перетренированности во врачебно-спортивной практике/Проблемы врачебного контроля. –М.: Физкультура и спорт, 1966. – С.142-148.

2. Дембо А.Г. Врачебный контроль в спорте. – М.: Медицина, 1991. – С. 170

3. Чоговадзе А.В., Бутченко А. Спортивная медицина. – М.: Медицина, 1984. – С. 170

Zlixa JUMANIYAZOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
''Maktabgacha ta'lim fakulteti'' o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari

QORAQALPOQ XALQ O'YINLARI VOSITASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq o'yinlari vositasida maktabga sog'lom, rivojlangan shaxs qilib tayyorlash, o'qishga qiziqish qobiliyatlarini shakllantirish, xalq o'yinlarini rivojlantirish asosida maktab ta'limiga bolalarni bilimli qilib tayyorlash, ta'lim oluvchilarda o'yin kompetensiyalarini rivojlantirish, Qoraqalpoq xalq o'yinlarining mazmuni va tashkil etilishi, ta'lim oluvchilarga ta'sir ko'rsatish darajasi, vositalari, turlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi, Qoraqalpoq xalq o'yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish metodikasining bosqichlari, ushbu tizim modeli keltirilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar, xalq o'yinlari, Qoraqalpoq xalq o'yinlari, mazmun, tashkil etish, ko'rsatish darajasi, vositalar, turlar, tajriba, metodika, bosqich, model.

В статье подробно описывается подготовка детей дошкольного возраста к школе здоровой, развитой личностью средствами народных игр, подготовка детей к школьному обучению на основе прививания народных игр, освещены развитие у обучаемых игровых компетенций, содержание и организация Каракалпакских народных игр. Также, представлен опыт развитых зарубежных стран, этапы совершенствования нравственного воспитания детей дошкольного возраста посредством Каракалпакских народных игр, модель этой системы.

Ключевые слова. Дошкольник, народные игры, Каракалпакские народные игры, содержание, организация, уровень исполнения, средства, виды, опыт, методика, этап, модель.

The article describes in detail the preparation of preschool children for school with a healthy, developed personality by means of folk games, the preparation of children for school education on the basis of instilling folk games, highlights the development of trainees' gaming competencies, the content and organization of the Karakalpak folk games. Also, the article presents the experience of developed foreign countries, the stages of improving the moral education of preschool children through the Karakalpak folk games, the model of this system.

Key words. Preschooler, folk games, Karakalpak folk games, content, organization, level of performance, means, types, experience, methodology, stage, model.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq o'yinlari vositasida maktabga sog'lom, rivojlangan shaxs qilib tayyorlash, o'qishga qiziqish qobiliyatlarini shakllantirish, xalq o'yinlarini rivojlantirish asosida maktab ta'limiga bolalarni bilimli qilib tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga o'yin, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishiga ta'siri bolalarni o'yin kompetensiyalari hamda aqliy, jismoniy, psixologik

jihatdan rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga e’tibor qaratilmoqda.

So‘ngi yillarda pedagog, tadqiqotchi, psixologlar o‘z izlanishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil rivojlanishida, o‘yin kompetensiyalarining rivojlantirish barcha sohalarda bolalarning sog‘lom rivojlanishi uchun hayotiy muhim element ekanligini yetarli darajada isbotlab berishdi. Bolalar o‘yin kompetensiyalarini egallashlari uchun ularga vaqt, makon materiallari hamda ota-ona yoki vasiylarning, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan malakali tarbiyachilarning qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning olgan bilimlari va ma’naviy-axloqiy tarbiyalari ularning kelajakdagi hayotini belgilab berishi sababli oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish, bolalar tarbiyasida xalq o‘yinlarining roli muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanparvar, insonparvar, mehnatsevar, ma’nan yetuk, axloqan yuksak insonlar bo‘lib yetishishi ko‘p jihatdan oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ularga berilgan xalq o‘yinlari vositasidagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaga bog‘liqdir.

Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida qabul qilingan “Uzluksiz ma’naviy tarbiyakonsepsiyasi” da o‘z aksini topgan.

Konsepsiyaning beshinchi bobida aynan maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy xulq motivlarini, “O‘zbekiston – mening Vatanim!” tuyg‘usini shakllantirish, ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalash, o‘g‘il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g‘urur, qat’iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda esa ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik, kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish muhim vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat faoliyati o‘yin bilan chambarchas bog‘liqdir. Bolalar o‘yinlari o‘zining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan ajralib turadi. O‘yinlar o‘z mazmuni va tashkil etilishi bolalarga ta’sir ko‘rsatish darajasi, vositalarining turlari hamda kelib chiqishiga ko‘ra xilma-xildir.

O‘yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyat hisoblanadi. O‘yin – bubolani o‘zini va atrofidagi dunyoni o‘rganishga, tengdoshlari va pedagogi bilan o‘zaro munosabati va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga va uning motorikalarini takomillashtirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarini biz o‘z navbatida quyidagicha tasniflaymiz: maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar; ishlab chiqarish syujetiga oid o‘yinlar; ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar.

Bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelgan kunidan ularning o‘yinlari asosan faqat oilaviy turmushdagi voqealarni aks ettirsa, maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi markazlarda bilim olish, sayrga chiqish, tabiatni kuzatish natijasida o‘yinlarning turlari ko‘payib boradi. Mana shu o‘yinlar orqali bog‘cha, oshxonada turli tayyorlanadigan taomlar, hayvonot bog‘ida hayvonlar, bog‘ va polizda turli meva va sabzavotlar, turli xil kasblar haqida bilim ko‘nikma hosil bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining “Ilk qadam” o‘quv dasturida belgilanganidek, o‘quv- tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishuchun tegishli sharoitlar yaratishdan iborat. Mazkur o‘quv dasturida 4 ta muhim kompetensiyalar belgilab berilgan: kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish;

o‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil etishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanish, u o‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi; ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish; bilish kompetensiyasi – atrof olamni ongli idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni bajarish uchun foydalanish.

Qoraqalpoq xalq o‘yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ma’naviy-axloqiy tarbiya berishning takomillashtirishga yo‘nalganlik jihatlari quyidagi masalalarni hal etishga olib keldi: ijtimoiy-madniy hayot bilan birgalikda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanish jarayoniga qarab, xalq o‘yinlarini klassifikatsiya qilish orqali psix-ologik, pedagogik, ijtimoiy yondashuvning mazmun mohiyatini anglashga erishildi; xalq o‘yinlariga yo‘g‘rilgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, e’tiqodlar va xulq- atvor ko‘nikmalarini qo‘llab quvvatlash va rivojlantirishda Qoraqalpoq xalq o‘yinlariga tayanish zarurligi asoslandi, xalq o‘yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ma’naviy-axloqiy, vatanparvarlik, isonparvarlik, ekologik, nafosat, millatlararo totuvlik xislatlarini shakl-lantirish ijobiy samara berishi aniqlandi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda muhim jarayon bo‘lib o‘yinda bola shaxsiyatining barcha jihatlari shakllanadi, uning ruhiyatida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y beradi, rivojlanishning yangi, yuqori bosqi-chiga o‘tishga tayyorlanadi. Bu jihatlar esa maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati deb hisoblanadigan o‘yinning ulkan ta’lim salohiyatini belgilaydi. Shunday ekan, o‘yin bu bolalar haqiqati tomonidan ijodiy aks ettirish shakli bo‘lsa, kengaytirilgan shaklda o‘yin jamoaviy yetakchi faoliyat bo‘lib bola hayotini tashkil etishda katta o‘rin egallaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashki-lotlarida bolalarning o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirishga bo‘lgan talab va e’tibor kuchaymoqda. Rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida maktabgacha yoshdagi bo-lalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish haqida tushunchalar turli mamlakatlarda turlicha bo‘lgani kabi, ma’naviy-axloqiy tarbiyani berish mexanizmlari ham turlichadir. Shu maqsadda, Angliya, AQSh, Germaniya, Finlyandiya, Yaponiya davlatlarining MTT maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish borasidagi tajribalar tahlil qilindi. Jahon tajribalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishga xalq o‘yinlarining roli beqiyos.

Maktabgacha bolalik – bu shaxsiyatni shakllantirishning qisqa, ammo muhim davri. Bu yillarda bola atrofdagi hayot to‘g‘risida dastlabki bilimlarni egallaydi, unda odamlarga, mehnatga nisbatan ma’lum munosabat shakllana boshlaydi, to‘g‘ri xatti-harakat ko‘nikmasi va odatlari rivojlanadi, o‘z xarakteri paydo bo‘ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshda o‘yin eng muhim faoliyat sifatida katta ahamiyatga ega. O‘yin jarayonida bola ruhiyatida sezilarli o‘zgarishlar yuz berishiga olib keladi. Bola o‘yinda qanday bo‘lsa, ishda ham ko‘p jihatdan u shunday bo‘ladi deb hisoblaydi. Psixologlar uzoq vaqtdan buyon bolalar va kattalar o‘yinlarini o‘rganib, ularning funksiyalarini, o‘ziga xos tarkibini qidirib, boshqa faoliyat turlari bilan taqqoslaganlar. O‘yin – bu kundalik ishlardan farq qiladigan faoliyat. Insoniyat qayta-qayta tabiat olami, tabiat olami yonida mavjud bo‘lgan o‘z ixtiro qilgan dunyosini, yangi mavjudotni yaratadi. O‘yin va go‘zallikni bog‘laydigan rishtalar juda yaqin va xilma-xildir. O‘yinda bola yashashni o‘rganmaydi, balki o‘zining haqiqiy, mustaqil hayotida yashaydi.

Qoraqalpoq xalq o‘yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ma’naviy-

axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish metodikasini quyidagi to‘rt bosqichi aniqlandi:

Motivatsion bosqich – tarbiyalanuvchilarning yosh va induvidual xususiyatlarini hisobga olgan holda, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar bilan yo‘g‘rilgan xalq o‘yinlariga qiziqish, ehtiyoj va istakni qaror toptirishga qaratilgan jarayon.

Mazmun bosqichi – xalq o‘yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy fazilatlarga doir tushuncha va bilimlar majmuini ishlab chiqish.

Faoliyatli bosqich – maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq o‘yinlari vositasida shakllantirilishi lozim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy fazilatlarga doir aniq vaziyatlar, faoliyat shakllarini yaratish orqali amaliy faoliyatga jalb qilish.

Qadriyatli bosqich – maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan egallangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni qadriyatga aylantirish, ularda mustahkam e’tiqodni shakllantirish maqsadida tashkil etiluvchi jarayon hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarni qiziqish, qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘yinga alohida e’tibor qaratiladi chunki bola hayotining asosiy qismi o‘yin bilan birgalikda kechadi. O‘yin jarayonida bola nafaqat zavq oladi balki, psixologik muhim bo‘lgan xususiyatlari shakllanadi, turli xatti-harakatlari, eng muhim bo‘lgan kompetensiyalari rivojlanadi, o‘sadi va ulg‘ayadi.

O‘yin bola rivojlanishining yetakchi manbai sifatida optimal rivojlanish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bu BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasining 31-moddasida ham belgilangan. Unda aytilishicha, bolalar yoshiga mos o‘yinlarda ishtirok etish huquqlariga ega. Bolalar o‘yin kompetensiyalarini egallashlari uchun ularga vaqt, makon, materiallar ota-ona hamda vasiylarning, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan malakali tarbiyachilarning qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin kompetensiyasini rivojlantirishda tarbiyachi asosiy va muhim o‘rin egallar ekan. Pedagog tarbiyachi o‘yinlarni tashkil qilishda o‘yinning qay maqsadga yo‘nalganligiga etibor qaratishi lozim, chunki bolalarning o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirish uchun o‘yinni to‘g‘ri tashkillashtirish tarbiyachining bilim darajasi, tajriba va malakasiga bog‘liq.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagog tarbiyachi o‘yin faoliyatida quyidagi rollarda ishtirok etishi mumkin:

Pedagog-tarbiyachi kuzatuvchi sifatida – bolalalar o‘yinlarida sezgirlik va malakalikni talab qiladi. Har bir bolaning kuchli tomoni va o‘yinga kirishish darajasi, o‘yin tempini saqlab qolish duch keladigan muammolarni aniqlashdan iborat. O‘yinda bolalarda qaysi kompetensiyalar rivojlanayotganligini kuzatib boradi.

Pedagog rejissor sifatida – tarbiyachi o‘yin sharoiti, turli o‘yinchoq yoki jihozlar, o‘yinga zamin yaratuvchi materiallar, turli tadbirlar uyushtirish, bolalar o‘yinlarini qo‘llab quvvatlash uchun sharoit yaratadi. O‘yinni tashkillashtirishda bolalar o‘yin va tasavvurlarini rag‘batlantirish uchun turli xil materiallardan bir necha usullar bilan foydalanish mumkin. Materiallarni o‘zgartirishi yoki yangiliklarni qo‘shish bolalarning o‘yin faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini saqlab qolish yoki kengaytirish mumkin.

Pedagog o‘yinchi (sherik) sifatida – tarbiyachi o‘yinlarini unda qatnashish, uni boshqarish, bolalarni o‘yin jarayonida qo‘llab-quvvatlash mumkin. Agar o‘yinga bolalardan biri qatnashishni xoxlamasa, u xoxlagan katta insonning ishtiroki unga o‘yinga qo‘shilish uchun o‘zini yetarlicha xavfsiz his qilishga yordam beradi.

O‘yindagi bolalarning o‘zaro bir-biriga bo‘lgan munosabatlari jamoa bo‘lib harakat qilish, do‘stona jobiy munosabatlarni shakllantiradi.

Tahlil natijasida, o‘yin jarayonini quyidagicha rejalashtirish aniqlandi: bolalarning xulq-atvoriga to‘g‘ri yondashish orqali yuqori natijali o‘yinni belgilab olishni; bolalar o‘yinidagi tanlovini boshqarish va egalik huquqining ahamiyatinni belgilashni, o‘yin signallarining signal berish va ularga javob berish orqali o‘yin siklini qanday saqlanishini aniqlashni; bolalar nima uchun o‘ynashini va uni rivojlanish nuqtai nazaridan, bolalar uchun nimani qadrli ekanligini tegishli nazariy ma’lumotlarga asosan ko‘rib chiqishni.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab- chiqilgan me’yoriy-huquqiy xujjatga asoslanib, o‘yin kompetensiyasini rivojlanishiga xalq o‘yinlari ijobiy samara berishi aniqlandi, Qoraqalpoq xalq o‘yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy- axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda quyidagi metodlar: loyihalashtirish, integrativ, variativ, tushuntirish, uqtirish, suhbatlashish, rag‘batlantirish, ibrat ko‘rsatish va o‘yin mashg‘ulotlari, sahnalashtirish, tadqiqotchilik kabi shakllari hamda Qoraqalpoq xalq o‘yinlari, audio va videovositalar, tarqatma materiallar, kompyuter vositalaridan foydalanish zarurligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil, 3-maydagi, PQ-4307-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ‘‘Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son va ‘‘O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-maydagi, PQ-432-son Qarorlari.

3. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi/BMT-ning Bolalar jamg‘armasi YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko‘magi yordamida yaratilgan. –T., 2018-yil.

4. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b.

5. Tolipov. O‘. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T., 2006. – 163 b.

6. Сергеев И.С.. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие.- СПб.: Питер. –316 стр.- (Серия ‘‘Учебное пособие’’). 2004.

Madinabonu ISMATULLAYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi 1-kurs magistranti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR AYRIM TAVSIYALAR

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish yuzasidan mulohazalar bayon etilgan. Bu ko‘nikmani yuzaga keltirish jarayonlari, ularda qo‘llanadigan usullar tavsif etilgan.

Kalit so‘zlar. Tinglash, tushunish, diqqat, tinglash mashqlari, o‘yin, biologik rivojlanish, filologik rivojlanish.

В статье изложены соображения по формированию навыков понимания на слух у детей дошкольного возраста. Описаны процессы формирования этого навыка, методы, которые они используют.

Ключевые слова. Слушание, понимание, внимание, упражнение на слушание, игра, биологическое развитие, филологическое развитие.

The article presents considerations on the formation of listening comprehension skills in preschool children. The processes of formation of this skill, the methods they use are described.

Key words. Listening, understanding, attention, listening exercise, game, biological development, philological development.

Ma’lumki, erta yoshdan boshlab bolajonlarga chet tilini o‘rgatishning eng muhim davri hisoblanadi. Bola tug‘ilgan kunidan boshlab o‘z ismini oila a’zolari tomidan eshitadi va uni his qiladi. Murg‘ak bola onasi tomonidan aytilgan asosan alla, shuningdek, boshqa qo‘shiqlarni ma’nosini tushunmasa-da, eshitish qobiliyatlari orqali qabul qiladi, ulardagi tuyg‘ularni his qiladi. Shu yoshdan boshlab bolajonlarda tinglash, his etish va emotsiya rivojlanadi. Qaysi tomondan ismi aytib chaqirilsa, o‘sha tomonga qaraydi. Shu tariqa bolajonlar ulg‘aygan sari oila a’zolaridan eshitgan so‘zlarini, TV kanallardagi multfilmlar va turli o‘yin dasturlaridan eshitgan iboralarini aytishga harakat qilishadi. Keyinchalik bolajonlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida turli mashg‘ulotlarni eshitish va u orqali tarbiyachisi bergan savollar yoki o‘z tengdoshlariga javob reaksiyasini ongli ravishda boshqara oladi. Shunday mashg‘ulotlar bilan birga bolalarda o‘z yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa tillarini o‘rgatish uchun mashg‘ulotlar tashkil qilish, zavqli o‘yinlar va turli metodlardan foydalanish orqali chet tiliga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish mumkin.

Bolalarning o‘zbek tilidagi nutqni tinglab tushunish borasidagi ko‘nikma va tajribalari chet tillarini o‘rganishga tatbiq etib boriladi. Dastavval bu jarayon qiyin tuyilishi mumkin, biroq mashg‘ulotlar davomida rang-barang bo‘lgan rasmlardan va tabiiy ko‘rgazmalardan foydalanilsa, so‘ng narsa, belgi va harakatning nomi talaffuz qilib eshittirilsa, ular bolaning tasavvuriga o‘rnashadi va o‘sha so‘zga bog‘liq bo‘lgan tushunchalar ko‘rsatmalar orqali xotiraga muhrlanadi. Masalan, bolajonlarga “koptok”, “qo‘g‘irchoq” yoki “kitob” va “maktab sumkasi” so‘zlarini aytishni o‘rgatishimiz uchun rasmli yoki

tabiiy ko‘rinishidan foydalanamiz. Chunki boladan so‘zni so‘ragan zahotingiz avvalo rasmli yoki tabiiy ko‘rinishini eslaydi, so‘ngra javob beradi. Bu bolada diqqatni bir yerga jamlash, ravon nutq va kuchli xotirani davomiy ravishda rivojlanishiga yordam beradi. K.A.Krilovaning ta’kidiga ko‘ra, “tinglab tushunish bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlar olib borilishi bugungi kunda juda dolzarb bo‘lib tinglamasdan nutq muloqotini rivojlantirish mumkin emas. Tinglash tushunchasi tovushli nutqni idrok etish va tushunish jarayonini o‘z ichiga oladi. Tinglash (Listening), albatta, ingliz tilini o‘rganishda muhim aspektlardan biridir” .

Mashg‘ulotlar paytida bolalar uzoq vaqt chet tildagi materialni tinglab tushunish jarayonida diqqatni bir me’yorda ushlab tura olmaydi, chunki ular tezda bir xillikdan va harakatsizlikdan zerikishadi. Shuning uchun bunday til mashg‘ulotlari turli didaktik hamda syudjetli o‘yinlar, qiziqali qo‘shiqlar, she’rlar va multfilmlar orqali turli yosh guruhlarga moslab tashkil qilinadi. Yuqorida aytib o‘tilgan o‘yinlar va qo‘shiqlar bolalarda jamoa bo‘lib ishlashga, tengdoshlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, bir-biriga yordam berish, ma’lum bir tartib qoidalarga amal qilishga, aqlni charxlashga, topag‘onlikka, diqqatni jamlashga va o‘yin davomida turli harakatlarni bajarish orqali bolajonlar sog‘lom rivojlanishiga va ularning kayfiyatini ko‘tarishiga yordam beradi. Su bilan birga bolalarga chet tillarini o‘qituvchilaridan ham to‘g‘ri nutq madaniyati, izlanuvchanlik, yaratuvchanlik va boshqa shu kabi qobiliyatlar talab etiladi.

Shubhasiz, bu oddiy savolga juda ko‘p narsa bog‘liq, negaki ular bolalarni tinglab tushunish faoliyatiga undaydi. Biz hozirda ulardan har qanday paytda bolaning rivojlanish bosqichi, kognitiv qobiliyati, ruhiy holati va sog‘lig‘i kabi omillar tomonidan putur yetishi mumkin bo‘lgan murakkab jarayonda ishtirok etishlarini so‘raymiz. Bolalar bir kechada tinglash qobiliyatiga ega bo‘lib qolmaydi. Har qanday mahoratda bo‘lgani kabi uni mashq qildirish va qo‘llab quvvatlash kerak. Rivojlanish bosqichlari va jarayonlarini tushunish bizga bu ko‘nikmalarni rivojlantirishga va faoliyatlarni to‘g‘ri rejalashtirishga yordam beradi.

Tovushning asoslari.

Bolalar tinglaganlarida ular aslida uchta alohida jarayonlar yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanadi:

1. Eshitish.

Bolaning eshitish sezgisi hayotning juda erta bosqichida rivojlana boshlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chaqaloqlar onaning qornidaligidayoq eshitish qobilyati rivojlanadi va tug‘ilgandan keyin bir necha kun ichida onasining ovoziga javob beradi. Bolalarning ko‘pchiligi bu eshitish qobilyatidan foydalanadi (garchi ba’zilarida ma’lum bir eshitish qobilyati zaif bo‘lsa, boshqalari esa vaqti-vaqti bilan sodir bo‘ladigan eshitish qobilayatining pastligidan aziyat chekishi mumkin). Biroq shunchaki bola bizni eshitishi bu ularning tinglayotganini anglatmaydi!

2. Tinglash.

Chaqaloqlar juda yosh davridan ovozlar va tovushlar shovqinlarini tinglashadi va munosabat bildira boshlaydilar. To‘rt oylik bo‘lganida chaqaloq tovushlar va ovozlarni taniydi, shu tariqa turli tovushlarni tinglashni o‘rganadi. Natijada, bolalarning tovushlarni aniqlash, farqlash va ularni tushunish qobiliyatlari rivojlanadi (so‘zlar va jumlalarda). Bu ko‘nikmalar fonologik bilishni, nutqni va oxirida o‘qishni rivojlantirish uchun juda ahamiyatlidir. Biroq bolalar ovozlar va tovushlarni eshitishlari va tinglashlari mumkin bo‘lsa-da, ular ham uzoq vaqt davomida ‘‘tinglash’’ ga diqqatini qaratishlari kerak.

3. Diqqat.

1970-yillarda psixolog Joan Reynell bolaning tug‘ilishidan taxminan besh yoshgacha bo‘lgan davrlarida bolalarning e’tiborini turli bosqichlarini quyidagicha ta’riflagan:

• diqqatning tarqoqligi, 0 - 1 yoshda: Chaqaloqlarning diqqatini faqat ozgina payt davomida ushlab turishi mumkin va ularning diqqati yangi tovushlar va narsalarga tez chalg‘iydi;

• diqqatni bir tomonga yo‘naltirish, 1 - 2 yoshli bolalar o‘zlarining diqqatini bir faoliyatga qaratishni boshlaydi va og‘zaki yoki vizual chalg‘ituvchi vositalarni yoqtirmaydi. Biz olib borayotgan bir tajribamizda ikki yoshli bola o‘zi qiziqqan mashg‘ulot bilan shug‘ullanayotgan paytda unga turli savollar berishimizga qaramasdan bola bizni umuman eshitmagandek ko‘rindi;

• ko‘proq moslashuvchanlik bilan diqqatni bir tomonga yo‘naltirish, 2 - 3 yoshli bolalar bir mashg‘ulotga diqqatini qaratishda davom etadilar va ular bilan gaplashganda ham e’tiborini o‘zgartirish qiyin. Biroq agar ularning ismi chaqirilganda yoki vizual chalg‘ituvchi vositalar berilganda, ular fikrini chalg‘ituvchi vositalarga va xalal beruvchilarga reaksiya ko‘rsatishni boshlaydi. Bu bosqichda bolalar bir vaqtning o‘zida ham vizual va og‘zaki vazifaga e’tibor berishi qiyin;

• diqqatini o‘z ixtiyoriga ko‘ra boshqarish, 3-4 yoshli bolalar diqqat – markazlarini o‘zlari boshqara boshlaydilar hamda gapiruvchi va faoliyat orasidagi yo‘nalishni o‘zgartira oladi. Buning ma’nosi bolalar yana gapirayotgan odamga ham qarashlari kerak;

• diqqatni ikki tomonga yo‘naltirish, 4-5 yoshli bolalar o‘zining diqqatini ham mashg‘ulotga, ham so‘zlovchiga faoliyatini to‘xtatmasdan e’tibor qaratishi mumkin. Ularning diqqat muddati hali ham qisqa bo‘lishiga qaramasdan bolalar endi jamoa orasida e’tiborini berishga tayyor. Bundan anglashiladiki, bolalar bir xil vaqtning o‘zida vizual va og‘zaki faoliyatga diqqatini qaratishi mumkin;

• to‘liq integratsiyalashgan diqqat, 5 yoshdan keyin bolalar endi vazifani bajarishlari, diqqatlarini turli guruhlarga qaratishlari, chalg‘itadigan narsalarga e’tibor bermasliklari va o‘z e’tiborlarini maqbul vaqt davomida saqlab qolishlari mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, barcha bolalar ushbu bosqichlarni qat’iy bajarmaydilar shu bilan birga, avval aytib o‘tilganidek, boshqa omillar bolalarning tinglash va ishtirok etish qobiliyatiga vaqtincha ta’sir qilishi mumkin.

Bolalarda tinglab tushunish qobiliyati 2 xil holda bo‘ladi. Bular faol tinglay olish (active listening) va sust holda tinglay olish (passive listening) shaklida tashkil etiladi.

Passive tinglovchi – shaxs nima deb aytganini faqat eshitadi, lekin mashg‘ulotni anglash yoki ma’lumotni tushuna olishga harakat qilmaydi. Bizga hamma vaqt biror-bir shaxs gapiradi, ammo ular aytayotganini yoki aytib bo‘lganini yodga ola bilmaymiz. Bu passive tinglay olishga misol bo‘la oladi.

Agar biror bir shaxs faol holda tinglasa, ularda bir vaqtda ko‘rsatmalarni tushunish yoki tassavur paydo bo‘lishi holatlari qo‘shilishidan, ma’lumot almashish va eshitish qobiliyati yaxshilanadi.

Active tinglash qobilyatini bolalarga o‘rgatishning 5 xil mashqlari mavjud.

1. Ko‘z bilan aloqa qilish mashqi.

Siz farzandingiz bilan ko‘z bilan aloqa qilish mashqinini ushlab turishingiz orqali ularga bu odatni rivojlantirishga yordam berasiz, shu sababli ko‘z bilan aloqa ularning fikrini bir yerga jamlashni yaxshilay oladi. Kimdir gapirayotgan vaqtda biz diqqatimizni bir qancha narsalarga – yorqin ranglar, qush va ovozlarga, hattoki voyaga yetganlar ham ba’zi vaqtlarda diqqatini boshqa joylarga qaratadi.

Bu mashq til o‘qituvchilari yoki ota-onalar uchun bolalarga chet tilini o‘rgatishning

qulay yo‘llaridan biridir. Masalan, bolalarga chet tilida kitob (book) yoki boshqa bir so‘zni aytganingizda, bu ular uchun g‘ayritabiiy bo‘lishi mumkin. Agar siz so‘zlarni ko‘z nigohlaringiz bilan ishora tarzda aytsangiz, bu bolalarda asta-sekinlik bilan aytilgan so‘zni tasavvur qilish, tinglash va u nima ekanligini his etish ko‘nikmalari rivojlantirib boradi. Bu bilan usul bolajonlarda ziyraklik, topqirlik, diqqatni bir yerga jamlash kabi ko‘nikmalari shakllanadi va bu mashqlar davomiy tarzda bajarilgan sari bolalarning tinglash ko‘nikmalari rivojlanadi.

2. Savollarga to‘xtalib o‘tishga qiziqtirish.

Ma’lumotni saqlash va diqqat bilan tinglashning boshqa yo‘li bu mazmun haqida savollar so‘rashdir. Farzandingiz bilan bu ko‘nikmani mashq qilishingiz uchun ular bilan ertak o‘qish va oxirida savollar so‘rash, agar ular qiziqishini yo‘qotsa, savollar so‘rash yo‘li bilan qiziqtirishga harakat qiling.

Keltirilgan ikkinchi usul nafaqat tinglash ko‘nikmalarini, hattoki chet tilida kichik so‘zlarni qayta ayta olish orqali nutq qobiliyati ham rivojlanadi. Ertak aytilayotgan paytda yoki ertakning oxirida va hattoki chet tilida yaratilgan multfilmlarni bolajonlar tomosha qilib bo‘lgandan so‘ng ertakdagi va multfilmlardagi qahramonlarni va ulardagi sehrli buyumlar haqida tarbiyachilar yoki ota-onalari turli qiziqarli savollarni beradi va bu bilan bolajonlarning ertakni yoki multfilmlarni qunt bilan tinglashiga hamda yangi so‘zlar yod olishiga turtki bo‘ladi. Bu yo‘l bilan har bir tarbiyalanuvchilarni jamoada faol ishtirok etishiga jalb qilish kerak va bu orqali o‘zlashtirilishi past bo‘lgan bolajonlarda ham faol ishtirok etish ko‘nikmalari sekinlik bilan rivojlanadi va o‘zida ishonch shakllanadi hamda ularda noyob qobilyatlarini ochib beradi.

3. Tinglash o‘yinlarini yo‘lga qo‘yish.

“Kim o‘yinni yoqtirmaydi?”, “Bu qanday ovoz?” o‘yinini o‘ynashga harakat qilib ko‘ring. Bu mashq kichkintoylar o‘rtasida mashhur va tashkil etish oson. Ularning ko‘zlarini yopib qo‘ying va ovoz chiqaring. Bu hayvon, mashina signali, choynakning hushtak chalishi yoki aqlga kelgan har qanday narsaning ovozi bo‘lishi mumkin. Bu mashq orqali bolalar diqqat bilan tinglashsin va nimani eshitganini tasvirlasin. Keyingi tovushni kutayotganda hayajonli yuzlarini ko‘rish sizga yoqadi.

Tinglash o‘yinlarini yana har kundalik ishlarga ham qo‘shishingiz mumkin, masalan, kichkintoyingizdan kechki ovqat tayyorlash paytida ko‘rsatmaga rioya qilishiga yordam berishini so‘rashingiz mumkin.

Tinglash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi bu qiziqarli tavsiyalar bolajonlar uchun judayam maroqli va samarali. Biz bilamizki, bolalarning sevimli mashg‘uloti o‘yindir. Bolajonlar yaxshi ko‘radigan va o‘yinning qonun-qoidalarini yaxshi biladigan o‘yinlarni chet tilida tashkil qilish ham bu ko‘nikmani rivojlanishida yordamchi bo‘ladi va bu o‘yinni qayta-qayta o‘ynashdan zerikishmaydi. Yuqorida keltirilgan ko‘zlari yopiq holda eshitgan turli hayvonlarning ovozi yoki boshqa narsalarning ovozini tinglab, ularni qanday ovoz ekanini aytish shu bilan birga eshitgan so‘zlarini rasmlar orqali ifodalashga harakat qilishlari ularga berilgan topshiriqlarni bajarishlari uchun o‘zlarida mas’ulyat hissini va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllantiradi. Tinglash ko‘nikmalarini tasviriy faoliyat bilan birga uyg‘un holda olib borish nafaqat ko‘nikma rivojlanishiga, shuningdek, eshitgan so‘zini chizish uchun foydalanadigan ranglari orqali bolalarning ichki kechinmalarini va hattoki ularning ruhiyatini chizish uchun foydalangan ranglardan ham bilish mumkin.

4. Chegaralaydigan to‘siqlar ustida ishlash.

Bolalarga so‘zlash navbatini kutish muhimligini tushuntiring, chunki ularning birinchi instinkti fikr bildirish va savol berish bo‘lib, bir-birlarini kutmasdan savollar berishadi.

Ularga gapirayotgan odamga halal berish, odamni qanday his qilishini va ularga mashg‘ulotda qo‘lini ko‘tarishini yoki ularning fikri tugagunicha kutishi kabi muqobil usullarini ayting.

Biz bilamizki, mashg‘ulot davomida bolalar har narsa qiziqishadi va turli savollar berishadi, bu ham tarbiyachilari, ham tengdoshlari gapirayotganda yuz beradi. Bu, ayniqsa, tengdoshi gapirganda yuz bersa, unga hurmatsizlik bo‘lishini, aytayotgan fikrlarini yo‘qotib qo‘yishlari va shu sababdan tengdoshlari orasida hijolat tortishi mumkinligini bolajonlarga to‘g‘ri tushuntirishga harakar qiling. O‘z fikrini hurmat bilan qo‘llarini ko‘tarishi yoki tengdoshi fikrni tugalagandan so‘ng bildirishiga odatlantirib borish kerak. Aks holda, bolada o‘ziga bo‘lgan ishonch, o‘z fikrni bildira olish qobilyati asta-sekinlik bilan pasayib boradi. Bu ko‘nikmani to‘g‘ri shakllantirish ularda kelajakda oilada ham, jamiyatda ham o‘zgalar fikrini hurmat qilish odatini shakllantiradi va kelajakda qobilyatli, yetuk va barkamol shaxs bo‘lib yetishadilar.

5. Beg‘ubor holda muloqot qiling.

Bolalarda faol tinglash ko‘nikmasini rivojlantirishingiz uchun ular bilan birga ishlang, bunda sizga o‘rgata olishingiz uchun yordam beradigan tavsiyalardan biri bola gapirayotgan paytda maroq bilan faol tinglay olishingiz. Ular sizning bilinar-bilinmas tabassumingizni va bosh qimirlatishingizni ko‘radi hamda bolalar kattalarga taqlid qilishni yaxshi ko‘rganlari bois faol tinglovchi obrazini o‘zlarida shakllantiradi.

Bu usul nafaqat tarbiyachilar bilan, ayni paytda ota-onalarning farzandlari bilan ko‘proq mashq qilishlariga, ularning qiziqishini o‘rganishga, muhimi farzandlarning ota-onalari bilan do‘stona munosabat o‘rnatishiga turtki bo‘la oladi. Tarbiyachilar ham mashg‘ulot davomida har bir bolaning fikriga quloq tutishi va turli rag‘batlantiruvchi mimikalar bilan tinglashi bolani yanada ravon nutqqa ega bo‘lishiga, shuningdek, o‘z fikrlarini dadillik bilan bayon etishiga katta ta’siri bor.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolalarning rivojlanishi turli davrlarni o‘z ichiga olgani kabi tinglab tushinish ko‘nikmasi ham bolaning rivojlanish davrlarida turlicha va o‘ziga xosdir. Yuqorida keltirilgan har bir davr mobaynida bolalarning yosh xususiyatiga qarab tinglash ko‘nikmasi asta-sekinlik bilan shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois biz ularni til o‘rganishga majburlamasdan yosh xususiyatidan kelib chiqib mashg‘ulotlar tashkil etish, turli didaktik, syujetli o‘yinlarni yaratishimiz va ularning sevimli mashg‘uloti bo‘lgan tasviriy faoliyat kabi mashg‘ulotlar bilan uyg‘un holda olib borishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5426736.

2. Krilova K.A. “Chet tili darslarida tinglashni o‘rgatish texnikasi. Ingliz tili darslarida tinglashni o‘rgatish metodikasi Ingliz tili darslarida tinglashni o‘rgatish bosqichlari”. // Английский язык. Все для учителя! № 6 (42) июнь 2015.

3. Eleanor Johnson. “Active listening skills- How to support children with poor listening skills” 1997.

4. Early Childhood Development journal. “5 Ways to teach your child active listening skill – The Gardner school” October 7, 2020.

5. Jamol Jalolov. Chet tili o‘qitish metodikasi, – T.: “O‘qituvchi”, 1996.

Lola NAMAZBAYEVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

TALABALARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH SOHASIDAGI XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash sohasidagi xorijiy tajribalar tahlili yoritilgan va ularga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar. Talaba, oqituvchi-tadqiqotchi, tadqiqotchilik faoliyati, professional harakatchanlik, standart pozitsion sxema, tanqidiy fikrlash, kasbiy yo'nalish fenomeni, kompyuter savodxonlik.

В данной статье освещен анализ зарубежного опыта в сфере подготовки студентов к исследовательской деятельности и дается анализ к ним.

Ключевые слова. Студент, ведущий-исследователь, исследовательская деятельность, профессиональная мобильность, стандартная позиционная схема, критическое мышление, феномен профессиональной ориентации, компьютерная грамотность.

This article highlights the analysis of foreign experience in the field of preparing students for research activities and provides an analysis ti them.

Key words. Student, research leader, research activity, professional mobility, standard positional scheme, critical thinking, the phenomenon of professional orientation, computer literacy.

YUNESKO komissiyasi "O'qimoq mavjud bo'lmoq "zamonaviy ta'lim strategiyasini belgilab berdi. 21-asr sivilizatsiya yo'lida borayotgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyot o'zining eng yuqori intellektual qobiliyatlarini ya'ni tahlil, sintez, aql va ijodning moslashuvchanligini baholay oladigan kuchli qobiliyat egalariga ish va kuch va'da qilinadi.

So'nggi vaqtlarda pedagogika yo'nalishi oliy ta'lim muassasasining o'quv jarayonini, talabalarning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorligi, shaxsning individual va yaxlit holatdagi rivojlanishi bilan birgalikda shakllantirish vositasi sifatida ko'rib chiqdi. Talabalarning ilmiy faoliyati xorijiy, hamda MDH davlatlarida uzluksiz kasbiy va pedagogik ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarning ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etildi.

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, Yevropa pedagogika institutlarida talabalarni ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlariga kengroq jalb etish orqali ilmiy va o'quv mashg'ulotlarining birligini ta'minlash jarayoni tobora faollashib bormoqda. Bo'lajak tarbiyachilarning tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirilganligi muammosi ularning shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi belgilashi va kasbiy madaniyatining eng muhim sharti hisoblanadi. Misol uchun, Fransiya, Vengriya, Germaniyada nafaqat davlat va milliy ta'lim standartlari talabalarni ilmiy tadqiqotlarga majburiy jalb qilishni ko'rsatadi, balki universitetning ayrim bo'limlari ham qabul qilish talablaridan biri sifatida tugallangan va himoyalangan ilmiy loyihaning mavjudligini belgilaydi. Budapesht pedagogika universitetida bo'lajak o'qituvchining ta'lim darajasiga qo'yiladigan talablar, jumladan, "ilmiy bilimlarning

mohiyatini tushunish” va “ilmiy tadqiqot olib borish uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish”ni o‘z ichiga oladi.

Bilimlar asri deb belgilangan yangi asrda xorijiy pedagogika oliy o‘quv bilim yurtida ta’limning maqsad va mazmuni qayta ko‘rib chiqilmoqda. Bu yerda gap birinchi navbatda talaba shaxsining ijodiy salohiyatini, nafaqat universitetning o‘qish davrida, balki butun hayoti davomida o‘zini-o‘zi anglash, o‘zini namoyon qilish ehtiyojini shakllantirish haqida bormoqda. Ta’lim jarayonini o‘qitishdan rivojlanishga yo‘naltirish amalga oshirilmoqda, natijada quyidagi mezonlarga javob beradigan mutaxassis modeli paydo bo‘ladi: professional harakatchanlik, axborot-texnologiya dunyosiga tez moslashish, yuqori darajadagi intellekt, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, mustaqillik va h.k.

Oddiy ta’lim sharoitida “o‘qituvchi” – “talaba”, ya’ni “bilimlarni uzatish” – “bilimlarni o‘zlashtirish” standart pozitsion sxemasi amalga oshiriladi. Tadqiqotchilik faoliyatining rivojlanishi bilan bu pozitsiyalar bor haqiqatlarga duch keladi: bilimlarning tayyor standartlari yo‘q, ular tayyor sxemalarga mos kelmaydi, lekin har bir konkret holatda alohida mustaqil tahlilni talab qiladi. Bu ta’lim faoliyatining obyekt-subyektiv paradigmasidan atrofdagi voqelikni birgalikda tushunish holatiga evolyutsiyaning boshlanishini, uning ifodasi esa “hamkasb-hamkasba” juftligidir. Ko‘rib chiqilayotgan pozitsion evolyutsiyaning asosiy natijasi tadqiqotchilik faoliyati a’zolarining tolerantlik chegaralarining kengayishidir

Hozirgi vaqtda Yevropa pedagogik ta’lim muassasalari talabalarning ilmiy ijodiyotning turli shakllarida ishtirok etish faolligi oshib bormoqda. Yevropa Ittifoqi davlatlarining yetakchi universitetlarida yirik ilmiy markazlar, muammoli laboratoriyalar, tashkil etilgan tadqiqot guruhlari mavjud. Germaniya, Niderlandiya, Avstriya, Vengriya universitetlarining o‘quv dasturlari talabalar tomonidan butun o‘quv yili davri uchun ma’lum miqdordagi tadqiqotchilik ishlarini bajarishni nazarda tutadi. Tadqiqot faqat kurs ishi va dissertatsiyalar yozish bilan cheklanib qolmay, balki ushbu universitetlarning ilmiy guruhlari, ilmiy bo‘limlarining ish rejalariga kiritilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu jarayonlar jamiyatga pedagogik faoliyatda ilmiy izlanishlarga tayyor bo‘lgan, ilmiy mustaqil, tashkilotlardagi ta’lim-tarbiya jarayonini tizimli tahlil qila olgan, pedagogik hodisalarni aniqlay olgan va oldindan ko‘ra olgan, ijodkor, samarali fikrlaydigan, axborotni operativ qayta ishlay oladigan, o‘quv-uslubiy va ilmiy-pedagogik faoliyatni o‘z ichiga oluvchi yuqori muloqat va tadqiqot madaniyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchiga muhtojligi bilan izohlanadi.

Insoniyat mavjud bo‘lgan davrda tarixchilar, siyosatchilar, faylasuflar va o‘qituvchilar “chuqur va tez fikrlash” tafakkur san’ati va ilmi haqida qayg‘urganlar. 21-asrda mantiqiy fikrlash jarayoniga kirib borishni har xil tomondan ko‘rib chiqish mumkin: o‘qimishli shaxsning asosiy bazasi, demokratik jamiyatda mas’uliyatli fuqaroga qo‘yiladigan talab va hozirgi vaqtda kengayayotgan mehnat bozorida talabchan bo‘lish qobiliyati sifatida.

Oxirgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy qobiliyat va ko‘nikmalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rgatish talabalarni yaxshi fikrlashga olib keladi. Ta’kidlanishicha, o‘qituvchi talabaning tadqiqot jarayonida birinchi navbatda muayyan masala bo‘yicha tanqidiy fikrlash qobiliyatini qanchalik mohirona namoyon etganligini baholaydi (R.Ristou, S.Norris). O‘quv jarayonida fikrlash madaniyatining rivojlantirishi, quyidagi boshqalar ko‘rmaydigan joyda ko‘rish qobiliyati, turli xil turdagi vazifalarga moyillik (mavzu bo‘yicha xilma-xil yo‘nalishli, ijodiy vazifalar), g‘oyalarni yaratish qulayligi (fikrlash mahsuldorligi), natijani oldindan ko‘ra olish, yangini kashf etish (eskidan voz kechmagan holda), fikrlashning o‘ziga xosligi va moslashuvchanligini o‘z ichiga oladi. Tafakkur madaniyatini rivojlan-

tirish shu tariqa uning ijodkorligini maqsadli, talabalarga aqliy harakatlar texnikasi va texnologiyasini, samarali bilish izlanish jarayonlarini o‘rgatishni nazarda tutadi.

Yevropa pedagogika ta’lim muassasalarida talabalarni tadqiqot ishlariga tayyorlash maxsus ishlab chiqilgan dasturlar bo‘yicha amalga oshiriladi. London, Praga, Avinyon, Vayzgrad pedagogika universitetida shu kabi dasturlarni tahlil qilishni va o‘quv jarayoni davomida talabalarning ilmiy faoliyatini tashkil etish mazmunining umumiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Dasturlarda talabalar tomonidan o‘rganilayotgan o‘quv fanlari ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlarni boyitish zarurligi qayd etilgan. Tadqiqot topshirig‘i talabaning akademik qobiliyatini tekshirishning samarali usuli hisoblanib, ma’lum bir ilmiy mavzuga “kirish” imkonini beradi, bu yerda u erkin munozarali, aytishi mumkin bo‘lgan fikr doirasida o‘z farazlarini “sinovdan o‘tkazadi”. Shunday qilib, talabaning tadqiqoti o‘quv jarayoni mobaynida quyidagilarni nazarda tutadi:

– ilmiy ish usullari bilan tanishish, o‘quv va ilmiy tadqiqotning metodologik muammolari;

– fanlar doirasida qabul qilingan tushuncha va nazariyalar bilan tanishish;

– mavzu doirasidagi ma’lumotlarning konvensiyalari va tuzilishini tushunish;

– tadqiqot uchun zarur materiallarni topish va joylashtirish usullarini o‘rganish;

– manbani tanqidiy o‘qish, so‘ng tahlil va baholash;

– tadqiqotning asosiy qoidalarini shakllantirish maqsadida asosiy manbani tuzish;

– tadqiqot masalasi bo‘yicha tushuncha va nazariyalarni tahlil qilish, sharhlash va muammo bo‘yicha o‘z tushunchasini taqdim etish (og‘zaki yoki yozma);

Shu o‘rinda biz yevropalik olimlarning “tadqiqot”, “ilmiy tadqiqot”, “tadqiqotchilik faoliyati” tushunchalarini talqin qilish zaruriyati paydo bo‘ldi. Xorijda asosiy tushunchalarni aniqlash bo‘yicha olimlar o‘rtasida kelishuv mavjud emas. Tor ma’noda xorijiy adabiyotlarda ilmiy tadqiqot yangi bilimlarni yuzaga keltiradigan original kashfiyot sifatida tushuniladi (R.Berges, J. Gordon, G. Jeney, G. Kole). “Tadqiqot” atamasi mavjud bilimlarni yangi nuqtai nazardan ochishni ham o‘z ichiga oladi (R.Geyger). Masalan, F.Kerlinger quyidagi ta’rifni taklif qiladi: “Ilmiy tadqiqot – maqbul tabiat hodisalari haqidagi farazlarni tizimli, boshqariladigan, empirik va tanqidiy o‘rganishdir”.

Devid Vudxausning fikriga ko‘ra, tadqiqotchilik faoliyati, intellektual boshqariladigan ilmiy tadqiqot bo‘lib, yangi ma’lumotlarni ochish va tizimlashtirish yoki mavjud ma’lumotlar asosida amaliyotni rivojlantirish, ommaga xabardor qilish orqali yangi bilimlarni egallash demakdir.

Tadqiqotchi yakuniy javobi bo‘lmagan savolni beradi, haqiqiy tadqiqot (shu jumladan, asl tadqiqotlar) ochiqligicha qolaveradi, (B. Takman).

Bir qator Yevropa Ittifoqi mamlakatlari – Angliya, Germaniya, Fransiya, Vengriya o‘quv dasturlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, majburiy umumnazariy va umumta’lim fanlari hajmi dasturlarning umumiy hajmining 50-60 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, talabalarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan fakultativ fanlar va ko‘proq qiziqish uyg‘otgan fanlarni tanlash sonini ko‘paytirish xarakterlidir, bu esa o‘z navbatida ularning mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini va turli sohalarga ixtisoslashuvini ta’minlaydi.

Yevropada o‘qituvchilar ta’limi uchun ishlab chiqilgan joriy loyihalarning ko‘pchiligida kasbiy tayyorgarlikning asosiy nuqtalaridan biri faol ta’lim(o‘rganish) bo‘lib, talabani doimo o‘quv jarayonining bir qismiga aylantiradigan o‘quv uslublarining keng doirasini ifodalaydi. Faol ta’lim talaba bilimlarini hayotda qo‘llashning real imkoniyatlarini ko‘rishini, masalan, uning fikricha, ma’ruzada aniq ochib berilmagan ma’lumotlar haqida savollar

berishi mumkinligini nazarda tutadi.

So‘rovga asoslangan ta’lim (Inquiry-based Learning), hamkorlikdagi ta’lim (Collaborative Learning) va konstruktivizm (ijodiy) (Constructivism) ta’limning eng keng tarqalgan faol shakllari bo‘lib, unda talaba bilimlarni ochish (qayta kashf qilish) uchun tadqiqotchilik (izlanish) jarayonidan o‘tadi.

Shvetsiya ta’lim hujjatida ta’kidlanishicha, axborot savodxonligi “yangi bilim va donolikka olib keladigan ma’lumotlarni olish, tanqidiy baholash, tanlash, foydalanish, yaratish va yetkazish qobiliyatidir” deb ko‘rsatilgan.

Rossiyalik o‘qituvchilar uchun Yevropa kutubxonalari assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan bilim oluvchilar va talabalar uchun axborot savodxonligi standartlarini maqsadli o‘rganib chiqish tavsiya etiladi. Bu yangi axborot asrida malakali mutaxassis ega bo‘lishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasiga qo‘yiladigan talablarni shakllantirishga yordam beradi.

Xorijda o‘qituvchilar, ma’lumot qidirish va vaziyatni hal qilishda foydalanish uchun ma’lum algoritmlarga rioya qilsalar, talabalar har qanday tartibdagi tadqiqotni ancha yaxshi bajaradilar degan xulosaga kelishdi. Masalan, Budapesht pedagogika universitetida amerikalik olim M. Ayzenberg tomonidan ishlab chiqilgan “Olti mashhur ko‘nikma” (The Big Six) ish tartibiga moslashtirilgan. Bu asosiy ko‘nikmalar, olimning fikricha, muvaffaqiyatli tadqiqotchi bo‘lish uchun o‘ta muhim va zarurdir. Har bir ko‘nikma fan yoki o‘quv intizomi bo‘yicha ma’lum bir mavzu bo‘yicha tadqiqotchilikning bir necha bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

1. Muammoning bayoni:
– muammoni aniqlash;
– muammo bo‘yicha ma’lumotlarga qo‘yiladigan talablar.
2. Axborot qidirish:
– barcha kerakli bo‘lgan manbalar kengligidan aniqlash va foydalanish;
– ustuvorliklarni aniqlash uchun turli manbalarni baholash.
3. Topish va unga kirish:
– izlash manbalarini topish;
– manbalar ichidagi kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni topish.
4. Iste’mol:
– manbadan ma’lumotni qabul qilish (o‘qish, tinglash, ko‘rish).
– manbadan ma’lumotni ajratish.
5. Tahlil qilish (sintez):
– turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tartibga solish;
– ma’lumotni mos formatda taqdim etish.
6. Baholash:
– axborot mahsulotini baholash
– muammolarni bartaraf etish.

Xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida axborot tadqiqoti algoritmi tuzildi. U har qanday ilmiy izlanish jarayonida qo‘llanilishi mumkin va umumiy intellektual mehnat madaniyatini rivojlantiradi, axborot resurslariga (shu jumladan ta’lim, pedagogika fanlari, fan sohasiga) yo‘naltiradi, ma’lumot qidirish algoritmlarini o‘zlashtiradi. O‘zlashtirish uchun esa axborotni analitik va sintetik qayta ishlash usullari zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni to‘playdi.

Axborot tadqiqoti algoritmi

Tadqiqot va izlanish bosqichlari	Umumiy fikr/ konsepsiya	Uyushma	Хабар	Qo‘llash
Tadqiqotga tayyorgarlik	Axborot ehtiyojlarini aniqlash	Axborotni tashkil qilishning turli usullarini tanlash	Turli xil faoliyat turlaridan foydalangan holda ma’lumotlarni o‘rganish (yakka, guruh holatida).	Mavjud bilimlarning axborot vazifalari bilan bog‘liqligi
Manbalarga kirish	Ehtiyojlaringizga mos keladigan ma’lumotni tanlash	Ichki matn xususiyatlarini hisobga olgan holda manbalardan ma’lumotlarni tanlash	Fikr almashish va izlanish maqsadida vakolatli shaxslar bilan hamkorlik	Turli manbalardan olingan tegishli ma’lumotlarni muhimlik tartibida joylashtirish
Ma‘lumotlarni qayta ishlash	Turli strategiyalar orqali axborotni tahlil qilish va baholash	Ma‘lumotni tegishli tartibda va formatda tartiblang	Fikrlarni tekshirib ko‘rish va ularni muammoni hal qilish strategiyalari bilan bog‘lash	Olingan ma’lumotlarni sintez qilish va xulosalarni shakllantirish
Yangi bilimlarni uzatish	Tadqiqot mahsulotini qayta tahlil qilish va baholash	Tadqiqot mahsulotining maqsadga, auditoriyaga va formatga muvofiqligini tekshirish	Tadqiqot natijalarini turli xil formatlarda taqdim etish	Muammoni hal qilish uchun axborot ko‘nikmalari va bilimlarini uzatish

Fransiyaning Praga, Avinyon, Lion universitetlarining pedagogik kafedralari talabalarning axborot malakasini baholash mezonlarini quyidagi: yuqori, o‘rta, past darajada ishlab chiqqan. Ushbu mezonlar talabalarga ilmiy maqola yozishni o‘rgatish jarayonida samarali qo‘llanilishi mumkin, chunki turli manbalardan ma’lumot olish, uni tushunarli shaklda taqdim etish, ko‘nikmalarga ega bo‘lish va undan samarali foydalanish ushbu faoliyatning asosiylaridir.

Angliyaning pedagogik kollej va universitetlarida ilmiy adabiyotlarni tanqidiy o‘qish malakalarni o‘rgatishning maxsus dasturi hamma joriy etilgan.

Oliygohni tugatgandan so‘ng, talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:

• boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va mustaqil ma’lumot tushunchalarini tushuntirish;

• tengdoshlarni tekshirish uchun oqilona jarayonni loyihalash (peer-review);

• qisqa tadqiqot ishiga xulosa (rezyume) yozish;

• tadqiqotchilarning eksperimental usulining odatiy talablaridan chetga chiqishlari natijasida oqlanishi mumkin bo‘lgan ba’zi vaziyatlarni tasvirlab berish;

• ilmiy bilimlarning ishonchliligi aniqlanadigan ayrim mezonlarni baholash.

Oksford va Kembrij kollejlari quyidagi harakatlar ketma-ketligini taklif qiladi:

1. Talabalar o‘zlariga ajratilgan va belgilangan vaqt ichida ilmiy matnni (o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha) o‘qiydilar.

2. Talabalar matnning 200 so‘zdan iborat qisqacha mazmunini yozadilar.

3. Kalit so‘zlarga asoslanib, alohida olingan matnning asl nusxasi bilan solishtiradilar.

4. Hujjat tavsifini o‘qishadi va mazmunini anglaydilar, so‘ngra o‘rtoqlik tekshiruv taqrizida qatnashadi.

5. “Ilmiy hujjatlarga kirish”dagi va “asosiy tushunchalar” qismi tavsiflarini o‘qiydi:

1) tekshirish; 2) ijro; 3) mustaqil ma’lumot;

Ilg‘or talabalar uchun esa qo‘shimcha topshiriqlar bajariladi:

1) ma’lumotlarning mustaqilligi; 2) asosli statistik tahlil; 3) asosiy ma’lumotlar; 4) mualliflikni o‘rnatish;

6. Blankalarni ko‘rsatilgan muallif tamonidan to‘ldiriladi va hujjatni qabul qilish yoki rad etish sabablari ko‘rsatiladi va tushuntiriladi.

7. Talablar (yuqorida aytib o‘tilgan) buzilishi mumkin bo‘lgan holatning yakuniy muhokamasi bu talabaning psixologik holatidir.

Har bir bosqich uchun ketgan vaqt ko‘p jihatdan o‘qituvchining qaroriga bog‘liq, ammo o‘rtacha quyidagi taqsimot qabul qilinadi:

1 va 2 harakat bosqichlarini talabalarning o‘zlari ma’ruza yoki seminar mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin bajarishlari kerak deb taxmin qilinadi. Talabalar bu topshiriqlarga taxminan 1 soat vaqt ajratishlari kerak. Tanlangan matnning mavzusi o‘rganayotgan talabalar uchun sodda va yengil ko‘rinishda bo‘lishi kerak. Agar o‘qituvchi bu ma’lumotni ijobiy baholamasa, u holda, albatta, topshiriq uchun boshqa yana bir kreativ holda yondashib yozish yoki tanlash kerak.

3-bosqichni umumauditoriya mashg‘uloti sifatida bajarish mumkin, bunda o‘qituvchi bir necha kishidan o‘z konspektlarini ovoz chiqarib o‘qishini so‘rashi va eng muhim fikrlarni (yoki kalit so‘zlarni) ajratib, doskada yozib, ro‘yxat tuzishi kerak. Keyin olingan hujjat bilan solishtirish mumkin.

4-bosqichni 3-6 kishidan iborat guruhlarda, guruh mashqlari sifatida bajarish yaxshidir. Maqsad – nashr etilgan ma’lumotlar sifatini qanday nazorat qilish bo‘yicha muhokamani amalga oshirmoq. Guruhlar adolatli baholash jarayoni uchun asosiy talablarni sanab o‘tishlari kerak. O‘qituvchilar talabalar tomonidan tuzilgan ro‘yxatlarni o‘rnatilgan amaliyotlar bilan solishtirishlari mumkin (masalan, talabalar maqolalar odatda anonim tarzda ko‘rib chiqilmasligi, odatda faqat ikkita sharhlovchi borligi, sharhlovchilar o‘qitilmagani yoki ushbu faoliyat uchun haq to‘lanmaganligi va hokazolarni bilib hayron bo‘lishi mumkin. 3 va 4-bosqichlar birgalikda 40 daqiqalik mashg‘ulotning asosini tashkil qilishi mumkin.

5 va 6 bosqichlar yakka tartibda yoki guruhlarda bajarilishi mumkin, 5-bosqich 20-40 daqiqa yoki undan ko‘proq vaqtni oladi, agar ko‘proq ma’lumot kiritilgan bo‘lsa. 3 va 4 bosqichlarni o‘z ichiga olgan holda mashg‘ulotning bir qismi sifatida amalga oshirilishi mumkin. 6-bosqichga qo‘shimcha 30 daqiqa kerak bo‘ladi.

Ta’riflangan chizma ilmiy adabiyotlarni o‘qish jarayonida tekshirish, ma’lumotlarni uzatish va ma’lumotlarning mustaqilligi kabi fikrlarni muhokama qilishni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar talabalarning tayyorgarlik darajasiga qarab boshqa muhim ma’lumotlar(qismlar)ni qo‘shimcha ravishda kiritishlari mumkin. Masalan, Yevropada kitob yoki maqolani tahliliy (tanqidiy) sharhlash bo‘yicha umumiy rahbarlik qilish keng qo‘llaniladi. Unda ta’kidlanganidek, adabiyotlar tahlili ayni paytda olimlarning ushbu masala bo‘yicha pozitsiyalarini belgilab beruvchi bir qancha shunday mulohazalarni

jamlagan, keyin talabadan bu masala bo‘yicha o‘z pozitsiyasini aniqlash so‘raladi. Fransiyaning Avinon va Lion universitetlari pedagogika bo‘limlari dasturlarida yosh tadqiqotchi analitik sharhni o‘qish, ko‘rib chiqish va yozish jarayonini samarali tashkil etishi uchun doimo esda turishi kerak bo‘lgan aniq lavhalarni o‘z ichiga oladi:

Tadqiqot Yevropa mamlakatlaridagi pedagogik ta’lim muassasalari talabalarining tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslanishini aniqlashga imkon berdi:

– insoniylik (talaba shaxsini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga yo‘naltirish);

– ta’lim va tadqiqotchilik faoliyatining birligi (amaliy muammolarni hal qilish uchun o‘quv jarayonini ilmiy tadqiqotlar bilan birlashtirish);

– variativlik (pedagogik muassasalarning o‘quv rejalarida talabalar ijodiy faoliyatining keng ko‘lamli shakllarini hisobga olgan holda – malaka ishidan to diplom ishigacha, muammoli laboratoriyalar va ilmiy jamoalarda ilmiy tadqiqotlargacha);

– ilmiylilik (ilmiy tafakkur va ilmiy mustaqillikni shakllantirish va faoliyatni rag‘batlantirish);

– muammolilik (muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, pedagogik faoliyatdagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilish qobiliyati);

– fanlararo (turli ilmiy sohalar va tadqiqotchilik faoliyatining turli shakllaridagi muammolarni hal qilish);

– baynalminallik (talabalarning xalqaro loyihalarda ishtirok etishi, xalqaro bosma nashrlarda tadqiqot manbalarini nashr etish, xalqaro ilmiy anjuman va yig‘ilishlarda ishtirok etish);

– individuallik va differensiallik (talabalarning individual rivojlanish darajasini, tor shaxsiy motivlarni rivojlantirishni hisobga olgan holda tadqiqot o‘tkazish uchun individual maqsadlarni ishlab chiqish);

– mustaqillik (mustaqil tadqiqot ishlarining faol turlari doirasini kengaytirish, talabalarning uzluksiz o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish);

– professionallik (kelajakdagi ilmiy-pedagogik faoliyat shartlariga yaqin bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Данильчук Е.В. Методологические предпосылки и сущностные характеристики информационной культуры педагога / Е.В. Данильчук // Педагогика.– 2003. – №1. – С. 65-74

2. Дудина Л.И. Управление научно-методической работой как фактор повышения профессиональной компетентности педагогов образовательного учреждения инновационного типа (гимназия): автореф. дис. ... канд. пед. наук/ Дудина Л.И. – Челябинск, 1996. – С. 26.

3. Калашникова Т.В. Научно-исследовательская работа как условие совершенствования образовательного процесса: на материале педагогического колледжа: дис. ...канд. пед. наук/ Калашникова Т.В -Якутск, 2002. - 162 с.], [Свободные в единстве // Поиск.– 2000. 8 декабря. – № 49 (603).

4. Лисенко М.Р. Реформирование системы высшего образования во Франции в 80-90е гг. XX в.: дис. ...канд. пед. наук/ Лисенко М.Р. – М., 2002. – С 236.

Dilorom SHARAXBAROVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti 2-kurs magistranti

ATROF-MUHIT VA INSON SALOMATLIGI: CHIQINDILARNING SALBIY TA’SIRLARI

Annotatsiya

Maqolada chiqindilarni atrof-muhitga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri va inson salomatligiga yetkazayotgan jiddiy muammolari o‘rganilgan. Shuningdek, qurilish materiallari, inshootlar barpo etishdagi maishiy chiqindilarni ekologiyaga zarar keltirishi va muammoni bartaraf etishdagi tahlillar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ekologiya, chiqindilar, industrial, kommunal xizmatlar, qurilish materiallari, nurlanish.

В статье исследуется негативное воздействие, которое отходы оказывают на окружающую среду, и серьезные проблемы, которые они создают для здоровья человека. Также освещается анализ строительных материалов, бытовых отходов при возведении сооружений, наносящих вред экологии и устраняющих проблему.

Ключевые слова. Экология, отходы, промышленность, коммунальные услуги, строительные материалы, радиация.

The article examines the negative impact that waste has on the environment, and the serious problems that they create for human health. It also highlights the analysis of building materials, household waste during the construction of structures that harm the environment and eliminate the problem.

Key words. Ecology, waste, industry, utilities, building materials, radiation.

Bugungi kunga kelib shaharlarda aholi sonining keskin oshishi, ularning kengayib borishi maishiy chiqindilarning ham keskin sur’atlarda oshib borishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqolada maishiy chiqindi manbaalari va turlari, ularni utilizatsiya qilish usullari, chiqindilarning atrof-muhit hamda inson salomatligi uchun qay darajada xavf tug‘dirishi xususida so‘z boradi.

Ayni vaqtda ekologiya muammosi butun jahonni tashvishga solayotgani ayni haqiqatdir. Maishiy chiqindilarning kun emas, soat sayin ortib borishi, ularni kerakli va to‘g‘ri shaklda utilizatsiya qilinmasligi barcha turdagi ifloslanishlarga (havo, tuproq, suv) sabab bo‘lmoqda. Insonlarning chiqindilarga bee’tibor munosabati natijasida yerusti hamda yerosti manbaalari zararlanmoqda. Shaharlarda chiqindilar bilan ishlash tizimi to‘g‘ri ishlamayotgani sabab drenaj tizimlari samarasiz ishlamoqda. Buning natijasida esa yomg‘irli mavsumlarda suv toshqinlari yuzaga kelib, hasharotlarning ham ko‘payishiga zamin yaratmoqda. Issiqxona effekti natijasida hosil bo‘lgan chiqindilar aholi foydalanadigan suv havzalari zaralanishiga olib kelmoqda.

So‘nggi yillarda JSST (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti) ekalogiyaning buzilishi hamda chiqindilar sabab yuzaga kelayotgan 22 ta yangi kasalliklarni aniqladilar. Rivojlangan ulkan megapolislarda chiqindilarni yo‘qotish bilan shug‘ullanuvchi ishchi guruhlar

ko‘pchilik hollarda mehnat xavfsizlik qoidalariga rioya etmaydilar va zararli chiqindilar bilan bevosita ish olib boradilar. Bu esa inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Bunda ayniqsa, chiqindilarni utilizatsiya qilish jarayonidagi hosil bo‘lgan gazlar hamda ularni ochiq havoda yondirilishi aholi sog‘lig‘i uchun zararlidir. Insonlar ham bu kabi zararlanishning o‘zlari uchun qanchalar ziyon ekanligini anglaganliklari holda so‘nggi yillarda atrof-muhit ekalogiyasini asrash uchun qaratilgan ishlarni qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan harakatlar ortib bormoqda. Chiqindilar quyidagicha tasniflanadi:

Qattiq jism shaklidagi maishiy chiqindilar quyidagilar kiradi:

Manbaalari bo‘yicha – hosil bo‘luchi chiqindi turlari hamda ishlab chiqarishdagi tarkibiga ko‘ra.

Mavjud vaziyatni nazorat ostida saqlash, tizimni boshqarish va institutional qarorlar qabul qilish uchun mazkur sohalardagi aniq ma’lumotlar juda muhim.

Qattiq maishiy chiqindilar kelib chiqish manbasiga ko‘ra, quyidagicha tasniflash mumkin:

– industrial
– qurilish va buzish
– kommunal xizmatlar

Hozirgi kunga kelib ekologik muammolar inson salomatligiga jiddiy tahdid tug‘dirayotir. Global gumanitar forum ma’lumotiga ko‘ra, sayyoramizda ro‘y berayotgan iqlim o‘zgarishi yiliga uch yuz ming insonning umriga zomin bo‘lmoqda. Uch yuz million aholi uning salbiy ta’siri ostida hayot kechirmoqda. Bundan iqtisodiyotga ham jiddiy zarar yetayotir. Bunday global muammolar Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotiga ham o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazmoqda. Orol bo‘yidagi noxush ekologik vaziyat, buning ta’sirida kelib chiqayotgan tabiiy tangliklar, cho‘llanish muammosi bunga misoldir. Bundan tashqari yer yuzini ifloslanishning eng mudhish omillaridan biri bu nurlanishdir. Uni na ko‘rib, na eshtib bo‘ladi, na ta’mi, na hidi bor. Biroq uning ta’sirida inson organizimdagi sistermalarning o‘zaro bog‘liqligi buzilib, tanani aql va idrok bilan boshqaruvchi generator-miya esa so‘z bilan tushuntirib bo‘lmaydigan o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Natijada, bu kichik miqdordagi nurlanishdan aholining ma’lum guruhlari va ayniqsa homilador ayollar homilasiga, o‘sish va rivojlanish jarayoni kechayotgan bolalar, immunizim susaygan qariyalar va sog‘lig‘i zaif insonlar aziyat chekmoqda. Nurlanish bizning organizmimizga qon va suyaklarga turli yo‘llar (ovqat, suv va havo) bilan kirib butun inson organizmini shikaslantirib, uni bevaqt o‘limiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda sanitariya-epidemiologiya muhitini barqarorlashtirish, tabiatga salbiy ta'sirlarni kamaytirish, ekologiya va gigiyena tadbirlarini uzviy ravishdatashkil etish tizimi shakllangani inson salomatligini asrash va yuqumli kasalliklar bo‘yicha barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.Yangi ekologik sharoitlarning mavjudligi inson organizmida millonlab moslanish jaroyonlarni keltirib chiqarmoqda, demak inson organizmi har qanday tabiiy sharoitda o‘zini tiklash sog'aytirishi va moslashish qobilyatiga ega. Bizning vazifamiz esa o‘zini o‘zi sozlovchi va tiklovchi biosistemaga turli kasalliklardan o‘zini himoya qilish uchun shar-sharoit yaratib berishdir. Aholi salomatligini mustahkamlash va kasalliklarning oldini olishda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, ba'zi ekologik vaziyat o‘ta tang ahvolda bo‘lgan hududlarda tabbiy nazoratni yanada kuchaytirishimiz zarur.

Atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy yana bir omillardan biri qurilishdir chunki atmosferaga, gidrosfera va litosferaga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.Hech bir qurilish maydonchasi turli xil asbob-uskunalar, mashinalar va mexanizmlardan foydalanmasdan ishlay olmaydi, lekin ularning ishlashi tufayli zaharli chiqindi gazlar chiqariladi, bu esa havo

havzasining holatini sezilarli darajada yomonlashtiradi. Atmosferaga bunday halokatli ta’sir, albatta, qurilish maydonchasida sodir bo‘ladigan boshqa jarayonlar, masalan, bo‘sh ifloslantiruvchi moddalar, tsement, ohak va boshqalarni purkash, har xil chiqindilar va qurilish materiallari qoldiqlarini yoqish, poldan chiqindilarni to‘kish orqali ham amalga oshiriladi, yopiq tovoqlar va boshqa haydovchilardan foydalanmasdan, turli xil izolyatsiya materiallarini tayyorlash va hokazo. Bundan tashqari, havo ifloslanishining juda faol manbai asfalt-betonni tayyorlash jarayonidir. Uni ishlab chiqarish jarayonida atmosferaga nafaqat chang, balki kuyik, qatronli moddalar, uglerod oksidlari, oltingugurt, shuningdek, radionuklidlarva og‘ir metallar ham tarqalib, atrof-muhitga eng salbiy ta’sir qiladi.

Yaqin vaqtgacha insonning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida jiddiy buzilishlarga yo‘l qo‘yishi shubhasiz deb hisoblangan. Ishlab chiqarish faoliyati ishlab chiqarish korxonalari quvurlari havoni, sanoat oqava suvlari - daryolar va qirg‘oq dengiz suvlarini ifloslantiruvchi asosiy manba edi. Hozirgi kunda transport va nosanoat faoliyati ifloslantiruvchi moddalar bo‘yicha sanoat o‘rnini bosganida, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi atrof-muhitning buzilishining asosiy manbalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Atrof-muhit ifloslanishining asosiy manbalarini batafsil ko‘rib chiqamiz.Umuman qurilish ishlab chiqarish tabiiy komplekslarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Qurilish zonalarida, ayniqsa sanoat obyektlarida havo, suv va tuproqning ifloslanish darajasi yuqori. Bu qurilishning barcha bosqichlarida sodir bo‘ladi: loyiha-qidiruv ishlarida, yo‘llar va karerlarni qurishda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurilish maydonchasida ish paytida.Yovvoyi tabiatli hududlarda olib boriladigan qurilish ishlab chiqarish hayvonot dunyosiga zararli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina turlarning yashash joylari buzilmoqda, bu ularning sonining qisqarishiga olib keladi. Hayvonlar odatiy yashash joylarini tark etishga, boshqa hududlarga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lishadi, ko‘pincha yashash uchun kamroq qulaydir.

Hozirgi kunda yurtimizda sanitariya-epidemiologiya muhitini barqarorlashtirish, tabiatga salbiy ta’sirlarni kamaytirish, ekologiya va gigiyena tadbirlarini uzviy ravishdatashkil etish tizimi shakllangani inson salomatligini asrash va yuqumli kasalliklar bo‘yicha barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Yangi ekologik sharoitlarning mavjudligi inson organizmida millonlab moslanish jaroyonlarni keltirib chiqarmoqda, demak inson organizmi har qanday tabiiy sharoitda o‘zini tiklash sog‘aytirishi va moslashish qobiliyatiga ega. Bizning vazifamiz esa o‘zini o‘zi sozlovchi va tiklovchi biosistemaga turli kasalliklardan o‘zini himoya qilish uchun shar-sharoit yaratib berishdir. Aholi salomatligini mustahkamlash va kasalliklarning oldini olishda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, ba’zi ekologik vaziyat o‘ta tang ahvolda bo‘lgan hududlarda tabiiy nazoratni yanada kuchaytirishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov A. (2021). Challenges to Uzbekistan's secure and stable political development in the context of globalization. Journal on International Social Science, 1(1), 26-31.

2. Sattarov Z.M., Xolmirzayev S.T. Sanoat chiqindilaridan foydalangan holda qurilish materiallari ishlab chiqarish – T.: TASI, 2014 y.

3. Qurilish obyektlarida chiqindilarni yo‘q qilish. “Arxitektura – Qurilish fani va XXIII Davr”.

4. Husanov Y. Y., Abdullayev S. M., Sattorov A. M. Mexatronika va robototexnikada virtual labaratoriyalardan foydalanish //Scientific progress. – 2021.

Дилдора ЮСУПОВА,
Самаркандский государственный медицинский университет,
преподователь кафедры ‘‘Физиология’’

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ

Annotatsiya

Maqolada tibbiyot universitetlarida tashkil etilgan ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari davomida talabalar o‘rtasida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish usullari va ahamiyati to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Talaba, tibbiy ta’lim, ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, amaliy ko‘nikmalar, kasbiy malakalar.

В статье представлена информация о путях и значении формирования практических навыков у студентов в ходе лекционных, практических и лабораторных занятий, организуемых в медицинских вузах.

Ключевые слова. Студент, медицинское образование, лекция, практические и лабораторные занятия, практические навыки, профессиональные компетенции.

The article presents information about the ways and importance of the formation of practical skills among students during lectures, practical and laboratory classes organized in medical universities.

Key words. Student, medical education, lecture, practical and laboratory classes, practical skills, professional competencies.

Под термином ‘‘практическое занятие’’ в широком смысле принято понимать аудиторную форму организации учебного процесса, при которой студенты под руководством преподавателя в процессе выполнения учебных заданий осваивают теоретические основы научной дисциплины, умение применить свои знания в практической сфере.

К основным видам практических занятий относятся семинар, лабораторное занятие, практикум, научно-исследовательская работа студентов и учебная экскурсия.

Семинар – коллективное обсуждение студентами наиболее сложных теоретических вопросов темы, модуля под руководством преподавателя .

Лабораторное занятие – выполнение экспериментов в ходе практической самостоятельной работы.

Практикум – практическая самостоятельная работа студентов в конкретной области .

Тренинг – отработка практических навыков, занимающая свыше 70 % времени практического занятия.

Экскурсия учебная – целенаправленный показ объектов по определенной тематике и рассказ о них в сочетании с изучением, исследованием объектов студентами.

Для развития клинического мышления будущих врачей необходимо

усовершенствовать навыки аналитического, понятийного, интегрального и дифференцированного мировоззрения, необходимые для усвоения знаний и применения их в будущей профессиональной деятельности. При этом важно применять в работе преподавателя дидактические принципы обучения: наглядность, научность, систематичность, доступность, активность, прочность знаний, единство теории и практики, индивидуальный подход и др. Важным условием такого обучения является совпадение целей преподавателя и обучающихся.

Цель исследования:

1. Анализ выбора метода и методики преподавания клинических дисциплин в медицинском вузе.

2. Определение роли преподавателя в развитии клинического мышления студентов.

3. Необходимость каждого студента в течении занятия усвоить все навыки входящие в состав учебного плана.

Материал и методы исследования: В отделениибыл проведен практикум с целью научного исследования, со студентами медицинских вузов в доклинических учебных комнатах и тренинг залах.

Процесс исследования проводилось в кафедре гинекологии во время изучения методов осмотра гинекологических пациентов. При этом группа была разделена на несколько подгруппы (развитие навыков работы с малыми группами), каждая из которых выполняет определенную процедуру. К примеру:

1-группа – основные методы исследования гинекологических больных.

2-группа – дополнительные методы исследования гинекологических больных.

3-группа – лабораторные методы исследования гинекологических больных.

После разъяснения выполненной процедуры группы меняются между собой местами. В итоге каждая группа выполняет все процедуры входящие в состав учебного плана.

Результаты исследования и их обсуждение. При проведении лекции и практического занятия обязательно должен присутствовать организационный момент. Если это лекция, то студентам следует сказать, какая это лекция, указать форму лекции (вводная, консультационная, пресс-конференция, слайд-лекция и т.д.), какие вопросы она включает по плану; если лекция проблемная, то указать, какую проблему она решает: диагностику, дифференциальную диагностику, лечение и иное. Все зависит от характера лекции и ее функции (информационная, методологическая, воспитательная, развивающая, ориентирующая и т.д.). В настоящее время необходимо не просто подготовить лекцию, но и визуализировать ее, что повышает интерес, восприятие и запоминание учащегося. Такая подача учебного материала связана со сформированным у современных студентов мышлением.

Внеаудиторное обучение составляет самостоятельная работа студента медвуза, которая также имеет цель – научить его работать самостоятельно с медицинской научно-теоретической, научно-периодической и другой литературой, правильно излагать полученную информацию.

Для облегчения изучения дисциплины внедряется система дистанционного образования, позволяющая студентам изучать лекционный материал и проверять свои знания с помощью тестов, задавать вопросы преподавателю и общаться с однокурсниками в режиме форума.

В контексте высшего образования немало важную роль играет профессиональная мотивация педагогов, которая, стимулируя профессиональную деятельность преподавателя, способна обеспечить учебно-профессиональную мотивацию, учебную активность и успеваемость студентов. Д. Карнеги утверждает, что на свете есть только один способ побудить людей что-то сделать; и он заключается в том, чтобы заставить человека захотеть это сделать. Более половины успеха в работе врача зависит от эффективности самоподготовки.

При освоении умения важное значение имеют следующие условия: интерес к деятельности; знание о выполняемом действии и его цели; знание результата и анализ ошибок; выполнение действия по принципу ‘‘от простого к сложному’’; медленный темп выполнения действий на начальном этапе; более частое повторение действий в начале обучения.

Для лучшего усвоения практического материала студентами медицинских вузов преподаватель должен соблюдать несколько правил:

• расположить обучающихся таким образом, чтобы видеть каждого из них;

• при работе с манекенами, их головы располагать таким образом, чтобы они были обращены в одном направлении, а ученики находились с одной стороны по отношению к манекенам;

• располагать пары учеников отрабатывающих определенное действие так, чтобы учитель мог следить за техникой и обеспечивать безопасность каждой из них;

• прочитать обучаемым вслух последовательно шаг за шагом описание изучаемого приема, после чего приступить к выполнению практических действий. В этом случае обучаемые последовательно должны выполнить все действия.

В ходе исследований было выяснено что усвоение знаний студентами медицинских вузов может производиться на различных уровнях, которые характеризуются разными показателями. Одним из уровней усвоения знаний является способность учащихся излагать материал ‘‘своими словами’’, формировать определения правил, явлений, законов и закономерностей, объяснять их, приводить примеры для конкретизации соответствующих теоретических положений.

Использованная литература:

1. Артюхина А.И., Чумаков В.И. Интерактивные методы обучения в медицинском вузе: учебное пособие. – Волгоград: ВГМУ, 2011. – С.32.

2. Косолапова М.А., Ефанов В.И., Кормилин В.А., Боков Л.А. Положение о методах интерактивного обучения студентов по ФГОС в техническом университете: для преподавателей ТУСУР - Томск: ТУСУР, 2012. – С.87

3. Марымова Е.Б, Македонова Ю.А., Фирсова И.В. Ролевая игра как интерактивный метод обучения в медицинском вузе // Наука и образование в XXI веке, М. – 2014. – Часть VII. – С.18-20.

4. Реутова Е.А. Применение активных и интерактивных методов обучения вобразовательном процессе вуза. – Новосибирск: Изд-во НГАУ, 2012.– С.58.

Наргиза ХАЙРУЛЛАЕВА,
Университет мировой экономики и дипломатии, Центр обучения языкам,
старший преподаватель кафедры ‘‘Романо-германских’’ языков

АНАЛИЗ ОШИБОК В ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Annotatsiya

Ushbu maqolada chet tillarini o‘rganishda talabalarning nutq va yozma xatolari, xatolar tasnifi, umumiy kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari ko‘rib chiqilgan. Muallif tomonidan og‘zaki muloqot, nutqiy monolog, dialogik nutq, umumevropa kompetensiyalari, o‘z-o‘zini tuzatish tushunchalari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada yozma va nutqiy faoliyatidagi xatolar guruhlari, turlari aniqlangan, o‘qituvchilarga nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish takliflari berilgan.

Kalit so‘zlar. Xato, xatolar tasnifi, komponentlar, kommunikativ kompetensiya, og‘zaki muloqot, nutqiy kompetensiya, nutqiy monolog, dialogik nutq, umumevropa kompetensiyalari, o‘z-o‘zini tuzatish, guruhlar, xatolar turlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

В данной статье рассматриваются вопросы речевых и письменных ошибок обучаемых при изучении иностранных языков, классификации ошибок, компоненты общей коммуникативной компетенции. Раскрываются понятия устная коммуникация, монологическая речь, диалогическая речь, общеевропейские компетенции, самокоррекция. Также, в статье определены группы, типы ошибок в письме и в речевой деятельности, представлены предложения преподавателям для внедрения современных образовательных технологий формирования речевые компетенции, совершенствованию учебно-познавательной и компенсаторной компетенций обучаемых.

Ключевые слова. Ошибка, классификация ошибок, компоненты, коммуникативная компетенция, устная коммуникация, речевая компетенция, монологическая речь, диалогическая речь, общеевропейские компетенции, самокоррекция, группы, типы ошибок, современные образовательные технологии.

This article discusses the issues of speech and written errors of students in the study of foreign languages, classification of errors, components of general communicative competence. The concepts of oral communication, monologue speech, dialogical speech, pan-European competencies, self-correction are revealed. Also, the article defines groups, types of errors in writing and in speech activity, presents proposals to teachers for the introduction of modern educational technologies for the formation of speech competencies, the improvement of educational, cognitive and compensatory competencies of students.

Key words. Error, classification of errors, components, communicative competence, oral communication, speech competence, monologue speech, dialogic speech, pan-European competencies, self-correction, groups, types of errors, modern educational technologies.

Изучение языка является длительным процессом, во время которого обучаемые неизбежно делает множество ошибок. Не секрет, что даже носители языка допускают ошибки в речи, а изучающие иностранный язык независимо от своего желания ошибаются как в устной, так и в письменной речи. С точки зрения методики преподавания иностранного языка, ошибки

бывают разные, и исправлять их также необходимо поразному. Но ведь если обучаемые ошибаются, это совсем не значит, что он не готов к занятиям, или неспособен к изучению языков. Относиться к ошибке стоит в первую очередь как к возможности научиться чему-то новому, ведь все ошибаются, когда учатся говорить на иностранном языке. Лучше говорить на иностранном языке с ошибками, чем вообще не говорить. Одной из основных целей обучения иностранному языку является умение обучаемых свободно и правильно выражать свои мысли средствами иностранного языка.

При этом преподаватели сталкиваются с проблемой речевых ошибок. Становится очевидным, что их необходимо не просто исправить, но и предотвратить их последующее появление, т.к. наличие ошибок в процессе коммуникации затрудняет, а в некоторых случаях делает невозможным понимание, что приводит к коммуникативным неудачам. Ошибка является неотъемлемой частью процесса обучения и может быть воспринята как обучаемым, так и преподавателем как естественное явление. С одной стороны, она помогает обратить внимание на пробелы в знаниях и навыках. С другой стороны, она задает направление процесса обучения, акцентирует внимание преподавателя на речи обучаемых, и в то же время побуждает обучаемых внимательнее следить за своей речью.

Устная коммуникация может протекать в форме монологической и диалогической речи. Монологическая речь зависит от интенции говорящего, который строит развернутое высказывание в зависимости от выбранной стратегии. Диалогическая речь характеризуется взаимодействием двух или более партнеров, где реализуются речевые интенции и стратегии всех его участников. Диалогическая речь на иностранном языке сложнее, чем монологическая, поскольку в ней должны быть задействованы умения не только говорения, но и аудирования. Собеседники не могут предугадать реплики друг друга, а потому тренируют концентрацию и быструю реакцию. В реальной жизни мы гораздо чаще вступаем в диалоги, чем читаем монологи. В связи с этим при обучении иностранному языку все большее внимание уделяется формированию умений диалогической речи.

В педагогической науке накоплен объёмный материал относительно существенных и неотъемлемых характеристик ошибки, созданы многочисленные классификации ошибок, раскрывающие различные аспекты этого явления, разработаны теории о природе и механизмах порождения ошибки в речи, а также богатый арсенал способов предупреждения ошибки в письменной речи на орфографическом, грамматическом и лексическом уровнях языковой системы.

Для обучения иностранным языкам, которая с некоторых пор прочно вошла в теорию педагогики и методики активно внедряется в учебный процесс, заставила исследователей и преподавателей по-новому взглянуть на такие явления, как ошибка в иноязычной речи и грамотная письменная речь.

В настоящее время общеевропейские компетенции владения иностранным языком подразумевают, что обучаемый не просто способен писать без орфографических, лексических и грамматических ошибок, но и умеет “писать сложные тексты, чёткие и естественные, в соответствующем ситуации хорошем стиле, с логичной структурой, помогающей читателю уловить важные положения”. Другими словами, ориентация на дискурсивный подход к преподаванию иностранных языков означает открытие нового, дискурсивного пласта правильности речи в дополнение к уже имеющимся орфографическому, лексическому, грамматическому уровням оценки.

Недостаточная сформированность какого-либо компонента общей коммуникативной компетенции ведёт к соответствующим нарушениям в речи, поэтому существует несколько классификаций ошибок. По типу интерференции ошибки делятся на две большие группы: интерлингвальные, или межъязыковые, ошибки - зависящие от взаимного влияния языков. Причиной их возникновения служит межъязыковая интерференция. Думается, что перечисленные выше ошибки имеют исключительно языковой характер и вызваны недостаточным знанием иностранного языка. Предупредить и устранить их можно путём совершенствования языковой компетенции студентов. Однако студенты часто совершают ошибки не столько вследствие незнания правил, сколько вследствие недостаточного владения видами речевой деятельности, поэтому необходимо выделить речевые ошибки в аудировании, чтении, говорении, письме. Ошибки, связанные с трудностями аудирования иноязычной речи, могут состоять в следующем: неуспех в понимании содержания и коммуникативного намерения речи говорящего; неумение выделить основную мысль высказывания; неумение догадываться по контексту о значении незнакомых слов; неумение различать на слух близкие по звучанию слова.

Ошибки, обусловленные несформированностью навыков и умений говорения, возникают в монологической и диалогической речи. Ошибки в диалоге могут возникнуть при нарушении основных умений, требуемых для его успешного протекания: неумение адекватно ситуации реагировать на реплику собеседника; неумение четко определить свою речевую задачу; отсутствие механизмов прогнозирования, неумение планировать ход общения; неумение перестраивать свою речевую программу по ходу общения; неумение удерживать инициативу общения до достижения цели коммуникации; неумение предоставить партнеру возможность реализовать свою речевую задачу; неумение использовать формы этикета; неумение заполнять возникшие паузы в диалоге. Ошибки в письме как виде речевой деятельности можно разделить на 3 группы: орфографические, пунктуационные, а также речевые ошибки, обусловленные несформированностью умений письменной речи. К орфографическим ошибкам можно отнести в первую очередь фонетизмы, являющиеся результатом написания слова на основе его слухового восприятия, без учета правил звуко-буквенных соответствий языка. К пунктуационным ошибкам ведёт незнание правил пунктуации иностранного языка, расстановка пунктуационных знаков по правилам родного языка, неправильное членение текста. Речевые ошибки, обусловленные несформированностью умений письменной речи, во многом сходны с ошибками в монологической устной речи. Сюда относятся логические ошибки, отсутствие смысловой законченности, неадекватность теме; неумение создавать тексты разных жанров; неумение использовать приемы описания, повествования, рассуждения, аргументации; отсутствие или неверное использование средств организации текста. Необходимо также мотивировать студентов к тренировке всех видов речевой деятельности во время самостоятельной внеаудиторной работы предоставлением большого объёма коммуникативных речевых домашних заданий, выполнение которых обязательно должно проверяться с помощью коммуникативных видов контроля.

Современные образовательные технологии (проектные, групповые, игровые и др. технологии, ИКТ позволяют рационально использовать аудиторное и внеаудиторное время и формировать речевые компетенции во всех видах речевой деятельности, а также совершенствовать учебно-познавательную и

компенсаторную компетенции студентов. Представленные выше языковые и речевые ошибки отражают лишь языковой характер этого феномена.

При выборе стратегии коррекции преподавателю в первую очередь нужно определить, все ли ошибки одинаково важны и подлежат исправлению в данном виде работы. Коррекция во многом зависит от метода обучения и выбранной образовательной технологии. Так, методы, направленные на преимущественное изучение структуры языка (грамматико-переводной и др.), предопределяют необходимость исправлять все без исключения ошибки. Напротив, при коммуникативном методе обучения вмешательство преподавателя в речь учащихся происходит лишь в исключительных случаях, поскольку целью обучения здесь признаётся способность и готовность участвовать в коммуникации, а языковой правильности отводится подчинённая роль. Исправления допускаются, но они не должны препятствовать свободному общению. При коммуникативно-направленном обучении речевые ошибки оцениваются дифференцированно в зависимости от влияния на понимание речи как коммуникативно значимые. Коммуникативно значимые ошибки препятствуют пониманию смысла высказывания, то есть делают затруднительным или невозможным продолжение коммуникации по ряду причин, в число которых входят нарушения координации и согласования, нарушение в управлении формой слова, нарушение в порядке расположения частей предложения, употребление слова без учета его семантики, искажение ритмико-интонационной структуры высказывания и т. д.

Следующим важным вопросом, который необходимо решить преподавателю при определении общей линии исправления ошибок, является выбор “исправляющего”. Как известно, в современной парадигме образования обучаемый является не объектом, а субъектом, то есть полноправным участником всех этапов образовательного процесса, в том числе и этапа исправления ошибок. Следовательно, можно “разделить” эту не самую приятную часть процесса обучения между его участниками, признав активную позицию студента и отведя значительную роль самокоррекции и коррекции со стороны других обучаемых (взаимокоррекции). В пользу самокоррекции говорит и тот факт, что ошибочные речевые действия различаются по своему происхождению. Итак, исправление ошибок можно отчасти предоставить самому студенту и тем самым, с одной стороны, сделать коррекцию более результативной и, с другой стороны, снизить психологическое давление на обучаемого.

Существует множество приёмов исправления ошибок, которые можно объединить в шесть основных типов: 1. Явное (прямое) исправление, когда преподаватель непосредственно указывает на совершённую ошибку, объясняет, в чем она состоит, и дает верный вариант ответа. 2. Перифраз в исправленном виде, переработка — произнесение / написание неверного высказывания учащегося преподавателем уже без ошибки, но без каких-либо пояснений. 3. Просьба о пояснении, когда преподаватель показывает, что не понял высказывание учащегося. Так обычно выражается непонимание высказывания и в реальной коммуникации. 4. Использование терминологии, например, грамматической — время, артикль и т. д. Преподаватель называет грамматическую категорию, употреблённую ошибочно, но сам не предлагает правильной формы. 5. Стимулирование речемыслительной деятельности, побуждение к исправлению и последующее «извлечение» правильной. Этим способом можно наглядно отметить ошибку в порядке слов, показав

место каждого слова “на пальцах”. 6. Повторение неправильного высказывания обучаемого преподавателем с обязательным вербальным акцентом в той части, где сделана ошибка.

Пути с третьего по шестой можно считать наиболее эффективными, поскольку, когда исправление делается самим обучаемыми, он активизирует собственные ресурсы и тем самым закрепляет правильное употребление языкового явления. При коррекции ошибок в письменной речи можно после первого прочтения работы дать учащемуся возможность самопроверки. Для этого преподаватель лишь помечает ошибку, поясняя на полях её характер. После второй проверки преподаватель сам исправляет ошибки. При коррекции письменных работ большое значение имеет вид проверяемой работы: в тестах, контрольных, срезовых работах обычно учитываются все без исключения ошибки и недочёты, тогда как творческое письмо предполагает большую свободу в выборе формы выражения мысли, что, как правило, ведёт к возникновению ошибок-«попыток», исправление которых не должно вести к снижению оценки. В противном случае студенты не будут стремиться к использованию в своих творческих работах разнообразных грамматических структур.

Существует множество путей коррекции ошибок. Их выбор зависит от природы ошибки, вида работы, в которой она возникла, а также от избранного преподавателем метода обучения.

В заключение представляется нужным подчеркнуть положительный аспект столь, казалось бы, негативного явления, как студенческие ошибки. Ошибки - показатель не только пробелов в знаниях студентов, но и их реального прогресса в изучении языка, в движении от простых моделей к более сложным. При правильной организации коррекция ошибок может внести существенный вклад в оптимизацию языкового образования, развить у обучаемых бережное отношение к языку, стимулируя их к самостоятельному выявлению и исправлению допущенных ошибок, а также к предотвращению возможных недочетов.

Использованная литература:

1. Азимов Э. Г. Словарь методических терминов (теория и практика преподавания языков) / Э. Г. Азимов, А. Н. Щукин. – Санкт-Петербург: Златоуст, 1999. – С. 472.

2. Архарова М. Исправление ошибок в процессе преподавания иностранного языка: теория и практика [Электронный ресурс] / М. Архарова // Просвещение. Иностранные языки: Интернет-издание для учителя. – 2014. – № 1. – Режим доступа: http://iyazyki.ru/2014/01/correctionmistakes/.

3. Климович Н. И. Ошибка как инструмент измерения речевой компетенции / Н. И. Климович // Лингвострановедение: методы анализа, технология обучения: 7 межвузовский семинар по лингвострановедению: сборник статей : в 2 ч. Ч. 1: Языки в аспекте лингвострановедения – Москва : МГИМО-Университет, 2010. – С. 248-258.

4. Овчинникова Т. Е. Обучение иноязычной письменной речи студентов университета / Т. Е. Овчинникова // Вестник ОГУ. – 2002. – № 6. – С. 141-144. Шевнин А. Б. Эрратология и межъязыковая коммуникация / А. Б. Шевнин // Вестник ВГУ, Серия “Лингвистика и межкультурная коммуникация”. – 2004. – № 2. – С. 36-44.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Abduqodirova Shohida Akmalxo‘ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2023.